


SOBIR USMONOV

YURISTNING NUTQ MADANIYATI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI**

SOBIR USMONOV

YURISTNING NUTQ MADANIYATI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI TOMONIDAN YURIDIK
OLIV O'QUV YURTLARI UCHUN DARSLIK SIFATIDA
TAVSIYA ETILGAN**

**O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI
TOSHKENT**

2007

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist, yuridik fanlari doktori, professor M.H.Rustamboyevning umumiy tahriri ostida

Taqrizchilar:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
Qo'mitasining raisi, yuridik fanlari doktori, professor

A. X. Saidov;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining
deputati, filologiya fanlari doktori, professor

A. E. Mamatov;

filologiya fanlari doktori, professor

N. A. Jumaxo'ja.

Ushbu darslik «Yuristning nutq madaniyati» fani dasturiga muvofiq yozilgan bo'lib, uning maqsadi - bo'lg'usi yuristlarning ijtimoiy-huquqiy faoliyatda shaxslararo muloqot ko'nikmalarini, turli yuridik vaziyatlarda professional nutqdan foydalanish malakalarini shakllantirish hamda takomillashtirishdan iborat.

Mazkur darslik yuridik oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan huquqni muhofaza qilish organlari va davlat boshqaruvi xodimlari hamda kasb-hunar kollejlari talabalari, shu soha bilan qiziquvchi keng jamoatchilik ham foydalanishi mumkin.

ББК 81.2-5я73
67.7я73

N433-2007 A. Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi

ISBN 978-9943-319-19-6



KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri fan va ishlab chiqarishning barcha sohalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash hisoblanadi¹. Shu munosabat bilan 1997-yil qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» oliy ta'limni takomillashtirish, ta'lim tizimi mazmunini tubdan o'zgartirishni, kelajakda mutaxassislar, jumladan yuristlar tayyorlashning sifatini oshirishni ham nazarda tutadi². Bu bevosita zamonaviy darsliklar tayyorlash ehtiyojini keltirib chiqaradi. Bunday darsliklarni tayyorlamasdan yuqori malakali yuristlarni yetishtirish mumkin emas.

Mamlakatimizdagi yuridik oliy o'quv yurtlarining o'quv rejasiga «Yuristning nutq madaniyati» fanining kiritilishi zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash maqsadini ko'zlaydi.

Zamonaviy yuristlar so'zga chechan, badiiy didli, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda yuqori darajada ifodalay oladigan bo'lishi zarur. Bo'lg'usi yurist kadrlar asosan rasmiy doirada faoliyat ko'rsatadilar va davlat nomidan ish olib boradilar. Shu bois ularning kelgusi faoliyatini rasmiy hujjatlarsiz, muomala madaniyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, «Yuristning nutq madaniyati» darsligining yaratilishi maqsadga muvofiqdir. Vaholanki, o'z fikrini davlat tilida qog'ozga matn sifatida to'laqonli tushira olmaydigan yuristlarimiz hozir ham hayotda uchrab turishi sir emas.

Shu o'rinda Prezidentimiz I.A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida: "O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda

¹ Karimov I.A. Zamonaviy kadrlar - taraqqiyotimizning muhim omilidir. «Ma'rifat» gazetasi. 1997.

² O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni. T.: 1997.

ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin¹” degan fikrining nechog'liq hayotiy ekanligini eslash lozimdir.

Mazkur darslik bunday holatlarning oldini olish maqsadini ham ko'zlaydi.

Hozirgi kunga qadar nutq madaniyati fani bo'yicha yuridik oliy o'quv yurtlari uchun ba'zi o'quv qo'llanmalari va risolalar² yaratilgan bo'lsa-da, biroq bu borada darsliklar hali yetarli emas.

O'zbekistonda birinchi bo'lib taniqli huquqshunos olim professor A.X.Saidov yuridik til, huquqshunos nutqi, qonun tili muammolarini maxsus o'rganishni boshlab berdi va yuridik oliy o'quv yurtlarida “Yuristning nutq madaniyati”, “Yuridik terminologiya asoslari”, “Qonun tili”, “Qonunchilik texnikasi”ni fan sifatida o'qitilishini o'rta tashladi³.

Professor K.Nazarov, D.Usmonov, Q.Tohirov tomonidan tayyorlangan “Yuristning nutq madaniyati” darsligi (2003-yil) sinov tariqasidagi birinchi darslik bo'lganligi uchun ba'zi aniqlik kiritilishi lozim bo'lgan o'rinlar va kamchiliklardan xoli emas edi. Bu kitob yuzasidan ilmiy jamoatchilik fikrlari inobatga olingach, tajribalardan kelib chiqib, darslik Sobir Usmonov tomonidan qayta yozildi. Birinchi darslikdagi K.Nazarov tomonidan yozilgan “Kirish”, “Fonetik me'yorlar” bo'limlari, Q.Tohirov tomonidan tayyorlangan “Ilovalar” yangi nashr etilayotgan “Yuristning nutq

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. / Barkamol avlod orzusi. T.: Sharq, 1999, 15-bet

² Saidov A., Sarkisyans G. Yuridik til va huquqshunos nutqi. T.: Adolat, 1994; Ko'chimov SH.N. O'zbekiston Respublikasida qonunchilik texnikasi. T.: 1996; Saidov A.X., Ko'chimov SH.N. Qonunchilik mtexnikasi asoslari. T.: Adolat, 2001; Mualliflar jamoasi. Qonun va til. T.: 1997.

³ Saidov A., Sarkisyans G. Yuridik til va huquqshunos nutqi. T.: Adolat, 1994, 8-bet.

madaniyati” kitobiga kiritilmadi. D.Usmonov tomonidan yozilgan asosiy qism qayta ishlandi, to’ldirildi. Jumladan, “Kirish” qisqa va lo’nda tarzda yozildi. “Yuridik til va uning o’ziga xos xususiyatlari”, “Og’zaki va yozma yuridik nutq”, “Yuridik terminlar tizimining o’ziga xos xususiyatlari” masalalari alohida bob sifatida darslikka kiritildi. “Prokuorning ayblov nutqi”, “Advokatning himoya nutqi” bo’limlari bilan boyitildi.

Talabalar hukmiga havola etilayotgan bu darslik muallifning ko’p yillik pedagogik tajribasining mahsuli sifatida dunyo yuzini ko’rmoqda. Shuning uchun mazkur darslikning yaratilishi nutq madaniyati tushunchasi turli qirralarini tizimga solish va yuristlarning kelgusidagi faoliyati bilan bog’lash sari qilingan dastlabki va birinchi harakat sifatida baholanishi lozim. Zero, yuristning faoliyat ko’lami keng, shuning uchun darslikda huquq va til, til va nutq, nutq madaniyati, nutq madaniyati va adabiy til me’yorlari, yuridik terminlar tizimi, notiqlik san’ati kabi hodisalar bevosita yurist faoliyati bilan bog’langan holda yoritildi.

Darslikning maqsadi bo’lajak yuristlarning ma’muriy-huquqiy sohada kasbiy va shaxslararo muomala madaniyati ko’nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ma’lum huquqiy vaziyatlarga muvofiq kasb nutqidan ongli foydalanish malakalarini takomillashtirishdan iborat. Bundan tashqari, bu darslik yuristlar faoliyati bilan bog’liq, rasmiy hujjatlar (so’roq qilish, sud jarayoni bilan bog’liq hujjatlar, shuningdek, tergov jarayoni bilan bog’liq protsessual hujjatlar) tuzish malakasini shakllantirishga ham yordam beradi. Shu sababdan kitobga protsessual hujjatlar namunalari, yuridik til hamda yuridik terminologiya bilan bog’liq testlar ilova qilindi.

Mazkur darslikning dunyo yuzini ko’rishida xolisona yordam berganliklari, ishning qo’lyozmasini o’qib, o’zlarining fikr-mulohazalarini bildirganliklari uchun yuridik fanlari doktori, professor A.X.Saidovga, filologiya fanlari doktorlari,

professorlar N.A. Jumaxo'ja va A.E. Mamatovga muallif o'zining samimiy minnatdorchiligini bildiradi.

«Yuristning nutq madaniyati» darsligi o'zbek tilida bu boradagi dastlabki kitob bo'lganligi tufayli unda muallif diqqatidan chetda qolgan o'rinlar bo'lishi mumkin. Kitob yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar, taklif va istaklar muallif tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilinadi va ishning kelgusi nashrlarini yanada takomillashtirishda inobatga olinadi.

1-BOB NUTQ MADANIYATI VA HUQUQ

1-§. «Yuristning nutq madaniyati» fanining maqsad va vazifalari

Xalqimiz farovonligi maqsadida davlatchilik va qonunchilik yanada rivojlanib borayotgan bir paytda «Yuristning nutq madaniyati» fanining o'qitilishi zarurligini isbotlab o'tirishning o'zi ortiqchadir. Ya'ni nutq madaniyatini egallash, madaniy gapirishga intilish, fikr mahsulini matnga to'laqonli tushira olish mahorati barcha kasb egalarining, shuningdek, bo'lajak yuristlarning ham ishi va orzusi bo'lmog'i lozim. Bu shubhasiz, bundan tashqari, hozirgi kunda nutq madaniyati muammosini kun tartibiga hayotning o'zi qo'yimoqdaki, kishilik jamiyatining madaniy-ma'rifiyligini busiz tasavvur qilish qiyin. Shu sababli nutq madaniyati, qonuniy «nutq ehtiyoji» hayotiy talabga aylanishi aniq.

Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, nutq madaniyati mustaqillik tufayli vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat, madaniy-ma'naviy turmush talab etayotgan hayotiy hodisa hamdir. Qolaversa, milliy huquqshunoslik maktabini yaratish, huquq madaniyatini targ'ib qilish va yoshlar ongiga singdirish, ularni milliy mafkura g'oyalari bilan qurollantirish, huquqiy demokratik jamiyat qurish bevosita bo'lg'usi yurist-kadrlarning savodxonligiga bog'liq bo'lishi tabiiydir. Shunday ekan, bo'lg'usi yuristlarning ixtisoslikka oid barcha fanlar qatorida «Yuristning nutq madaniyati» fanini ham zarur darajada o'rganishini taqozo etadi. Til yoxud nutq yuristning tafakkur yuritish, fikr bayon qilish qurolidir. Shuning uchun ham «Yuristning nutq madaniyati» fanini bo'lg'usi yuristlar chuqur va atroflicha o'rganishlari davr talabidir. «Yuristning nutq madaniyati» fani yuridik oliy o'quv yurtlarining o'quv rejasidan o'rin olgan bo'lib, bo'lajak yuristlarning muomala odobi, tilni his etish didini tarbiyalash kabi buyuk g'oyani o'z oldiga bosh maqsad qilib qo'yadi va quyidagi vazifalarni belgilaydi:

1. Talabalarni yuristning nutq madaniyati asosiy tushunchalari, maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish.

2. Professional yuridik nutqda til vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanishga o'rgatish.

3. Talabalarning yozma yuridik nutqlarini shakllantirish va takomillashtirish.

4. Talabalarning og'zaki yuridik nutqlarini takomillashtirish.

5. Yuridik terminlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish.

6. Yuridik terminlar oldiga qo'yilgan talab va mezonlar to'g'risida ko'nikmalar hosil qilish.

7. Yuridik til va adabiy til me'yorlari haqida ma'lumot berish hamda ko'nikmalar hosil qilish.

8. Yurisprudensiya tarmoqlariga oid hujjatlar tilini o'rganish va tahlil qilish asosida talabalarning yozma va og'zaki nutqlarini takomillashtirish.

9. Davlat tilining leksik-grammatik, imloviy hamda talaffuz omillaridan vaziyat va voqeyilik talabiga ko'ra mohirona foydalana olish qobiliyatlarini shakllantirish va o'stirish.

10. Matn tuzish tartib-qoidalarini bilish; kodekslar, qonunlar, farmonlar, qarorlar va ularning moddalari yuzasidan og'zaki fikr yuritish; yozma sharhlar, izohlar, mulohazalar yoza olish qobiliyatini shakllantirish.

11. Sud hukmi, turli tergov hujjatlari matnini tuzish asosida talabalarning fikrlash iqtidorini tarbiyalash va salohiyatini rivojlantirish.

12. Yuridik tilning qonuniyatlari, so'z boyligi va grammatik qurilishi, adabiy til me'yorlari va nutq uslublari haqida ma'lumot berish hamda bular to'g'risida tushunchalar hosil qilish.

13. Punktatsiya va intonatsiya, ularning yozma va og'zaki nutqni ifodalashdagi ahamiyati haqida, punktatsiyaning yozma nutq (matn grammatikasi) bilan, intonatsiyaning esa og'zaki nutq (matn ohangi) bilan aloqadorligi haqida ma'lumot berish: talabalarda imloviy va ishoraviy savodxonlik masalalari hamda ko'nikmalarini hosil qilish.

14. Matn, matn turlari, ularning tuzilishi (grammatikasi) va matn hosil qiluvchi vositalar va omillar haqida tushuncha berish.

15. Nutq madaniyatining lingvistik va ekstralingvistik omillari haqida tushuncha, malaka va ko'nikma hosil qilish.

2-§. Nutq madaniyati tushunchasi

Nutq madaniyati inson umummadaniyatining bir qismi bo'lib, fikrni adabiy til me'yorlariga muvofiq to'g'ri, erkin, aniq, mantiqan izchil, yoqimli va ta'sirli bayon qilishdir. Nutq madaniyati deyilganda til birliklaridan, jumladan, lug'aviy, grammatik va uslubiy vositalardan nutq jarayonida to'g'ri va o'rinli foydalanish nazarda tutiladi. Nutq madaniyati kishidan til boyligini – lug'aviy birliklar, grammatika, orfoepiya, orfografiya, nutq uslublari va ularning har biriga xos xususiyatlar hamda me'yorlarni yuqori darajada bilishni talab etadi. Bundan tashqari, nutq madaniyati kishining shaxsiy madaniy saviyasi bilan ham bog'liqdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, til mustaqilligisiz mustaqil davlatni tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu boisdan tilimiz jozibasi, tilimizning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, ahamiyati, nutq madaniyati, nutq nafosati to'g'risida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishning ahamiyati benihoya kattadir. Nutq madaniyatining yana bir jihati shuki, fikrni og'zaki yoki yozma shaklda ifodalashda, albatta, mantiqiy izchilikka rioya qilish muhimdir. Lug'aviy-grammatik, uslubiy me'yorlar adabiy tilning hamma ko'rinishlari uchun xos bo'lsa, imlo va tinish belgilariga oid me'yorlar adabiy tilning faqat yozma shakli uchun, to'g'ri talaffuz me'yorlari esa og'zaki shakli uchun xos bo'ladi.

To'g'ri, aniq, ifodali va yoqimli so'zlash uchun til boyluklaridan mazmunga mos so'zni tanlay olish qobiliyatini takomillashtirish zarur. Buning uchun so'zni o'rinsiz takrorlamaslik, so'z shaklini, gap turini to'g'ri qo'llash, har bir uslubning o'ziga xos belgi va mezonlarini ongli idrok qilish

maqsadga muvofiqdir. Nutq madaniyati soʻzlovchining shaxsiy madaniy saviyasi mezonni boʻlganligi uchun kishidan katta mehnat talab etiladi. Buning uchun nutqda xalq maqollaridan, iboralardan unumli va oʻrinli foydalana olish; hadis, hikmatli soʻzlardan nutq jarayonida iqtiboslar keltira olish va ularning mohiyatini tahlil qila olish mahoratini takomillashtirish lozim. Yuristlar esa yuqorida qayd etilgan koʻrsatmalarga toʻla amal qilishlari bilan birga yuridik tilning barcha meʼyorlari va mezonlarini zarur darajada oʻzlashtirishlari maqsadga muvofiqdir. Yuristlar qonunlar matnlaridagi yuridik terminlar mohiyatini toʻgʻri anglab yetishlari va ularni oʻz oʻrnida qoʻllashga rioya qilishlari zarur.

Yuristning nutq madaniyati tushunchasini yana quyidagicha izohlash oʻrinlidir:

1. Yuristning nutq madaniyati yuridik tilni, uning qonun-qoidalarini ongli idrok qilish asosida yurisprudensiya doirasida ifodali nutq tuza olish mahoratidir.

2. Yuristning nutq madaniyati faqat toʻgʻri nutq tuzish emas, balki uquvlilik hamda nutqiy chechanlikdir.

3. Yuristning nutq madaniyati til vositalaridan oʻrinli foydalangan holda huquq sohasida maqsadga muvofiq soʻzlash va yoza olish sanʼatidir.

4. Yuristning nutq madaniyati bu, avvalo, ravon va mazmunli, oddiy va tushunarli fikrlash madaniyatidir.

Boʻlajak yuristlarimiz nutq madaniyatining yuqorida eslab oʻtilgan talablariga har doim rioya qilishlari lozim. Zero, hozirgi zamon yuristlari nutqning maʼmuriy-buyruqbozlik usuli, djq-popisaga asoslangan "muomala madaniyati"dan emas, balki til madaniyatining milliy istiqlol gʻoyalari bilan yoʻgʻrilgan shakllaridan foydalanmoqlari zarur. Zoʻravonlikka asoslangan sobiq sovet tuzumida huquqni muhofaza qilish organlarida faoliyat koʻrsatgan aksariyat xodimlarning nutqida *qamataman*, *yoʻqotaman*, *urugʻ-aymogʻing bilan quritvoraman* kabi koʻplab qoʻpol soʻzlarning qoʻllanilishi huquqni muhofaza qilish organlarining faqat jazolovchi organ boʻlganligidan dalolat

beradi. Mustaqillik esa zamonaviy yuristlarning muomala madaniyati, nutq madaniyatiga ham alohida e'tibor berishni talab etmoqda. Lekin hozirgi kunda ham huquqni muhofaza qilish organlarida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning nutqida yuqoridagi kabi so'zlar uchrab turishini kuzatish mumkin. Buni oqlab bo'lmaydi, albatta. Chunki huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari davlatning ramzidir. Ularning muomala madaniyati yuqori darajada bo'lishi shart. Prezidentimiz tomonidan huquq madaniyatining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi huquq madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan nutq madaniyatiga bo'lgan ijobiy munosabatning ham yaqqol ko'rinishidir.

Odamiylikning muhim fazilatlaridan biri xushmuomalalik, muloyimlikdir. Bu fazilatlar bevosita tilga, so'zga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi. Zero, tilning ko'rki, aql-zakovatning ziynati so'zdir. So'z muqaddas, u faqat ezgullik, yaxshilik uchun xizmat qilishi lozim. Yunon faylasuflarining ta'kidlashlaricha, til har bir aql sohibi fazilati xazinasining kalitidir va har kishining bilimi, odobi uning so'zlaridan yaqqol bilinib turadi.

Ayniqsa, yuristlar ijtimoiy hayotda ko'pchilik bilan muloqotda bo'ladilar, har xil toifadagi kishilar (*guvohlar, jabrlanuvchilar, aybdorlar, jinoyatchilar* va b.) bilan ro'baro' keladilar. Tergov va sud jarayonida o'ta ehtiyotkorlik ularning tilga bo'lgan munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. Qolaversa, yuristlar faoliyatini rasmiy hujjatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tergov ishlari bilan bog'liq turli bayonnomalarni to'ldirish, sud hukmi, ayblovlarni tayyorlash va boshqa rasmiy hujjatlarni o'ta savodxonlik bilan yozish ham ularning til vositalaridan foydalana olish qobiliyatiga bog'liqdir. Demak, bo'lajak yuristning o'zi mohir notiq, nutqi esa mantiqli va ta'sirli bo'lmog'i davr talabi. Lekin hozirgi kunda yurisprudensiya tarmoqlariga oid rasmiy hujjatlarni davlat tili qonun-qoidalariga muvofiq, adabiy til me'yorlariga asoslangan holda tayyorlash talab darajasida deb bo'lmaydi. Notarius

tomonidan tuzilgan oddiygina «Hadya shartnomasi», «Oldi-sotdi shartnomasi» kabi rasmiy hujjatlarda, sud hukmi matnlarida ham imloviy va uslubiy xatolar uchraydiki, hozirgi sharoitda bunga befarq qarab bo'lmaydi.

Shu boisdan, bo'lajak yuristlarning nutq madaniyatini yuqori darajaga ko'tarish uchun turli mavzularda yozma ishlar, xususan, erkin mavzularda insholar yozdirish maqsadga muvofiqdir. Chunki insho inson tafakkurini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri. Insho faqat adabiy qahramonlarga beriladigan tavsif emas. Balki insho talabaning mustaqillik, ma'naviyat, milliy mafkura, milliy istiqlol g'oyasi to'g'risidagi dunyoqarashini ham shakllantiruvchi vositadir. Yozma nutq bilan shug'ullanmagan talabaning nutqi nochor, fikrlash qobiliyati past bo'ladi. Yozma ish jarayonida talaba falsafiy mushohada qilishga, fikrlashga majbur bo'ladi. Favqulodda noyob fikrlarni ijod qilishga harakat qiladi, tug'ilayotgan har bir fikr bilan so'zlar uyg'unlashuvini hosil qilishga imkoniyat qidiradi. Masalan, *oqlovchi* so'ziga nisbatan *advokat* terminini qo'llash adabiy me'yor ekanligini his etadi.

Bo'lg'usi yuristlarimizning nutq madaniyatini takomillashtirish uchun, avvalo, siyosiy mavzularda erkin insholar yozdirish (Masalan, «*Mustaqillik – huquq demakdir*», «*Xavfsizlikka tahdid nima?*», «*Terrorizm – ofat*», «*Inson huquqlari – oliy qadriyat*» va h.k.), kichik matnlar mazmunini kengaytirib yozish, matnni islohlash kabi mashqlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunday mashqlar birinchidan, talabaning fikrlash qobiliyatini o'stirishga yordam bersa, ikkinchidan, uning mantiqiy izchil jumlar, matnlar tuza olish mahoratini takomillashtiradi, so'z tanlash malakalarini rivojlantiradi.

Talabalikning dastlabki davrlarida aksariyat talabalarda mustaqil jumladan matn tuza olish, bir fikrni ikkinchi fikrga bog'lay olish malakalari sust bo'ladi. So'z boyligi nochor, so'z qo'llash qobiliyati rivoj topmagan, tuzayotgan jumalari g'aliz va noravon bo'ladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yozma ishlar mashqlari bu kamchiliklarni bartaraf etadi.

Bundan tashqari, Konstitutsiya, kodekslar, qonunlarning moddalari mazmunini kengaytirib yozish, har bir modda yuzasidan mulohazalar, izohlar, sharhlar tuzish mashqlari o'tkazish bo'lajak yuristlarning savodxon bo'lib yetishuviga yordam beradi.

3-§. Huquq va til

Har qanday ijtimoiy aloqa, fikrlashuv va muloqot, jumladan, barcha huquqiy munosabatlar ham til orqali namoyon bo'ladi. Tilsiz fikrni ifodalash mumkin bo'lmaganidek, til ham o'z ifodasini fikrsiz shakllantira olmaydi. Binobarin, huquq insonlarning asosiy ehtiyojlari va manfaatlarini ta'minlaydigan, kafolatlaydigan vosita bo'lsa, til ana shu huquqning voqe bo'lishida, reallashuvida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Huquqqa oid har qanday fikr, tushuncha, belgi, harakat-hodisa va munosabat so'zlarda o'z ifodasini topadi, ya'ni so'zlardan, iboralardan, atama va terminlardan tarkib topgan ifoda qolipiga, ifoda shakliga tushmaguncha munosabat, ijtimoiy aloqa, muomala (fikrlashuv) yuzaga chiqmaydi. Fikrning, xususan yuridik fikrning voqeligi ham, mavjudligi ham tilda namoyon bo'ladi. Tilsiz, so'zsiz hech qanday aniq va tayyor holdagi yuridik fikr bo'lmaydi. Yuridik tilda fikr so'zlar, terminlar va bular ishtirokida tuzilgan muayyan sintaktik qurilmalar — gap modellari orqaligina shakllanadi va nutqda o'z ifodasini topadi: til huquqning «yashash» shartidir. Shuning uchun ham til va huquq jamiyatga xizmat qiluvchi ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy va ruhiy hodisalar hisoblanadi, til huquqqa ruh baxsh etadi.

Darhaqiqat, til yuristning tafakkur yuritish quroli bo'libgina qolmasdan, balki huquqqa oid o'tmish bilimlarni hozirgi avlodga yetkazish, huquqiy me'yorlar bilan fuqarolarni tanishtirish quroli hamdir. Bugungi boy ma'naviy merosimiz bo'lgan huquqqa oid barcha bilim va ta'limotlarning mavjudligi va «tirikligi» ham til tufaylidir.

Demak, huquq tarmoqlariga oid kashfiyotlarning sifati, qonunlarning ustuvorligi bevosita bamisoli ummon bo'lgan til vositalaridan mohirona foydalanishga ham bog'liqdir. Huquqiy demokratik jamiyatni shakllantirish sari amaliy qadamlar qo'yilayotgan hozirgi jarayonda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, qonunlarning ustuvorligiga erishish, davlat boshqaruvining izchil va mukammal tizimini joriy etish bilan bog'liq islohotlar ketayotgan bir paytda qonunlar tili va uslubi, yuridik terminologiya, yurisprudensiya tarmoqlariga oid darslik va qo'llanmalarning «yangi avlodi»ni yaratish eng dolzarb masalalardan bo'lib turibdi.

Mustaqil davlatchiligimiz yanada takomillasha borayotganligi tufayli inson huquqlari bilan bog'liq xilma-xil qonunlarning qabul qilinishi, o'z navbatida, huquqqa oid minglab yangi terminlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'lmoqda, chunki ijtimoiy hayotda har qanday tushuncha yoki hodisaning tug'ilishi uning in'ikosi sifatida terminlarning boyishiga sabab bo'ladi. Biroq yuzaga kelayotgan huquqqa oid tushunchalar, tilda so'z yoki termin sifatida o'z in'ikosini topar ekan, ular milliy tilning o'z qonuniyatlari asosida ifodalanmog'i va shakllanmog'i shart. Aytaylik, tanlanayotgan va kundalik muloqotga kirib borayotgan yuridik terminlar voqea-hodisa va belgi-tushunchaning aniq nomini ifodalayaptimi, boshqa tillardan o'zlashayotgan terminlarning o'zbek tilidagi muqobili adabiy til me'yorlariga muvofiq kelayaptimi yoki yo'qmi? Bu masalalar yuristlar bilan filologlar hamkorligida o'zining aniq yechimini topsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'lajak yuristlarimizning davlatchilik, qonunchilik hamda yurisprudensiya tarmoqlariga oid bilimlarni davlat tili zaminida, shu tilning o'ziga xos qonuniyatlari, uslubiyati va terminologiyasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganmoqlari hayot taqozosidir.

Davlatimizda huquqiy islohotlar o'tkazilayotgan hozirgi sharoitda qonunlar tili va uslubi, huquq terminologiyasi muammolari hamda zamonaviy yuristning nutq madaniyati

masalalari muhim ahamiyatga ega. Har qanday islohotlar qonunlarni o'zgartirmasdan amalga oshirilmaydi, bu esa o'z-o'zidan, yangi-yangi til birliklari (so'z va terminlarning) va shakllarning rivoj topishi uchun zamin hozirlaydi.

Qonun tilida noto'g'ri qo'llanilgan birgina tovush, qo'shimcha va so'z, hatto, birgina tinish belgisi qo'pol mazmuniy va uslubiy xatolarni, nuqsonlarni, g'alizliklarni keltirib chiqaradi.

Masalan, Bu voqealarning barchasi menga *yod*.

Bu voqealarning barchasi menga *yot*.

Misolda keltirilgan *yod* va *yot* so'zlari paronim, ya'ni talaffuzi va shakli bir-biriga yaqin so'zlar bo'lsa-da, ma'nolari har xildir. Ularning o'rnini almashtirib qo'llash gapning mazmunini tubdan o'zgartirib yuboradi.

Yoki quyidagi misolga e'tiborni qarataylik:

1. O'lim yo'q, shafqat.

2. O'lim, yo'q shafqat.

Ko'rinib turibdiki birgina vergulning o'rnini almashtirish nafaqat uslubiy xato hisoblanadi, balki jinoyatni yuridik baholashda ham kechirib bo'lmaydigan xatolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham yuristlarimiz tergov hujjatlarini yozishda, qonun loyihalarini tayyorlashda, sud hukmi matnlarini tuzishda o'ta ziyrak va zukko, bilimdon va ehtiyotkor bo'lmoqlari lozim. Chunki tergov, sud jarayoni bilan bog'liq hujjatlar yoxud qonunlar moddalarining har birida inson taqdiri yotadi. Shunday qilib, huquq va til bir jarayonning ikki tomoni bo'lib, huquq mazmun bo'lsa, til o'sha mazmunning voqe bo'lishidagi vositadir. Mazmun bilan shaklning uyg'unlashuvi esa aql sohibining qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

4-§. Til va nutq

Yuridik til va yuridik nutq to'g'risida fikr yuritishdan oldin til va nutq hodisalarining o'ziga xos xususiyatlarini bilib olish o'rinli. Til va nutq bir-biridan farq qiladigan, lekin o'zaro

aloqador ikki ijtimoiy, ruhiy-ma'naviy hodisadir. Ya'ni til aloqa quroli, fikr bayon qilish vositasi bo'lsa, nutq so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan faoliyatdir. Bu ikki hodisani qiyoslaganda oradagi farqlar yanada oydinlashadi. Ya'ni, bir auditoriyada yetmish talaba o'tirgan bo'lsa, ularning gaplashadigan tillari bir bo'lsa-da, lekin nutqlari yetmish xil bo'lishi tabiiy. Birining nutqi salohiyatli bo'lsa, ikkinchisniki esa mutlaqo talab darajasida bo'lmasligi mumkin. Til faqatgina aloqa vositasi bo'lib qolmasdan, balki dunyoni ko'rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasi hamdir.

Bundan tashqari, tilning ruhiy va estetik hodisa ekanligini ham yoddan chiqarmasligimiz zarur. Til bamisoli — ummon. Unda barcha fikrlar uchun «libos» lar topiladi. Lekin tilning jozibasi, kamalak misol tovlanishi bevosita nutq orqali, nutq jarayonida yuz beradi. Ba'zan nutq jarayonida tilning jozibasi, jilolanishi, mo'jizakorligi yuzaga chiqmay qolishi mumkin. Shu bois, nutq sohibi so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini to'la anglashi, har bir so'zning uslubiy mezonlarini, ma'no qirralarini ongli idrok etishi talab etiladi.

Zero, hazrat Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "Til muncha sharaf bila nutqning olati (quroli)dur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidur"¹.

Tilni xalq yaratadi, nutq esa shaxsiy boylik sanaladi. Har kim o'z qobiliyati, so'z boyligi, shaxsiy fikrlash layoqatiga qarab gap tuzadi va so'zlaydi. Shuning uchun ham nutq oldiga nihoyatda ulug' bir talab qo'yiladi: o'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir. Zero, nutq (so'z) aqlning tarozisi, aqlning o'lchovi. Darhaqiqat, nutqimizning salohiyati til qoidalarini yaxshi va zarur darajada bilishimizga bog'liqdir.

¹ Alisher Navoiy. Asarlar, XIII tom. Mahbubul-qulub. T.: 1966, 60-bet.

5-§. Yuridik til va uning o'ziga xos xususiyatlari

Yurisprudensiya tarmoqlariga oid orfografik, leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlar yuridik tildir. Taniqli huquqshunos olim, professor A.X.Saidov ta'kidlaganidek, "Yuridik til – ko'pining yillik taraqqiyot va ko'p avlodlar tajribasi mahsuli"¹. ".... Huquq rivojlanishining tarixiy tajribalarini o'zida mujassam qilgan yuridik til inkor etish mumkin bo'lmagan qadriyat, huquqiy madaniyatning ajralmas qismidir"².

Yuridik til adabiy tilning tarkibiy qismi, o'ziga xos ko'rinishga ega til bo'lib, asosan, qonunchilik va rasmiy doirada qo'llaniladi. Ya'ni yuridik til o'ziga xos lug'aviy birliklari, gap qurilishi, uslubiy jihatlari hamda huquqqa oid tushunchalarni ifodalovchi terminlari bilan ajralib turadi. Barcha huquq manbalari yuridik tilda yoziladi. Tergov jarayoni, sud, advokat faoliyati, qonunlar ifodasi ham yuridik til asosida o'z in'ikosini topadi.

Yuridik til o'z mohiyatiga ko'ra bir necha turlarga, ya'ni *qonun tili, ilmiy yurisprudensiya tili, sud tili, huquqshunos-pedagog tili, huquqshunos-publitsist tili, prokuror tili, advokat tili* kabi guruhlariga bo'linadi³. Yurisprudensiya tarmoqlariga oid leksik-grammatik xususiyatlar umumiyliigi bilan bir-biriga yaqin tursa-da, lekin o'ziga xos xususiyliklarga ham ega bo'ladi. Masalan, fuqarolik sudi faoliyatida qo'llaniladigan (*taraf, taraflarning tortishuvi, da'vo qo'zg'atish, hal qiluv qarori, da'voni ta'minlash*) terminlar jinoyat sudi faoliyatida qo'llaniluvchi terminlar (*firibgarlik, genotsid, nomusga tegish, terrorizm*)dan tubdan farq qiladi.

Badiiy uslub va so'zlashuv uslubida badiiy obrazli so'zlar, tasviriy vositalar, frazeologik birliklar keng qo'llanilsa-da,

¹ Saidov A., Sarkisyans G. Yuridik til va huquqshunos nutqi. T.: Adolat, 1994, 5-bet.

² Saidov A., Yuridik til xususiyatlari. // Qonun va til. T.: 1997, 64-bet.

³ Qarang: Saidov A.Sarkisyans G. Yuridik til va huquqshunos nutqi. T.: Adolat, 1994, 5-bet.

biroq yuridik til rasmiy xususiyatga ega bo'lganligi uchun unda bunday til vositalarini qo'llashga ehtiyoj tug'ilmaydi. Chunki yuridik tilning birlamchi belgisi uning rasmiy bo'yoqqa egaligidir. Qat'iylik, mantiqiylik, qisqalik, aniqlik kabi xususiyatlar yuridik tilning nufuzini belgilovchi me'yorlardir.

Yuridik til har xil beo'rin qaytariqlar, so'z takrorlari, tushunilishi qiyin ifodalar hamda ortiqcha sifatlashlar, ko'chma ma'noli so'zlardan xoli bo'lishi lozim.

Ayniqsa, yuridik tilning tarkibiy qismi bo'lgan qonun tili gap qurilishi jihatdan tushunilishi yengil bo'lishi va oddiy fuqaro ham tez tushunib oladigan talablarga javob beradigan bo'lishi shart.

Ma'lumki, qonun — jamiyatni tartibga solib turuvchi vosita, u inson manfaatlari va ehtiyojlariga xizmat qiladi. Qonunning mazmuni, mohiyati, sifati, nufuzi til qoidalariga nechog'liq rioya etilishiga ham bog'liqdir. Qonunning ustuvorligi ham uning adabiy til me'yorlari asosida tuzilishi bilan belgilanadi. Adabiy til me'yorlariga to'liq javob bermaydigan qonun mazmunan va mantiqan tushunarsiz bo'ladi. Qonun tili davlatning rasmiy yuridik tili bo'lib, davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi "muomala", "muloqot" vositasidir.

Qonun faqat yuristlar yoki huquq sohasidagi mutaxassislar uchun qabul qilinmaydi, balki u davlatning barcha fuqarolari uchun tegishli bo'ladi. Shu bois qabul qilinayotgan qonunlarning tuzilishi imkon qadar sodda, iloji boricha g'alizliklardan, noaniqliklardan xoli bo'lishi lozim.

Qonun mantiqan izchil bo'lmas ekan, uning amaliyotga tatbiq etilishi ham qiyin kechadi. Qonunlar mantiqan izchil bo'lishi uchun adabiy til me'yorlari asosida tuzilishi shart. Biz har kuni qonun qabul qilmaymiz. Sifatli ishlangan va tayyorlangan qonunlar parlament tasdig'idan o'tgach, bir necha yillarga xizmat qiladi. Qonunning ustuvorlik darajasi ham uning sifatidadir. Sifat esa yuridik tilga qat'iy rioya qilish mahsulidir.

Yuridik tilda o'zlashmagan xorijiy so'zlar va terminlar

qo‘lanilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. O‘zlashgan terminlar bundan mustasnodir. O‘zbek tilida muqobili bo‘la turib xorijiy terminlarni qo‘llash ham o‘zini oqlamaydi. Agar yuridik tushunchalarni ifodalash uchun o‘zbek tilida unga muqobil so‘z yoki termin topilmasa, tarjimada ortiqcha sun‘iylikka bormasdan xorijiy terminlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu qoida jahon fanida qabul qilingan til qonuniyati hisoblanadi. Biroq ilmiy-yurisprudensiya tilida umumxalqqa tushunarli bo‘lmagan, faqat yuristlar, huquqshunos olimlarga tushunarli bo‘lgan so‘zlar va terminlar qo‘llanilishi mumkin. Bu ilmiy uslubning talabidir.

Masalan, *alibi* — jinoyat qilingan paytda (lahzada) jinoyatchining boshqa joyda bo‘lishi; *ratifikatsiya* — xalqaro shartnomani imzolash; *simulyatsiya* — o‘zini yolg‘ondan kasallikka solish; *yurisdiksiya* — sudlov ishlarini olib borish huquqi va h.k.

Yuridik tilda shevaga oid so‘zlar, jargonlar, o‘zlashmagan so‘zlar, o‘ta obrazli iboralarni qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qonun tili yuridik tilning o‘zagi, tub “mag‘zi” hisoblanadi¹.

Qonun tilining asosiy belgilari quyidagilardan iboratdir:

a) aniqlik; b) qisqalik; c) shaxssizlik; d) rasmiy buyoqdorlik; e) xolislik; f) mantiqiy izchillik; j) barqarorlik.

Qonun tilining eng muhim me‘yorlaridan biri **aniqlik** bo‘lib, tushunchaning mohiyati qonun moddalarida to‘laonli ifodalanishi va mamlakatning har bir fuqarosi kimligidan, qaysi kasb egasi bo‘lishidan, ma‘lumotidan qat’iy nazar tezda anglab yetishi zarur.

Qonunlar tuzilishi sodda, aniq, ravon va hamma bop bo‘lishi shart. Aniqlikka erishish uchun qonun ijodkorlari adabiy til me‘yorlariga amal qilmoqlari lozim. Buning uchun, avvalo, gapda so‘zlarning odatdagi tartibiga rioya qilinishi talab etiladi, ya‘ni qonun tilida inversiya (gapda so‘zlar tartibining o‘zgartirilishi)ga yo‘l qo‘yilishi aniqlikka putur

¹ Ko‘chimov SH.N. Til va qonunchilik texnikasi.// Qonun va til. T.: 1997, 114-bet.

yetkazadi. O'zlashtirilishi qiyin bo'lgan so'zlar va terminlarni qo'llamaslik ham aniqlikni ta'minlaydi.

Qisqalik qonun tilining asosiy belgilaridan biridir. Imkon qadar qonun moddalari tarkibi siqiq, sodda va mufassal bo'lishi zarur. Qisqa jumalalarda keng ma'no-mazmunni ifodalash ham qonun matnining tez anglab olinishini ta'min etadi. Albatta, bunda ellipsisga yo'l qo'yilmaydi, ya'ni gap bo'laklari tushirilmaydi. Chunki qonun moddalari tarkibidagi gap bo'laklarining tushirilishi qonunning mohiyatiga salbiy ta'sir etadi. Qonun moddalari tarkibida har qanday mazmunni iloji boricha sodda gaplar orqali ifodalashga, qo'shma gap turlari (murakkab qo'shma gap, aralasha qo'shma gap)ni mumkin qadar ishlatmaslikka harakat qilish zarur, chunki qonun ijodkorlari qo'shma gap qonuniyatini har doim ham chuqur bilavermaydi, natijada uslubiy xatolar yuzaga keladi. Uslubiy xatolar qonunlar mohiyatini tushunib olishni qiyinlashtiradi.

Qonun tilining yana bir o'ziga xos belgilaridan biri **shaxssizlikdir**. Ya'ni qonun moddalarining kesimi majhul nisbatdagi fe'llar bilan ifodalanadi. Fe'lning majhul nisbatida obyekt ma'lum bo'lsa-da, subyekt noma'lum bo'ladi. Masalan, Hamma sudlarda ishlar ochiq ko'riladi. Ishlarni yopiq majlisda ko'rib chiqishga faqat qonunda belgilangan hollarda yo'l qo'yiladi (O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuni, 55-bet).

Keltirilgan misollar tarkibiga *men, sen, u; biz, siz, ular* kabi kishilik olmoshlaridan birini qo'llab bo'lmaydi. Shuning uchun ham qonunlar shaxs (*men, sen, u; biz, siz, ular*) siz bo'ladi, chunki har bir qonun jamiyat va davlat nomidan ifodalanadi. Ya'ni har bir qonun zamirida xalqning xohish-istagi o'z ifodasini topgan bo'ladi.

Qonunlar adabiy tilning **rasmiy uslubida** tayyorlanadi. Shuning uchun qonunlar tarkibidagi til vositalari — lug'aviy birliklar, terminlar, fe'l nisbatlari, fe'l mayllarining rasmiy bo'yoqdorligi har bir moddaga **rasmiylik** belgisini beradi.

Masalan, *Barcha fuqarolar* Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan *burchlarini* bajaradilar (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 47-modda) Bu misoldagi *fuqarolar* so'zi o'rniga uning sinonimlari (odam, inson, shaxs, kishi)dan birini yoki *burch* so'zi o'rniga uning sinonimlari (vazifa, topshiriq)dan birini qo'llasak, rasmiylik belgisi susayadi. Rasmiylik bo'lmas ekan, qonunning kuchi ham yo'qoladi. Shu bois qonun ijodkorlari rasmiy uslubning lisoniy xususiyatlarini zarur darajada o'zlashtirishlari talab etiladi.

Rasmiy uslubdagi qonunlarda qat'iylik o'z in'ikosini topgan bo'ladi. Shu bois qonunlarni ma'lum bir mamlakatda yashovchi barcha fuqarolar ikkilanmasdan, muhokama qilmasdan bajarishlari shart bo'lgan davlat hujjatidir. Qonunlar faqat qabul qilingunga qadar muhokama qilinishi mumkin, lekin qonuniy kuchga kirgandan keyin bajarilishi shart bo'lgan davlat amridir.

Qonunlar tili *xolislik* belgisiga ham ega bo'lishi zarur. Qonun oldida hamma tengdir degan qoidaning o'zi qonunning xolisligini ta'minlaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 21-modda). Bu modda o'z mohiyatidan tashqari hech kimga hech qanday qo'shimcha imtiyoz berilmaydi degan tushunchani anglatadi. Shuning o'zi ham xolislikni belgilaydi.

Mantiqiy izchillik ham qonun tilining asosiy belgilaridan biridir. Ya'ni shakl bilan mazmun mantiqan muvofiq bo'lishi zarur. Adabiy til me'yorlariga rioya qilinmagan, grammatik jihatdan noto'g'ri tuzilgan qonunlar mantiqiy izchil bo'lmaydi. Qonunchiligimizda ba'zi bir qonun moddalari tahrir talabdir. Masalan, Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi quyidagi hollarda aybsiz deb topiladi va reabilitatsiya etilishi lozim...(JPK,83 modda). Mazkur modda tarkibidagi *topiladi va reabilitatsiya etilishi lozim* ifodalari uyushiq bo'laklardir. Shunday ekan, bu ifodalar bir xil shaklda, ya'ni quyidagicha berilishi kerak: Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi quyidagi hollarda aybsiz deb *topilishi va reabilitatsiya etilishi lozim...*

Qonun tilining yana bir belgisi uning **barqarorligidir**. Qonunlarning qat'iyligi uning barqarorligini, turg'unligini belgilaydi, shuning uchun qonun moddalarini har kim o'zicha o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Yuridik til talablari nafaqat qonunlarga, balki boshqa barcha me'yoriy hujjatlarga ham taalluqlidir. Huquq manbalarining asosiy turlaridan biri huquqiy-me'yoriy aktlar bo'lib, bunday qonun hujjatlari ham bir necha ko'rinishlarga ega bo'ladi. Farmonlar, qarorlar, farmoyishlar, buyruqlar, yo'riqnomalar, nizomlar; mahalliy davlat hokimiyati idoralarining qarorlari va hokazo. Bu qonun osti hujjatlari ham o'ziga xos leksik-grammatik, uslubiy o'ziga xosliklarga ega bo'lib, bunday hujjatlarning til qurilishi ham adabiy tilning talablariga asoslanadi.

Shu sababdan ham yuridik oliy o'quv yurtlari talabalarining kasbiy tayyorgarlik darajasi nafaqat ixtisoslik bilan bog'liq fanlarni, balki yuridik tilni ham davlat tili asosida yuqori darajada o'zlashtirishni talab etadi.

6-§. Og'zaki va yozma yuridik nutq

Nutq til vositalari orqali so'zlashish, muomala jarayonidir. So'nggi yillarda nutq kishilar til orqali bir-biri bilan muomala, aloqa qilishning usuli deb qaralishi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Til umumiylik, nutq esa xususiylik belgilari bilan farqlanadigan ijtimoiy hodisalar bo'lib, ikkalasi ham jamiyatga xizmat qiladi.

Nutq og'zaki va yozma ko'rinishlarga ega bo'ladi. Biroq nutqning bu ikki ko'rinishi bir-biridan ba'zi jihatlari bilan farqlanadi. Og'zaki nutq so'zlovchi — *prokuror, sud, advokat, tergovchi* gapirib turgan lahzadagina mavjud bo'ladi, so'zlash jarayoni tugashi bilan og'zaki nutq ham tugaydi. Lekin nutq ta'sirida berilgan ma'lumot, axborot, hukm tinglovchi ongida uzoq vaqtgacha saqlanishi, tinglovchi — *aybdor, guvoh, sudlanuvchi* xulqiga, qalbiga ta'sir etishi tabiiy.

Og'zaki yuridik nutq xususiyatlari quyidagi me'yorlarga asoslanadi:

1. Og'zaki yuridik nutq kommunikativ jarayon bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Og'zaki nutq tezkorlik bilan amalga oshadi, shuning uchun har qanday yurist ifodalayotgan fikriga mos so'zni, gapni tanlay olish qobiliyatini shakllantirib borishi maqsadlidir.

Ba'zan sud jarayonida prokuror, sud yoki advokat voqeyilikka, aytilishi lozim bo'lgan fikrga, hodisalarni dalillashga mos, muvofiq so'z topa olmay qoladi. Og'zaki nutq tayyorgarliksiz, ya'ni favqulodda yuzaga keladi, shuning uchun kishi o'z nutqida voqeyilikdan uzoqroq so'zni ishlatib yuborishi ham mumkin. Natijada aytilgan nutq nishonga borib tegmaydi, ko'zlangan maqsad amalga oshmay qoladi. Og'zaki nutq jarayonida odam bir vaqtning o'zida fikrlaydi hamda so'zlaydi, shuning uchun voqelikka mos so'zlarni tanlashga deyarli imkoniyat bo'lmay qoladi.

2. Og'zaki nutqda gap qurilishini aql nazorat qilib boradi. Bunda xotiraning roli katta. Agar xotira sust bo'lsa, og'zaki nutqda gap tuzilishi, so'z birikmalari o'zaro mantiqan va grammatik jihatdan bog'lanmay qoladi.

3. Og'zaki yuridik nutq, asosan, tahrir imkoniyatidan mahrum bo'ladi. U qanday shaklda namoyon bo'lgan bo'lsa, shundayligicha tinglovchiga yetib boradi.

4. Og'zaki yuridik nutqda takrorlar, qaytariqlar ko'p uchraydi.

5. Og'zaki yuridik nutqning lug'aviy tarkibi yozma nutqqa nisbatan kam bo'ladi. Olmoshlar, yuklamalar, modal so'zlar, bosh va tushum kelishigidagi otlar ko'proq ishlatiladi. Og'zaki nutqda ellipsisga yo'l qo'yiladi, ya'ni nutqning tejamkor bo'lishi uchun ba'zi gap bo'laklari tushiriladi. To'liqsiz gaplar ko'p qo'llanadi.

6. Og'zaki yuridik nutqda so'zlovchining faol nutqiy harakati pauza (to'xtam), ohang, urg'u, unlilarning cho'zib talaffuz etilishi; turli xil jest (imo-ishora)lar, mimika (qiyofaning o'zgarishi)lar fikrning tinglovchiga yetib borishida muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Og'zaki nutqda talaffuzning ahamiyati katta. Gapga ustalikni talaffuz ravonligidan ayricha tasavvur etib bo'lmaydi. No'noq talaffuz tergov jarayonida, sud jarayonida, ayniqsa, sud hukmi o'qilishida noxush vaziyatni keltirib chiqarishi mumkin. Sud hukmi o'qilayotganda har bir so'z, har bir termin yoki har bir gap ravon talaffuz etilishi shart. Toki o'qilayotgan hukm davlat nomidan ifodalanayotgani aniq bilinib tursin.

Og'zaki nutqni shakllantirish va takomillashtirish ko'proq yozma nutqning takomiliga bog'liq. *Yozma nutq* yuqori darajada bo'lmas ekan, og'zaki nutq ko'ngildagidek bo'lmaydi.

Yozma nutqda esa til vositalarini tanlash va qo'llashga to'liq imkoniyat bo'ladi. Yozma nutqni xohlagancha tahrir qilish mumkin. Yozma nutqda og'zaki nutqdagi kabi hayajon bo'lmaydi, notiq shoshilmasdan, o'ylab nutq tuzadi. Shu sababdan ham yozma nutq og'zaki nutqdan ko'ra ravon, aniq va izchilroq bo'ladi.

Har qanday nutqni xoh u badiiy, xoh u ilmiy yoxud rasmiy bo'lsin yozma ravishda ifodalash insho deyiladi. "Insho notiqlik san'atining bir qirrası, san'at ichra san'atdir"¹. Afsuski, so'nggi yillarda oliy maktab tizimida, hatto o'rta maktablarda ham inshoga e'tibor susaydi. Yuristlarning yozma ishlari haqida hech kim o'ylab ham ko'rmadi. Yozma nutqi ravon bo'lmagan yuristning faoliyatini tasavvur qilish qiyin. Yozma yuridik nutq barqaror va qat'iy bo'ladi, u har doim avvaldan o'ylanadi hamda matnga tushiriladi. Taniqli yuristlarning hech biri yozma nutqini takomillashtirmasdan yuqori martabaga erishmaganlar. Yozma yuridik nutq og'zaki yuridik nutqning rivojiga bevosita ta'sir etadi, asosan, og'zaki yuridik nutq yozma yuridik nutq asosidarivojlanadi.

Yozma mashqlar — bamisoli tafakkur mashqlaridir. Biror

¹ Nusratullo Atoulllo o'g'li Jumaxo'ja. Istiqlo'l va ona tilimiz. T.: Sharq, 1998, 72-bet

voqeiylik yoki hodisa to'g'risida fikrlash yozma mashqlar orqali takomillashadi.

Yozma nutq mashqlari muayyan mavzu doirasida, aytaylik, biror bir sodir etilgan jinoyatning ildizlariga yetib borishda bevosita fikrlashga majbur etadi. Shu jarayonda yuristlar "Yetti o'lchab bir kesish"ga amal qiladilar. Yozma nutq bilan doimiy shug'ullanadigan yurist doim o'ylab gapirishga odatlanadi. Yurist yozma nutq bilan muttasil shug'ullanmas ekan, uning yozma nutqi bilan og'zaki nutqi hech ham muvofiqlashmaydi.

Agar sud hukmi yetarli dalillanmasa, sud tomonidan tayyorlangan hukmni qayta ishlash, qonun doirasida qayta pishitish; izohlanmay qolgan o'rinlar, aniq bo'lmay qolgan holatlarning mantiqan izchil bo'lishi uchun, yanada tushunarli bo'lishi uchun matnni isloh qilish mumkin. Bunday isloh qilish yuridik yozma nutqning tadrijiy, ketma-ket, tartibli va sifatli bo'lishiga asoslangan bo'lib, grammatik qoidalar bilan amalga oshadi. Yuridik yozma nutqda qiyoslash, taqqoslash, sabab-oqibat, shart, aniqlovchi kabi munosabatlarni ifodalovchi qo'shma gap turlaridan foydalaniladi.

Odatda, protsessual hujjatlar tuzadigan huquq-tartibot organi xodimi o'z fikrini yozma ravishda ifodalashdan avval nutq predmetini, obyektni aniqlaydi, ya'ni yuridik ishni ochishda, jinoyatni adolatli hal qilishda zarur va kerakli ma'lumotlarni to'playdi. Bunday protsessual jarayonda yuristning huquqiy fikrlash doirasi, bilimi, dalillarni isbotlash darajasi, yuridik kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyat kasb etadi. Qonun doirasida haqiqat aniqlangach, asosiy fikr yuridik matn sifatida o'z in'ikosini topadi, matnning shakllanishida o'zbek yuridik til qonuniyatlari asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Matnni tayyorlayotgan huquq-tartibot organi xodimi tergov natijalari yoxud hukm mazmunini to'laqonli yoritish uchun lisoniy konstruksiyalarga, yuridik terminlarni o'z o'rnida qo'llashga alohida ahamiyat beradi.

Yozma yuridik nutqni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish va

terminlar hamda soʻzlarning muqobilini tanlay olish uchun ham nazariy bilim, ham yuridik mavzular yuzasidan yozma mashqlar muhim oʻrin tutadi. Yuristlarimiz muntazam ravishda yozma mashqlar olib borishlari natijasidagina yozma nutq borasida muhim koʻnikma va malakalarga ega boʻlishlari mumkin. Huquq-tartibot organlarida faoliyat koʻrsatayotgan xodimlarning yuridik hujjatlarni tayyorlashlarida xatolarga yoʻl qoʻyishining asosiy sababi ham grammatik qoidalarni yetarli oʻzlashtirmaganligi, yozma nutqda ifodalash malakasining sustligidir. Buning uchun turli mavzularda yuridik hujjatlar tayyorlash yuzasidan muntazam mashqlar olib borish koʻzlangan natijalarni beradi.

Yozma yuridik nutq oldiga, asosan, quyidagi talablar qoʻyiladi:

1. Har bir soʻz yoxud termin, har bir gap, jumla yuridik mazmunni toʻliq ifodalashga va muallif maqsadini ochishga xizmat etishi shart.

2. Yozma yuridik nutq imkon qadar sodda va aniq, izchil va mantiqli ifodalanishi lozim.

3. Yozma nutqda oʻz ifodasini topayotgan fikr — yuristning tafakkur mahsullari dalillangan, isbotlangan, qonun doirasida oʻz yechimini topgan boʻlishi zarur.

4. Yozma yuridik nutqda fikrlar rasmiy uslub doirasida sodda va ravon, tushunilishi yengil bayon etilishi kerak.

5. Oʻrganilgan ishlar (jinoyat yoki fukarolik)ning xulosasi muqaddima va asosiy qism bilan bogʻlangan boʻlishi lozim. Shundagina chiqarilayotgan xulosalar, shuningdek hukmlar asosli boʻladi.

6. Tushunilishi qiyin boʻlgan yuridik terminlardan iloji boricha foydalanmaslik, agar matnda faqat yuristlar yoki mutaxassislar uchun tushunarli boʻlgan terminlar qoʻllanilsa, bunday yuridik terminlarga izohlar va sharhlar berib borilishi maqsadlidir.

7. Rus tilidagi qonunlardan andaza olish, tarjima qilish qonun moddalari mazmuniga, mohiyatiga salbiy taʼsir

ko'rsatadi. Shuning uchun tarjimalardan mutlaqo voz kechib, har qanday yuridik hujjatlarni milliy til qoidolari asosida tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

“Huquq va til muammosi predmetlararo tadqiqotlarda yangi yo'nalish bo'lib, bu sohada hal etilmagan va bahsli masalalar juda ko'p. Lekin shunisi shubhasizki, barcha turdagi yuridik faoliyat uchun tilni benuqson bilish shartdir”¹.

¹ Saidov A.X. Yozma va og'zaki yuridik til (nutq). Qonun va til. T.:1997, 77-bet

2-BOB. YURIDIK TERMINLAR TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1-§. Yuridik terminlar oldiga qo'yiladigan talablar

Ilm-fan, texnika, qishloq xo'jaligi va san'atga oid tushunchalarning aniq nomini bildiruvchi bir ma'noli so'z va birikmalar *terminlar* deyiladi.

So'z ko'p ma'noga, ya'ni qo'shimcha ma'nolarga ega bo'ladi, lekin termin bunday xususiyatga ega emas. Termin ham so'z, ammo u odatdagi so'zlardan ma'nosining aniqligi, bir ma'noliligi bilan farqlanadi. Termin ma'lum sohada, shu soha vakillari nutqida qo'llaniladi. Masalan: *jinoyat, jazo, da'vo, ayblanuvchi, bosqinchilik, retsidiv jinoyat, genotsid, terrorizm, vasiylik, senat, spiker* kabi terminlar yurisprudensiya tarmoqlarida uchraydi.

Terminlar yig'indisi va shu terminlarni o'rganuvchi soha terminologiya deyiladi. Termin grekcha *terminos* so'zidan olingan bo'lib, *chek, chegara* ma'nolarini bildiradi.

Keyingi yillarda *termin* so'zi o'rniga *atama* so'zi qo'llanyapti. Bunday qo'llash xato hisoblanadi. Chunki *atama* so'zining ma'nosi *termin* so'zining ma'nosiga nisbatan keng bo'lib, u barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi, termin esa muayyan bir sohada qo'llanuvchi rasmiylashgan so'zdir. Shu ma'noda *termin* tushunchasi *atama* tushunchasining ichiga kiruvchi ilmiy-lug'aviy birlikdir.

Qonun tili leksikasini, asosan, terminlar tashkil etadi. Lekin har qanday yuridik tushunchalarni ifodalash uchun terminlar oldiga ma'lum talablar va me'yorlar qo'yiladi. Bu terminning mohiyati va tabiatidan kelib chiqadi.

Terminlarning umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadigan o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha izohlash o'rinlidir:

1. So'zlar fan va texnikaning ma'lum tarmog'ida qo'llanilib, iste'mol doirasi chegaralangan ma'noda ishlatilsa terminlarga aylanadi. Masalan, *suv, tuz, aylana, guvoh, zarar, tuhmat, qo'rqitish* kabi umumiste'moldagi so'zlar fan sohalarida ilmiy-

rasmiy ma'nolarni ifodalab hozirgi kunda terminlar tizimiga kirgan.

Suv so'zi umumaloqada har xil suvlarni anglatadi: *oqar suv, buloq suvi, gazli suv, mineral suv* kabi. Ximiya termini sifatida esa suv – H_2O formulasi orqali ifodalangan va ikki vodorod hamda kisloroddan iborat birikma tushuniladi, ana shu tarkib asosida u Mendeleyev jadvalidagi boshqa moddalar bilan reaksiyaga kirishadi.

Guvoh so'zi umumxalq tilida biror voqea-hodisa ro'y bergan paytda shaxsan bo'lgan, uni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishi ma'nosini anglatadi, yuridik terminlar tizimida jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar haqida qonunda belgilangan tartibda so'roq qilinadigan shaxs. *Tuhmat* so'zi umumiste'molda birovni nohaq ayblash yoki qoralash, nomini yomonga chiqarish maqsadida o'ylab chiqarilgan asossiz da'vo; bo'hton. Masalan, *Tuhmat tosh yoradi, tosh yormasa bosh yoradi* (Maqol). Bu so'z yurisprudensiyada yuridik termin sifatida shaxsning qadr-qimmati va or-nomusiga qilinadigan tajovuz ma'nosini anglatadi.

Bundan tashqari *jazo, jinoyat, jarima, ko'zdan kechirish, mulk, omonat, topshiriq, qarzdor, hadya, shikoyat, da'vo* kabi umumiste'moldagi so'zlar ham yurisprudensiya tizimida yuridik tushunchalarni bildiradi. Bunday so'zlar chegaralangan sohada qo'llanilib, terminologik ma'no kasb etadi.

2. Termin nominativ vazifani bajaradi. Terminning ma'nosi adabiy til me'yorlari doirasida tushunchaga teng bo'ladi. Chunki bir terminologik tizimda termin bir ma'noli (monosemantik) bo'lgani uchun uning ma'nosi tushunchaga teng keladi. Ya'ni terminlar bir ma'noni ifodalovchi maxsus rasmiy so'zlardir. Ko'p ma'noli birgina so'z esa bir necha tushunchani ifodalaydi. Masalan, *ko'z* – *kishi a'zosi; uzukdagi bezak; yog'ochdagi belgi; buloqning suv chiqadigan joyi kabi* tushunchalarni anglatadi.

3. Termin aniq, konkret tushunchalarni bildirib, his-hayajon ma'nolaridan xoli bo'ladi. So'zning ma'nosi murakkab

bo'lib, unda tushuncha qo'shimcha ma'no va uslubiy belgilarga ega bo'ladi. Shu bois tilda bir tushunchani anglatadigan sinonimlar turli ma'no qirralari yoki uslubiy qo'llanilishi bilan bir-birlaridan farq qiladi. Masalan, *yuz, bet, chehra, jamol, yonoq, ruxsor, oraz, turq, aft, bashara* so'zlari bir umumiy tushunchani bildirib, sinonimlar hisoblansa-da, biroq turli ma'no qirralariga ko'ra bir-biridan farqlanadi: *basharang qursin* deyish mumkin; *chehrang qursin* yoki *jamoling qursin* deb bo'lmaydi.

4. Bir so'z bir necha sohaning termini bo'lishi mumkin. Lekin bunday so'zlar fanning har bir sohasida alohida tushunchalarning nomi bo'lib keladi. Masalan, *topshiriq* termini pedagogik terminologiyada o'quvchilar yoki talabalarga beriladigan vazifa ma'nosini anglatga, yuridik terminologiyada *topshiriq* termini huquq-tartibot tizimida faoliyat ko'rsatuvchi xodimga yuklatiladigan muhim vazifa ma'nolarini bildiradi. *Operatsiya* termini meditsinada jarrohlik bilan bog'liq tushunchani anglatga, yuridik terminologiyada biror maqsad yoki maxsus, maxfiy topshiriq yuzasidan o'tkaziladigan tadbir nomini bildiradi.

Ba'zan bir tarmoq terminologiyasida ham omonimlik uchraydi. Masalan, yurisprudensiyada *sanksiya* termini ikki ma'noni anglatadi: 1) prokuror ruxsati; 2) jazo chorasi.

5. Terminlarning yana bir o'ziga xos belgisi shuki, terminlar rasmiylashgan so'zlar bo'lganligi sababli respublika miqyosida, hatto dunyo miqyosida bir tushunchani anglatadi. Xalqaro terminlar fikrimizga misol bo'la oladi: *demokrat, impichment, demokratiya, respublika, prezident, parlament, amnistiya, deputat, konstitutsiya, kriminologiya va h.k.* Bunday terminlar yer yuzining barcha qit'alarida bir xil ma'noda qo'llaniladi.

6. Terminlar muayyan bir sohaga tegishli bo'lib, muayyan mutaxassislar tomonidan maxsus qabul qilingan, rasmiylashgan so'zlardir. Shuning uchun bir tushunchani ifodalovchi termini boshqa bir so'z bilan almashtirib

bo'lmaydi. Ya'ni bir tarmoq terminlari tizimida sinonimiya yoki dubletning qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, *huquq, burch, shaxs, subyekt, yuridik shaxs, kriminalistika, demokrat, tergovchi, modda, jinoyat* kabi terminlarga muqobil variantlar izlash nojoizdir. Ba'zan boshqa terminologiya sohalarida bo'lgani kabi yuridik terminlar tizimida ham sinonimik holatlar ko'zga tashlanadi: *sud-qozi, prokuror-qoralovchi, aybdor-ayblanuvchi, respublika-jumhuriyat, gumondor-gumon qilinuvchi, advokat-himoyachi, oqlovchi* kabi. Biroq bunday holat terminologiyadagi nuqson hisoblanadi, chunki terminlar bir ma'noli bo'lganligi uchun sinonim va dubletlardan xoli bo'lishi lozim. Bunday holatning asosiy sababi xalqaro terminlarga o'zbek tilidagi muqobilini tanlash asosida yuzaga keladi. Vaholanki, xalqaro terminlar dunyo miqyosida bir xil qo'llaniladi.

7. Termin soha terminlari tizimining bir elementi bo'lib, har doim bir tizim doirasida qo'llaniladi: *vasiylik, oila, nikohni qayd qilish, farzandlikka olish, homiylik, aliment, soxta nikoq* kabilar bog'langan holda bir tizimni tashkil etadi. Bu terminlar tizimi yuridik terminologiya zanjirining alohida halqasi hisoblanib, oila munosabatlarini ifodalovchi terminlar tizimini yuzaga keltirgan.

Yuqorida aytib o'tilgan me'yorlarga amal qilish nafaqat lisoniy savodxonlikning asosini tashkil etadi, balki qonunlarimizda belgilab qo'yilgan moddalarga muvofiq, javobgarlik uchun jazo qo'llashda ham noaniqliklarning oldini oladi.

2-§. Yuridik terminlar — qonun tili leksikasi

Qonun tili leksikasi o'ziga xos rang-barangligi bilan o'zbek tili lug'at qatlamida salmoqli o'rin tutadi.

Yillar davomida shakllangan va mustaqillik sharofati ila takomillashib kelayotgan qonunchilikda qo'llaniladigan lug'aviy birliklar, terminlar rasmiylik bo'yog'i bilan ajralib turadi. Bunday boy lug'aviy qatlamni anglatgan ma'nolariga

ko'ra, aniqrog'i yurisprudensiya tarmoqlariga ko'ra quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Jinoyat va jazo tushunchalarini bildiruvchi yuridik terminlar: *bosqinchilik, tovlamachilik, firibgarlik, retsidiv jinoyat, genotsid, yollanish, terrorizm, nomusga tegish, josuslik, qo'poruvchilik, tuhmat, haqorat qilish va h.k.*

2. Jinoyat protsessi bilan bog'liq yuridik terminlar: *yuzlashtirish, ko'zdan kechirish, eksperiment, ekspertiza, ushlab turish, majburiy keltirish, jinoyat ishini qo'zg'atish, surishtiruv, sud tergov, hukm, appelyatsiya tartibida ish yuritish, dalillar va h.k.*

3. Fuqarolik huquqiga oid tushunchalarni bildiruvchi yuridik terminlar: *mulkiy munosabatlar, xususiy mulk, mulk huquqi, majburiyat huquqi, intellektual mulk, vorislik huquqi, shartnoma bitim, vasiylik, homiylik, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, vakillik, ishonchnoma, da'vo muddati, kafillik, kafolat va h.k.*

4. Fuqarolik protsessi bilan bog'liq yuridik terminlar: *taraf, taraflarning tortishuvi, da'vo qo'zg'atish, kassatsiya tartibida ish ko'rish, taraflarning o'zaro kelishuvi, sudda vakillik, da'vog'ar, javobgar, dalillarni ta'minlash, muomala layoqati, hal qiluv qarori, kelishuv bitimi, da'voni ta'minlash va h.k.*

5. Davlat qurilishi va boshqaruviga oid yuridik terminlar: *suverenitet, davlat, davlat ramzlari, davlat gerbi, davlat bayrog'i, davlat madhiyasi, konstitutsiya, respublika, hokim, hokimlik, Vazirlar Mahkamasi, prezident devoni, Davlat maslahatchisi, senat, saylov, senator, spiker, qonunchilik palatasi, referendum, parlament, Oliy majlis va h.k.*

3-§. Yuridik terminlar tizimining ichki imkoniyatlar hisobiga boyishi

Qadimgi adabiy til an'analari asosida rivojlanib kelayotgan o'zbek tili real borliqdagi voqea-hodisalarni, tushunchalarni ifodalash uchun keng imkoniyatlarga ega. Xususan, keyingi yillarda paydo bo'lgan va paydo bo'layotgan jamiki yangi tushunchalarni ifodalash borasida o'zbek tili

o'zining rivojlangan tillardan biri ekanligini isbotlamoqda. Buni, ayniqsa, o'zbek tili terminlari tizimlarining ichki manbalar hisobiga rivoj topishi misolida yaqqol ko'rish mumkin. Chunki o'zbek tili terminlari tizimining rivojlanishi, shakllanishi va takomillashuvida shu tilning ichki imkoniyatlari asosiy rolni o'ynamoqda. Hayotda ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlar, ya'ni o'zbek davlatchiligi va qonunchiligining shakllanishi va takomili ham tilning ichki imkoniyatlaridan maksimal foydalanishni taqozo etmoqda.

Ichki imkoniyat deyilganda, asosan, morfologik (affiksatsiya) va sintaktik (so'zlarga so'zlarni qo'shish) usul bilan so'z yasalishi tushuniladi. O'zbek tili yuridik terminlari tizimining boyishida ana shu ikki usul asosiy rol o'ynaydi.

4-§. Yuridik terminlarning morfologik usul bilan yasalishi

Morfologik usul bilan termin yoki so'z yasash shunday usulki, unda o'zak-negizga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shiladi va yangi terminlar hosil qilinadi.

Bunday so'z yoki termin yasash ko'pgina tillarda, jumladan o'zbek tilida ham eng mahsuldor usuldir. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi 60000 dan ortiq so'zning 75–80%i so'z yasovchi qo'shimchalar bilan yasalganligi fikrimizni isbotlaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida 300 ga yaqin so'z yasovchi qo'shimcha mavjud bo'lib, ularning ba'zilar yuridik terminlarning yasalishida ishtirok etadi.

-lik, -chilik, -gar, -dor, -uvchi, -chi kabi so'z yasovchi qo'shimchalar yurisprudensiya tarmoqlarida faol qo'llaniladi. Masalan: *advokatlik, ijrochilik, bosqinchilik, josuslik; terrorchilik, davlatchilik, mahalliychilik, millatchilik; javobgar, da'vogar; aybdor, gumondor, manfaatdor; jinoyatchi, maslahatchi, tergovchi, ijrochi* va h.k.

O'zbek tilida shakl yasovchi vazifasidagi *-sh (-ish)* qo'shimchasi yuridik terminlar tizimida eng faol termin yasovchi vazifasini o'taydi. Masalan: *yollanish, qiynash,*

qo'rqitish, tayinlash, o'g'irlash, o'zlashtirish, tahqirlash, aldash, majburlash va h.k.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki -v qo'shimchasi ham yuridik terminologiyada o'z vazifasidan uzoqlashib, ya'ni harakat nomi shaklini yasovchilik vazifasidan uzoqlashib termin yasovchilik xususiyatini o'ziga to'liq olganligini ko'rish mumkin. Masalan: *saylov, tergov, surishtiruv, sudlov, tintuv, qidiruv, ayblov, boshqaruv* kabi yuridik terminlar ana shu qo'shimchaning mahsulidir.

5-§. Yuridik terminlarning sintaktik usul bilan yasalishi

O'zbek tilning yuridik terminologiyasida yakka so'zli terminlarga nisbatan birikmali, ya'ni tarkibi ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topgan terminlar salmoqli o'rinni egallaydi. Buning sababi nimada? Buning sababi shundaki, sintaktik usul bilan yasalgan birikmali terminlar barcha tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham muhim nominativ manba sanaladi, ularda ifodalanayotgan narsaning yoki tushunchaning belgisi shundoqqina bilinib turadi, ular bilishsizlikdan bilish sari harakat jarayonida ijtimoiy amaliyot malumotlarini mustahkamlashda "so'zdan iborat to'siq"ni oshib o'tishga, ya'ni sintaktik birlikdan leksik birlikka o'tishga yordam beradi. Masalan, mamlakatdagi mavjud tartibni himoya qiluvchi, hokimiyat organlariga ega bo'lgan mustaqil mamlakat tushunchasi *davlat* termini bilan yuritiladi. Davlat endigina yuzaga kelayotgan bir paytda bu tushunchani yolg'iz shu terminning o'zi bajarib kelgan. Biroq davlat boshqaruvida sodir bo'lgan qator o'zgarishlar, yangiliklar tufayli davlat shakllari ham ko'paydi. Bu esa boshqaruvni bajaradigan davlat ifodalaydigan tushunchalarni birikma tarzida ifodalash zaruratini keltirib chiqardi. Natijada, tilda *davlat* termini ishtirokida bir qator birikma terminlar yuzaga keldi: *unitar davlat, federativ davlat, konfederativ davlat, demokratik davlat, sotsialistik davlat, kapitalistik davlat* va h.k. Boshqaruv bilan bog'liq bunday tushunchalarni yakka so'zdan

iborat termin bilan ifodalab berishning iloji yo'q. Shunga ko'ra, bu tushunchalar ikki yoki undan ortiq so'zlar birikmasi bilan ifodalanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, sintaktik usul bilan termin yasalishi deganda so'z birikmasining so'zga aylanishi tushuniladi. Til taraqqiyoti jarayonida ma'lum bir so'z birikmasi yagona leksik ma'no kasb etishi natijasida sintaktik birlikdan leksik birlikka aylanadi. Ya'ni birikma xarakteridagi terminlar nominativ vazifani bajarib, bir yagona termin shakliga o'tadi. Bu hodisa yuridik sohaga oid tarixiy terminlarning yasalishida ham faol bo'lgan. Masalan: *mingboshi, ellikboshi, yuzboshi, qozikalon, mirzaboshi* kabi qo'shma so'zlar shu yo'l bilan yuzaga kelgandir. So'z hosil bo'lishining bu usuli leksikalizatsiya usuli deb ham yuritiladi.

Hozirgi o'zbek tilining yuridik terminlari tizimini o'rganish jarayoni leksikalizatsiya usulining nihoyatda faollashganligini ko'rsatadi.

Birikma holdagi yuridik terminlar shu qadar ko'p va yasalish jihatdan xilma-xil ko'rinishlarga egaki, ularning tarkibi ikki va undan ortiq so'zlardan iborat bo'ladi. Masalan: *retsidiv jinoyat, o'ta og'ir jinoyat, hayotga qarshi jinoyatlar, qasddan odam o'ldirish, ozodlikdan mahrum qilish, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat* va h.k.

Tuzilishi jihatidan birikma terminlar tarkibidagi so'zlarning o'zaro birikishiga qarab bir necha xilga bo'lish mumkin. Masalan: ot+ot: *ish haqi, ish vaqti, sud ajrimi, sud ijrochisi, davlat suvereniteti*; sifat+ot: *intizomiy jazo, ma'muriy jazo, madaniy meros, retsidiv jinoyat, mustaqil davlat*; ot+harakat nomi: *mol-mulkni musodara qilish, odam o'g'irlash, jazo tayinlash, pora berish, pora olish* va h.k.

Albatta, terminlarning bunday holda yuzaga kelishi tilning ma'lum bir qonuniyatlariga asoslanadi. So'z birikmalarini hosil qilishda ishtirok etuvchi moslashuv, boshqaruv, bitishuv hodisalari endi yuridik terminlar tizimida sintaktik birliklar emas, balki lug'aviy birliklar ? birikmali terminlarning yuzaga

kelishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Fikrimizni misollar bilan isbotlashga harakat qilamiz:

Moslashuv asosida yuzaga kelgan birikmali yuridik terminlar: *davlat tili, davlat bayrog'i, davlat madhiyasi, davlat gerbi, sud ajrimi, sud hukmi, mehnat shartnomasi, Vazirlar Mahkamasi;*

Boshqaruv asosida yuzaga kelgan birikmali yuridik terminlar: *davlatga xoinlik qilish, badanga shikast yetkazish, tajovuzlardan qo'riqlash, jazodan ozod qilish, sud orqali musodara qilish, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish, tergovda ishtirok etish, merosdan mahrum etish, himoyadan voz kechish;*

Bitishuv asosida yuzaga kelgan yuridik terminlar: *xavfli retsidivist, uyushgan guruh, qasddan sodir etilgan jinoyat, qo'shimcha ta'til, ishonchli vakil, o'ta og'ir jinoyat, ruhiy ojizlik, jismoniy ojizlik va h.k.*

3-BOB. NUTQ MADANIYATI VA ADABIY TIL ME'YORLARI

1-§. Nutqning kommunikativ tavsifi

Nutq faqatgina lingvistik hodisa bo'lmagan, balki ruhiy (psixologik), nafasat (estetik) hodisasi hamdir. Shu bois yuqori darajadagi nutq deyilganda, aytilmoqchi bo'lgan fikrning tinglovchiga to'laqonli yetib borishi, ularga ma'lum ta'sirini o'tkazishi nazarda tutiladi.

Nutqning kommunikativ (aloqaviy) sifati quyidagi lingvistik va ekstralingvistik mezonlarga bevosita bog'liqdir: *nutqning to'g'riligi, nutqning aniqligi, nutqning mantiqiyliigi, nutqning tozaligi, nutqning ta'sirchanligi (obrazlilik).*

Nutqning to'g'riligi. Nutqning bosh kommunikativ sifati nutqning to'g'ri bo'lishidir. Adabiy tilning fonetik, orfoepik, leksik va grammatik me'yorlari talablariga to'la mos keladigan nutq to'g'ri nutq sanaladi. Til birliklarini to'g'ri, ifodali talaffuz qilish, ya'ni so'z va mantiqiy urg'u, ohang, pauzaga asosiy e'tibor qilish orqali nutq to'g'riligi yuzaga keladi. Nutqning to'g'ri bo'lishi, asosan, so'z va mantiqiy urg'uning to'g'ri qo'yilishiga ham bog'liq. Rus tilida urg'u erkin bo'lsa, o'zbek tilida urg'u, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Agar so'zning o'zagiga qo'shimchalar qo'shilsa, urg'u o'z o'rmini o'zgartirib, oxirgi bo'g'inga ko'chadi: *jinoyat, jinoyatchi, jinoyatchilar*. Bu holat adabiy me'yor hisoblanadi. Lekin o'zbek tilida ham ba'zi o'rinlarda urg'u oldingi bo'g'inlarga (*lekin, afsuski, albatta*) tushishi va hatto so'zning ma'nosini o'zgartirib yuborishi mumkin: *yangi kitob, yangi keldi; Yaxshi bola yaxshi o'qiydi*. Bunday so'zlar o'zbek tilida anchagina: *tugma-tugma, suzma -suzma, olma -olma, qaynatma-qaynatma*. Ularning ma'nolari faqat urg'u yordamida oydinlashadi.

Gap tarkibidagi bo'laklardan birining ta'kidlab aytilishi mantiqiy urg'u bo'lib, mantiqiy urg'u olgan bo'lak alohida ohang bilan talaffuz etiladi va mazmunni o'zgartirishga xizmat qiladi. Masalan: *Jinoyatchi bugun qishloqda qo'lga olindi* gapi

mantiqiy urg'usiga ko'ra to'rt xil fikrni anglatadi. Bunda qaysi ma'noga alohida e'tibor berilsa, shu ma'noni ifoda etayotgan so'z alohida urg'u bilan talaffuz etiladi: *Jinoyatchi bugun qishloqda qo'lga olindi* (Boshqa yerda emas, qishloqda). *Bugun qishloqda jinoyatchi qo'lga olindi*. (gumonlanuvchi emas, aynan jinoyatchi). *Jinoyatchi qishloqda bugun qo'lga olindi* (kecha emas, ya'ni bugun). *Jinoyatchi bugun qishloqda qo'lga olindi* (qo'lga olinmagan edi).

Ba'zan mantiqiy urg'u noto'g'ri qo'yilsa, fikr mavhum bo'lib qoladi va tinglovchiga yetib bormaydi. Masalan, *Onasiz bola o'ynamas* gapida onasi yonida bo'lmagan bola o'ynamaydi deyilyaptimi, yoki onasi bo'lmagan bola o'ynamaydi degan fikr anglashilyaptimi, buni faqat urg'u olgan bo'lak orqali aniqlash mumkin. Agar urg'u *onasiz* so'ziga tushsa birinchi ma'no, *bola* so'ziga tushsa ikkinchi ma'no anglashiladi. Demak, nutqning to'g'riligini ta'minlash uchun so'z (leksik) va mantiqiy (logik) urg'uni to'g'ri qo'llash maqsadga muvofiqdir, aks holda yuqoridagidek mavhum holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Ohang (intonatsiya) tufayli so'zlar va gaplar mazmuni turlicha jilolanadi. Masalan, *ko'rinmaysiz* so'zi turli ohang orqali *sog'inganlik*, *samimiyat*, *kesatq* va *norozilik* kabi ko'plab ma'nolarni hosil qilishi mumkin. To'g'ri nutq tuzishda pauza (to'xtam) ham alohida o'rin tutadi. Nutqda pauzani noto'g'ri qo'llash tufayli aytilayotgan fikr mazmuni o'zgarib ketadi. Masalan, *Akbar, o'qidi*. Bu gap mazmunidan Akbarga kimningdir o'qiganligi ma'nosi anglashilmoqda (Akbar — undalma vazifasida). Agar bu gapda pauza bo'lmasa *Akbar o'qidi*, ya'ni Akbarning o'zi haqida gap ketayotganligi anglashiladi.

Bundan tashqari, nutqning to'g'riligiga erishish uchun fikrni har jihatdan mazmunli, ifodali qiluvchi so'z va terminlarni, birikmalarni topa olish va ularni o'z o'rnida qo'llay olish san'atini egallash lozim. Ya'ni bamisoli ummon bo'lgan tilimizda mavjud bo'lgan leksik qatlamdan so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari; sinonim, omonim, antonim, paronim, terminlarning ma'no qirralarini to'la anglab ulardan o'rinli

foydalana olish nutqning to'g'riligini ta'minlovchi vositalardir. Bunday lug'aviy birliklarni o'z o'rnida qo'llay olmaslik esa nutqning to'g'riligiga putur yetkazadi, natijada so'zlovchining maqsadi to'liq amalga oshmay qoladi. Yuristlarimiz ham o'z faoliyatlarida bunga amal qilishlari zarur. Bir so'zni noto'g'ri qo'llash butun bir gapning mazmunini o'zgartirib yuboradi. Masalan, *bosqinchilik* va *talonchilik*, *tovlamachilik* va *firibgarlik* kabi yuridik tushunchalarni bildiruvchi terminlar umumiy ma'nosi bir xil, lekin ma'no qirralari jihatidan bir-biridan farq qiladigan so'zlardir. Ularning o'rnini almashtirib qo'llash qonun tilida uslubiy xatolarni keltirib chiqaradi. Yuqorida keltirilgan sinonimlarning har biri Jinoyat Kodeksida termin sifatida bir ma'noli bo'lib, har qaysisi alohida-alohida jinoyatning nomini bildiradi. Qonunda *Bosqinchilik* – o'zganing mulkini talon-taroj qilish maqsadida hujum qilib, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etilgan jinoyatdir (JK, 146-modda).

Talonchilik – o'zgalar mulkini ochiqdan-ochiq talon-taroj qilishdir (JK, 166-modda).

Tovlamachilik – jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitib mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini o'z mulki yoki mulkka bo'lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yish. (JK, 165-modda).

Firibgarlik – aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki mulkiy huquqini qo'lga kiritish (JK, 168-modda).

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, sinonimlarning ma'no qirralarini to'g'ri anglamaslik, nafaqat nutqning to'g'riligiga putur yetkazadi, balki jazo belgilashda ham noto'g'ri holatlarni keltirib chiqaradi.

Nutqning aniqligi. Aniqlik ham nutqning kommunikativ sifatini ta'minlovchi shartlardan biridir.

Nutqning aniqligi deyilganda, ifodalanayotgan fikrga, voqelikka soʻz va terminlarning muvofiq kelishidir. Yaʼni shakl bilan mazmun mutlaqo mos boʻlmogʻi nutqning aniqligini taʼminlaydigan omillardir. Nutqning aniq boʻlishi uning shakllanishida ishtirok etuvchi nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik omillarga ham bogʻliq boʻladi. Bu esa, til va tafakkurning oʻzaro aloqadorligi bilan oʻlchanadi. Tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalar hamda voqelik bilan ularning nutqdagi inʼikosi oʻrtasidagi aynan muvofiqlik nutqning aniqligini taʼminlaydi.

Nutqda tushunchani ifodalash uchun soʻzni oʻz oʻrnida qoʻllay olmaslik nutq aniqligiga putur yetkazadi. Aniqlikni buzuvchi holatlarga, asosan, quyidagilar sabab boʻladi:

a) sinonimlarni notoʻgʻri qoʻllash: *fuqaro, shaxs, subyekt, inson* soʻzlarining oʻrnini almashtirib boʻlmaydi;

b) paronimlarni notoʻgʻri qoʻllash: *tizim-tuzum, isloh-istiloh, istiqlol-istiqbol, diplomat-dilomant...*;

c) soʻz tartibining oʻrnini almashtirib qoʻllash:

Jinoyatchi semiz portfelli kishi edi. *Jinoyatchi portfelli semiz kishi* edi. (Birinchi gapda jinoyatchining *portfeli*, ikkinchi gapda uning oʻzi *semiz* ekanligi anglashiladi). Jismoniy shaxs moliya yili davomida *har bir ishlab daromad olgan oy uchun* eng kam ish haqining bir baravari miqdorida chegirma qilinish huquqiga ega. (OʻzR Soliq kodeksi, 54-modda). Keltirilgan moddada soʻzlar tartibining oʻzgarishi mazmunning yoʻqoluviga olib kelgan. Aslida bu modda adabiy til meʼyorlariga muvofiq quyidagicha berilishi lozim edi: Jismoniy shaxs moliya yili davomida *ishlab daromad olgan har bir oy uchun* eng kam ish haqi miqdorida soliqqa tortiladi. Bunday gʻaliz moddalar davlatning fuqarolariga tushunarli boʻlmaydi. Boʻlgʻusi mutaxassislarning asosiy vazifasi ifodalanayotgan fikrning boshqalar tomonidan toʻlaqonli qabul qilinishiga erishishdan iborat boʻlmogʻi lozim.

Shu sababdan til birliklarini maqsadga muvofiq qoʻllash uchun adabiy tilning qoidalari, meʼyorlarini yuqori darajada bilish taqozo etiladi.

Nutqning mantiqiyligi. Fikr, tafakkur qilish sog'lom bo'lsa, nutq ham talab darajasida bo'ladi. Fikr noto'g'ri bo'lsa, nutq mantiqiy jihatdan tugal bo'lmasligi aniq. Grammatik jihatdan shakllanmagan nutq ham, nutqda noo'rin qo'llanilgan lug'aviy birliklar, grammatik shakllar ham mantiqqa putur yetkazadi.

Nutqning mantiqiyligi faqat lisoniy hodisa bo'lmasdan, ekstralingvistik hodisa sifatida ham namoyon bo'ladi. Agar yurist tilning butun qoidalarini yaxshi bilsada, o'zi fikr yuritayotgan mavzuni yaxshi bilmas ekan nutqning mantiqiyligi yuqori darajada bo'lmaydi. Zero, ulug' mutafakkir Forobiy to'g'ri ta'kidlaganidek, «Mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ham tafakkurni haqiqiy yo'ldan olib borish uchun aqlni to'g'rilab turadi».

Nutqda mantiqiylikka erishish uchun avvalo bir fikrni ikkinchi fikrga bog'lay olish, mavzuning muqaddima, asosiy qism, hamda xotima qismini to'g'ri joylashtira olish, fikr yuritilgan mavzu yuzasidan tegishli xulosalar chiqara olish mahoratini shakllantirish zarurdir. Har qanday voqeiylik yuzasidan aytilayotgan mulohazalar yuqorida sanab o'tilgan zaruriy qismlarga ega bo'ladi, agar bu qismlar tartibi o'zgartirilsa, mantiq yo'qolishi, maqsad amalga oshmasligi aniq. Shuning uchun nutqiy mantiq talabiga muvofiq gaplar o'rtasida ham izchillik bo'lishi, ularning birida bayon etilgan fikr ikkinchisi orqali to'ldirilishi kerak. Bu holat ma'lum bir fikrning tugashiga qadar davom ettirilishi lozim. Gaplar o'rtasida fikriy izchillikni yo'qotish bilan mantiqiylikka putur yetadi.

Demak, tushunchalar uchun muqobil bo'la oladigan so'zlar, terminlarni o'z o'rnida qo'llay olish; ohang, so'zlarning bog'lanishi, so'zlar tartibi, gaplarning turlarini mazmunga muvofiqligini ta'minlay olish mantiqiylikning asosini tashkil etadi. Ya'ni voqeiylikka mos kelmagan nutqda mantiqiylik tugal bo'lmaydi.

Nutqning mantiqiyligiga putur yetkazuvchi lisoniy jihatlar quyidagilardan iborat:

Nutqda ayrim soʻzlarning tushirib qoldirilishi: *Jinoyatchi oʻz sherigini belgilangan joyda kutib oldi. Uning qoʻlida sumka bor edi.* (Kimning qoʻlida sumka boʻlgan? Jinoyatchining qoʻlidami yoki sherigining?).

Rus guruhini tamomlagan baʼzi yuristlarning *u* va *oʻ* harflarining farqiga bormasligi: *Savollar guvohni uylantirib qoʻydi.*

ʻ ayirish belgisining qoʻllanilish doirasini bilmaslik: *Jinoyatchining davolari isbotlanmadi.*

x va *h* tovushlarini yozuvda toʻgʻri qoʻllay olmaslik: *Daraxt shohlarida qotillikning izi topildi.*

Nutqning tozaligi. Nutqning kommunikativ sifati faqat va faqat adabiy til doirasida boʻlgandagina shakllanadi, toʻlaqonli boʻladi. Nutqning tozaligi deyilganda ham nutqning adabiy til meʼyorlariga muvofiqligi tushuniladi.

Nutq madaniyati haqida gapirilganda bevosita insonning nutqda nomeʼyoriy soʻzlarni qoʻllamasdan, nutqning tozaligiga putur yetkazuvchi nuqsonlarsiz fikr ifodalashi koʻzda tutiladi.

Nutqning tozaligini buzuvchi qusurlarga quyidagilar kiradi:

- Nutqda adabiy tilga xos boʻlmagan soʻzlar, dialektizmlar, yaʼni shevaga oid soʻzlarni qoʻllash. Dialektizmlar badiiy asar tilida maʼlum bir estetik vazifada — ijodkorning maqsadi va niyatini amalga oshirishda tasviriyl vosita sifatida qoʻllansa-da, madaniy nutqqa soya soluvchi vositadir. Huquq-tartibot tizimida faoliyat koʻrsatayotgan xodimlar nutqida ham bunday holatlar tez-tez koʻzga tashlanadi. Baʼzi yuristlarimiz muloqot jarayonida hamon oʻz nutqini nazorat qila olmayotirlar. Shevaga oid soʻzlarni nutqda tez-tez qoʻllash adabiy til meʼyorining buzilishiga sabab boʻladi, natijada nutqning tozaligiga putur yetadi. Masalan, *kelopti*, *ketvotti*, *bordiz*, *yoshulli*, *bolish* (*yosti*), *garmdori* (*qalampir*), *doda*, *shoti*, *gashir* kabi.

Varvarizmlar — oʻzbek adabiy tiliga oʻzlashmagan xorijiy soʻzlardir. Nutqda oʻzbek tilida muqobili boʻla turib oʻzlashmagan xorijiy soʻzlarni, yaʼni varvarizmlarni qoʻllash nutqning tozaligini, sofligini buzadi. Amaliyotdagi

yuristlarning aksariyati nutqida bu holatni kuzatish mumkin. Masalan, *voobshe, obshitada yashaydi, zaynit, tak (xo'sh deyish o'rniga), obsujdat qilish kerak, prelest, uchebniy chast, zayavleniye, akt...* Bu holat birinchidan, nutqning tozaligiga salbiy ta'sir etsa, ikkinchidan, ziyolining madaniy saviyasini, ma'naviy qiyofasini pasaytiradi.

Adiblarimiz varvarizmlardan xorijiy rasm-odatlarni tasvirlashda, Ba'zan chet el madaniyati oldida sajda qiluvchi personajlar nutqini individuallashtirishda foydalanadilar.

Jargon va argolar — biror ijtimoiy guruh o'rtasida qo'llaniladigan va ularning talablarini ifodalovchi maxsus so'z va iboralar. Jargonlar fikrni boshqalardan sir tutish uchun qo'llaniladi. Jargonlar o'ziga xos sun'iy, shartli so'zlardir.

Savdogarlar, o'g'rilar, qimorbozlar, otarchilar, ba'zi dangasa talabalar o'ylab topgan xufyona so'zlar jargon deb yuritiladi. Masalan, *ment (militsiya), ko'ki (AQSH pul birligi), sallasini olmoq (kallasini olmoq), mejdunarodniy (talabalar nutqida «3» baho)* va boshqalar.

Jamiyatda tekinxo'rlik, boshqalar hisobiga yashash, maishiy buzuqlik yo'liga o'tib olgan ma'naviy buzuq guruhlar tomonidan qo'llaniladigan maxsus so'zlar argo deyiladi.

Masalan, *loy, yakan (pul), bedana (to'pponcha), pero (pichoq), dar (go'zal)* va h.q. Bunday g'ayritabiiy so'zlar, nutq softligi va tozaligini pasaytiradi.

Kanselarizmlar — rasmiy uslubga xos so'z va birikmalar. Masalan, *yuqorida qayd etilgan, quyida bayon qilingan, ...unvoni berilsin, zimmasiga yuklansin, topshirilsin, tadbirlarni ishlab chiqsin...*

Qat'iy shaklga kirgan bunday tayyor so'z va birikmalar hujjat matnlariga alohida rasmiylik ma'nosini beradi. Lekin kanselyarizmlar o'zi aloqador bo'lmagan boshqa nutq ko'rinishlarida, xususan so'zlashuv nutqida qo'llansa, nutqning tozaligiga putur yetkazadi.

Vulgarizmlar — qo'pol, haqorat mazmunidagi so'zlar. Vulgarizmlardan badiiy asarlarda salbiy qahramonlarning dag'alligi,

qo'polligi va madaniyatsizligini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Lekin bunday so'zlarning nutqda qo'llanilishi salbiy hodisadir.

Parazit so'zlar — ortiqcha qaytariqlar, bekorchi so'zlardir. So'zlovchining tilga e'tiborsizligi tufayli yuzaga keladi va doimiy qo'llanilib borilsa, odatga aylanib qolishi mumkin. Masalan, *ya'ni, demak, xo'sh, tak* va b. Bunday lug'aviy birliklarni me'yoridan ortiq qo'llash nutqning saviyasini pasaytiradi.

Nutqning ta'sirchanligi. Ma'lumki, nutqning asosiy maqsadi tinglovchining faqat qulog'ini emas, balki qalbini ham zabt etishdir. So'zning turli ma'no qirralarini ham ko'ra olishga intilish, nutqdagi so'zlarning favqulodda uyg'unligini ta'minlash notiqdan katta mehnat talab etadi.

Nutqning ta'sirchanligini ta'minlash nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik omillarni ham o'z ichiga oladi. Ekstralingvistik omillarga tilga bog'liq bo'lmagan shart-sharoitlar kiradi. Bu avvalo, notiqning yoritilishi lozim bo'lgan mavzu yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lishini taqozo etadi. Mavzuni chuqur o'zlashtirmagan notiqning tabiiyki, nutqida ta'sirchanlik bo'lmaydi. Bamisoli ummon bo'lgan tilimizdan bir fikrni bir qancha shaklu shamoyillarda ifodalash imkoniyatlari mavjud, ya'ni tilimizda har qanday voqea-hodisalarni ifodalash uchun so'z va iboralar topiladi, lekin muloqot vaziyati uchun eng uyg'un ifodani topa bilish nutq egasining bilimi, ma'rifatli madaniyati, mahoratu malakasiga bog'liq. Muloqot vaziyatining mohiyatiga chuqur yetmasdan tanlangan til birliklari, har qancha go'zal bo'lmasin, nutq egasining maqsadini ifodalay olmaydi.

Nutqning ta'sirchanligi deyilganda, asosan og'zaki nutq jarayoni ko'zda tutiladi. Og'zaki nutqda so'zdagi unli tovushlarni cho'zish orqali nutq ta'sirchanligi yuzaga keladi. Unlilarni cho'zish orqali *shodlanish, mamnunlik, taajjub, iztirob, o'kinish, g'azablanish, kinoya, kesatiq, piching* kabi qator hissiy bo'yoqlar ifolanishi mumkin.

Nutqiy ta'sirchanlik urg'u hamda so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib talaffuz qilish bilan yuzaga keladi: *o'-qi-may-san, ket-*

may-di, kel-may-di kabi soʻzlarda qatʼiy inkor ifodalanmoqda.

Ogʻzaki nutq talaffuzidagi ohangning tezligi, yuqori-pastligi ham taʼsirchanlikni oshiruvchi omillardir. Odatda, notiqlar nutq taʼsirchanligini oshirish maqsadida oʻz nutqlarini koʻtarinki ruhda bayon qiladilar. Bunday nutqlar, odatda, muhim qarorlar, axborotlar, farmoyishlar oʻqilganda ishlatiladi.

Maʼlumki, oʻzbek tili nutqiy vositalarga oʻta boy tillardan biridir. Nutqqa rang-baranglik berish, nutqiy badiiylikni kuchaytirish maqsadida koʻproq turli xil tasviriy vositalarga murojaat qilinadi. Ana shu til vositalaridan oʻrinli va unumli foydalana olgan notiqqina kishi qalbida hislar tugʻyonini uygʻota oladi.

Til kishilarning fikr-mulohazalarini keng va har tomonlama yoritib berishda chegarasiz imkoniyatlarga ega. Lekin ifodalanishi lozim boʻlgan fikr-mulohazalarning yuqori darajada boʻlishi uchun tilning tasviriy vositalarini, uning turli xil maʼno nozikliklarini tinmay oʻrganish lozim boʻladi. Ana shundagina qisqa jummalarda, matnlarda olam-olam fikrlarni ifodalay olish mumkin, chunki soʻz har qanday fikrning libosidir.

Notiq ijod qilar ekan, tilga befarq qaramaydi: undagi durdonalarni, javohirlarni teradi va joy-joyiga qoʻyishga harakat qiladi, soʻzlarga yangi va jozibali maʼno nozikliklarini yuklaydi. Hayot haqiqatining haqqoniy tasvirini (umuman har qanday fikrni) shakl, yaʼni soʻzlardan — til vositalaridan ajratgan holda tasavvur qilish mumkin emas. Zero, notiqning soʻzga munosabati uning hayotga boʻlgan munosabatidir.

2-§. Adabiy til meʼyorlari — nutq madaniyati mezonlari

Nutq madaniyatining asosiy mezonlari adabiy til meʼyorlari hisoblanadi. Adabiy til meʼyorlari deyilganda, til vositalarining umumxalqqa tushunarli boʻlgan muqobil variantlarini tanlash tushuniladi. Ana shu tanlab olingan variantlar hamma uchun

majburiy bo'ladi. Masalan, o'zbek adabiy tilidagi kelishiklar, zamon, tuslovchi qo'shimchalar respublikamiz hududida istiqomat qiluvchi barcha sheva vakillari uchun majburiy hisoblanib, bu me'yorning buzilishi nutq madaniyati zaiflashuviga olib keladi. Ya'ni qaratqich kelishigi qo'shimchasi o'rni tushum kelishigi qo'shimchasini qo'llash xatodir. Binobarin, qaratqich kelishigidagi so'zning ot yoki otlashgan so'zlar bilan bog'lanishi adabiy me'yor bo'lib, barcha uchun majburiydir. Bularning o'rni almashtirib qo'llash uslubiy xato hisoblanadi.

O'zbek adabiy tili me'yorlarini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiqdir:

1) so'z yoki termin qo'llash (leksik) me'yorlari; 2) talaffuz (orfoepik) me'yorlari; 3) so'z va gaplarda urg'uni qo'llash me'yorlari; 4) fonetik me'yorlar; 5) grammatik (morfologik va sintaktik) me'yorlar; 6) so'z yoki termin yasash me'yorlari; 7) imloviy (orfografik) me'yorlar; 8) punktuatsion me'yorlar; 9) uslubiy me'yorlar; 10) grafik me'yorlar.

3-§. So'z va termin qo'llash (leksik) me'yorlari

O'zbek adabiy tilining lug'aviy, ya'ni so'z qo'llash me'yorlari deyilganda, so'z variantlaridan hamma uchun tushunarli bo'lgan ko'rinishini tanlab olish tushuniladi. Xo'sh adabiy tilga so'z qayerdan, qaysi manbalardan tanlab olinadi? Adabiy til umumxalq tili (shevalar)ning «farzandi» hisoblanadi. Shuning uchun adabiy tilga hamma uchun tushunarli bo'lgan so'zlar umumxalq tilidan tanlab olinadi. Agar bir tushunchani ifodalash uchun shevalarda birdan ortiq so'z varianti bo'lsa (*norvon, shoti, zangi, uzangi*), ulardan eng muqobili, hamma uchun tushunarli bo'lgani tanlanib, qolganlari shevalarda qolaveradi. Yoki yuridik terminlar tizimiga *odam, kishi, inson, kimsa, bashar, shaxs* sinonimik qatoridan *shaxs* so'zini termin sifatida qabul qilish lug'aviy me'yor sanaladi. Chunki *shaxs* so'zida rasmiylik ma'nosi kuchlidir. Agar bu so'zni *javobgar shaxs, yuridik shaxs, mansabdor shaxs,*

jismoniy shaxs kabi huquqqa oid birikmali terminlar tarkibida qo'llasak, rasmiylik tusini yaqqol ko'rish mumkin. Bu so'zni uning boshqa variantlari bilan almashtirib qo'llash mutlaqo noto'g'ri bo'lib, bu esa lug'aviy me'yorning buzilishiga (*javobgar inson, yuridik odam* va h.k.) olib keladi.

Ijtimoiy hayotdagi har qanday o'zgarish va yangiliklar, asosan, tilning leksikasida o'z in'ikosini topadi. Shu bois tilning lug'at boyligi rivojlanadi, boyiydi. Bu hol lug'aviy me'yor masalasi bilan tilshunoslik muassasalari va soha mutaxassislari (yuristlar, mediklar, matematiklar va h.k.) doim hamkorlikda ish olib borishlari talab etiladi.

O'zbek adabiy tilining lug'aviy va terminologik me'yorlari ancha tartibga solingan. Ular imlo va izohli lug'atlarda o'z aksini topgan bo'lsada, yuridik terminlarning adabiy me'yorga solingan mukammal lug'atlari hali yaratildi deyish qiyin. Ayniqsa, *jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi* ga oid terminlar tizimida hamon bir tushuncha uchun ikki yoki undan ortiq terminlar qo'llanmoqdaki, ularni tartibga solish hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

Tilda paronimlar degan alohida lug'aviy qatlam mavjud bo'lib, talaffuzi va yozilishi bir-biriga yaqin, lekin ma'nolari tubdan boshqa-boshqa so'zlardir. Masalan, *o'tkazish-o'tqazish, asr-asir, istiqlol-istiqbol, tajriba-tarjima, devon-divan, diplomat-diplomant, tovlandi-toblendi, shox-shoh, davo-da'vo, quyilmoq-quyulmoq* va b.

Nutqda noaniqlikka yo'l qo'ymaslik uchun tildagi paronimlarni farqlay olish, ularning lug'aviy ma'nolarini to'g'ri anglay olish zarurdir. Nutqda paronimlarni noto'g'ri qo'llash turli g'alizliklarni keltirib chiqaradi. Fikrimizni quyidagi misollar bilan isbotlaymiz: Boboqul bilan Polvon yumshoq o'rindiqqa o'tirishganda og'ir yukka bardosh beraolmagan *devondan* beo'xshov ovoz chiqdi (*Gazetadan*).

Chanoqlardagi lo'ppi ochilgan paxtalar quyoshda yarqirab kumushdek toblanadi (*Gazetadan*).

Yod va *yot* hamda *qayd* va *qayt* paronimlarining o'rnini

almashtirib qo'llash yuridik hujjatlarning kuchini yo'qotadi: *Ayblanuvchi*: Yuqorida *qayt* etilgan barcha voqea-hodisalar, faktlar, dalillarning hammasi menga *yot*. Aslida esa adabiy til me'yorlariga muvofiq yuqorida keltirilgan yuridik jumla quyidagicha yozilishi lozim: Yuqorida *qayd* etilgan barcha voqea-hodisalar, faktlar, dalillarning hammasi menga *yod*.

Yer yuzida 3000 ga yaqin til mavjud bo'lsada, lekin sof bir til so'zlaridangina iborat bo'lgan til yo'q. Har bir tilda muloqot, munosabat tufayli u yoki bu tildan so'zlar o'zlashtiriladi. Natijada tilda o'zlashgan qatlami yuzaga keladi. Shuningdek, o'zbek tili leksikasida ham o'z qatlamdan tashqari boshqa tillardan (albatta qarindosh bo'lmagan tillardan) o'zlashgan so'zlar qatlami mavjuddir. Ammo ba'zi so'z va terminlar rus tili va u orqali boshqa yevropa tillaridan ko'r-ko'rona kalka qilish asosida qabul qilinganligi tufayli o'zbek adabiy tilining me'yor va mezonlariga mos kelmaydi. Natijada g'ayritabiiy yuridik terminlar yuzaga kelib qoladi. Masalan, *Jinoyat kodeksi* termini rus tilidan so'zma-so'z tarjima qilingan (Ugolovniy kodeks). Bu termin aslida o'zbek adabiy tili me'yorlariga muvofiq «Jinoyat va jazo haqidagi qonunlar majmui» yoki «Jinoyat va jazo kodeksi» tarzida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Rus tilidan kalka qilingan (so'zma-so'z tarjima qilingan) *Jinoyat kodeksi* termini esa jinoyatga tegishli kodekslar (qonunlar majmui) degan tushunchani anglatadi. Yoki rus tilidagi *denymamckoe rassledovanie* termini *deputat taftishi* deb tarjima qilinganligi adabiy til me'yoriga to'g'ri kelmaydi. Ma'lumki, taftish so'zining ruschasi «ревизия»dir.

Mazkur terminni *deputat tekshiruvi* deb tarjima qilish o'zbek adabiy tili me'yorlariga to'g'ri keladi va tugal fikr anglatadi.

Ayniqsa, «Jinoyat ijroiya huquqi» predmetining nomlanishi o'zbek tiliga noto'g'ri tarjima qilinganligi tufayli kulgili holat yuzaga kelganligini anglash qiyin emas. Ya'ni mazkur atamaning ma'nosiga e'tiborni qaratsak, *jinoyatlarni ijro etish, amalga oshirish huquqi* degan ma'nolarni anglatadi. Aslida esa o'zbek adabiy tili me'yorlariga muvofiq bu atama «Jazoni ijro etish

huquqi” yoki “Jazo ijrosi” shaklida qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir. Bir vaqtlar bunday ko‘rinishdagi atamalar rus tilidan so‘zma-so‘z tarjima qilingan va fanga kiritib yuborilgan. Vaqtlar o‘tishi bilan bunday atamalar odatiy holga kirib qolgan. Bu o‘z-o‘zidan huquq sohasidagi mutaxassisning til qonuniyatlarini yaxshi o‘zlashtirmaganligidan dalolat beradi. Bunday holat savodsizlik oqibati natijasidir. Til qonuniyatiga muvofiq o‘zbek tiliga qaysi tildan so‘z o‘zlashtirilar ekan, avval o‘zbek tilining o‘zidan bunday so‘zlarning muqobilini qidirish lozimdir. Agar boshqa tillarda o‘zlashayotgan so‘zlarning muqobili o‘zbek tilidan topilmasa, so‘zma-so‘z emas, balki ma’noviy tarjima qilish maqsadlidir.

4-§. Yurist faoliyati va adabiy tilning talaffuz me’yorlari

Adabiy talaffuz yurist faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tergov jarayonida ham, sud jarayonida ham talaffuz me’yorlariga amal qilish yurist nutqini rasmiylik bo‘yog‘i bilan bezaydi. Talaffuz me’yorlari deyilganda, til birliklarining og‘zaki nutq jarayonida adabiy til me’yorlariga muvofiq kelishi tushuniladi. Ammo o‘zbek adabiy tilining og‘zaki me’yorlarini amaliyotdagi yuristlarning barchasi yuqori darajada egallagan deyish qiyin. Nufuzli rasmiy idoralarda faoliyat ko‘rsatayotgan ba’zi yuristlarimizning nutqida harmon mahalliy shevalar ta’siri kuchli. Ayniqsa, Xorazm va Toshkent shevalari vakillari bo‘lgan yuristlar nutqida bu holat aniq seziladi. Masalan, huquq-tartibot tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan Toshkent shevasi vakillari hozirgi zamon fe’lining adabiy tilda -yapti qo‘shimchasi bilan shakllanishini o‘rta maktabdan (o‘n yillik ta’lim jarayoni buning dalili) yaxshi bilishadi. Ilmiy, badiiy, publitsistik asarlarni o‘qiganlarida ham bu qo‘shimchani yapti ekanligini ko‘rganlar va o‘qigan bo‘lsalar ham o‘z shevalarida -votti shaklida talaffuz etishlarini oqlab bo‘lmaydi. Talaffuz me’yorlarining buzilishiga quyidagi holatlar sabab bo‘lmoqda: huquq-tartibot tizimida ham ba’zi xodimlar madaniyroq

gapirypman deb *men*, *sen* olmoshlarini *man*, *san* tarzida ishlatadilar. Ular bu soʻzlarning ilmiy va badiiy adabiyotlarda qanday yozilganligini koʻrgan va oʻqigan boʻlsalar ham adabiy til meʼyorlariga rioya qilmaydilar. Aksariyat huquq-tartibot xodimlari *x* va *h* tovushlarini toʻgʻri talaffuz qilmaydilar, yozuvda ham ularni farqlay olmaydilar. Orfoepiya qoidalariga muvofiq talaffuz etish va imlo qoidalariga muvofiq yozishni jiddiy oʻrganish ularning vazifasi boʻlishi lozim, chunki har ikki tovush maʼno ayiradi: xush-hush, shox-shoh, xol-hol, uxlamoq-uhlamoq va hokazo.

Bundan tashqari adabiy tilning ogʻzaki nutq meʼyorlari doirasida ham yetarli qatʼiylashmagan, talaffuzida ikkilanish boʻladigan bir qator lisoniy hodisalar bor boʻlib, ular quyidagilar: 1) rus tili va boshqa gʻarb tillaridan oʻtgan soʻz va terminlarni shevaga muvofiq talaffuz etish; 2) soʻzni yozilgandek, yaʼni yozma shakliga taqlidan talaffuz etish; 3) oʻzlashgan soʻzlarning urgʻusini notoʻgʻri qoʻllash va h.k.

Yuqoridagi kamchiliklarning oldini olish maqsadida, dastlab oʻzbek adabiy tilining tarkibiy qismi boʻlgan yuridik tilning talaffuz meʼyorlari nazariy jihatdan asoslanishi, talaffuz va imlodagi farqlarning oʻziga xos jihatlari yoritilishi, oʻzlashgan soʻzlarning talaffuz meʼyorlari maʼlum bir tizimga keltirilishi lozim. Oʻzbek yuridik tilining talaffuz qonuniyatlari umumlashtirilib, talabalar nutqini takomillashtirish uchun ularga taqdim etilishi zarur. Boʻlgʻusi yuristlar nima uchun soʻzlar yozuvda boshqa-yu, talaffuzda oʻzgacha ekanligining sabablarini tushunsinlar. Bu haqda tilga oid darslik va qoʻllanmalarda fikrlar mavjud boʻlsa-da, lekin yuristlar uchun maxsus risola va qoʻllanmalar, lugʻatlar yaratilishi maqsadlidir. Shundagina yuristlar nima sababdan *prezumpsiya*, *afv*, *hadiya*, *hukm* yoziladi-yu, *prezumsiya*, *avf*, *hadiya*, *hukum* tarzida talaffuz etilishini, shuningdek oʻzlashgan soʻz va terminlarni qanday talaffuz etilishini bilib oladilar va shu asosda ularning talaffuz savodxonligi oshadi.

Fikrni tinglovchiga adabiy til meʼyorlariga muvofiq yetkaza

olish ohang va urg'uning to'g'ri qo'yilishiga ham bog'liqdir. Ohang me'yori so'zlovchining o'zgalarga qanday muomala qilayotganini, suhbatdoshiga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Sobiq sovet tuzumi huquq idoralarida ishlagan xodimlar faoliyatida ohang *qo'rqitish, do'q-po'pisa* vositasi bo'lgan bo'lsa, huquq madaniyati davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan hozirgi kunda ohang ziyolining, jumladan, yuristning insonlar manfaatini himoya qiluvchi xodim ekanligini ko'rsatuvchi omilga aylanishi lozim. Biroq yuqoridagi holat hozirgi kunda ham ko'zga tashlanadiki, buni kechirib bo'lmaydi. Nutqning o'ziga xos sintaktik tuzilishi, so'zlarning gapdagi o'rni, gap tarkibidagi eng ahamiyatli so'zlarni pauza orqali sekin yoki tez, baland yoki past ohangda talaffuz etilishi bilan so'zlovchi nutqida turli xildagi ohang (intonatsiya) hosil bo'ladi. Sud jarayonida, ayniqsa, sud va advokat nutqida ohang va talaffuz alohida ahamiyatga ega. Chunki sud hukmi davlat nomidan o'qiladi. Hukmning aniq, tiniq, chiroyli talaffuz orqali o'qilishi davlatning fuqarolar oldidagi nufuzini oshiradi. Ular ongida huquq-tartibot idoralari, xususan sud jazolovchi organ emas, balki himoyalovchi organ ekanligi haqida tasavvur hosil bo'ladi.

Nutq jarayonida ohang, asosan, quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Nutq oqimini ma'noli bo'laklarga ajratish va shu asosda mazmun ifodalash. Ohang va pauzaning o'zgarishi gap mazmunini tubdan o'zgartirib yuboradi. Masalan: *Yaxshi, tashabbusni qo'llaymiz. Yaxshi tashabbusni qo'llaymiz. O'lim yo'q, shafqat!. O'lim, yo'q shafqat!.*

2. Gap va so'zlarning o'zaro bog'lanishidagi murakkab holatlarni belgilashda, tugal fikr ifodalash yoki so'roqni ajratishda; ayrim gap bo'laklarida, ya'ni uyushgan, ajratilgan bo'laklar, undalma va undov gaplar, atov gap yo to'liqsiz gap chegarasini aniqlashda ohang muhim o'rin tutadi. Masalan, *Yangiyer (ot, atoqli ot) yangi yer (so'z birikmasi). Tong. (atov gap), Tong? (so'roq gap), Tong!.. (his-hayajon gap).*

3. Nutqda rasmiylik ma'nosini ifodalash. Bunda so'zlovchi gap urg'usidan foydalanadi. So'zlovchi mavzuga oid muhim so'zlarni alohida ta'kidlab, baland ovoz bilan talaffuz qiladi, shu asosda shu so'zga tinglovchining diqqatini jalb qiladi. Gap urg'usidan to'g'ri foydalanish, ayniqsa, sud hukmi o'qilishida muhim ahamiyatga egadir.

5-§. Imloviy (orfografik) me'yorlar

Imloviy me'yorlar ham nutq madaniyatining asosiy mezonini hisoblanadi. Imloviy me'yorlar tilshunoslar tomonidan ishlab chiqiladi va ijtimoiy hayotga tavsiya etiladi. Mutaxassislar yaratgan va jamoatchilik muhokamasidan o'tgan amaldagi imlo me'yorlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan 1956-yil 4-aprelda tasdiqlangan.

«O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari» qabul qilinganligiga ham 45-yildan ko'proq vaqt bo'ldi. Bu qoidalar hozirgi kunga qadar o'zbek xalqining savodxonligi uchun xizmat qilib kelmoqda. Lekin davrlar o'tishi, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, aniqrog'i yangi tarixiy sharoitda mustaqillik siyosati yangi o'zbek alifbosini yaratish vazifasini kun tartibiga qo'ydi. Uzoq davom etgan umumxalq muhokamasi natijasida lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosiga o'tish ma'qul topildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" qonun qabul qildi.

Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib va o'zbek yozuvining lotin alifbosiga o'tilgan 1929–1940-yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib, keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlarni inobatga olgan holda Respublikaning har taraflama kamol topishini va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qilishni nazarda tutadi.

Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tilishi o'zbek tili imlosini ham isloh qilishni taqozo etdi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yil 24-

avgustda «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini»ni tasdiqladi. Lotin yozuviga 2010-yilda to'liq o'tiladi va shundan keyin eski qoidalar o'z kuchini yo'qotadi.

Tilda so'zlar va qo'shimchalarning ma'lum qoidalar asosida yozilishi ana shu «O'zbek imlosining asosiy qoidalarini»ga bo'ysunadi.

O'zbek imlo quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Fonetik yozuv qoidasi

O'zbek imlosining asosiy qoidalaridan biri fonetik yozuv bo'lib, so'z va uning tarkibiy qismlari (o'zak va qo'shimchalar)ni og'zaki nutqqa, ya'ni talaffuzga mos ravishda yozish tamoyilidir. Masalan, jo'nalish kelishigi — *ga* qo'shimchasi bilan yoziladi: *uyga, shaharga*; lekin *k, q, g* tovushlari bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda talaffuzga muvofiq yoziladi: *eshikka, qishloqqa, toqqa*. Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarga qo'shilganda: *pedagogga, mitingga* shaklida o'qiladi va yoziladi.

Bundan tashqari, so'z va uning tarkibiy qismlari asosan quyidagi holatlarda fonetik yozuv qoidasiga muvofiq yoziladi:

a) *og'iz, shahar, ko'ngil, singil, bag'ir, burun, o'g'il* kabi so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda *i, a, u* tovushlari tushirib talaffuz etiladi va shunga mos ravishda yoziladi: *og'zim, shahrim, ko'nglim, singlim, bag'rim, burnim, o'g'lim* kabi;

b) *ot, son, ong, yosh* kabi so'zlarga fe'l yasovchi qo'shimchalar qo'shilsa *o* tovushi *a* tovushiga aylanadi va shunday yoziladi: *ata, sana, angla, yasha*;

c) *ikki, yetti, olti* sonlariga jamlovchi son hosil qiluvchi *-ov* yoki *-ovlon* qo'shimchasi qo'shilganda bir *i* tovushi tushirib talaffuz etiladi va talaffuzga muvofiq yoziladi: *ikkov, yettov, oltov*;

d) — *a* bilan tugagan so'zlarga *ot* yasovchi qo'shimchalar qo'shilsa, o'zakkdagi *a* tovushi *o* tovushiga aylanadi va shunday yoziladi; *so'ra+q=so'roq, bo'ya+q=bo'yoq, sayla+v=saylov, tanla+v=tanlov, sana+q=sanoq*.

2. Morfologik yozuv qoidasi

Morfologik yozuv so'z va uning tarkibiy qismlarini og'zaki

nutqqa, ya'ni talaffuzga mos ravishda emas, balki asliga muvofiq yozishdir. Masalan, o'tgan zamon fe'li qo'shimchasi *-di* qanday talaffuz qilinishidan qat'i nazar, har doim *-di* yozilishi imloviy me'yordir: *ket+di=ketti* talaffuz etiladi va *ketdi* yoziladi; *o'tdi, qaytdi, unutdi, aytdi* so'zlari ham yuqorigidek yoziladi. *-dan, -da* qo'shimchalari qanday talaffuz etilishidan qat'i nazar asliga muvofiq yoziladi: *Otdan baland, itdan past* (*Ottan baland ittan past tarzida talaffuz qilinadi*); *ishta-ishda, Toshkentta-Toshkentda, pasta-pastda* va h.k.

Ba'zi so'zlar tarkibida jo'nalish kelishigi qo'shimchasi *-ka* tarzida talaffuz qilinsa-da, morfologik yozuv qoidasi asosida, ya'ni asliga muvofiq yoziladi: *ishka-ishga, maktabka-maktabga* va h.k.

3. Shakliy yozuv qoidasi

Ma'lumki, sof o'zbekcha so'zlarning boshi va oxirida undoshlar yonma-yon qo'llanmaydi. Lekin o'zbek tiliga boshqa tillardan o'tgan so'zlarning boshida ham, oxirida ham undoshlar yonma-yon qo'llanilishi mumkin: *prokuror, trolleybus, stol, stul, drama, spirt, fikr, zikr, zavq, shavq*.

Demak, o'zbek tiliga boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarni o'sha tillarda qanday shaklda yozilsa, o'zbek tilida ham xuddi shunday shaklda yozish qoidasi shakliy yozuvdir: *zoologiya, institut, universitet, Nyu-York, biologiya, konstitutsiya*. Shakliy yozuv fanda grafik yozuv ham deb yuritiladi. Ana shu shakliy yozuv qoidasini yaxshi bilmaganliklari sababli, ba'zi yuristlarimiz "afv" so'zini va "afv" so'zi ishtirok etgan qo'shma fe'llarni "avf" tarzida talaffuz etadilar va talaffuzlariga muvofiq "avf" shaklida yozadilar. O'zbek tilining izohli lugatida "afv" so'ziga quyidagicha izoh berilgan: Afv — arab tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, kechirim, uzr ma'nolarini bildiradi. Masalan: Sizdan bu ulug' gunohim uchun afv so'rab, haydalgan o'g'lingiz — Otabek Yusufbek Hoji o'g'li. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Afv etmoq (yoki qilmoq) — kechirmoq, uzrni qabul qilmoq, gunohidan o'tmoq. Masalan: Bu lapashangligimiz uchun rahnomalarimiz bizni afv eturlarmi? H.G'ulom, Mash'al.

Hozirgi kunda "afv", "afv etilsin" so'zlari huquqqa oid terminga aylangan bo'lib, jazoga hukm qilinganlarning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qarori bilan qisman yoki butunlay ozod qilinishi ma'nolarini anglatadi.

Imlo qoidalarini o'rganish savodxonlikning asosi hisoblanadi. Ayniqsa bosh harflar va qisqartmalarning imloviy me'yorlarini o'rganish ham nutq madaniyatining mezonlaridan biridir.

Bosh harflar imlosi

Bosh harflar quyidagi holatlarda qo'llaniladi:

1. Gap boshidagi birinchi so'zning birinchi harfi bosh harf bilan yoziladi.

2. She'rlarda har bir misra bosh harf bilan boshlanadi:

*Yaxshidir achchiq haqiqat,
Lek shirin yolg'on yomon,
Ul shirin yolg'onga mendek
Aldanib qolgan yomon.*

(E.Vohidov).

3. Atoqli otlarning birinchi harflari bosh harf bilan yoziladi: Fafur Fulom, Samarqand, «Zarafshon», Pomir, «O'tgan kunlar», «Yoshlik» (jurnal)...

4. Rasmiy ish qog'ozlarida qo'llaniluvchi Siz va O'zingiz olmoshlarining birinchi harfi bosh harf bilan yoziladi.

5. Birinchi harflardan tuzilgan qisqartma otlar: BMT, AQSH, MDH, IIV, FK, JK, FPK, JPK.

6. Oliy tashkilotlar va faxriy unvonlarning har bir so'zining birinchi harfi bosh harflar bilan yoziladi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Qahramoni.

Qisqartma so'zlar imlosi

Bosh harflardangina iborat bo'lgan qisqartma so'zlar bosh harflar bilan yoziladi: BMT, MDH, TDYI va b.

Ism-familiyalar qisqartirib olinsa, harflar orasiga nuqta qo'yiladi, lekin og'zaki nutqda to'liq o'qiladi: D.Z.Mirzayev, H.B.Berdiyev, O.T.Hoshimova.

Qisqartma so'zlar bo'g'in yoki qismlardan tuzilgan bo'lsa, birinchi harf bosh harf bilan yoziladi:

Toshunivermagi, Toshavtomash. Agar birinchi soʻz turdosh ot boʻlsa, barcha harflar kichik yoziladi: medkollej, akademitsey.

Birinchi soʻzning bosh qismi, keyingi soʻzlarning birinchi harflaridan tuzilgan qisqartmalarda birinchi soʻz bosh qismining birinchi harfi va keyingi soʻzlarning birinchi harflari bosh harf bilan yoziladi: SamDU, ToshMI...

6-§. Yuridik til va grammatik meʼyor

Grammatik meʼyor deyilganda oʻzbek tili grammatik qurilishi qonuniyatlari asosida belgilangan tartib-qoidalar, usullar, tamoyillar va shakllar mezonini tushuniladi. Oʻzbek tili grammatikasi tilshunoslikning nazariy jihatdan ancha takomiliga yetkazib ishlangan, soʻz shakllari, qoʻshimchalar, soʻz birikmalari va gap tuzilishi meʼyorlashgan boʻlimidir.

Sheva va dialektlar bilan qiyoslangan holda adabiy til uchun turlovchi va tuslovchi hamda soʻz yasovchi qoʻshimchalarning eng maqbul variantlari tilshunoslarning tomonidan tavsiya etilgan va grammatik meʼyor sifatida belgilab berilgan. Shunga qaramay, nutqda bu meʼyorlarga hamma vaqt ham rioya qilinmayotir. Ayniqsa, *-ning* oʻrnida *-ni* shaklini notoʻgʻri qoʻllash hollari uchrab turibdi: *Dekanni xonasida koʻrdim. Dekanning xonasida koʻrdim.* Birinchi gap mazmunidan dekaning oʻzini, ikkinchi gap mazmunidan esa boshqa bir kishini koʻrganlik maʼnosi anglashiladi. Shu bois tushum va qaratqich kelishiklarining qoʻllanilish meʼyorlarini bilmaslik qoʻpol xatolarni yuzaga keltirib chiqarishi mumkin.

Qonunlar tilida ham bu kabi grammatik meʼyorlarga eʼtiborsizlik hollari uchraydi. Grammatik meʼyorlarga qatʼiyan amal qilish qonun tilida muhimdir. Biroq hozirda qonun ijodkorlarining filologik tayyorgarligi yuqori darajada boʻlmaganligi sababli yoki qonunshunoslarning eʼtiborsizligi tufayli qonunlar moddalari tarkibida adabiy tilning grammatik meʼyorlari buzilganligi koʻzga tashlanadi. Bu holat esa oʻz-oʻzidan qonunlarda ifodalanayotgan mazmunning yoʻqoluviga

olib keladi. Natijada qonunlar xalqqa tushunarsiz bo'lib qoladi va bunday qonunlarning ijrosi esa sust kechadi. Fikrimiz isboti uchun misollarga murojaat qilaylik:

Tergovchining ishni o'z qo'liga olganligi to'g'risidagi qarorning kopyasini 24 soat ichida prokurorga yuboradi (JPK, 113-modda.).

Moddada qaratqich kelishigining qo'shimchasi noo'rin qo'llanilganligi uchun mantiqiy izchillik yo'qolgan. Agar e'tibor berilsa gapning kesimi *yuboradi*, egasi esa *tergovchi*, lekin unga qaratqich kelishigi qo'shimchasi qo'shilganligi tufayli, uslubiy g'alizlik yuzaga kelganligini sezish qiyin emas. Adabiy til me'yorlariga muvofiq *tergovchining* so'zi bosh kelishikda qo'llanganda edi fikr g'alizligi yuzaga kelmagan bo'lar edi.

Quyidagi moddada esa qonun ijodkorlarining e'tiborsizligi tufayli tushum kelishigi qo'shimchasi (ayblanuvchini) o'rinda qaratqich kelishigi (ayblanuvchining) qo'shimchasi qo'llanilgan. Bu esa adabiy til me'yorlariga muvofiq kelmaydi. Oqibatda modda mazmuni tugal bo'lmay qolgan: *Agar bir ayblanuvchining himoya manfaati ikkinchisining himoya manfaatiga zid kelsa, bitta shaxsning o'zi ikki yoki bir necha ayblanuvchining himoya qilishi mumkin emas.* (JPK, 44-modda.). Ba'zan kelishik qo'shimchalari o'rinsiz ravishda (ortiqcha) ishlatiladi:

Tasvir va ovoz yozuvlarini ish bilan birga saqlanadi va dastlabki tergov tugagach, muhrlanadi. (JPK, 117-modda.). Moddada *tasvir va ovoz yozuvlarini* so'zidagi *-ni* tushum kelishigi qo'shimchasi ortiqchadir. Ma'lumki, ega har doim bosh kelishikdagi so'zlar bilan ifodalanib, gapning nima yoki kim haqida ekanligini bildiradi. Shu sababdan ham mazkur moddani quyidagicha tuzish maqsadga muvofiqdir:

Tasvir va ovoz yozuvlari ish bilan birga saqlanadi va dastlabki tergov tugagach muhrlanadi.

Quyidagi modda tarkibidagi *hujjatlarida* so'zida o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi ortiqcha va moddadagi *ona tiliga* birikmasi *ona tilisida* shaklida ifodalanishi lozim edi. Qiyoslang:

Tergov va sud hujjatlari ushbu Kodeksda belgilangan tartibga muvofiq ayblanuvchiga uning ona tilisida yoki u bilgan boshqa tilga tarjima qilib topshiriladi. Kesimdan egaga nima? So'rog'i berilsa ega — tergov va hujjat so'zlari ekanligi ayon bo'ladi. Qonunshunoslarimiz oddiygina eganing bosh kelishikda kelishini ham bilmaganliklari achinarlidir.

Tergov va sudlov hujjatlarida ushbu Kodeksda belgilangan tartibga muvofiq ayblanuvchiga uning ona tiliga yoki u bilgan boshqa tilga tarjima qilib topshiriladi. (JPK, 11-modda.). Ba'zi moddalarda qaratqich-qaralmish munosabatlari adabiy til me'yorlariga to'g'ri kelmaydi:

Jinoyat ishni qo'zg'atish rad etilganligi to'g'risida ariza yoki xabar bergan manfaatdor shaxsga, muassasa va tashkilotga ma'lum qilinadi (JPK, 54-modda.).

Sudya, xalq maslahatchisi,... ko'rilayotgan ishdan bevosita va bivosita manfaatdor bo'lsalar, ularning *jinoiat ish* ko'rishda ishtirok etishlari mumkin emas (JPK, 15-modda.). Mazkur moddalarda uchinchi shaxs egalik qo'shimchasi jinoiat ishi birikmasidan tushirilib, *jinoiat ish* tarzida ishlatilgan, natijada qaratqich bilan qaralmish o'zaro moslashmaganligi tufayli uslubiy g'alizlik yuzaga kelgan. Quyidagi moddalarda ham shu holatni ko'rish mumkin:

Er-xotindan biri o'zining birgalikdagi *umumiy mulk* bo'lgan uy-joy va avtomashinasini boshqa shaxslarga o'tkazganda, ikkinchisining bunga roziligi yozma formada ifodalanishi shart (Oila kodeksi, 26-modda.). *Ichimlik suvdan* foydalanish qoidalarini boshqa tarzda buzish (MHK, 68-modda.). 26-moddadagi *umumiy mulk*, 68-moddadagi *ichimlik suvdan* birikmalarida ham egalik qo'shimchasi qo'llanishi adabiy til talabidir. Qonun ijodkorlari fe'l nisbatlarini ishlatishda ham adabiy til me'yorlariga rioya qilmayotirlar. Ya'ni aniq nisbat o'rniga majhullik nisbatini qo'llash holatlari moddalar tarkibida ko'p uchraydi:

Tegishli vakolat berilgan organlar va mansabdor shaxslar o'z kompetensiyalari doirasida, qonunlarga aniq rioya qilgan

holda ma'muriy ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llanadilar (MHK, 8-modda.)

Sudyaga yoki xalq maslahatchisiga nisbatan berilgan otvod masalasini sud otvod beruvchining ishtirokisiz hal etiladi (JPK, 33-modda.) Bu moddalarda *qo'llanadilar* va *hal etiladi* fe'llari majhul nisbatda emas, balki aniq nisbatda (*qo'llaydilar*, *hal etadi*) berilishi lozim edi. Chunki mazkur moddalarda ish harakatning bajaruvchisi (*organlar va mansabdor shaxslar; sud*) ishtirok etmoqda. Majhul nisbatdagi fe'llarda esa ish harakatning bajaruvchisi noma'lum bo'ladi.

Bunday xatoliklar moddalar mazmuniga ham salbiy ta'sir etadi. Demak, qonunlar va ularning moddalari adabiy til me'yorlariga muvofiq tuzilmas ekan, bunday moddalarda mantiqiy izchillik yo'qoladi, mazmunga putur yetadi. Adabiy til me'yorlariga rioya qilinmay tuzilgan moddalar fuqarolarga har doim ham tushunarli bo'lavermaydi. Shuning uchun ham bo'lajak yuristlarimiz ixtisoslik fanlari bilan nutq madaniyati fanini ham uzviy o'rganmoqlari hayot taqozosidir.

4-BOB. ADABIY TILNING FUNKSIONAL USLUBLARI VA YURISTNING NUTQ MADANIYATI

Insonlar ijtimoiy hayotning turli sohalarida muloqot jarayonida tildagi lug'aviy birliklar, grammatik vositalarni qo'llashda bir-birlaridan farq qiladilar, bu so'zlovchining o'ziga xos uslubini keltirib chiqaradi. Shu bois ham mutaxassislar orasida «uslub — bu inson» degan hikmatning yurishi ma'lum ma'noda haqiqatga yaqindir.

Inson hayotining turli qirralarida til vositalarining tanlab olinishi esa nutqning xilma-xil ko'rinishlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Nutqning bunday ko'rinishlari funksional (vazifaviy) uslublar deb yuritiladi. Nutq uslublari tarixan tashkil topgan nutq ko'rinishlaridir. Nutq uslublarining har biri alohida yagona bir tizimni tashkil qiladi. Bu tilning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi.

Tilning funksional uslublari leksik, grammatik, fonetik tizimlarga xos barcha vositalarning ma'lum kommunikativ maqsadga xizmat qilishi tufayli yuzaga keladi. Demak, nutq uslublari tilning ijtimoiy hayotdagi vazifasi bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham ular funksional (vazifaviy) uslublar deb nomlanadi. Funksional uslublarni nomlash ularning qanday aloqa, muloqot doirasida qo'llanilganligiga qarab belgilanadi: 1) rasmiy (ma'muriy-huquqiy) uslub; 2) ilmiy uslub; 3) badiiy uslub; 4) so'zlashuv uslubi; 5) publitsistik uslub.

Har bir uslubning o'ziga xos lisoniy xususiyatlarini ongli idrok qilish nutq madaniyatining asosiy mezonidir. Shuningdek, bo'lajak yuristlarimiz ham ijtimoiy hayotning turli jabhalariga xizmat qiluvchi nutq uslublarini zarur darajada bilishi va uslublararo lisoniy chegaralarni talab darajasida o'zlashtirishlari maqsadga muvofiqdir.

1-§. Rasmiy uslub va uning yurist faoliyatidagi o'rnini

Rasmiy uslub tilning boshqa uslublaridan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va vazifasi jihatdan yuridik, diplomatik va ma'muriy faoliyatga xizmat qiladigan nutq ko'rinishidir. Bu uslub, asosan, hujjatlik belgisi bilan boshqa funksional uslublarga nisbatan tarixiydir. Rasmiy uslubning dastlabki ko'rinishlari eng qadimgi davrlarga borib taqaladi.

Qadimgi hoqonliklar, davlatlar va xonliklarning qonunlari, amr va farmonlari, yorliqlari, har xil arznomalar, rasmiy xatlar, vaqfnomalar, vasiqalar va boshqa turli xil hujjatlar; hokimliklar, bekliklar va tumanlar o'rtasidagi o'zaro har xil yozishmalar rasmiy uslubning ancha ilgari paydo bo'lganligidan dalolat beradi. O'sha davrlardagi hujjatlar tilida faol qo'llangan *hoqon, budun, tuzukot, hirovul, chopovul, dorug'a, qushbegi, qozi, qozikalon, qozixona, a'lam, munshiy, mirzo, devonbegi, amir, xon, vazir* kabi davlatchilik va huquqqa oid leksik birliklar (terminlar) ishtirok etgan matnlar, dastxatlar o'z davri yozma nutqining dastlabki namunalari.

Bu uslubning ijtimoiy vazifasi hozirgi kunda ham juda keng bo'lib, barcha rasmiy hujjatlar mana shu uslubda yoziladi. Jumladan, bu uslubda *qonunlar, qarorlar, farmonlar, buyruqlar, rezolyutsiyalar, turli diplomatik bitimlar, shartnomalar, deklaratsiyalar, konvensiyalar, maxsus rasmiy axborotlar, xullas, turli mavzudagi arizalar, tarjimai hol, tavsifnoma, tibxat, turli xil bayonnomalar* yetakchi o'rin tutadi.

Rasmiy uslub, asosan, yozma; Ba'zan og'zaki shaklda voqe bo'ladi. Bu uslubning asosiy xususiyatlari:

1. **Aniqlik.** Odatda, bunday hujjatlar tilida hech qanday noaniqlik, g'alizlik, ortiqcha izohtalab o'rinlar bo'lmaydi. Fikr, mazmun sodda, lo'nda, tushunarli ifodalanadi:

Moliya yilida soliq solinadigan daromadga (foyda) ega bo'lgan yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'i to'lovchilar hisoblanadi.

Yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'i bo'yicha budjet bilan hisob-kitoblarni mustaqil ravishda amalga oshiradilar.

Ayrim tarmoqlar yuridik shaxslarning birlashmalari budjet bilan hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan markazlashtirilgan tartibda amalga oshirishlari mumkin. (O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 13-modda).

2. Qolip. Fikr tayyor holdagi nutqiy shtamplar-qoliplashgan birikmalar yordamida bayon etiladi. Masalan: *O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi ...moddasining birinchi qismiga muvofiq...*, *Fuqarolik Kodeksining ...moddasi bo'yicha javobgarlikka tortiladi; ...orden bilan mukofotlanadi, ... "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berilib, oliy nishon — "Oltin Yulduz" medali topshirilsin; ...rasmiy vizit bilan tashrif buyurdi, ...ozodlikdan mahrum etildi, ...amnistiya e'lon qilinsin* kabi qoliplashgan ifodalar rasmiy uslubga xosligi bilan ajralib turadi. Rasmiy uslubgaxos bo'lgan bunday qoliplashgan nutqiy ifodalarning qo'llanilishi ijobiy g'oldir. Chunki rasmiy uslubni ma'lum bir oborotlar asosida shakllantirish va takomillashtirish huquqqa oid, diplomatiyagaoid tushunchalarning tez vayengil tushunilishiga, fuqarolar tomonidan oson o'zlashtirilishiga yordam beradi, ularning ongiga qonun va qonun osti hujjatlarining mazmun va mohiyatini tez yetib borishiga ko'maklashadi. Shu sababdan rasmiy uslub yoki qonunlar tilini ma'lum bir oborotlar(qurilmalar) asosidaqoliplashtirish zarur. Huquqiy me'yorlarni ifodalashda mumkin qadar shunday tayyor holdagi qoliplashgan ifodalardan foydalanish lozim. Lekin bunday qoliplashgan ifodalarni adabiy til vauning tarkibiy qismi bo'lgan yuridik til me'yorlariga muvofiq qisqa va aniq tarzda tuzish kerakki, oddiy fuqaro ham tez o'zlashtirib olishga erishsin. Ayniqsa, qonunlar va ularning moddalarini tayyorlashda bunday birikmalarni qo'llash tartibini qat'iylashtirish zarur.

Rasmiy uslubga xos hujjatlarni xususiyatlariga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

Yuridik munosabatlar doirasidagi hujjatlar: *qonun, kodeks, hukm, farmon, farmoyish, qaror, nizom* va b.

Ma'muriy-idoraviy doiradagi hujjatlar: *buyruqlar, ariza, tavsifnoma, tarjimai hol, ma'lumotnoma, tilxat* va b.

Diplomatik munosabatlarga oid hujjatlar: *bitim, bayonot, nota, kommyunike, memorandum, konvensiya, deklaratsiya* va b.

Bu hujjatlarning barchasi o'ziga xos lisoniy xususiyatlarga ega bo'lsa-da, mazkur hujjatlarda til ikki xil vazifani bajaradi. 1) informativ (axborot berish); 2) volyuntativ (buyurish). Jumladan, *ma'lumotnoma* rasmiy guvohlik belgisiga ega bo'ladi va unda xabar berish vazifasi amalga oshadi. *Buyruq, qaror va farmon*da buyurish vazifasi amal qiladi. *Bayonnomalarda* esa buyurish (*zimmasiga yuklansin, bajarilsin, tasdiqlansin...*) ma'nosidan tashqari, axborot berish (*eshitildi, tinglandi, muhokama etildi*) vazifasi ham o'z in'ikosini topadi. *Ariza* iltimos, shikoyat ma'nolarini bildiradi.

Rasmiy uslub dialektizmlardan, jargonlardan, kichraytirish-erkalash qo'shimchalarini olgan so'zlardan; jonli so'zlashuv nutqi elementlaridan xoli bo'ladi. Tasviriy vositalar, obrazli so'zlar bu uslubda qo'llanilmaydi. His-hayajon, undov, modal ma'nosini bildiruvchi so'zlar nihoyatda kam qo'llaniladi.

Rasmiy uslubda har doim rasmiylik ma'nosi ustun turadi. Tildagi rasmiy uslub uchun xos bo'lgan so'zlar vaqoliplashgan barqaror iboralar, qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllar hujjatlar tiliga xos leksik-grammatik xususiyatlar hisoblanadi. Masalan, *muhokama qilindi, qaroriga muvofiq, ma'lumot uchun qabul qilinsin, ruxsat berishingizni so'rayman, ishonch bildiraman, tadbirlar ishlab chiqilsin, zimmasiga yuklansin* kabi.

Rasmiy uslubning leksik xususiyatlari

Rasmiy uslubda yoziladigan hujjatlar turli-tuman bo'lganligidan, ularning lingvistik xususiyatlari ham boshqa uslublardan farq qiladi.

Bu uslubda qo'llaniladigan lug'aviy birliklar, terminlar boshqa uslublarda uchramaydi. Ayniqsa, yuridik hujjatlar tiliga nazar tashlasak, mazkur hujjatlar matnlari tarkibida qo'llaniladigan so'z va terminlar katta bir leksik qatlamni

tashkil etadi: *ma'muriy javobgarlik, bosqinchilik, tovlamachilik, firibgarlik, aybdor, retsidiv jinoyat, jabrlanuvchi, sudlanuvchi, guvoh va hokazo.*

Rasmiy uslubning termin va so'zlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Diplomatiyaga oid terminlar: *elchi, konsul, delegatsiya, bayonot, deklaratsiya, vakil, ultimatum, bitim, shartnoma, nota, konsulxona, elchixona, dekret, doktrina, ahdnoma, kommyunike, konvensiya, ratifikatsiya, memorandum, diplomat, protest, muzokara, uchrashuv, rasmiy vizit, murojaat, simpozium, rezolyutsiya, parlament, kongress va h.k.*

2. Huquq, qonunga oid terminlar: *huquq, qonun, konstitutsiya, qonunlar loyihasi, modda, jinoyat, jazo, bosqinchilik, firibgarlik, notarius, kriminalistika, yengil jazo, og'ir jazo, ayblov hukmi, jinoyat obyekti, mahkum, o'ta xavfli retsidivist, huquqiy ong, da'vo va h.k.*

3. Davlat qurilishi va boshqaruvi bilan bog'liq terminlar: *davlat, suveren davlat, unitar davlat, totalitarizm, respublika, davlat gerbi, davlat bayrog'i, davlat madhiyasi, konstitutsiya, prezident, parlament, Vazirlar Mahkamasi, prezident devoni, tuman, viloyat, hokim va b.*

4. Rasmiy uslub hujjatlarida eskirgan so'z va iboralar ma'lum maqsadda qo'llanadi: *janob, janobi oliylari, shoh, shahzoda, malika va h.k.* Bunday so'z va iboralar, asosan, hukumatlararo tabrik xatlarida qo'llaniladi.

Rasmiy uslub o'ziga xos grammatik xususiyatlari bilan ham boshqa uslublardan ajralib turadi:

a) shaxs otlari ko'p qo'llaniladi: *guvoh, da'vogar, tergovchi, prokuror, ijrochi, javobgar, jinoyatchi, er, xotin, Davlat maslahatchisi, vazir, Vazirlar Mahkamasining raisi;*

b) fe'lining buyruq maylidagi lug'aviy birliklar faol ishlatiladi: *yuklansin, topshirilsin, aniqlansin, tayinlansin, ozod qilinsin, bajarilsin;*

c) fe'lining majhul nisbatdagi shakllari ham rasmiy uslubga xosdir: *ko'riladi, tayinlanadi, saylanadi, bajariladi;*

d) qisqartma otlar ham qo'llaniladi: *MDH, BMT, JK, JPK, FK, FPK, IIV* va b.

Rasmiy uslubning sintaktik qurilishi qat'iy va odatdagi so'z tartibiga rioya qiladi, ya'ni ega gapning boshida kelsa, kesim gapning oxirida keladi. Shuningdek, aniqlovchi bo'laklar aniqlanmishlardan oldin qo'llansa, to'ldiruvchi fe'l kesimga boshqaruv yo'li bilan bog'lanadi.

Rasmiy hujjatlar matni uchun asosan ikki bosh bo'lakli sodda gaplar va murakkablashgan sintaktik butunliklar xos bo'lib, bu gaplarning aksariyati darak hamda buyruq mazmunida bo'ladi. Bunday gaplarning kesimi, asosan, buyruq maylida, majhul nisbatdagi fe'llar bilan ifodalanadi. Uyushiq bo'lakli va turli murakkablashgan qurilmalar, olmoshli va bog'lovchi sintaktik aloqalar, rasmiy-yuridik matnlarga xos (yoyiq aniqlovchilar, uyushiq bo'laklar bilan kengayib keladigan)...*ga muvofiq, -ga asosan, — binoan* kabi kiritmalar rasmiy uslub sintaksisining asosiy lisoniy belgilaridir.

Yuristlar amaliyotida rasmiy uslub xizmat qilishi shubhasiz. Shuning uchun bu uslubning lingvistik va ekstralingvistik (tilga bog'liq bo'lmagan) xususiyatlarini yetarli o'rganish ularning kelgusi ijtimoiy hayotida suv va havodek zarur. Yuristlar tuzgan hujjatlarning barchasi rasmiy uslubda, adabiy til me'yorlari asosida tuzilmog'i lozim. Bunga rioya qilmaslik uslubiy xatolarni keltirib chiqaradi.

2-§. So'zlashuv uslubi

So'zlashuv uslubi adabiy tilning og'zaki shaklidir. Albatta, bu uslubda ham adabiy til me'yorlariga amal qilinadi. So'zlashuv uslubidagi nutq dialogik shaklda bo'ladi. Bu uslub rasmiylikdan xoli bo'ladi. Ya'ni so'zlashuv uslubida kitobiy uslublarda qo'llanadigan *taklif qildi, sobiq, masalan, tashrif buyurdi* kabi so'zlar o'rnida *chaqirdi, oldingi, misol uchun, keldi* kabi so'zlar qo'llaniladi.

So'zlashuv uslubidagi nutqda til vositalaridan foydalanish erkindir. Bu uslubda ko'chma ma'noli so'zlar, frazeologizmlar,

dialektizmlar, vulgarizmlar ko'p qo'llanadi. Turli ekstralingvistik omillar (*jest* – *qo'l*, *bosh*, *gavda harakatlari*; *mimika* – *yuz harakati*, *qiyofa o'zgarishi*.) so'zlashuv uslubining o'ziga xos belgilaridir.

So'zlashuv uslubi leksikasini emotsional bo'yoqli so'zlar tashkil etadi. Gapirish, so'zlashdan maqsad inson o'z fikr-mulohazalari, orzu-istaklari, quvonch-shodliklarini ifodalash va tinglovchi qalbiga yetkazishdir. Shu bois bunda tildagi turli lug'aviy birliklar, grammatik vositalardan foydalaniladi. So'zlashuv uslubida kishi narsa va hodisalarning nomini atash bilan kifoyalanmay, balki ularning asosiy ko'zga tashlanuvchi belgi xususiyatini jonli, emotsional ifodalash uchun ta'siriyliги kuchli bo'lgan sodda so'zlashuv vositalaridan keng foydalanadi.

Masalan, *chiroyli* so'zi oddiy, betaraf, hech qanday qo'shimcha uslubiy ma'noga ega emas. Uning badiiy uslub uchun xos sinonimlari *zebo*, *go'zal* bo'lsa, *ketvorgan*, *ofatijon* sinonimlari oddiy so'zlashuv uchun xos bo'lgan emotsional so'zlardir.

Bu uslubda *og'zi qulog'ida*, *joni chiqdi*, *tarvuzi qo'ltig'idan tushdi*, *tagiga suv ketdi*, *ichagi uzildi* kabi frazeologik birliklar ko'p qo'llanadi.

So'zlashuv uslubida qarindosh-urug'ni bildiruvchi atamalarga uslub talabi bilan *-jon*, *-xon*, *-oy*, *-gina*, *-poshsha*, *-qul* kabi qo'shimchalar qo'shilib aytiladi va bu esa so'zlovchining subyekt haqidagi ijobiy yoki salbiy munosabatini anglatadi: *onajonim*, *ukajon*, *xolajon*, *bolaginam*, *qizginam*, *kelinposhsha* va h.k.

Nutq odobiga binoan so'zlovchi o'z nutqida tinglovchini ranjitmaslik uchun qo'pol, yoqimsiz, haqorat ma'nolarini ifodalovchi so'zlar o'rniga ularning silliqroq, yoqimliroq variantlarini ishlatishi zarur, bu madaniyatlilikning asosiy belgisi hisoblanadi. Masalan, *xotin* deyish o'rniga *onasi*, *kuyov* deyish o'rniga *kuyovingiz*, *qudam* deyish o'rniga *qudamlar*, *tug'di* deyish o'rniga *ko'zi yoridi* yoki *farzand ko'rdi* kabi so'z va birikmalarni ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Soʻzlashuv uslubida tushum, qaratqich kelishiklari qoʻshimchalarining tushib qolishi, otlar oʻrniga asosan, olmoshlarning ishtiroki bilan nutqiy tejamkorlik vujudga keladi. Masalan, *kitob oʻqdim, fikr ayting, mulohazalar ayting; ariq suvi, togʻ havosi; Kim keldi? Qayerda? Qachon?* Nutq tejamkorligida nafaqat soddalashtirish; ortiqcha jimjimador, tushunilishi qiyin boʻlgan til birliklarini qoʻllamaslik fikr ravonligini ham taʼminlaydi.

Uzun jumalarda beriladigan fikrlar bir soʻz yoki soʻz birikmasiga, sodda yigʻiq gaplarga singdiriladi. Masalan, *Toʻyga aytdik. Salim kelmadi?* Bu jumlaning toʻliq shakli: *Akam qizini chiqargan edi. Toʻy shahardagi «Navroʻz» restoranida boʻldi. Taklif qilingan mehmonlarning hammasi keldi. Toʻyga taniqli xonandalar ham kelgan edi, toʻy rosa qizidi. Nega Salim kelmadi, uyi tinchmikan?*

Koʻplik qoʻshimchasi -lar soʻzlashuv uslubida oʻz maʼnosidan tashqari bir qator uslubiy vazifalarni bajaradi: a) kinoya, kesatiq maʼnosini: *Koʻrinmaydilar? Ishlari koʻpmi?*; b) hurmat: *Dadamlar keldilar.*; c) fikrni boʻrttirish: *Akamdan balolarga qoldim.*; d) taxmin: *Soat beshlarda kelsa kerak* va h.k.

Qoʻshma feʼllar qisqargan shaklda qoʻllanadi: *opkeling, oboring, joʻnatvoring, kuzatvor.*

Soʻzlashuv uslubida asosan yigʻiq gaplar, toʻliqsiz gaplar, soʻz gaplar, undalmali gaplar koʻp qoʻllanadi. *Keldimi? Koʻrdingmi? Ha! Yoʻq! Bor! Keldi. Bugun. Oʻzlari.*

Bu uslubda soʻzlar tartibi erkin boʻladi.

3-§. Publitsistik uslub

Publitsistik uslub — tashviqot-targʻibot ishlari olib boriladigan, asosan ijtimoiy-siyosiy hayot yoritiladigan nutq koʻrinishidir. Publitsistik uslub oʻzining obrazliligi, hissiy-taʼsiri xususiyati bilan badiiy uslubga, yorqinligi, aniqligi va terminologik leksikasi bilan ilmiy uslubga yaqin turadi.

Ijtimoiy-siyosiy masalalarning yoritilishi, tahlil uslubi, ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etishga undashning faolligi,

o'ziga xos terminlar, asosan siyosiy terminlarning ko'p qo'llanilishi singari xususiyatlar publitsistik va ilmiy uslubning o'xshash tomonlaridir.

Publitsistik va badiiy uslubning ham o'xshash tomonlari mavjud. Ikkala uslubda ham obrazli ifodalar, tasviriy vositalardan ko'proq foydalaniladi. So'z va terminlar siyosiy ma'nosining badiiy uslub elementlari bilan qorishgan, uyg'unlashgan holda ifodalanishi publitsistik nutqning salohiyati yanada ko'taradi va uning ta'sirchanligini oshiradi.

Publitsistik uslubda ijtimoiy-siyosiy terminlar, gazeta va jurnallarga xos maxsus ifodalar, birikmalar, qat'iy qoliplashgan qurilmalarning tez-tez qo'llanilishi bu uslubning o'ziga xos xususiyatlaridandir: *mustaqillik, ichki tahdid, tashqi tahdid, sovuq urush, ochiq ovoz, yopiq ovoz, buyuk xizmatlari uchun, rasmiy vizit bilan, milliy istiqlool mafkurasi, xalq e'tiqodi, buyuk kelajakka ishonch, shaxs bilan davlat munosabatlari, jamiyatimizning faol ishtirokchisi, mafkuraviy bo'shliq, xavfsizlikka tahdid* va h.k.

Publitsistik uslubda hisssiy-ta'siriy so'zlar va birikmalardan, maqol va hikmatli so'zlardan unumli foydalaniladi. Maqol va hikmatli so'zlar bu uslubda sarlavha nomi bo'lib ham keladi hamda mazkur uslubning yanada yorqinroq bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, *Yaxshidan bog' qoladi. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Mard maydonda sinaladi. Vatan, el manfaati muqaddasdir.*

4-§. Ilmiy uslub

Ilmiy uslubda fan va texnikaning turli tarmoqlariga oid ilmiy asarlar, darslik va o'quv qo'llanmalari yoziladi. Bu uslub aniq, daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, ta'riflar)ga boy bo'lishi bilan boshqa uslublardan farqlanadi. Ilmiy uslub ham adabiy tilning ko'rinishi bo'lib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ham ega: monologik belgilari bilan boshqa uslublardan ajralib turadi; obrazli tasvirlar bilan emas, balki aniq ma'lumotlarning *xolis, umumlashgan*

xususiyatlarini ta'riflash, tushunchalarga muvofiq keladigan terminlar bilan ish ko'radi. Kitobxonning his-tuyg'usiga emas, ongiga ta'sir etadi.

Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos terminlaridan foydalaniladi. Masalan, *jinoyat, jazo, afv, hukm, ozodlikdan mahrum etish, davlat tili, davlat chegarasi, unitar davlat, tergov, alibi, kodeks* yurisprudensiya tarmoqlarida; *jamiyat, ong, tafakkur, mushohada* falsafada va h.k. Ilmiy uslubda so'zlar asosan o'z ma'nosida qo'llanadi, qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo'laklar, kirish so'z va birikmalar, shuningdek, qo'shma gaplardan ko'proq foydalaniladi.

Ilmiy uslubda qo'shma gaplardan *shu sababli, shunday bo'lsa, bunday vaqtda, shunga qaramasdan* kabi vositalar yordamida bog'lanuvchi ergash gapli qo'shma gaplar ko'proq ishlatiladi. Chunki bunday gaplar sabab va natija hamda boshqa munosabatlarni aniq ifodalay oladi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar bu uslubda kamroq ishlatiladi.

Ilmiy matn qurilishining mantiqiy izchil bo'lishi unda boshlanmalar, gap qismlarini bog'lash uchun *shunday qilib, shu sababli, bundan keyin, ko'rinadiki, shunga ko'ra, shu bilan birga, aytilganlarga ko'ra* kabi so'z va so'z birikmalari qo'llaniladi. Ko'p qo'llaniladigan *birinchidan, bir tomondan, ikkinchi tomondan, xullas, demak* shaklidagi kirish so'z va birikmalar ham yuqoridagi maqsadlarga xizmat qiladi.

Ilmiy uslubda fikrning aniq bir shaxs tomondan bayon qilinarayotgani sezilmaydi. Unda ko'proq fe'lning majhul nisbatidan foydalaniladi: *dalillar keltirilgan, tajriba o'tkaziladi, foydalaniladi*. Yuqorida ko'rib o'tilgan xususiyatlar ilmiy uslubning lisoniy belgilaridir. Bu belgilar mazkur uslubning boshqa uslublardan farqini ko'rsatuvchi asosiy xususiyatlar hisoblanadi.

5-BOB. NUTQ MADANIYATI VA TILNING TASVIRIY VOSITALARI

Yuristlar har doim rasmiy uslub soʻzlaridan foydalanadi deyish bir tomonlamadir. Yuristlar soʻzga boy, soʻzga chechan, ifodali nutq tuza olishlari uchun tilning turli tasviriyl vositalarini zarur darajada bilishlari shart. Fikrni toʻla qonli ifodalash uchun mantiqiy fikrlash bilan birga ayni fikr ifodasi uchun favqulodda muvofiq va maqsadli soʻzlarni topa olish tasviriyl vositalarga ehtiyojni keltirib chiqaradi. Bundan kelib chiqadiki, soʻz qoʻllashda xatolikka yoʻl qoʻyish, mazmunga putur yetkazadi. Bir soʻzga butun boshli voqealar, muayyan davrning maʼnoyu mazmunini singdira olish notiqdan tilning tasviriyl vositalaridan maqsadga muvofiq ifodalarni tanlay olishni talab etadi.

Lekin tasviriyl vositalardan zoʻrma-zoʻraki, kerak boʻlgan-boʻlmagan oʻrinda foydalanish yaramaydi. Ularga notiq zarurat tugʻilgandagina murojaat qilishi lozim, aks holda nooʻrin qoʻllangan til vositalari nutqning qimmatini oshirish oʻrniga unga salbiyl taʼsir koʻrsatishi ham mumkin.

1-§. Tasviriyl ifodalar nutq bezagi

Nutqning taʼsirchanligini oshiruvchi asosiy vositalardan biri tasviriyl ifodalardir. Tasviriyl ifoda — predmet yoki voqea va hodisalarni oʻz nomi bilan emas, balki ularning oʻziga xos belgi-xususiyatlarini tasviriyl usul orqali ifodalash jarayonidir. Masalan, *oq oltin — paxta, oq oltin ijodkorlari — paxtakorlar, kumush tola — pilla, haqiqat qoʻrgʻoni — sud organi, hayotimiz qomusi — Konstitutsiya, jamiyatning yarasi — oʻgʻri va fohishalar, huquq posbonlari — yuristlar, jahon bankining vatani — Shvetsariya* va h.k.

Tasviriyl ifodalar uslubiy vosita sifatida nutqqa obrazlilik, koʻtarinkilik, taʼsiriyl baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqib notiqning lugʻat boyligini oshiradi, nutqini bezaydi. Ayniqsa, yuristlar faoliyatida, jumladan,

advokatlarning nutq jarayonida takrorlardan, ortiqcha qaytariqlardan qochish imkonini beradi. Bo'lg'usi prokuratura xodimlarini, sudlarni, advokatlarni so'zamollikka, tinglovchini esa falsafiy mushohada etishga undaydi. Shuningdek, parafrazalar (tasviriylar) faqat jozibadorlik va obrazlilik, nutqni boyitish, uning mazmunini ko'tarish uchunгина emas, balki jamiyatning olg'a qadam qo'yishga to'sqinlik qilayotgan illatlarni fosh qilish, ulardan kulish va ularga nisbatan qarshi kurashga chaqirish maqsadida ham qo'llaniladi. Binobarin, tasviriylar predmet, voqea-hodisalarning o'z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatini tasvirlab, bo'rttirib, izohlab va to'ldirib ko'rsatishda nutqiy vosita hisoblanadi.

Har qanday ma'rifatli odam o'z faoliyatida tasviriylar ifodalardan o'rinli va unumli foydalansa, uning og'zaki va yozma nuqti bezanadi, ta'sirchan bo'ladi. Vaholanki, tasviriylar ifodalari nutqiy vosita sifatida og'zaki nutqimizga ham, yozma nutqimizga ham chiroyli baxsh etadi. Qolaversa, parafrazalar tilimiz boyligi, ma'no imkoniyatlarining naqadar kengligini ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Tilda so'z ma'nolarining o'zgarishi tasodifiylar bo'lmay, balki jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqlar qonuniylar hodisadir. Jamiyat taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan yangi predmet yoki ijtimoiylar hayotda vujudga kelayotgan tushunchalar har doim ham yangi so'zlar orqaligina ifodalanmay, balki predmetning ma'lum belgi-xususiyatlarini, o'ziga xos tomonlarini ochib beruvchi so'zning ma'nolari orqali ham tasvirlanadi. Shunga ko'ra, so'z ma'nolari ko'chadi. So'z ma'nolarining ko'chgan holda qo'llanilishi tilning lug'at boyligini oshiruvchi omillardan hisoblanadi.

Bundan tashqari, so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash nutq ravonligi, ifoda mazmundorligini ta'minlovchi, obrazlilik yaratishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Tilda so'z ma'nolari *metafora*, *metonimiya*, *sinekdoxa* va

vazifadoshlik yo'llari (usullari) orqali ko'chadi. Bu usullar tilshunoslikda yangi so'z hosil qiluvchi vositalar tarzida qayd etiladi. Tasviriy ifodalar (parafrazalar)ning hosil bo'lishida ham ushbu usullar alohida rol o'ynaydi. Masalan: *oq oltin -paxta*, *qora oltin-neft* yoki *dala malikasi makkajo'xori* (metafora usulida); *o'zbek romanchilik maktabining asoschisi*, *o'zbek adabiy tilining asoschisi*, *g'azal mulkinining sultoni* (metonimiya), *charm qo'lqop egasi*, *jamiyatning yarasi* (sinekdoxa) kabilarda muayyan predmetga xos belgining *nomi* boshqa predmetdagi belgiga *nom* sifatida ko'chirilgan. Shu asosda tasviriy ifodalar tizimi boyib boraveradi.

Har qanday nomni boshqa nom bilan almashtirish parafraza bo'lavermaydi. Almashtirilgan nom bilan tasviriy ifoda (parafraza) o'rtasida mazmuniy jihatdan qandaydir bog'liqlik, aloqadorlik, yaqinlik bo'lishi kerak. Shu bilan birga, nomi almashtirilayotgan narsaning muhim ahamiyatli tomoni, xususiyati to'g'risida tinglovchida aniq tasavvur hosil bo'lishi lozim. Ana shundagina u haqiqiy parafraza bo'la oladi. Masalan, *huquq posbonlari*, *payg'ambar yoshi*, *yurtboshi*, *mo'yqalam sohiblari*, *mustaqilligimiz me'mori*.

2-§. Maqol va iboralar — nutq ko'rki

Nutq ko'rki bo'lgan maqollardan foydalanish notiqning so'z boyligini yanada orttiradi, uning nutqini o'tkir va ta'sirli qiladi, unga badiiy jihatdan sayqal beradi. Maqollarni chuqur mushohada etsangiz ularga butun-butun kitoblarning mazmuniga teng ma'no-yu mazmun singdirilgan bo'ladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari orasida nutq madaniyatini puxta egallashga, tilning qadr-qimatini chuqur anglashga da'vat etuvchi maqollar keng o'rin olgan. Bu turdagi maqollarda so'zning serma'no va o'tkir, fikrning qisqa va ixcham bo'lishi kabi muhim fazilatlar o'z aksini topgan. Masalan, *Tilga e'tibor — elga e'tibor. Tilga hurmat — elga hurmat. Xalq so'zi — dengiz to'lqini. Til — qilichdan o'tkir.*

Ko'pgina maqollarda tilyog'lamalik, ortiqcha safsatabozlik qoralanadi; ixcham, qisqa, lekin ma'noli gapirish, rostgo'y va shirin so'zlash ulug'lanadi. Masalan, *Ko'p bilgan oz so'zlar, oz so'zlasa ham soz so'zlar. Ko'p so'zning ozi yaxshi, oz so'zning o'zi yaxshi. Oz so'zla, ko'p tingla.*

Maqollar kishi anglatmoqchi bo'lgan ma'noni obrazli qilib ifodalash uchun xizmat qiladi, nutqning ta'sirchanligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, fikrni alohida ta'kidlash uchun xizmat qiladi va uning siyosiy va ma'naviy o'tkirligini oshiradi, g'oyat murakkab hodisalarning mohiyatini oydinlashtiradi, fikrning nishonga tegishini ta'min etadi.

Ma'naviy-axloqiy mazmunga ega bo'lgan xilma-xil, rang-barang maqollar uslubiy vazifasi jihatidan ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Maqollarda keng va teran g'oyani qisqa, ixcham shaklda ifodalash kishilarni nutqqa e'tibor berish va talabchan bo'lishga o'rgatadi, to'g'ri va mantiqiy fikrlashga yordam beradi, mushohadaga o'rgatadi.

Maqollardan foydalanishda ularning tushunarli bo'lishi, o'z o'rnida to'g'ri ishlatilishiga, nutqning aniq va ta'sirchan qilishiga e'tibor berish lozim. Maqollarni noto'g'ri, buzib ishlatish ham ularning ma'nosiga putur yetkazadi.

Nutqiy ta'sirchanlik frazeologizmlarni qo'llash bilan ham vujudga keladi. Oddiy so'zga nisbatan frazeologizmlar (iboralar)da ta'sirchanlik kuchli bo'ladi. Masalan, Boya qishloqdan dadasi keldi. Dadasi nimadandir asabi buzilib, *qovog'idan qor yog'ib* keldi-yu, o'g'li bilan ko'rishib bo'lmasdanoq Vohid Mirobidov qo'ng'iroq qildi. (O. Yoqubov) Bu gapdagi *xafa* ma'nosini ifodalovchi *qovog'idan qor yog'ib* frazeologizmi fikrning ta'sirchanligini oshirgan.

Frazeologizmlar zaminida uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar, turmush haqiqati inson ongida mujassamlashgan, sayqallashgan obrazlarning tasavvurlari siqiq, sintaktik qoliplashgan bo'lib, avloddan-avlodgameross bo'lib kelgan. Fikrimizning isboti uchun misollarga murojaat etaylik: *bir yoqadan bosh chiqardi, shaytonga dars beradi,*

chuchvarani xom sanama, temirni qizig'ida bos, suvga olib borib sug'ormay keladi, beli og'rimaganning non yeyishini qara, tegirmonga tushsa butun chiqadi, otdan tushsa ham egardan tushmaydi, to'ydan oldin nog'ora chalma, tepa sochi tika bo'ldi, ko'zi to'rt bo'ldi va h.k.

Frazeologizmlarning maqolga aylangan qismi xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi, ko'p asrlik tajribalari, turmushdagi turli voqea-hodisalarga aqliy munosabati natijasidir. Donishmandlarning ta'kidlashlaricha, «Xalq maqoli-xalqning mulkidir. Maqol qayg'usi — xalq qayg'usi, maqol g'azabi — xalq g'azabi, maqol kulgusi — xalq kulgusi va maqol kinoyasi — xalq kinoyasi demakdir».

Hayotda insonlar goho sevinadi, quvonadi, goho qayg'u, alamli kechinmalarga duchor bo'ladi. Ana shunday turli-tuman ruhiy holatlarga, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarga munosabatda kishilar o'z nutqlarida tayyor holdagi qoliplashgan iboralarga murojaat etadilar.

Chunonchi, *o'tirsa o'poq, tursa so'poq deydi* (biror ayb topib kamsitish), *o'l desang o'ladi, tiril desang tiriladi* (gapga kiradigan kishi haqida), *burnidan buloq bo'ldi* (zoye ketdi, tatimadi), *ona suti og'zidan ketmagan* (hali yosh, tajribasiz), *peshonasi taq etib devorga tegdi* (o'z bilganidan qolmay, oxiri holi tang bo'ldi), *o'z yog'iga o'zi qovurildi* (ruhiy azob chekdi), *baland oxurdan yem yegan* (dimog'dor), *arqonni uzun tashladi* (biror yomon, noo'rin ishning oqibatini kutish), *tarvuzi qo'ltig'idan tushdi* (maqsadi puchga chiqdi), *qulog'idan kun ko'rinadi* (juda ozg'in, betob odam haqida) va h.k.

3-§. So'z ma'nolarining ko'chishi — nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi vosita sifatida

Ma'lumki, so'zlar nutqda o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noda ham qo'llanadi. So'zning ko'chgan ma'nolari nutqni ko'plab ma'no tovlanishlari bilan ta'minlaydi. Yuristlar ham o'z nutqlarida so'zlarning o'z ma'nolari qatorida ko'chma ma'nolaridan unumli va o'rinli foydalana olish mahoratlari

egallashlari maqsadga muvofiq bo'lib, ularning nutqlari shu asosdagina jozibali bo'ladi.

Notiq so'zlarni o'z ma'nosida ishlatish bilan birga, biror voqea-hodisa mohiyatini yaqqolroq va aniqroq ochib berish uchun so'zlarning turli ma'no tovlanishlariga murojaat qiladi. So'zning ko'chma ma'nolari tufayli notiq nutqining ta'sirchanligi ta'minlanadi. Tilda so'zning ko'chma ma'nolari hamda ularning narsa va voqeyilikka bo'lgan munosabatiga qarab bunday lisoniy hodisalar quyidagicha nomlanadi: *metafora*, *metonimiya*, *sinekdoxa*, *vazifadoshlik*.

Metafora

Nutqqa obrazlilik, emotsiya (turli his-tuyg'ular) berish uchun narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'zlar va iboralarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi *metafora* deyiladi.

Uyg'un va Izzat Sultonning «Navoiy» dramasidan keltirilgan quyidagi parchaga murojaat qilaylik:

Navoiy:

Ko'zimning nuri kel, toza gulim, kel!

Kungil bog'ida, sayroqi bulbulim, kel!

Biz bu misralardagi *ko'zimning nuri*, *toza gul*, *sayroqi bulbul* birikmalarini to'g'ri ma'noda tushunmaymiz, balki ular orqali Navoiyning sevgilisi – Gulini tushunamiz.

Yoki, kishining yoshligini *g'uncha*, yigitlik davrini *umrning guli* kabi so'zlar birikmasi bilan; *o'ldi* so'zini *xazon bo'ldi*, *so'ldi* kabi so'zlar bilan almashtirish mumkin. Chunki bu so'zlar anglatgan ma'nolar o'rtasida qandaydir umumiylik mavjud.

Metaforaning nutqda qay darajada uslubiy vazifa bajarishi bevosita shu ko'chim uchun asos bo'layotgan o'xshashlikning mohiyati bilan ham bog'liqdir. Metaforalar ochiq o'xshatish natijasida vujudga kelsa, u asosan, nominativ vazifani bajaradi. Shuningdek, metaforalar nutqda leksik vositalarni tejash vazifasini bajaradi. Masalan, *ohu ko'z*, *marmar bilak* metaforik birikmalari *ohu ko'ziday chiroyli ko'z*, *marmarday oppoq bilak* ma'nolarini ifodalaydi. Ushbu ma'nolarni metaforik ifodalash

natijasida *ko'ziday, chiroyli, oppoq* so'zlarining qo'llanilmasligi sababli ma'lum miqdorda nutqning ta'sirchanligini kuchaytirganligini sezish mumkin.

Metonimiya

Bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki predmetdan birinchisining nomi bilan ikkinchisini atash hodisasi *metonimiya* deyiladi. Metonimiyada biror narsa yoki tushuncha boshqa nom bilan ifodalanadi, biroq bu nomlash narsa va tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlikka emas, balki ular o'rtasidagi yaqinlikka, aloqadorlikka asoslanadi. Shu jihati bilan metonimiya metaforadan farqlanadi.

Metonimiyaning bir qancha ko'rinishlari bo'lib, ulardan ko'p qo'llaniladiganlari quyidagilardir:

1. Mashhur adiblarning nomlari asarlari o'rnida qo'llanadi. Masalan: *Navoiyni o'qidim. Oybekni mutolaa qilmoqda.*

*Fuzuliyni oldim qo'limga,
Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi,
Va Navoiy tushib yo'limga,
Faryod bilan o'rnidan turdi.*

*Lermontovni tashlamadim hech,
Axir qo'lga oldim Hofizni.
Pushkin menga ko'rsatdi har kech,
Yig'lab turgan bir cherkas qizni*
(H. Olimjon)

2. Ma'lum hudud – qishloq, shahar, mamlakat, davlatda yashab turgan kishilar ma'nosini shu hududga, mamlakatga yoki davlatga ko'chiriladi. O'kirgan arslon kabi ko'k gumbazni titratib, Pol Robson qo'shiq aytar, tinglaydi butun *olam*.

(G'.G'ulom)

Bu misradagi *olam* so'zi odamlar, kishilar ma'nosida qo'llangan. Butun *qishloq* biladi. *Marg'ilon* ko'chib chiqdi. *Zal* gurillab kulib yubordi. Bu misollarda *qishloq, zal* so'zlari odamlar ma'nosida qo'llangan.

Sinekdoxa

Qismning nomi bilan butunni atash yoki aksincha, butunning nomi bilan qismni atash hodisasi sinekdoxa deyiladi. Masalan, Xo'jalikda *tuyoqlar* soni kamayib ketganligi uchun mutasaddi shaxslar jinoiy javobgarlikka tortildilar. Bog'dagi *olmalar* sug'orildi. U *tirnoqqa* zor. Keltirilgan misollardagi *tuyoqlar* so'zi *mollar* yoki *qo'ylar* so'zlari o'rnida qo'llangan bo'lsa, *olmalar* so'zi *daraxtlar* so'zi o'rnida, *tirnoq* so'zi esa *farzand* ma'nosida qo'llangan.

4-§. Sinonimlarning nutqda qo'llanilishi

Umumiy ma'nolari bir xil bo'lib, qo'shimcha ma'no nozikliklari, hissiy bo'yoqdorligi, uslub xususiyatlari bilan farqlanuvchi so'zlar *sinonimlar* deyiladi. Sinonimlarning mavjudligi tilning bebaho boyligi hisoblanadi. Sinonimlar so'z ma'nosidagi belgi daraja ko'lami, hissiyligi, nutqning ma'lum biror turi uchun xoslanganligi bilan ajralib turadi. Sinonimlardagi bu xususiyat fikrni butun nozikligi bilan ifodalay olish imkoniyatini yaratadi.

Masalan: *yuz, bet, chehra, jamol, aft, bashara, turq, yonoq, ruxsor, oraz* sinonimik qatoridagi har bir so'z o'z uslubiy nozikliklariga ega. *Chehra, jamol, yonoq, oraz, ruxsor* so'zlari ma'nodagi ijobiylik darajasini ifodalasa, *aft, bashara, turq* so'zlari esa salbiy bo'yoqdorligi bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, sinonimlar keng yoki tor doirada qo'llanishi bilan ham bir-biridan farq qiladi. Ya'ni, *yolg'iz* va *tanho* sinonimlaridan *yolg'iz* keng doirada qo'llanilsa, *tanho* tor doirada, kitobiy nutqdagina ishlatiladi. Shuningdek, *shaxs* so'zi, asosan, rasmiy uslub uchun xos bo'lsa, *inson* so'zi badiiy uslub uchun xos hisoblanadi. Chunki *shaxs* so'zida uning boshqa sinonimlari (kishi, odam, bashar)ga nisbatan rasmiylik ma'nosi bo'rtib turadi.

Sinonimlarning yana bir xususiyati shundaki, ba'zan bir sinonimik qatordagi so'zlarning biri birikib kelgan so'zga ikkinchisi birikib kela olmaydi. Aks holda, nutqda g'alizlik yuzaga

keladi. Masalan, *vazifa* va *burch* soʻzlari sinonimlar boʻlsa-da, lekin *burch* soʻzi oʻrnida har doim ham *vazifa* soʻzini qoʻllab boʻlmaydi. Chunki *vazifa* soʻziga nisbatan *burch* soʻzida muhim, masʼuliyat maʼnolari kuchlidir. Yaʼni *fuqarolarning burchlari* birikmasida *fuqarolarning vazifalari* birikmasiga nisbatan rasmiylik boʻyogʻi kuchlidir.

Shuning uchun ham, sinonimlarni qaysi soʻz bilan birikib madaniy nutq meʼyorlariga mos maʼno ifodalay olishini hisobga olgan holda mantiqan tanlab ishlatish nutqning usluban ravon boʻlishini taʼminlovchi muhim vosita boʻlganidek, nutqiy madaniylikning talabi hisoblanadi. Uslublar aro lisoniy chegeralarni bilmaslik ham xatolatni yuzaga keltiradi. Masalan, *qamalsin* va *ozodlikdan mahrum* etilsin kabi soʻz va terminlar sinonimlar hisoblanadi. Ularning umumiy maʼnosi bitta. Lekin maʼno ifodalanishi jihatdan ular keskin farqlanadi. *Qamalsin* soʻzi umumisteʼmoldagi oddiy betaraf maʼnoli soʻz boʻlsa, *ozodlikdan mahrum etilsin* termini rasmiy uslub uchun xoslangan hisoblanadi.

Sinonimlarning nutqiy vazifasi cheksiz. Sinonimlarning nutqda bajaradigan vazifalaridan biri nutqning estetik taʼsirchanligini, nafosatni taʼminlashdir. Nutqning estetik taʼsirchanligini taʼminlash, avvalo, soʻz qoʻllash mahorati natijasida yuzaga keladi. Binobarin, nutqning goʻzalligi jummalarni ixcham, mazmunli, ommabop, grammatik jihatdan adabiy til meʼyorlariga mos holda tuzishdan boshlab, unda qoʻllanayotgan soʻzlarning mantiqan birikib kela olishi, tugal bir maʼnoni ifodalashga bekamu koʻst xizmat qilishigacha boʻlgan murakkab jarayonni oʻz ichiga oladi. Nutq estetikasi fikr ifodalash jarayonidagi har bir holatni hisobga olishni, fikrni aniq ifodalash uchun xizmat qiladigan soʻzlarni topib qoʻllashni talab etadi.

Fikrni aniq ifodalash imkoniyati esa tildagi boshqa soʻzlarga nisbatan sinonimlarda kuchli. Sinonimlarning uslubiy xususiyatlarini oʻzaro farqlagan holda nutqda ulardan oʻrinli foydalanish ham nutqning estetik taʼsirchanligini taʼminlovchi

omillardan biri hisoblanadi. Chunki har bir nutq turi (badiiy, rasmiy, ilmiy) tilning mavjud leksik vositalaridan ma'lum bir qismini shu nutqda qo'llanishi uchun moslashishiga olib keladi.

Bu esa sinonimlarning nutqlararo tasniflanishi uchun zamin yaratib beradi. Agar tildagi hamma so'zlar bir ma'noni ifodalovchi bitta so'zlardan iborat bo'lganda edi, har bir nutq turining o'ziga xos bo'yoqdorligi, jozibadorligi ham bo'lmasdi. Til oddiy fikr ifodalashdan iborat bo'lib qolgan bo'lardi. Tilning estetik vazifasi chegaralanardi. Shu ma'noda sinonimlar til va nutq uchun katta imkoniyatlar yaratuvchi leksik vositalar bo'lib, ularning uslubiylik xususiyatini hisobga olgan holda nutqda o'rinli qo'llash nutqning estetik jozibadorligini oshiruvchi omillardan biridir.

5-§. Nutqiy ravonlikni buzuvchi ba'zi omillar

Til hodisalarini ongli idrok etmaslik turli uslubiy xatolarni keltirib chiqaradi. Kamchilik tilda emas, balki nutqda uchraydi. Sababi nutq individual xarakterga ega bo'lib, barcha so'zlovchilarning tildan maqsadga muvofiq tarzda foydalanishi bir xil bo'lmaydi. Bu so'zlovchining fikrlash iqtidoriga va ifodalayotgan fikriga munosib va muvofiq til vositalarini tanlay olish salohiyatiga bevosita bog'liqdir. Nutq madaniyati so'z va so'z birikmalarini o'z o'rnida ishlatish, jummalarni grammatik jihatdan adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda tuzish, fikrni lo'nda, ixcham shaklda ifoda etishni talab qiladi. So'z nutq hosil qilishning bosh omili. Shunday ekan, avvalo so'z tanlash, so'zlarning nutqiy imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish madaniy nutqdan talab qilinadigan birinchi shartdir.

Nutqning mazmun va mohiyatiga mos, so'zni topish va maqsadga muvofiq qo'llash katta mehnatni talab etadi. Til qoidalarini yaxshi bilish nutqda, so'z tanlash va uni qo'llash jarayonida fikrning mantiqiy yo'nalishi va mohiyatini to'g'ri anglash zarurligini talab etadigan jarayondir.

So'zdan to'g'ri foydalanish, so'zni o'rnida ishlatish

nutqning mantiqiyligi va maqsadga muvofiqligini ta'minlaydi. Binobarin, so'zning ifodalilik ko'lami keng. Tildagi har bir so'z ma'lum bir o'rinda shu so'z ifodalaydigan bosh ma'noga qo'shimcha ravishda, hali odamlar ilg'ab ololmagan qo'shimcha ma'no nozikliklarini ham bera oladi. Tilda mavjud bo'lgan har bir so'z o'z lug'aviy ma'nosiga ega. Lekin bu hol so'zni batamom tavsiflay olmaydi. Chunki so'z matnda o'z lug'aviy ma'nosini butunlay yo'qotishi, biz anglamagan ma'nolarni ifodalashi mumkin. So'zning turli jilolari matnda yuzaga chiqadi. So'z matnda qo'llanilganda lug'aviy ma'no ifodalaganidek grammatik ma'no ham ifodalaydi. Matnda qo'llanayotgan har qanday so'z lug'aviy va grammatik ma'nolari bilan shu matndagi boshqa so'zlarga hamohang kelsagina jumla ravon, fikr mazmundor, ifodali va ta'sirchan bo'lib, bunday nutq usluban sayqal topgan bo'ladi. So'zni nutqda noo'rin qo'llash, behuda takrorlarga, qaytariqlarga yo'l qo'yish nutq jozibasini buzadi va mazmunga putur yetkazadi. Natijada, fikrning mazmuni tinglovchilarga tushunarsiz bo'lib qoladi. Shuning uchun so'zlarni tanlash va uni nutqda o'rinli qo'llash kishidan katta mushohada va mahorat talab etadi. Lekin so'z tanlash va uni nutq jarayonida o'rinli va to'g'ri qo'llashda qiyinchiliklar tug'diruvchi turli lug'aviy birliklar ham mavjud. Ma'nodosh va ko'p ma'noli har xil so'zlarni, paronim va dubletlarni, dialektizmlarni, ilmiy terminlar va kasb-hunarga oid so'zlarni nutq jarayonida maqsadga muvofiq qo'llash notiqdan aqliy salohiyatni talab qiladi. Jumladan, sinonimlar hamma vaqt ham nutqda biri bajaradigan vazifani ikkinchisi bajara olmasligi mumkin. Masalan: *inson, kishi, odam, bashar, shaxs* so'zlari sinonimlardir. Lekin mazkur sinonimik qatordagi so'zlarning o'rini har doim ham almashtirib bo'lmaydi. Qiyoslaylik: *Inson va qonun* birikmasi o'rnida *kishi va qonun, odam va qonun, bashar va qonun yoki shaxs va qonun* birikmalarini ishlatib bo'lmaydi. Demak, matnda har bir so'zning o'z o'ri bo'lar ekan. Yoki, *javobgar shaxs, yuridik shaxs, jismoniy shaxs* birikmalari tarkibida qo'llangan *shaxs*

o'rnida ularning sinonimlarini qo'llash ham uslubiy g'alizliklarni keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, so'zni tanlash va qo'llashda uning adabiy til uchun me'yoriyligi asosiy mezon hisoblanadi. Har qanday nutq avvalo adabiy til me'yorlariga mosligi bilan go'zal bo'ladi. Nutqda adabiy til uchun xos bo'lmagan so'zlarni ishlatish nutqning ta'sirchanligini yo'qotadi. So'zlar va grammatik shakllarning adabiy me'yorga mos ravishda qo'llanilmasligi nutqning mantiqiyligini yo'qotadi.

Nutq mazmuni va ta'sirchanligini buzuvchi omillar asosan quyidagi holatlarda vujudga keladi:

a) so'zlarni nutqda o'z o'rnida qo'llamaslik, ayniqsa, sinonimlar va paronimlardan nutqda o'rinli foydalanmaslik;

b) jummalarni grammatik qonun-qoidalar talabiga muvofiq tuza olmaslik oqibatida;

c) ortiqcha takrorlarga yo'l qo'yilganda;

d) nutq uslublariga xos me'yorlarni ongli idrok etmaslik natijasida.

6-§. Tinish belgilarining uslubiy vazifasi

Tinish belgilari uslubiy vazifa bajaradi. Shu sababdan ham yozma matnda fikr aniq, ravon va tushunarli bo'lishi uchun ulardan o'rinli foydalanish lozim. Tinish belgilari yozuvda, asosan, sintaktik bo'linishni ko'rsatish va shu bilan birga fikrni to'g'ri ifodalash uchun qo'llaniladi. Shuningdek, tinish belgilaridan his-hayajonni oshirish, ayrim so'zlarga yangi, qo'shimcha ma'no berish uchun ham qo'llaniladi.

Har bir tinish belgisi o'ziga xos uslubiy vazifa bajaradi. Jumladan, vergul yozma nutqni ixcham shaklda ifodalashga yordam beradi. Qiyoslang: Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi "Moybuloq" jamoa xo'jaligi. Samarqand viloyat, Kattaqo'rg'on tuman, "Moybuloq" jamoa xo'jaligi. Ikkinchi gapdagi vergullar birinchi gapdagi -ning, -dagi shakllari o'rnida kelib, uslubiy ixchamlikni hosil qilgan.

Vergulni o'z o'rnida ishlatmaslik mantiqiy xatoga, nutq

g'alizligiga sabab bo'ladi. Masalan: U jinoyatchi odam emas. U jinoyatchi, odam emas. Misoldan ko'rinadiki, ikkinchi gapda bir vergulning ortiqcha qo'llanganligi gapning mazmuni, ohangi va mantig'ining tubdan o'zgarishiga olib kelgan. Birinchi gapda so'zlovchining ijobiy fikri ifodalangan bo'lsa, ikkinchi gapda so'zlovchining salbiy munosabati bo'rttirib ko'rsatilgan. Ya'ni birinchi gapda shaxsning *jinoyatchi* emasligi ifodalangan bo'lsa, ikkinchi gapda esa shaxsning *jinoyatchi* va *yaxshi odam* emasligi ifodalangan. *Qir-adirlarda lola gullar ochildi* gapida *lola* so'zidan keyin vergul qo'yilsa, loladan tashqari, boshqa gullar ham ochilganligi anglashiladi. Yoki: *Ey tabib, qo'y, boqma dardim bedavolardan biri* (Muqimiy) gapida *qo'y* so'zidan keyingi vergul tushirib qoldirilsa, mazmun tamoman o'zgarib, uslubiy g'alizlik hosil bo'ladi.

Vergul gapning ma'nosiga, shuningdek, tuzilishiga ham ta'sir qilishi mumkin. Qiyoslang: Akbar, ketdi. Bu gap orqali muallif Akbarga kimningdir ketganligini xabar qilayapti. (Akbar — undalma vazifasida). Agar bu gapda vergul tushirib qoldirilsa, Akbar ketdi, ya'ni Akbarning o'zi haqida xabar berilib, ikki bosh bo'lakli gap hosil bo'ladi. Yana qiyoslang: Ahmad, kutubxonachi shu yerda. Ahmad kutubxonachi shu yerda. Birinchi gapda ikki kishi, ikkinchi gapda esa bir kishi haqida so'z boradi.

Tinish belgilaridan tirening uslubiy roli ham katta. Bu belgi badiiy va so'zlashuv uslubida ko'p uchraydi. Matnda ixchamlik uchun grammatik shakllar o'rnida ishlatiladi: *To'g'ri bo'l — bexavotir bo'lasan* gapida tire -sa -ng shakli o'rnida ishlatilgan, sintaktik vazifa bajargan. *Yaxshi oshini yer, yomon — boshini* maqolida esa tire sintaktik — uslubiy vazifa bajargan. Tire *yer* so'zi o'rnida kelib nutqni tejashga yordam bergan.

Qo'shtirnoq biror so'zning ko'chma ma'nodaligini yoki uning qochirim, kinoya maqsadida ishlatilganligini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Masalan, Respublikamizdagi ayrim prokurorlar terrorizmning turli ko'rinishlariga qat'iy choralar ko'rayotgan bo'lsalar, ayrim "prokurorlar" bu ishga sovuqqonlik bilan qaramoqdalar.

7-§. Kirish soʻz va kirish birikmalarning uslubiy xususiyatlari

Kiritmalar soʻz yoki soʻz birikmasi shaklida boʻlib, soʻzlovchining oʻzi bayon etayotgan fikrga boʻlgan turli munosabatini bildiradi. Ular barcha nutq uslublarida qoʻllaniladi. Kiritmalar mazmunan butun bir gapga yoki uning boʻlagiga tegishli boʻlgan *ishonch, tasdiq, gumon, istak, taajjub, taʼkid, taxmin* maʼnolarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: *Guvoh, ehtimol, bu voqealarni toʻliq eslay olmas. Toʻplangan dalillardan soʻng jinoyatchi, albatta, qilmishlarini boʻyniga oladi.*

Kirishlar gap tuzilishini buzmaydi, aytilayotgan fikrga yangi dalil ham qoʻshmaydi, balki shu fikrga nisbatan soʻzlovchining munosabatini, kuchli hayajonlanganini bildiradi. Shuning uchun ham bunday gaplar koʻproq badiiy va soʻzlashuv uslubida uchraydi: *Baxtinga, onajonim omon boʻlsin. Yaxshisi, guvohlarni yuzlashtirish lozim. Ilmiy uslubda bizningcha, uningcha, demak, xulosa qilganda, birinchidan, ikkinchidan* kabi kirish soʻz va kirish birikmalar faol ishlatilsa; rasmiy ish uslubida *asosan, fikran, Baʼzan, zarur, kerak* kabi kirish soʻzlar koʻproq qoʻllanadi.

Baʼzi kirish soʻzlar va kirish birikmalar gapdagi boshqa boʻlaklardan toʻxtam bilan ajratiladi va oʻzining alohida ohangiga ega boʻladi. Kirishlarning gapdagi oʻrni ham maʼlum uslubiy ahamiyatga ega. Ular gap boshida kelganda aytilayotgan fikrga qatʼiy munosabat ifodalanadi: *Albatta, topshiriqni bajaramiz.* Ifodalangan fikrning mazmunini kuchaytirish uchun kirishlar takror ishlatilishi mumkin: *Afsuski, ming afsuski, jinoyatchi qochib ulgurdi.*

8-§. Evfemizmlar va ularning uslubiy roli

Evfemizm tilning ifoda va uslubiy vositalaridan biri sanaladi. Aytish noqulay yoki nooʻrin boʻlgan soʻz yoki ibora oʻrniga ishlatiladigan «pardali» soʻz yoki ibora *evfemizm* deyiladi.

Masalan, *bo'g'oz xotin* deb aytish so'zlashuvda ham, adabiy tilda ham noqulay bo'lganligi uchun uning o'rnida *ikkigat*, *og'iroyoq*, *homilador*, *yukli* kabi evfemistik so'zlar ishlatiladi. Xuddi shuningdek, nutq vaziyatiga qarab *tug'di* o'rnida *ko'zi yoridi*, *ahmoq o'rnida aqli yo'q*, *kar o'rnida qulog'i og'ir*, *o'g'ri o'rnida qo'li egri* kabi iboralar qo'llaniladi. O'zbek tili turli evfemistik iboralarga boy bo'lib, muomalada ularning har xil ko'rinishlari keng ishlatiladi.

Ba'zi evfemizmlar bir asosiy tushunchani ifodalasa-da, lekin ular o'zlariga xos ma'no nozikliklari va kishilarning bir xil tushunchaga turlicha munosabatda bo'lishlarini ko'rsatishi jihatidan farqlanadi. Masalan, o'zbek tilida *o'lim* tushunchasini ifodalash uchun ishlatiladigan *vafot qilmoq*, *joni uzilmoq*, *jon bermoq*, *qazo qilmoq*, *olamdan o'tmoq*, *ko'z yummoq*, *mangulik uyqusiga ketmoq*, *bandalikni bajo keltirmoq*, *omonatini topshirmoq* kabi evfemizmlar uslubiy bo'yog'i bilan bir-biridan farqlanadi. Tilda azaldan qo'llanib kelgan evfemizmlardan tashqari, muayyan nutq vaziyati talabi bilan yaratilgan evfemizmlar mavjud. Bu xil evfemizmlar tildagi mavjud so'zlarga nisbatan kontekst sinonim bo'ladi. Ko'pgina hollarda evfemistik ifodalarning ma'nosi matnda ochiladi va ular uslubiy vazifa jihatidan muallif yoki asar qahramoni nazarida qo'pol tuyulgan so'z, iborani yumshoq, silliqroq shaklda ifoda qilish vazifasini bajaradi. Masalan: — Avval eson-omon *qutulib olsin*. (A.Muxtor) Ra'noni *egasiga topshirmagunimizcha*, — dedi Nigor oyim, — *quyilmaydiganga o'xshaydi*. (A.Qodiriy)

Bu misollarda *tug'moq* so'zi o'rnida *qutulib olmoq*, *erga bermoq* so'zi o'rnida *egasiga topshirmoq* kabi evfemistik ma'no kasb etgan bu iboralar nutqiy odob nuqtayi nazaridan qo'llanilib, matndan tashqarida butunlay boshqa ma'no anglatishi mumkin.

6-BOB. NOTIQLIK SAN'ATI TARIXI

1-§. Yunon notiqligi

Qadimgi san'at turlaridan biri notiqlik dastlab Misr, Assuriya, Vavilon kabi qadimiy davlatlarda taraqqiy topgan bo'lsa-da, keyinchalik Gretsiyada rivojlandi, shakllandi va taraqqiyot bosqichlariga ko'tarildi. Perikl, Kleon, Lisi, Demosfen, Gipperiid kabi davlat arboblari notiqlikni san'at darajasiga ko'tardilar. Shu bois, notiqlik san'ati nazariyasi haqidagi, dastlabki ma'lumotlar, asosli fikr-mulohazalar Yunoniston notiqlik san'ati tarixi bilan bevosita bog'liqdir.

Yunoniston barcha ilmlarning beshigi bo'lgani kabi, notiqlik san'ati taraqqiyotida ham dunyo tamadduniga muayyan hissa qo'shgan madaniyat markazi hisoblanadi. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, jahon ijtimoiy taraqqiyoti va madaniyati tarixida hech bir davrda notiqlik san'ati Yunoniston mamlakatidagi kabi yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan emas.

Tarixga murojaat qilinsa, qadimgi Gretsiyada tijorat yaxshi yo'lga qo'yilgan, rivojlangan edi. Ayniqsa, savdo-sotiq muammolari, tijoriy ishlarni muhokama qilish, yakuni haqida muayyan xulosalarga kelish huquqshunoslarga bo'lgan talab va ehtiyojni keltirib chiqardi. Shu tufayli, notiqlik san'ati taraqqiyotida savdo tizimi katta rol o'ynaganligi tabiiydir. Demak, Gretsiyada ijtimoiy-maishiy hayotga doir notiqlik bilan bir qatorda siyosiy, ma'muriy faoliyatga doir notiqlik ham takomil bosqichiga ko'tarildi.

Ma'muriy notiqlik san'atining taraqqiyotida Grek sud rasmiyatchiligining roli ham e'tiborlidir. Eramizga qadar Solon hukmronligi yillarida amaldagi mavjud qonunga binoan har bir afinalik sudda o'zini o'zi himoya qila olish huquqiga ega edi. Tabiiyki, bu jarayon kishilarni madaniyatli, o'z navbatida, ta'sirli nutq ijod qilishga majbur qilar edi. Biroq, besh qo'l barobar bo'lmagani kabi, bu jarayonga barchaning ko'nika olmasligi tabiiy edi. Hamma ham nutq jarayonida notiqlik mahoratini to'liq egallay olmadi. Shuning uchun,

Gretsiyada nutq matnini yozib beruvchilarga ehtiyoj tug'ildi. Notiqalar, yuristlar sudlanuvchilardan muayyan moddiy mablag' evaziga nutq matnini ko'chirib bera boshlaydilar. Sudlanuvchi bu matndan foydalanib, sud jarayonida o'zini himoya qiladi. Tabiiyki, bu vazifani hamma ham uddalay olmadi. Natijada notiqlikni eplay olmagan kishilar uchun sudda boshqa shaxsni himoyachi sifatida tavsiya qilishga sud tomonidan ruxsat beriladigan bo'ldi.

Bu davrda Gretsiyada tantanali marosimlarda, yubileylarda nutq so'zlovchilar — maqtov notiqaligi ham paydo bo'ladi. O'z navbatida, maqtov notiqaligi ham notiqlik san'ati tarixida muayyan o'rin egallay boshladi.

Gretsiyada boshqa san'at turlari kabi notiqlik san'ati ham o'z qadr qimmatini topa boshladi. Biroq, chiroyli nutqdan ko'ra mazmunli fikrni e'tirof etgan greklar nutqning ko'proq shu jihatlariga e'tibor berar edi. Ayniqsa, yosh avlodga notiqlik san'atini mukammal o'rgatishni mas'uliyatli vazifa deb qarardilar. Shu bois, Gretsiyada maxsus notiqlik maktablari ochilib, so'z san'atini mukammal egallagan nuktadon notiqalar o'quvchilarga notiqlik san'atidan saboq bera boshladilar. Sekin-asta Gretsiyada notiqlik san'ati nazariyasi fani — ritorika vujudga keldi. Natijada, qator iste'todli notiqalarning tajriba va faoliyati tadqiqotlarda jiddiy o'rganila boshlandi. Qadimgi Gretsiyaning dastlabki notiqalari haqida Gomerning «Iliada» va «Odissey» asarlarida asosli ma'lumotlar keltirilgan. Dunyo tamaddunida muayyan o'rin egallagan bu yodgorliklarda eramizdan avvalgi XIII–XII asrlarda Yunonistonda dong taratgan Nestor, Meneley, Odissey, Axill kabi notiqalar haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Gomer o'z asarlarida notiqlik bilan bog'liq voqea-hodisalar tasviriga urg'u bermay, balki mashhur notiqalarning hayoti va faoliyati haqida ko'proq fikr yuritadi. Masalan, notiq Axillning Feniks ismli notiqdan saboq olganligi notiqlik san'atining qadimda Yunonistonda go'yo harbiy mutaxassislik yoki ijtimoiy fanlarni o'rgatuvchi maxsus maktablar qatorida

e'tiborli mavqega ega bo'lganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham qadimgi Gretsiyada o'ziga to'q, boy-badavlat oilalar, ayniqsa, ziyolilar farzandlarini o'spirinlik davridan notiqlik maktablariga berishga harakat qilganlar. Bir so'z bilan aytganda, Gomer o'z asarlarida aynan notiqlik san'ati uslublari va mashhur notiqlar to'g'risida keng va atroflicha ma'lumot berganligi qadimda Yunonistonda notiqlik san'atining rivojlanib, taraqqiyot bosqichiga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

2-§. Attika davri yoki Afina notiqligi

Eramizdan oldingi 499 – 449-yillarda qariyb 50-yil davomida Eron va Yunon davlatlari o'rtasida urush davom etgan. Urushda yunonlar davlati g'alaba qozonib, tez orada taraqqiyot pog'onalariga ko'tariladi, ijtimoiy-siyosiy hayotda o'z mavqeini tiklay boshlaydi. Ilm-fan rivojlanadi, madaniyat yuksaladi.

Manbalarda Yunonistonda bu davrda madaniyat va san'at markazi, ilm-fan taraqqiy etgan shahar sifatida Attika qayd etiladi. Attika hududi katta viloyat hisoblanib, Afina shahri poytaxti edi. Shu bois, manbalarda Attika davlati yoki Afina davlati deb qaraladi. Eramizdan oldingi X–IX asrlarda bu hudud madaniyati Attika madaniyati yoki Afina madaniyati deb qayd etilgan. Muhimi, bu davrda Afinada notiqlik san'ati taraqqiy etdi. Fan sifatida shakllana boshladi. Bu davr Yunon notiqligining Attika davri yoki Afina notiqlik maktabi kabi terminlar bilan atala boshlagan.

Eramizdan oldingi V asrda Yunoniston ikki mingga yaqin katta-kichik davlatlardan tashkil topgan yirik markazlashgan mamlakat edi. Ayrim davlatlar shahar hududi miqyosida tarkib topib *polislar* deb yuritilár va har bir *polis* mustaqil davlat sifatida o'z hududiy maqomiga, ish yuritish huquqiga va konstitutsiyasiga ega bo'lgan.

Afina yoki Attika polisi esa nisbatan ham hududiy, ham siyosiy mavqei jihatidan yirik bo'lib, e'tiborli va o'z nufuziga

ega bo'lgan. Afina davlati ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot bosqichlarida polislararo demokratik jamiyatning ko'zga ko'ringan yetuk markazi hisoblangan.

Demokratiyaga asoslangan boshqa yunon polislaridagi kabi Afina davlatida ham ikki yirik organ — Xalq majlisi va Besh yuzlar ittifoqi asosiy hal qiluvchi kuchga ega bo'lgan. Sud tizimi ham katta ijtimoiy-siyosiy mavqega ega bo'lib, davlatni boshqarishda muhim va strategik yumushlarni hal qilishda ishtirok etgan. Bu uch asosiy organ yunon demokratiyasining yadrosini tashkil qilgan deyish mumkin. Bulardan Besh yuzlar ittifoqi davlat ahamiyatiga molik polis masalalari bo'yicha o'z taklif-mulohazalarini bildirish, qonun, qarorlar loyihasini ishlab chiqish va muhokama qilishdan iborat bo'lgan yirik siyosiy arboblarning birlashmasi hisoblangan. Ittifoq yig'inlarida shu loyiha yoki ayrim masalalar muhokamasi yuzasidan o'z fikr— mulohazalarini bildiruvchi a'zo erkin nutq so'zlashi lozim edi. Shu bois yig'inlarda o'rta tashlangan masala muhokamasida kimki o'z mulohazasini yoki taklifini asosli isbotlay olsa va ko'pchilik uning chiqishini ma'qullasa, loyiha matni qabul qilingan. Aksincha, muhokamadagi fikrlar yetarli isbotlanmasa, a'zolar tomonidan ma'qullanmasa, loyiha va takliflar bir ovozdan qabul qilinmas edi.

Besh yuzlar ittifoqi yig'inlaridagi shunday muhokamalar va bu muhokamalardagi so'z erkinligi mashhur notiqning dunyoga kelishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun, Ittifoq yig'inlarida har bir a'zo imkon boricha o'z notiqlik mahoratini namoyish qilishga harakat qilardi. Fikr— mulohazalar ta'sirchan, dalillar bilan isbotlangan bo'lardi. Shunday so'z erkinligi Yunonistonda notiqlik san'ati taraqqiyoti uchun muhim rol o'ynaydi, mohir notiq yetishib chiqishi uchun qulay zamin hozirlaydi. Ittifoq yig'inlaridagi muhokamalardan notiqlik san'atiga xos murakkab uslub va yo'nalishlar paydo bo'ladi. Bu keyinchalik kengash notiqligi nomi bilan fanda muayyan o'rin egalladi.

Asosiy qonun chiqaruvchi organ — Xalq majlisi bo'lib

hozirgi parlament maqomiga ega bo'lgan. Xalq majlisi Besh yuzlar ittifoqi yig'inlarida muhokamadan o'tgan loyiha matnlarini ko'rib chiqib, umumxalq muhokamasiga qo'ygan. Muhokamadan o'tgan loyihalar bo'yicha qonunlar chiqarish huquqiga ega bo'lgan. Umumxalq muhokamalarida raiyatning erkin qatnashishi va muhokamada erkin chiqish huquqi qonun asosida belgilab qo'yilgan. Shu bois, xalq majlislari Ba'zan bir necha kunlab davom etar, yig'ilishga qatnashgan a'zo va qiziquvchi shaxslarning qizg'in muzokaralariga sabab bo'lardi. Bunday muhokama va mulohazalar demokratik ruhda bo'lib fuqarolar orasidan zabardast kengash notiqklarining yetishib chiqayotganligi ko'zga tashlanardi. Ular o'z navbatida yurtdoshlarining manfaatlarini va davlat manfaatlarini himoya qilib hamda davlat manfaatlari yuzasidan nutq so'zlardilar. Bu notqlik san'atining taraqqiyoti uchun muayyan sharoit va zamin hozirlanganligidan dalolat berardi.

Besh yuzlar ittifoqi yoki Xalq majlisida muhokama qilingan loyiha yuzasidan qabul qilingan qarorlar demokratik asosda erkin ovoz berish yo'li bilan amalga oshirilar edi. Shu bois, yig'inda ko'p ovoz to'plash yoki muvaffaqiyat qozonishning asosiy va qulay yo'li majlis qatnashchilarini ishontirish edi. Buning uchun so'zga chiqqan notiq maqsadi o'z fikrini nafaqat erkin bildirish olishi, balki ko'tarilgan masala mohiyatini ocha bilish va o'ziga xayrixoh etishdan iborat edi. Ular xalq majlisi yig'inlarida o'z mahoratini namoyish etish uchun notqlik san'ati mo'jizalaridan xabardor bo'lishlari lozim edi. Shundagina, ularga kishilarning ishonchi yanada ortar, notqlik mahoratiga tan berar edilar.

Yunon davlatlari tuzilishiga xos demokratiyaga asoslangan notqlik san'ati taraqqiy topdi. Demokratiya notqlik rivojida, nafaqat imkoniyat, balki yagona omil bo'ldi. Demokratiya xalq majlisi yig'ini qatnashchilari, ittifoq a'zolari, davlat arboblari va keng fuqarolar ommasi uchun barcha imkoniyat eshiklarini ochdi. Jumladan, notqlik san'ati sir-asrorlarini mukammal o'rganish uchun maxsus ustoz o'qituvchilarga ehtiyoj tug'ildi.

Natijada, maxsus notiqlik maktablari vujudga kela boshladi. Badavlat oila farzandlari yoshligidan notiqlik san'atini o'rganishga intila boshladilar. Albatta, bunda ota-onalarning o'rni va roli katta edi. Ular farzandlarini notiqlik san'ati maktablarida o'qitishni obro' deb bilar edilar.

3-§. Yunonistonda sud notiqligi. Sinegorlar

Yunoniston polislarida, xususan, Afina davlatida e'tiborli va ahamiyatga molik notiqlik yo'nalishlaridan biri sud notiqligi edi. Sud notiqligining vujudga kelishi uchun bu davrda Yunonistonda shart va sharoitlar mavjud bo'la boshladi. Antik demokratiya qoidalariga binoan fuqarolar o'zi xohlagan ishi yuzasidan xohlagan paytda sudga murojaat qilish, shaxsiy manfaatlarini himoya qilish uchun imkoniyat mavjud edi. O'z navbatida, sud hay'ati ham odilona yo'l tutar, sud qatnashchilarining manfaatlarini demokratik asosda hal qilishga harakat qilar edi. Bunday sud jarayonlarida da'vogar yoki himoyalannuvchining o'z manfaati yuzasidan chiqishlari ham ahamiyatga molik edi. Ular ko'pincha notiqlik san'ati bilan qurollanib o'z manfaatlarini himoya qilishardi. Shu bois, sud hukmi foydasi qaysi tomon manfaatiga hal bo'lishi ham notiqlik mahorati bilan bog'liq bo'lib qolardi. Notiqlik san'atini puxta o'zlashtirgan tomon vakillari gunohsiz ekanligini sud jarayonida isbotlay olsa, hukm ular foydasiga hal bo'lardi. Demak, antik davr sud tizimidagi shunday demokratik tamoyillar notiqlik san'atining yana bir pog'ona o'sishiga turtki bo'ldi.

Antik sud jarayoni qonun—qoidalariga binoan jabrlanuvchi o'z huquqini himoya qilishi lozim edi. Bundan ayol fuqarolar ham mustasno bo'lmagan. Ular «o'z ishini o'zi olib borishi» lozim edi. Biroq, sudlanuvchi bunday shaxslarning da'vogar tomon notiqdari asos va dalillariga dosh bera olmasligi tabiiy edi. Shu bois ham, antik sud tizimida sudlanuvchilarning ham maxsus notiqdarni yollashiga, ulardan yordam olishi uchun

ruxsat berilardi. Bunday notiqlik san'ati sohiblari *sinegorlar* deb atalardi. Ular nutqi *sinegoriya* deyilgan. Ana shu sinegorlar bugungi kunda sud hay'atining ajralmas qismi hisoblangan advokatlarning ilk avlodi hisoblanadi. Sinegorlar mohir notiq bo'lishi bilan bir qatorda yurisprudensiyadan maxsus ta'lim olishgan. Shu bois, ularda sudlanuvchining o'z huquqini himoya qilish uchun ehtiyoj tug'ilgan. Bu esa xizmat haqi evaziga amalga oshirilgan. Sinegorlar sud jarayonida jabrlanuvchi himoyasidagi shaxsni oqlash uchun bilim, tajriba va mahoratlarini ishga solishgan. Sudlanuvchi ishni chuqur o'rganib, yurisprudensiyaning amaldagi qoidalari asosida oqlash uchun asos bo'lgan fikr-mulohazalarni qog'ozga tushirgan. Notiqlik san'atidan foydalanib sud jarayonida o'z fikrini o'tkazishga, yutib chiqishga intilganlar. Sinegorlar sud notiqlik san'atida nafaqat muhim rol o'ynadi, balki tubdan burilish yasadi deyish o'rinlidir.

4-§. Logograflar

Sud tizimida muayyan o'rin tutuvchi yurisprudensiya mutaxassislaridan biri *logograflardir*. Asli logograflar sinegorlardan ajralib chiqqan xodimlar hisoblanadi.

Sud jarayonida nutq matnlarini tayyorlab beruvchi shaxslar logograflardir. Cinegorlar nutq matnlarini ham yozib, ham sudlanuvchini himoya qilish bilan logograflardan farqlanganlar.

Logograflar mutaxassislik ehtiyojiga ko'ra yurisprudensiya hamda notiqlik san'atini chuqur o'zlashtirishgan qonun himoyachisi sifatida himoyasidagi jabrlanuvchini demokratik sud hay'atida oqlash lozim bo'lgan. Mas'uliyatli kasb bo'lganligi bois, logografiya bilan doimiy shug'ullangan shaxslar keyinchalik davlat idoralarida xizmat qilishgan, atoqli davlat arbobi darajasiga ko'tarilgan.

Eramizdan avvalgi X–IX asrlarda notiqlik san'atining buyuk nomoyandalari Perikl, Kleon, Lisiy, Andokid, Isokrat, Isey, Likurg, Demosfen, Giperid, Dinarx kabi davlat arboblari

tarix sahnasiga ko'tarildi. Ular bu davrda notiqlik san'ati nazariyasi va tarixiga doir maxsus asarlar yozish bilan bir qatorda amaliyotda ham faollik ko'rsatdilar.

Perikl — eramizdan avvalgi 500—429-yillarda yashagan mashhur notiq. 443-yilda xalq yig'ini Periklni mamlakatning eng oliy lavozimi — birinchi strateg (strategiyani yaxshi bilgan mohir lashkarboshi) qilib saylaydi.

Perikl davlatni qonunlar asosida adolatli boshqardi. Mamlakat ijtimoiy hayotida demokratik ruh ustuvorlik qildi. Bu davr Afina davlatining siyosiy— iqtisodiy va madaniy jihatdan o'sish davri bo'ldi. Shuning uchun, Afina tarixida bu davr «Perikl asri» deb ham yuritiladi. Perikl asli harbiy shaxs bo'lib, qo'mondonlik lavozimida xizmat qilgan. Uzoq davom etgan Eron-Yunon urushida katta harbiy mahorat ko'rsatadi, jonbozlik qiladi. Shu bois, yurtdoshlari e'tiboriga sazovor bo'ladi. Perikl yirik notiq sifatida shuhrat qozondi. Uning notiqlik san'atidagi mahorati davlat arbobi darajasiga ko'taradi. Perikl mamlakatda ijtimoiy-siyosiy muhitni barqarorlashtirish bilan bir qatorda, ilm-ma'rifatga ham katta e'tibor qaratdi. O'z atrofiga ilmli, ma'rifatli, fozil kishilarni to'plab, ilmiy muhit yaratdi. Bu muhit vakillarining boshini silab homiylik qildi. O'z davrining buyuk allomalari Anaksagar, Suqrot, Gerodot, Sofokl, Fidiy kabilar Perikl tarbiyasini ko'rgan, uning maktabidan ta'lim olgan buyuk siymolardir.

Periklning ibratli fazilatlaridan biri u, nafaqat donishmand notiq edi, balki yozma nutq ijod qiladigan iste'tod sohibi edi. U nutq matnini qog'ozga tushirmasdan minbarga ko'tarilmas edi. Bu xislat Periklni umrining oxirigacha tark etmadi. Aslida bu fazilat hamma davr notiqclariga ibrat bo'ladigan fazilatdir.

Perikl og'zaki va yozma nutqda mantiqqa birinchi o'rinda e'tibor qaratgan. Shu sababdan, keng auditoriya Periklning mantiq va tafakkurga yo'g'rilgan chiqishlariga maftun bo'lardi. Boisi, Perikl o'z nutqida kerakli dalil, hujjatlarni shunday o'rinli qo'llaganki, natijada tinglovchi notiq mahoratiga tan berishi bilan birga hech bir shubha qilmagan.

Perikl yozma nutq matnlarida til masalasiga ham e'tibor qaratadi. Ma'ruzalarida esa talaffuz me'yorlari va mantiqiy urg'u qoidalariga qat'iy amal qilishni odat tusiga kiritgan. U tuzgan matnlar ham mantiqiy, ham lisoniy jihatdan yuqori saviyada bo'lgan. Zamondoshlarining ta'kidlashicha, Perikl ovozi jarangdor, jiddiy shaxs bo'lgan tinglovchilarni kulishga va kuldirishga mutlaqo harakat qilmagan. Bunday o'ziga xosliklar Perikl nutqining salmog'i va ahamiyatini yanada oshirgan.

Demosfen (taxminan 384—322) o'z davrining yirik davlat arbobi va mohir notig'i sifatida dong taratgan. Afinadagi demokratik kayfiyatdagi guruhning yo'l boshchisi. Notiqlik san'atidan dars bergan, sud mahkamalarida, yig'ilishlarida nutq so'zlagan (61 nutqi, 56 ma'ruzasi saqlanib qolgan). Butun umri davomida Afinaning mustaqilligi va Yunoniston polislarining Makedoniyaga qarshi birlashishi uchun kurashgan. Makedoniya podshosi Filipp IIga qarshi qaratilgan bir qancha nutq so'zlagan (bu nutqlar manbalarda "filippik" nomi bilan mashhur bo'lganligi qayd etiladi). Hayotining so'ngida dushmanlari ta'qibiga uchrab, Afinadan qochgan va zahar ichib o'lgan. U dastlab, logograf sifatida sud nutqlarini yozish bilan mashg'ul bo'lgan Demosfen keyinchalik bu kasbdan qoniqmaydi. Bora-bora sud majlislaridan voz kechadi. Besh yuzlar Ittifoqi va Xalq majlislarida nutq so'zlovchi mashhur notiq bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Olti-yetti ming kishi yig'iladigan xalq majlislarida nutq so'zlash uchun notiqda chuqur bilim, shijoat, matonat, ta'sirchan ovoz kabi tug'ma fazilatlar bo'lishi lozim edi. Yig'ilish qatnashchilariga fikr, maqsad va g'oyani aniq va lo'nda tushuntirish uchun notiqdan tug'ma iste'tod talab qilinar edi. Shuning uchun ham, xalq majlislarida qatnashuvchi notiqarning asosiy qismi davlat arboblari edi. Bunday nufuzli yig'inlarda nutq so'zlash notiqlik minbariga ko'tarilish albatta oson kechmagan. Shu bois Demosfen o'z ustida tinimsiz ishlaydi. Notiqlik san'atini ipidan-ignasigacha egallashga

harakat qiladi. Natijada, 352–322-yillar orasida Besh yuzlar ittifoqi va Xalq majlisi notig'i sifatida shuhrat qozonadi. Afina davlatida dong taratadi. Afina davlatining tashqi ishlar vaziri lavozimiga saylanadi.

Albatta, Demosfenning shuhratli martaba pog'onalariga ko'tarilishi oson kechmadi. U o'z baxtini tinimsiz mehnatdan topdi. Dastlab, Xalq majlisida so'zga chiqqan Demosfenni qatnashchilar yaxshi qabul qilmadi. Chunki zalda tinimsiz shovqin ko'tarilgan. Uning nutqiga ko'pchilik e'tibor qaratmagan, hatto majlis ahli Demosfenni masxara qilib minbardan tushirib yuborishgacha borgan. Buning turli sabablari bor albatta. Birinchidan, Demosfen yosh bo'lgan, tajribasizlik qilgan, ikkinchidan, yosh notiq ko'pchilik tinglovchi oldida hayajonlangan. Hayajon natijasida, Demosfenning nutqidagi dalillar o'ziga ham soxtaga o'xshab tuyulgan. Boz ustiga, ovoz tiniqligi sustlashgan. Hayajon kuchayib talaffuzi ko'ngildagidek bo'lmay, nutq mazmuni maromiga yetmagan. Oqibatda Demosfen minbarni tark etishga majbur bo'lgan.

Demosfenning yoshlik, tajribasizlikdan kelib chiqqan muvaffaqiyatsizligi uni o'z ustida yanada tinimsiz mehnat qilishga undadi. Shunday kunlarning birida Demosfen yaqin do'sti mashhur aktyor Satirni uchratadi. Demosfenning minbardagi muvaffaqiyatsizligidan voqif bo'lgan Satir uni uyiga taklif qiladi va Evripid yoki Sofokl fojia(tragediya janri)laridan birorta monolog aytishni buyuradi. Demosfen Sofokl ijodidan bir monologni ifodali o'qiydi. O'z navbatida, Satir ham ana shu monologni yoddan aytadi. Satir nutqini kuzatib turgan Demosfen xatolarini anglaydi, notiqlik faoliyatidagi notabiiyliliklarni sezadi. Notiqlik san'atida sahna aktiyoridek jon kuydirib, butun vujudi bilan mavzuga berilmasa obro'-e'tibor qozonmasligini, nutqi jonli va jozibali chiqmasligini tushunib yetadi. Demosfenning do'sti Satir bilan bu tarixiy uchrashuvi so'nggi notiqlik faoliyatida tub burilish yasadi. Notiqlik mo'jizalarini puxta egallash yo'lida izlanish hamda amaliy mashqlarga alohida e'tibor qaratdi.

Demosfenning notiqlik san'atini egallashdagi intilishlari o'ziga xos, qiziqarli. So'nggi notiqlar uchun maktab vazifasini o'tadi desa mubolag'a bo'lmaydi. U yerto'la qaziydi va shu yerto'lada so'zlarni adabiy til me'yorlari asosida to'g'ri talaffuz qilishni tinimsiz mashq qiladi. Amaliyot jarayonida o'zini aktyorlardek tutadi. Butun borlig'i bilan notiqlik sehriga beriladi. Bunday mashqlar oylab davom etadi. U yerto'lada ovoz, diksiya, ifoda vositalarini qo'l, gavda harakati bilan moslashtirishga intiladi. Qomatni tik tutib, jiddiylikni doimiy saqlashni mashq qiladi. Demosfen jismoniy nuqsondan xoli bo'lmagan. U nutq so'zlaganda boshini mag'rur tuta olmagan, boshi pastga egilib ketavergan. O'zidagi bu nuqsonni yo'qotish uchun yerto'la shiftiga boshi sig'adigan chuqurcha kavlab boshini tiqib olgancha deklomatsiya qilgan, bu mashqlar soatlab davom etgan. Shuningdek, Demosfenning talaffuzida ham dastlabki faoliyati jarayonida nuqsonlar kuzatilgan. U r tovushini aniq jarangli talaffuz eta olmagan. Bu nuqsonni bartaraf etish uchun og'ziga mayda toshlar solgan holda she'r, nutq matnlari o'qishni mashq qilgan. Ovoz tiniqligini yaxshilash, talaffuzni tiniqlashtirish uchun past-baland tepaliklarga yugurib chiqib, yugurib tushib, nafasini rostlab she'r o'qish bilan shug'ullangan. Bu mashqlar besamar ketmaydi. Demosfenning nutqi ravonlashadi, talaffuzi tiniqlashadi, nutqi jarangdorlik kasb etadi.

Demosfenning notiq qaddi-qomatini tutish mashqi ham e'tibordan chetda qolmagan. Bu borada u katta toshoynadan foydalanadi. Toshoyna yonida turli monologlar, she'r parchalari, nutq matnlarini ifodali o'qiydi. Deklomatsiya jarayonida Demosfenning qo'l harakati, qiyofasi, ko'z qarashlari matnga muvofiqlashar edi. Bunday amaliy harakatlar Demosfenning notiqlik faoliyatida ijobiy samaralar berishi tabiiy edi.

Demosfenning yana bir jismoniy nuqsoni — nutq qiroat qilganda, yelkasi qaltirardi. Bu holat notiqqa qanchalik noqulaylik tug'dirsa tinglovchi tomoshabinlarning ham g'ashini

keltirishi tabiiy edi. Bu nutqning saviyasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Demosfen nuqsonni bartaraf qilish uchun laboratoriyasi-yerto'ladan unumli foydalanadi. Yerto'la shiftiga uchi o'tkir xanjar osib qo'yib o'rinsiz ko'tariluvchi yelkasini xanjar vositasida tuzatishga harakat qilgan. Uzoq davom etgan bu mashq turi nuqsonni bartaraf etadi.

Ma'lumki, katta yig'inlarda nutq so'zlash, kishilar e'tiborini jalb qilish uchun notiqdan tug'ma iste'tod bilan bir qatorda katta mahorat va bilim hamda tajriba talab qilinadi. Notiq nutqi tinglovchilar qalbini zabt etmas ekan, zalda shovqin ko'tarilishi va kishilarning e'tiborsiz bo'lishi tabiiy edi. Bu holat Demosfenning diqqat markazida turgan. U Falera ko'rfaziga borib, sohilda she'rlar o'qib, nutq parchalarini takrorlar ekan, shu darajada diqqatini bir nuqtaga jamlardiki, natijada deklomatsiya holati dengiz shovqinini bosib turgandek, go'yo ustun kelgandek tuyulardi notiqqa.

Demosfen notqlik va aktyorlik san'atlari o'rtasidagi o'zaro uzviy bog'liqlik borligini juda erta anglagan. Shu bois, u mashhur aktyorlar bilan doimiy suhbatda bo'lgan, do'stlik aloqalarini bog'lagan. Hatto notqlik san'ati texnikasini mashhur aktyor Neoptolemga 10 ming dirham to'lab o'rganib olgan. Va bu mohir san'atkor bilan doimiy hamkorlik qilgan. Ba'zan maslahatlar so'rab turgan.

Tajribali va donishmand notiq Demosfendan notqlik san'atida birlamchi darajada turuvchi narsani so'raganlarida «mimika bilan so'zlay olish» deb javob bergan. Ikkinchisi-chi? degan savolga ham «mimika bilan so'zlay olish», nihoyat, uchinchi savolga ham «mimika bilan so'zlay olishdir» deb javob qaytargan. Bu javobdan shunday xulosaga kelish mumkinki, mimika ham notqlik mahoratining asosiy belgilaridan biri hisoblanar ekan.

Demosfenning «Filippga qarshi» deb nomlangan turkum nutqlari ham o'z davrida mashhur bo'lgan. Bu nutqlar tayyorlanishining o'ziga xos obyektiv sabablari bor edi.

Ma'lumki, eramizdan avvalgi 360—359-yillarda Aleksandr

Makedonskiyning otasi Filipp II Makedoniyani idoraqila boshlaydi. Kuchli sarkarda sifatida armiya tuzib, qo'shni davlatlarni birin-ketin bosib ola boshlaydi. Jumladan, Afina davlati ham bu xavfdan xoli qolmaydi.

Demosfenning xalqqa qaratilgan turkum nutqlari shu maqsadda tayyorlangan edi. U Filippning asl maqsadi, bosqinchilik rejalarini, harbiy taktikasi sirlarini mohirlik bilan ochib tashlaydi. Demosfen Afina davlatining rahbari, dohiysi bo'lib qoldi. Harbiy notiq, tajribali davlat arbobi sifatida Filippga qarshi jangdag'alabani qo'lgakiritadi. Kuchli armiyani boshqarib, Filippni Yunoniston hududidan quvib chiqaradi. Ona yurti Afina mamlakatining milliy xavfsizligini saqlaydi. Ko'rinadiki, kuchli notiqdan, kuchli davlat arbobi darajasiga ko'tarilishda Demosfenning faoliyati saboq bo'larli darajada notiqlik tarixida zarrin harflar bilan bitilishi tabiiy edi.

Nazarimizda, Demosfen notiqlik faoliyatining e'tiborli jihatlari quyidagilarda ko'rinadi:

— Demosfen o'z nutqlarida arxaik so'zlar va jargonlardan foydalanmaslikka harakat qilgan;

Tushunarsiz so'z, iboralardan foydalanmaslik barobarida, hikmatli so'z, xalq maqollaridan o'z nutqida o'rinli va unumli foydalangan;

Nutq ta'sirchanligini oshirish maqsadida sinonimlardan tanlab, ustalik bilan foydalanishga harakat qilgan;

Ortiqcha takrorlar, qisqa bo'g'inlardan chekinib, imkoni boricha, cho'ziq bo'g'inli so'zlarni qo'llashni xush ko'rgan;

Nutq matnlarini tayyorlashda gapning boshi va oxiriga mantiqiy urg'u tushishi, muhim ma'no kasb etuvchi so'zlarni tanlardi;

Nutqda musiqiylik va ta'sirchanlikka erishish maqsadida ayrim o'rinlarda matnni she'r parchalari bilan tugatishga e'tibor qaratgan;

Nutq matnida mantiqiy izchillikka amal qilingan, ya'ni, oldingi aytilgan fikrlarni kiyingilari to'ldirib, mantiqiy mukammallikka erishilgan;

Demosfenning notiqlik uslubiga xos xususiyatlardan biri notiqqa ma'qul bo'lgan ta'sirli ma'no tashuvchi so'zlar ongli ravishda qaytarilib turilgan;

Nutq matnini tayyorlashda voqea-hodisalarni qiyoslash uslubidan foydalanib, o'z fikrini yorqin, dalilli isbotlashga harakat qilgan;

Nutq matnida ritorik so'roq gaplardan o'rinli va unumli foydalangan;

Demosfen nutqi har doim milliylik kasb etgan, vatanparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan;

Tashqi ifoda vositalari, turli mimikalar, jestlardan foydalangan;

Demosfen nutqlarining xalq qalbi, yuragi bilan hamohang bo'lishini bosh maqsad deb bilgan.

Xulosa qilib aytganda, Demosfen Afina notiqlik maktabining yirik namoyandasi sifatida o'zining madaniy merosi bilan chuqur iz qoldirdi. Uning notiqlik san'atiga doir tengsiz mahorat va iste'todi hozirgi davr notiqlik fani nazariyasi uchun ham bebaho manba sifatida qimmatlidir.

Giperid – Afina davlatining yirik siyosiy arbobi, Demosfenning zamondoshlaridan biri, mashhur notiq. U ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan Demosfenga yaqin turgan. Demokratiya tarafdori bo'lgan. Demosfen bilan hamkorlikda yunon xalqi va Afina davlatining istiqboli uchun tolmay xizmat qilgan. Jumladan, makedoniyalik Filipp II Afinaga hujum boshlagan yillarda Besh Yuzlar Ittifoqi a'zosi Giperid o'z nutqlarida xalqni jipslashtrishga doir vatanparvarlik ruhida chiqishlar qildi. Bu Giperidning xalq orasida obro', mavqeining yanada oshishiga sabab bo'ldi. U Ittifoq majlislarining har bir yig'ilishida so'zga chiqar, taklif-mulohazalarini dadil bildirar olar, o'z navbatida ana shu taklif va g'oyalarning amalga oshishi uchun harakat qilardi.

Giperidning notiqlik faoliyatida urush qurbonlari xotirasiga bag'ishlangan motam nutqlari – epitafiyalar muhim o'rin tutadi.

Giperid epitafik nutqlarida vatan ozodligi yo'lida halok bo'lgan jangchi va sarkardalarni hurmat bilan tilga oladi, xalq oldida burchini bajargan vatanparvar sifatida ularni ulug'laydi. Giperidning otashin nutqlari o'z vatanida mashhurligi bilan olqishlarga sazovor bo'lsa, yov tomonda dushmanlarni larzaga solar, g'azabini oshirardi. Giperid notqlik faoliyatining muhim xususiyatlaridan biri nutqda fikrni aniq va lo'nda ifodalash bilan belgilanardi. Biroq Giperid nutqi ta'sirchan, yuksak pafosli edi. Shu jihatdan notqlik san'ati tarixida Giperid nutqi Demosfen notqlik uslubi bilan qiyoslanadi. Giperid ham Demosfen kabi o'z nutqlarida hikmatli so'zlar, o'tkir iboralar va xalq maqollaridan unumli foydalangan.

Giperid notiq sifatida mutoyibaga moyil edi. Bu uning notqlik faoliyatining o'ziga xos jihati bo'lib, ungacha o'tgan notqlarda hazil deyarli uchramaydi. U nutqlarining hayotiy, jonli chiqishi uchun latifa, qiziqarli sarguzashtlarga tez-tez murojaat qilar edi. Bu jihatlar xalq orasida, auditoriyada Giperidning obro'si oshishiga sabab bo'ladi.

5-§. Rim notiqligi

Eramizdan avvalgi asr boshlarida Rim istilochilari Yunoniston hududlarini ham egallab Rim imperiyasiga asos soldilar. Natijada, Yunonistonning buyuk madaniyati va san'ati imperiyaning barcha hududlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi, keng tarqala boshladi. Mashhur Yunon ilm-fan, madaniyat vakillari, san'at namoyandalari Italiya poytaxti Rimga keldilar. Xalqni o'z san'ati namunalaridan bahramand qildilar, ilm-fan sirlarini o'rgatishga kirishdilar.

Qadimiy Afina ma'rifatl, madaniyatning o'chog'i bo'lib qoldi. Baribir, rimlik talaba uchun Afinada tahsil olish faxr hisoblanardi. Rim istilochilari zulmidan yunon madaniyati ozmi-ko'pmi inqirozga yuz tutdi. Bu "nasiba"dan Yunon notqlik san'ati ham bebahra qolmadi. Bir vaqtlar gullab yashnagan Afina davlatida notqlik san'ati beqiyos taraqqiy

etgan bo'lsa, bu jarayon endi sekin-asta Rimga ko'cha boshladi. Afina jahon notiqlik san'ati yuksak taraqqiy etgan madaniyat markazi sifatida tarixda qoldi. Afina notiqliği barcha davrlar notiqlik san'ati rivojida yo'lchi yulduz bo'lib porlab kelmoqda.

Madaniyat markazi Rimga ko'chgandan so'ng Yunon notiqliği asosida Rim notiqlik san'ati taraqqiy eta boshladi. Tarixga murojaat qilinsa, eramizdan avvalgi asr boshlarida Rim imperiyasida quldorlik siyosati kuchaygan bir davr edi. U davr qul va quldor o'rtasidagi keskin kurashlar, qullarning noroziligiga sabab bo'lgan davr sifatida tarixda muhrlanib qolgan. Ana shunday keskin kurashlar jarayonida ijtimoiy siyosiy hayotda so'z san'atiga e'tibor kuchaydi. Xalq orasida erkin fikrlash demokratik ruh faollasha boshladi. Davlat arboblari bunday sharoitda harbiy qurol aslahalardan ko'ra, notiqlik — so'z san'ati bilan qurollanishga e'tibor qarata boshladilar. Natijada, notiqlik san'atiga ehtiyoj tug'ilib, bu san'at tez rivojlana boshladi. Bu davr Rim notiqlik maktabidan Katon, aka-uka Grakslar, Mark Antoniy, Sitseron kabi mashhur notiqlar yetishib chiqdi.

Katon — Rimning taniqli davlat arbobi va iste'todli notiqalaridan biri. Katon eramizdan avvalgi 234—145-yillarda yashagan. Katon faoliyatini dastlab harbiy sohadan boshlagan. Rim imperiyasida lashkarboshi, senator lavozimlarida xizmat qilgan. O'z burchini ado etishda vatan va xalqiga mehr-sadoqat ruhi sezilib turgan.

Mark Portius Katon ma'rifatli oilada tarbiya topgan. Yoshligidan so'z san'ati — notiqlikka qiziqish uyg'ongan. Sekin-asta notiqlik san'ati ruhida tarbiya topa boshlaydi. Katon favqulodda qobiliyat egasi edi. Shu bois u har qanday mavzuni yorqin va jonli bayon etish iste'todiga ega bo'lgan. O'z oldiga qo'ygan maqsad sari intilish kuchli bo'lgan. Buni nutq matnlarini tayyorlash jarayonida ham sezish mumkin. U nutq jarayonida qiyoslash, qarama-qarshi qo'yish usullarini qoyilmaqom qo'llay olgan. Natijada, tinglovchilarning olqish va e'tirofiga sazovor bo'lgan.

Katon nutqqa muayyan tayyorgarlik ko'rish afzalligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, notiq, avvalambor, nutq mavzusini chuqur va atroflicha o'rganishi lozim. Bu notiq uchun birlamchi shart deb qo'yilgan. Shundagina notiq o'z chiqishlarida muvaffaqiyat qozonadi, e'tibor topadi deb qaragan. Katonning notqlik san'atiga doir bunday fikrlari hozirgi vaqtda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Katonning mashhur "Mavzuni chuqur o'rgan, so'zning o'zi keladi" degan g'oyasi notiq uchun dasturilamal vazifasini o'tab kelmoqda.

Aka-uka Grakxlar

Eramizdan avvalgi 133-yilda Tiberiy Grakx Xalq tribuni lavozimiga saylangan. U iste'todli notiq va yurist sifatida faoliyat ko'rsatgan. Xalq majlislarida muhokama qilinadigan "Yer to'g'risida"gi qonunlarni ishlab chiqqan. Tiberiy Grakx demokratiya tarafdori bo'lgan. U insonlarning teng huquqli yashashi lozimligini yoqlab chiqqan. Katta yer egalariining ortiqcha yerlarini dehqonlarga bo'lib berish lozimligini o'z nutqlarida ko'tarishga harakat qilgan. Ana shunday o'z loyihasini Xalq majlisida tasdiqlatib olishga muyassar bo'lgach, loyihani amalga oshirish uchun maxsus komissiya tuzilgan. Ammo senat a'zolari Grakx taklifiga qarshi chiqadilar. Biroq Tiberiy fikridan qaytmaydi. Loyihasini joriy etish maqsadida sabot bilan kurashadi. Bu kurash uning notqlik faoliyatida ko'zga tashlanadi. Rimga kelgan dehqonlar yig'inida nutq so'zlab, o'z qonun loyihalarining ham xalq uchun, ham davlat uchun, nafaqat muhimligini, ayni paytda foydaliligini dalillar asosida isbotlab bergan. Shundan so'ng Tiberiyni yig'ilish qatnashchilari qo'llab-quvvatlaydi, xalq orasida obro'si oshib ketadi.

Senat a'zolari xalq g'azabidan qo'rqib, Tiberiy taklif etgan qonun loyihasini qabul qilishga majbur bo'ladilar. Yig'ilish qarori e'lon qilinadi. Shundan so'ng Tiberiy ham a'zo bo'lgan maxsus komissiya yersiz dehqonlarga ortiqcha yerlarni bo'lib berishga kirishganlar. Islohot tarafdori bo'lgan Tiberiyning faoliyati, albatta, bir tekis kechmagan. Dushmanlari uni

obro'sizlantirishga uringanlar "Tiberiy podshoh bo'moqchi" deb turli uydirmalar tarqatilgan. Ochiqdan-ochiq tuhmat toshlari otganlar. Bunday tuhmatlarga ishongan senatorlar Rim konsulidan Tiberiyni sud qilishni talab qiladilar. Biroq Konsul ularning asossiz talabini rad etadi. Tiberiy dushmanlari maqsadlariga erisha olmagach, Xalq majlisi yig'inida mashhur notiq va uning tarafdorlariga hujum qilishib, ularni kaltaklab o'ldirganlar.

Vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan Tiberiy Grakxning notiqlik faoliyati va el-yurt manfaati yo'lidagi xizmatlari Rim xalqi tarixida abadiy saqlanib qolmoqda. Uning notiqlik faoliyati tarix zarvaraqlariga muhrlandi.

Kay Grakx

Akasi Tiberiy Grakx faoliyatini davom ettirgan Kay Grakx ham islohot tarafdori edi. Shu bois Tiberiy Grakxga qarshi guruhlar Kay Grakx faoliyatiga qarshi kurash boshladilar. Uni senat qarori bilan Sardiniya oroliga noib qilib yuborishga erishganlar. Sardiniyada ko'p turmagan Kay Grakx 123-yilda xalq tribuni bo'lish uchun o'z nomzodini qo'ygan va bu lavozimga saylangan. Shundan so'ng, akasi boshlagan ezgu ishlarni davom ettirishga kirishadi. Bu yo'lda sabot va matonat bilan kurashadi.

Kay Grakx siyosiy yetuk, bilimli va tajribali, xalq orasida obro'— e'tibor topgan kuchli notiqlardan biri edi. U o'z nutq-larida ovoz va ohang mutanosibligiga e'tibor qaratgan. Nutq jarayonida tinglovchi diqqatini jalb qilishning birlamchi vositasi ohangdorlikda deb bilgan. Kay Grakx nutqlari davr ijtimoiy — siyosiy hayotidan kelib chiqqan holda jo'shqin, xitoblarga, ritorik so'roqlarga va emotsiyaga boy bo'lgan. U tilning tasviriy vositalaridan so'z san'atkori sifatida ustalik bilan foydalangan.

Kay Grakx demokratik tuzimni yoqlab, qator nutqlar so'zlagan. Har gal xalq uni olqishlash bilan bir qatorda qo'llab-quvvatlagan. Shu bois Rim konsullari sinegorlar notiq Kay Grakxdan hayiqqanlar. Chunki Kay Grakx xalqni o'z orqasidan

ergashtira oladigan yo'lboshchilik iste'todiga ega edi. Albatta, bu xatti-harakatlar senat a'zolariga yoqmagan. Hatto senat Grakx o'limi uchun mashhur notiq vazni barobarida oltin va'da qilgan. Bu xabarni eshitgan Grakx qochishga tayyorgarlik ko'rayotganida, konsul askarlari tomonidan qo'lga olinadi. Mashhur notiq dushmanlar qo'lida halok bo'lishni istamay, o'z xohishiga ko'ra quli tomonidan o'ldirilgan.

Jahon notiqlik san'ati tarixida aka-uka Grakxlar donishmand notiq, o'z mustaqil fikri va idora uslubiga ega bo'lgan so'z san'atkori sifatida tilga olinadi. Shu sababdan ular notiqlik madaniyati tarixida o'lmas madaniy merosi bilan hamon ulug' siymolar qatoridan o'rin egallab kelmoqda.

Sitseron — mashhur notiq

Mark Tulli Sitseron eramizdan avvalgi 106-yilning 3-yanvarida Latsiya shahriga qarashli Arpina qishlog'ida tavallud topadi. Yirik huquqshunos Kvint Mutsiy Sevola va mashhur notiq Lutsiy Litsiniy Krassdan ta'lim oladi. Notiqlik asoslarini Appoloniya Molondan, aktyorlik mahoratini Aksiyan, yunon falsafasini Filon Larisskiydan o'rganadi.

Sitseron Afinaga borib, yirik notiqlardan bu san'at sirlarini mukammal o'zlashtiradi. Bilimini chuqurlashtiradi. Uning mashhur notiq, so'z san'atkori bo'lib shakllanishida grek notiqlik maktabi vakillarining ta'siri katta bo'ldi. Rim notiqdari tajribasi, xususan, Katonning notiqlik faoliyati dasturilamal vazifasini o'tadi. Sitseron nutqlarida fikr g'oyat erkin shakllanishi bilan, shuningdek, falsafiy, siyosiy va axloqiy qarashlarga yo'g'rilganligi bilan ajralib turadi.

Sitseron, avvalambor, tinglovchi qalbini so'z jozibasini bilan rom etishga harakat qilgan. Buning uchun so'zning badiiy tasviriy vositalaridan unumli foydalangan. Nutqning ta'sirchanligini oshirish maqsadida xalq maqollari, quyma fikrlar — iboralarni o'rinli qo'llay bilgan. Sitseron ham mashhur notiqdar kabi nutqda mantiqqa, ifoda go'zalligi va ohangdorlikka e'tibor qaratgan. U nasrda ilk bor vazn tizimini qo'llab, muvaffaqiyatga erishgan. Sitseron har bir chiqishiga

katta tayyorgarlik ko'rgan, nutqning pishiq va puxta bo'lishiga harakat qilgan. Shundan so'nggina minbarga ko'tarilgan.

Sitseronda tug'ma notiqlik iste'todi tinimsiz mehnat bilan mukammallik kasb etgan. U mehnatni muvaffaqiyatlarning asosi deb bilgan. "Inson shoir bo'lib tug'ilishi mumkin, lekin notiq bo'lib yetishadi",— degan fikrni faoliyatida ko'p ishlatadi. Notiqlik mahorati, nafaqat, iste'tod, balki tinimsiz mehnat mahsuli ekanligini shogirdlariga uqtirib turgan.

Sitseron so'z san'ati borasida nazariyotchi olim, notiqlik fazilatlarini amaliyotda isbotlay bilgan mashhur san'atkordir. Uning notiqlik san'atidagi faoliyati tahsinga sazovordir.

Sitseron bo'lajak notiqning nimalarga e'tibor berishini quyidagi fikrlarida alohida ta'kidlaydi:

1. Notiq o'z nutqi mavzusini chuqur bilishi va o'ziga ishonchi mustahkam bo'lishi ustuvor masaladir.

2. Nutq jarayonidagi fikr-mulohazalar tinglovchida o'rinsiz savol tug'dirmaydigan holda dalillangan bo'lishi lozim.

3. Nutqqa tayyorgarlikning boshi yetarli material to'plashdir.

4. Nutqda fikr o'rinli joylashishiga — kompozitsiyaga e'tibor muhim rol o'ynaydi.

Sitseron fikricha, nutq matni talabga javob berarli darajada mantiqli tayyorlanishi lozim. Shunda kutilgan natijaga erishish mumkin. Nutq kompozitsiyasi qurilishida quyidagilar alohida o'rin tutadi:

1. Kirish.

2. Mavzu mohiyatini to'laqonli ifodalay olish.

3. Rejaning keyingi qismlarini ifodalash.

4. Dalillarni o'z o'rnida qo'llay bilish.

5. Matnning asosiy mazmunini ocha bilish.

6. Xulosa.

Mashhur notiq Sitseron boshqa sohalarda ham o'z iste'todini namoyon eta olgan. Jumladan, advokat, filosof, yozuvchi va davlat arbobi sifatida ijtimoiy-siyosiy tuzumga munosabat bildirib turgan. Uning qarashlarida demokratik ruh ustuvor bo'lgan. Senatda demokratiyani quvvatlab, otashin

nutqlar soʻzlagan. Sezar vafotidan soʻng, Rim hukmdori boʻlib faoliyat yuritgan. 43-yili Sezar tarafdorlari tomonidan oʻldirilgan.

Sitseron notiqlik sanʼati nazariyasi va tarixiga doir koʻplab asarlar yaratdi. Uning “Notiqlik haqida”, “Notiq”, “Brut yoki taniqli notiqlar haqida” kabi mashhur asarlari fanda hamon oʻz qadr-qimmatiga ega. Notiqlik sanʼati nazariyasiga doir traktatlari notiqlik sanʼati taraqqiyotida muhim rol oʻynab kelmoqda.

6-§. Sharq notiqligi

Xalqimizda soʻzga chechan, badiiy didi yuksak kishilar azal-azaldan qadr-qimmatini topib kelgan. Ular oʻz sanʼati bilan el ogʻziga tushgan. Shu bois sanʼat turlaridan biri notiqlikka tamal toshi qoʻyila boshlagan. Sharqda bu sanʼat — *voizlik*; notiq — *voiz*; nutq esa *vaʼz* kabi terminlar bilan mashhur boʻlgan. Sharqda voizlik sanʼati (arabcha *vaʼz* **xxx** — targʻib, *voiz* **xxx** — targʻibotchi) jamoaning hissiyoti, tuygʻulari va qalbiga taʼsir etish usuli degan tushunchalarni anglatgan va ilmiy-siyosiy maʼruza, bahs-munozara, targʻib va tashviq vositasi sifatidagi keng ishtimoiy mavqega ega sanʼat hisoblangan. Voizlik sanʼati hozirgi davrdagi notiqlik sanʼati, ritorika tushunchalari oʻrnida qoʻllangan. Qadimda podshohlar, hukmdorlar, xonlar, beklar oʻz xalqi oldida ishtimoiy hayot, xalqaro ahvol, davlat siyosati toʻgʻrisida shaxsan oʻzlari nutq soʻzlaganlar. Bunday maʼruzalar, asosan juma namozi, hayit bayramlari, navroʻz kunlari va boshqa tadbirlarda anʼanaga aylangan. IX asrga kelib, bu muhim va masʼuliyatli ish maxsus soʻz ustalari, taʼsirchan gapiradidan, voqeyilikni dalillar bilan isbotlab xalqni ishontira oladigan maxsus kishilarga topshirilgan. Bunday kishilar voizlar deb atalgan. Hukmdorlarning farmoyishlari, yorliqlari ana shu maxsus voizlar tomonidan oʻqilgan.

Voizlik sanʼati rivoji jarayonida bu sanʼatning *dabirlik*, *xatblik*, *muzakkirlik* kabi tarmoqlari yuzaga kelgan. Dabirlik — davlat ahamiyati yozishmalarni insho etish va oʻqib berish

notiqligi; xatiblik — diniy, ijtimoiy-sisyoziy notiqlik; muzakkirlik — diniy-axloqiy masalalarni izohlab, sharhlab berish notiqligidir. Muzakkirlar keng bilimga ega bo'lgan shaxslar hisoblanib, ular saroy ayonlari, xonlar, beklar, xalifalar oldida ham nutq so'zlab, tarixiy voqealar, sarguzashtlar, jangnomalar va qissalarni hikoya qilib berganlar. Voizlik san'ati nutq matnlari, tinglovchilarning bilim saviyasi, ijtimoiy mavqei va boshqa xususiyatlariga ko'ra turli tarmoqlarga bo'lingan: *sultoniyot* — yuqori tabaqa uchun, *xutubi jihodiya* — jangovar nutqlar, *g'aribona maqom* — oddiy xalq uchun mo'ljallangan nutqlar. Voizlik san'ati ijtimoiy va badiiy jihatdan ahamiyatli bo'lganligi uchun asrlar davomida taraqqiy qildi. Voizlar aytilayotgan har bir hodisaning mohiyatini ochib berish, fikr mazmuni ta'sirchanligini ta'minlash, mulohazalarni tinglovchiga aniq va mufassal yetkazish tamoyillari to'g'risida jiddiy shug'ullanganlar. Va'zlar o'tkir til, ta'sirchan ifodalar bilan sug'orilgan hamda badiiy yuksak saviyada tayyorlangan va o'qilgan. Voizlik san'ati o'tmishda katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan bo'lib, hozirgi kun notiqlik san'atining rivojlanishi uchun ham asos bo'lib xizmat qildi.

Ma'lumki IX–XV asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari jahon madaniyati taraqqiyotining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Bu davrda Movarounnahr zaminidan jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'inoniy, Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Mahmud Zamaxshariy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Husayn Voiz Koshifiy singari buyuk siymolar yetishib chiqdi. Ular dunyo tamaddunida o'z ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy merosi bilan alohida o'rin egallaydilar. Shu bois bu davr Sharqda Uyg'onish davri hisoblanadi. Bu yillarda madaniyat, san'at, ilm-fan rivojlanishi barobarida, madaniyat targ'ibotchilari, ulkan so'z san'atkorlari — voizlar ham yetishib chiqdi. Notiqlik san'ati ham ravnaq topdi.

Abu Nasr Forobiy 873-yilda hozirgi Chimkent viloyatining Forob qishlog'ida tug'ilib, 950-yilda Damashqda vafot etgan. Uning to'liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad O'zlug' Tarxon al-Forobiydir.

Sharq Uyg'onish davrining buyuk vakili Abu Nasr Forobiy ijtimoiy va tabiiy fanlar sohasida qomusiy bilim sohibi bo'lib, 160 dan ortiq asar yaratgan. U poliglott sifatida 70 dan ortiq tilni mukammal egallagan. Jumladan, yunon tilida yunon falsafasiga oid sharhlar yozganligi uchun dunyo miqyosida nomi keng tarqalgan. Shu bois Sharqda *“Al-Muallim as-Soniy”* (Arestoteldan keyingi, ikkinchi muallim) ya'ni, *“Sharq Arastusi”* nomi bilan ulug'langan.

Qomusiy alloma tilshunoslik, she'riyat, musiqa, falsafa, poetika, xattotlik hamda notiqlik san'atiga doir mukammal asarlar yozgan. *“Xattotlik haqida kitob”* (*“Kitob fissan'at al-kitobat”*), *“Lug'atlar haqidagi kitob”* (*“Kitob fil-lug'at”*), *“Ritorika haqida kitob”* (*“Kitob fil-xitoba”*) kabi asarlar shular jumlasidandir.

Aql masalasi chuqur talqin qilingan Forobiyning *“Aql ma'nolari haqida”* risolasida aql, bir tomondan, ruhiy jarayon; ikkinchi tomondan, tashqi ta'sir, ta'lim-tarbiya natijasi ekanligi ta'riflanadi. Insonga xos bo'lgan tug'ma xususiyat va ruhiy kuch bilan bog'liq narsa, alloma fikricha, aqlidir. Insonga xos tug'ma instinkt tushunish, fahmlash, muhokama qilish va fikrlash quvvati bolada kamolot sari takomillashib, rivojlanib boradi.

Forobiyning mantiqqa doir asarlarida aql masalasi muhim rol o'ynaydi. U aqlga ta'rif berish bilan birga inson faoliyatida aqlning roli xususida keng to'xtaladi. Forobiyning yozishicha, mantiq san'ati kishiga shunday qonunlar haqida ma'lumot beradiki, bu qonunlar vositasida aql chiniqadi, inson sog'lom fikrlashga o'rganadi — haq va to'g'rilik qaysi tomonda ekanini anglaydi, turli xatolarga yo'l qo'yishdan saqlanadi. Forobiy fanlar mazmunini mantiq tashkil etishini alohida ta'kidlaydi. Jumladan, mantiq ilmi va grammatika o'rtasidagi bog'liqlik haqida: *“Mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq*

ilmi ham tafakkurni haqiqiy yoʻldan olib borish uchun aqlni toʻgʻrilab turadi”, -deb yozadi.

Forobiy mashhur asarlaridan biri *“Fozil odamlar shahri”*da mashhur shaxslarning oʻn ikki muhim sifatini sanab oʻtadi. Shulardan beshinchi sifati notiqlik mahorati boʻlib, bu haqda *“Notiqning soʻzlari aniq boʻlsin, fikrini va aytmoqchi boʻlgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin”*, -deb alohida toʻxtaladi.

Forobiy asarlarida soʻz sanʼati, notiqlik mahorati haqida ahamiyatli qaydlar koʻplab uchraydi. Chunki Forobiyning oʻzi mashhur notiq boʻlgan. Bu kasbni benihoya qadrlagan. Manbalarda Forobiy shirinsoʻz, hozirjavob, mushkul masalalarni ham bir zumda hal qila oladigan donishmand notiq boʻlganligi qayd etilgan.

Forobiyning koʻp tillarni biluvchi poliglot olimligi haqida qayd qilingan edi. Bu haqda aniq dalillar bilan bir qatorda rivoyatlar ham mavjud. Kunlarning birida Forobiy Damashq hokimi huzuridagi olimlar majlisiga tashrif buyuradi. Hokim Sayfuddavla Forobiyni oʻtirishga taklif qiladi. Shunda hozirjavob alloma: *“Oʻzimning martabamga qarab oʻtiraymi yoki Sizning martabangizga qarab oʻtiraymi”*, - deya savol bilan murojaat qiladi. *“Oʻzingning martabangga qarab oʻtir”*, -javob qaytaradi hokim. Soʻngra Forobiy hokim taxti yoniga borib oʻtiradi. Bu hol hokimga maʼqul kelmay, *“Bu turk odobsizlik qildi, axloqsizligi uchun ketayotganida uni jazolanglar”*, - degan mazmunda soqchisiga shipshitadi. Koʻpchilikka nomaʼlum boʻlgan bu sirli qarashni sezgan Forobiy: *“Men hech bir gunoh ish qilganim yoʻq-ku, nima uchun meni jazolaysiz?”* -deb soʻraydi. Olimning zukkolidan hayratlangan hokim, bu tilni hech kim bilmas edi, sen qayerdan oʻrgangansan? - degan murojaatiga Forobiy: *“Men koʻp tillarni oʻrganganman”*, - deb javob qaytaradi. Yoniga oʻtirgan shaxs buyuk alloma, *“Ikkinchi muallim”* nomi bilan dong taratgan Forobiyligini sezib qolgan hokim undan uzr soʻraydi va hurmatini joyiga qoʻyadi.

Abu Ali Ibn Sino

Buyuk tabib, faylasuf, shoir Abu Ali ibn Sino Sharq uyg'onish davrida muhim o'rin egallaydi.

Dunyo ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Abu Ali ibn Sino qomusiy bilim sohibi. Ilm-fan, madaniyat tarixida nomi zarrin harflar bilan bitilgan. Sharqda tabiblik sohasida dong taratgan Ibn Sino g'arbda "*Avitsenna*" nomi bilan mashhur bo'ladi.

Abu Ali ibn Sino buyuk tabib, matematik, faylasuf va shoir sifatida 280 dan ortiq qimmatbaho asarlar yozib qoldirgan. Tilshunoslik, poeziya nazariyasi, musiqashunoslik ba boshqa sohalar bilan ham mashg'ul bo'lgan. "*Arab tili grammatikasi*", "*She'r to'g'risidagi kitob*", "*Musiqa haqida risola*" kabi asarlar shular jumlasidandir. Ibn Sinoning ta'lim-tarbiya, axloq va nutq madaniyati haqidagi qarashlari notiqlik san'ati tarixi bilan bevosita bog'liqdir. Bu borada Ibn Sino nutq jarayonida quyidagilarga qat'iy amal qilishni uqtiradi:

- nutqda ohang muhim rol o'ynaydi. Shu bois ohangga e'tibor berish lozim;

- notiq birinchi navbatda tinglovchilar saviyasini, dunyoqarashini e'tiborga olishi kerak;

- ortiq nasihatgo'ylik nutqqa putur yetkazadi, o'rtoqlik tarzida olib borilgan suhbat kuchli taassurot qoldiradi;

- barchaga yoqimli, muloyim, ohangdor nutq maqsadga muvofiqdir;

- o'rinli dashnom hayotiy misollar bilan qiyoslab berilsa, ijobiy samara berishi tabiiydir;

- nutq jarayonida e'tiqod masalasida bir necha dalillarga tayanilsa, nafaqat, tinglovchiga ta'sir qilishi mumkin, balki o'zi haqida o'ylashga, haqiqatni izlashga harakat qiladi;

- tinglovchi nutqni e'tibor bilan eshitayotganda, nutq oxirigacha mantiqan izchil davom ettirilishi maqsadga muvofiqdir, aks holda mavzuni almashtirishga to'g'ri keladi.

Ibn Sino fikricha, notiq o'z nutqiga nihoyatda e'tibor berishi lozim. Kamchilik, nuqsonlarni ko'ra bilishi kerak. «Agar biror

kamchilik e'tibordan chetda qolsa, butun mehnat zoye ketadi va istalgan natijaga olib kelmaydi»¹.

Nutqda notiq tomonidan chetlab o'tilgan nuqsonlar, salbiy natijalarga olib kelishi ham mumkin. Bunday kamchiliklarni Ibn Sino «Sirti tuzalgan, lekin ichidan yiringlab ketgan yara»ga qiyoslaydi. Bu nuqsonlar «vaqti bilan yiringlab, o'zining yaramas va bema'ni qiyofasini ko'rsatadi», — deb alohida ta'kidlaydi. Bunday kamchiliklar ko'proq hukmron doira vakillarida uchrashi tabiiy edi. Shu bois Ibn Sino bu boradagi fikrlarni ko'proq o'shalar nutqiga tegishlilikini ta'kidlaydi. «Odamlar hukmdorlardan qo'rqishlari tufayli ba'zan ularning kamchiliklarini bilsalar ham yuziga haqiqatni ayta olmaydilar. Amaldorlar o'z nutqlaridagi kamchiliklarni har doim ham seza olmaydilar, Ba'zan esa sezsalar ham lavozim, mansabdan foydalangan holda o'zlarini boshqalardan ustun qo'yadilar. Buning natijasida ularning xulqlari buzila boshlaydi, bu hol davlat ishiga ham salbiy ta'sir etadi», — deb yozadi.

Bundan tashqari Abu Ali ibn Sino o'zining nazmiy asalarida ham notiqlik, nafosat, so'zga chechanlikning; kishi tafakkuri, aql-idrokining oynasi til tufayli ekanligini ta'kidlaydi:

Inson notiqligi, saodat tildan,

Nazokat tildandir, nafosat tildan.

Hayot saboqlari ko'rsatur shuni,

Do'zax tildan erur va jannat tildan. (Ibn Sino. Farosat ilmi haqida).

Ibn Sino davlat boshqaruvi tizimida demokratik tamoyillarga amal qilish tarafdori edi. Shu bois u amaldorlar faoliyatidagi, xususan, nutqidagi xato-kamchiliklar vaqtida tuzatilsa, mamlakat poydevori mustahkam bo'lishini uqtirgan edi.

Butun kuch-g'ayratini ilmga bag'ishlagan, xalq sog'ligi va mamlakat xizmati yo'lida faoliyat ko'rsatgan buyuk mutafakkir olim 1037-yili olamdan o'tdi. Uning muborak nomi jahonning barcha mamlakatlarida hurmat va ehtirom bilan tilga olinadi.

¹ Ibn Sino fikrlari quyidagi manbadan olindi: Barotov M. Ibn Sino etikasi. T.: 1969, 20-21-betlar.

Kaykovus

Unsurulmaoliy Kaykovus Kaspiy dengizi janubiy qirg'oqlarida yashagan Gilon qabilasiga mansubdir. U XI asrda yashab ijod etdi. O'z zamonasining ziyoli kishilaridan bo'lib yetishdi. Musiqa va tibbiyot ilmida muvaffaqiyat qozondi. Biroq Kaykovus nomini «Qobusnoma» asari mashhur siymolar qatorida mangulikka muhrladi. XI asr Sharq ma'naviyati tarixida qimmatli asarlardan biri hisoblangan «Qobusnoma»da ham notqlik san'ati, mahoratiga doir alohida boblar berilgan. Kaykovus notqlikka alohida e'tibor qaratadi. U so'z san'atida shaxsning mukammal bilimga ega bo'lishi tarafdori edi. «Bilgilkim, hamma hunardin so'z hunari yaxshi», deb uqtiradi u.

Agar hunarmand mashaqqatli mehnati tufayli moddiy ne'matlar bunyodkori bo'lgani bilan, mehnat mahsulida inson ma'naviy qiyofasi to'laqonli namoyon bo'lmaydi. Shu bois hunarmand ham mehnat jarayonida ma'naviy qiyofasini shakllantirishi lozim. Bu nutq orqali namoyon bo'ladi. «So'z hunari» ni egallagan hunarmandning ishi boshqalaridan ko'ra yaxshiroq yurishadi deydi u. Kaykovus fikricha, so'zamol, so'zga chechan notiq kishi hamma joyda muvaffaqiyatga erishadi. Xushmuomalalik bilan ishni bitirib ketaveradi.

Kaykovus mashhur "Qobusnoma" asarida notiq muvaffaqiyat qozonishi uchun quyidagilarga alohida e'tibor berishini ta'kidlaydi:

- tinimsiz mehnat, o'z ustida ishlash va o'rganish;
- nutq yoqimlilikini taminlash. Bu haqda u "Nutqing go'zal bo'lsinki, xalq uni mamnunlik bilan qabul qilsin", – deb uqtiradi;
- nutqda ifodalangan fikr tinglovchi qalbiga yetib bora olsun;
- so'z yoki mulohaza to'g'ri, jonli shakllanishi va asosli bo'lmog'iga erishish;
- ilmiy asos va dalillarga boy nutq ta'sirchanlikni orttiradi;
- nutq matni jiddiy tayyorgarliksiz havola qilinar ekan, birinchidan, saviyasi, ikkinchidan ta'sir doirasi past bo'ladi;

– “Har qancha dono bo‘lsang ham o‘zingni nodon bilgil, toki senga ilm o‘rganish eshigi ochiq bo‘lg‘ay”;

– “Amaldorlar bilan amaldordek, oddiy odamlar bilan oddiy odamlardek so‘zlashgil, donishmandlik chegarasidan chiqma, sening so‘zingni eshitgan kishiga og‘ir tuyulmasin”;

– “Ko‘p bilgil-u, oz so‘zla.., shunday so‘zlagilki, bu so‘z bekor va zoye ketmasin”;

– so‘z eshitishdan qochma, kishi so‘zni eshitish bilan notiq bo‘ladi”.

Unsuralmaoliy Kaykovusning bunday fikr-mulohazalari notiqlik san‘ati tarixida hamon o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Yusuf Xos Hojib nutq va so‘z odobi xususida

Sharqda Uyg‘onish davrining turkiy muhitdagi dastlabki yirik siymosi Yusuf Xos Hojib Balosog‘un(Qirg‘izistondagi To‘qmoq shahri) shahrida dunyoga keldi. Yusufning qachon tug‘ilgani, vafot etgan yili ma‘lum emas.

XI asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkiston(Koshg‘ar)da va Markaziy Osiyo hududida qoraxoniylar saltanati mustahkamlandi. Bu hokimiyatning markazi Koshg‘ar (O‘rdukent) bo‘lib, uning shimolida Balosog‘un (Kuzo‘rdu), g‘arbda Samarqand kabi yirik siyosiy va madaniy markazlar bor edi. Iste’todli shoir, davlat arbobi, donishmand adib Yusuf Xos Hojib mana shu davrda yashadi va ijod etdi. Uning qalamiga mansub “Qutadg‘u bilig” (“Baxt-saodatga eltuvchi bilim”) asari 1069-yilda Koshg‘arda yozib tugallangan. Shoir o‘z asarini qoraxoniylar hukmdori Tavg‘och Bug‘roxonga taqdim qiladi. Buning evaziga esa u Xos Hojiblik lavozimi bilan taqdirlanadi.

Bu asar o‘z zamonasining tafakkuri, hikmati va falsafasini aks ettiradigan qomusiy manbadir. Asarda ulug‘ mutafakkirning adolat, insof, ilm-u ma‘rifat, davlatchilik haqidagi, insoniy siyrat va xilqat haqidagi fikrlari yoritilgan. Bu hikmatlar hozirgi kunda ham dolzarb va ibrat sabog‘i bo‘lib kelmoqda.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida nutq

madaniyati, notiqlik san'ati borasida ham qimmatli fikr-mulohazalar bildirilgan. "Bilimni buyuk bil, uquvni ulug' bil" tamoyili asarning bosh g'oyasini tashkil etadi. Yusuf Xos Hojib tushunchasida notiq – zimmasiga mas'uliyatli vazifalar yuklangan shaxs. U mamlakat rivojini, dunyo voqealarini tahlil qila oladigan, chuqur bilimli, siyosiy yetuk va hushyor bo'lmog'i kerak.

Yusuf Xos Hojib nutq madaniyati haqida fikr yuritarkan, uni qonun ijrosi, qonun ustuvorligi, adolat, odil hukm, poklik kabi tushunchalar bilan mushtarak deb biladi. Mamlakatda adolatli qonun ustuvorligi xalq hayotini ta'minlovchi bosh masala ekanligini ta'kidlaydi. Shu bois ma'naviyatimiz gultoji hisoblangan "Qutadg'u bilig" asari ham huquq fani tarixida, ham notiqlik san'ati tarixida qimmatli manbalardan biri hisoblanadi. Asarda bilim hayotdagi barcha ishlarning asosi ekanini ta'kidlanadi. Ana shu asos ijtimoiy hayotda ustuvor bo'lishini ta'minlash lozim. El rahnomalari, boshqaruv tizimi vakillari bo'lsa, adolat bilan ish yuritadi, mamlakatda farovon turmushni ta'min etadi, shuning uchun mutafakkir bilim borasida:

*Yana bir hikmat bor: Hazrati Odam
Bilim, aql-u idrok, sabab muhtaram.
Bilimni buyuk bil, uquvni ulug'
Shu ikkov ulug'lar kishini to'liq', -*

deb yozganida mutlaq haq edi.

«Qutadg'u bilig» asarida muallif ilg'or ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ta'limiy, huquqiy qarashlarni ilgari suradi. Bu umuminsoniy qadriyatlar, mamlakatda qonun ustuvorligi va adolat tamoyillari bilan bevosita uyg'unligini qayd etishi joiz.

Yusuf Xos Hojib insonni ulug'laydi. Inson bilmaydigan narsa bo'lmaydi. Har bir narsani bilish, uning tub mohiyatiga yetish, insonning qo'lidan keladi, deb aytadi.

Xalq, millat mavqei davlat boshqaruv tizimiga qarab

¹ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. T.: Yulduzcha, 1990, 11-bet.

belgilanadi. Chunki davlat boshlig'i, mamlakat boshqaruv tizimi ijtimoiy hayotga, kishilar ma'naviy, axloqiy turmush tarziga ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Farovon, osoyishta turmushning asosini adolatli boshqaruv tizimi tashkil qiladi.

Shunday ekan, yurt tinchligi xalq farovonligi har bir davlatning bosh maqsadidir. Farovon turmush tinch hayotga qonun ustuvorligi asosida erishiladi. Qonunga bo'ysunish, adolatli tuzumni mamlakatda joriy etish qadimdan barcha mamlakatlar uchun bosh muammo hisoblangan. Chunki mamlakat ijtimoiy hayotida fuqaro qonunga birday itoat qilmas ekan, bu shunchaki so'zlar yig'indisi bo'lib qolishi tabiiy. Demak, hamma zamonlarda adolatli qonun ustuvorligiga erishish, qonun himoyachilariga ehtiyoj sezilib turgan.

Bundan salkam ming yil muqaddam yaratilgan «Qutadg'u bilig» asarida ham adolatli shoh va davlat boshqaruv tizimida birlamchi vosita hisoblangan qonun ustuvorligi bosh masala sifatida yoritilishi bejiz emas. Buning uchun shaxs bilimli bo'lishi va har doim ilm o'rganishga intilishi lozim. "Qutadg'u bilig"da ta'kidlanishicha, el rahnamolari bilimli bo'lsalargina adolatli ish yuritadilar. Mamlakat tinchligi, xalq farovonligini ta'minlaydi. "Bilig birla baglar budun boshladi". «O'qush birla el-kun ishin ishladi». Bilim bilan beklar xalqqa boshchilik qiladi, zakovat bilan el-yurt ishlarini yuritadi. Yusuf Hos Hojib shu bois, «Hazrati odam — bilim, aql-u idrok sabab muhtaram, bilimni buyuk bil, uquvni ulug', shu ikkov ulug'lar kishini to'liq»¹, — deb yozadi.

«Qutadg'u bilig» asaridagi ilg'or ma'rifiy, axloqiy, ta'limiy, siyosiy-huquqiy qarashlar, fikr-mulohazalar hozirgi vaqtda ham o'z qadr-qiymatini saqlab, umuminsoniy qadriyatlar qatoridan o'rin olib kelmoqda. Buning sababini asar mundarijasi — boshqaruv tizimini qat'iy tartib asosida olib borish, adolatli qonun ustuvorligini ta'minlash, turli ijtimoiy tabaqalar burch va faoliyatini bilish, ilm-ma'rifatl, odob-axloq masalalari talqini tashkil etishidadir.

¹ O'sha asar, o'sha bet.

Yusuf Xos Hojib ilm-ma'rifatni saodat kaliti deb biladi. Shu sabab, har bir qadriyatning ildizini ilmdan qidiradi. Va o'quvchini qoniqtira oladigan javoblarni topib, o'rinli qo'llay oladi. Bu — asarda didaktik usulda berilgan. Ayni paytda bu qomusiy manbadagi til va nutq odobi haqidagi fikrlar hamon dolzarbligini saqlab kelmoqda. Asarning yettinchi bobi «Til ardami» («Til odobi») deb nomlanadi. Mazkur bobda tilning ahamiyati, mazmunli nutq va til odobi haqida ibratli fikr yuritilgan. Muallif:

*Uquv-u bilimga tilmochdir bu til¹,
Kishiga yorug'lik shu tildan-a, bil,*
deb g'oyat o'rinli nasihat qiladi.

Yoki

*Bu tildan qadr ham topar qut kishi,
Noo'rin esa-chi yorilar boshi,-deb yozadi.*

Ya'ni, inson tili tufayli baxt-saodatga erishadi, qadr topadi. Aksincha, tilga e'tiborsizlik, noo'rin so'zlash «boshni yoradi», insonni obro'sizlantiradi.

«Qutadg'u bilig» asarida quyma fikrlar, xalq maqoli, aforizmga yaqin misollar ko'plab uchraydi:

*Oshiq so'zda aslo bo'larmi foyda
Ziyondan bo'lak yo'q so'z ortiq joyda.*

*Oshiq so'zlama hech, juda so'zla oz,
Tuman so'z tugunin bu bir so'zda yoz.
Kumush qolsa meros agar-chi senga,
Uni tutmagin sen bu so'zga teng-a.*

*Kumush ishga tushsa olqinar (tugaydi), tugar,
So'zim ishga tushsa, kumushlar tugar.*

Mutafakkir adib e'tiroficha, ezgu so'zli kishi mangu yashaydi. Uning nomini ezgu so'zi tarix sahifalarida asrdan

¹ Qolgan o'rinlardagi misollar ham yuqoridagi manbadan olindi.

asrga olib o'tadi. Shuning uchun tilga, so'zga hushyorlikka chorlaydi u:

*Tug'ilgan o'ladi, qolarmi nishon,
So'zing ezgu bo'lsa — mangusan, ishon.*

Yusuf Xos Hojib badiiy so'zning salohiyati, ta'sir kuchiga e'tibor bilan qaraydi. Asarda hikmatli so'zlar, turli xalq maqollari, o'tkir iboralar hamda tilning tasviriyl ifoda vositalaridan ustalik bilan unumli foydalangan. Turli badiiy san'atlarda fikr-istaklari, g'oyasini singdirishga harakat qilgan. Hamma zamonlar uchun dolzarb hisoblangan ijtimoiy-siyosiy muammolar asar boblarida yoritilgan va donishmand adib tomonidan yechilish yo'llari ko'rsatilgan.

«Qutadg'u bilig'» asari, nafaqat, XI asr turkiy xalqlar madaniy merosining gultoji hisoblanadi, balki Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonda yashagan turkiy xalqlar hamda qabilalar madaniyati, urf-odati va tilining muhim yodgorligi sifatida katta ahamiyatga egadir.

Alisher Navoiy

Ulug' mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy butun umrini, aqliy faoliyatini xalq hamda millat kelajagi, vatan ravnaqiga bag'ishladi. Millat va davlat kelajagi uchun qayg'urdi, bu yo'lda fidokorona xizmat qildi.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro hukmronlik qilgan yillarda bosh vazir lavozimiga ko'tarildi. Donishmand davlat arbobi sifatida mamlakat tinchligi, xalq farovonligi yo'lida xizmat qildi. Navoiy ijodida so'z, nutq va notiqlik masalalariga ham alohida e'tibor berilgan. Turkiy tilning yaratuvchanlik qudrati, ma'no nozikliklarini o'z asarlarida isbotlab bera oldi. Alisher Navoiy ijodida barcha daho so'z san'atkorlarida bo'lgani kabi baynalmilal so'zlar ko'p uchraydi. Xususan, asarlarining aksariyat qismi arabcha nomlangan. Garchand Navoiy yashagan davrda ijodkorlar asarlari arabcha nomlanishi rusum bo'lsa-da, mutafakkir shoir arabcha, fors-tojikcha so'z va

iboralarni ezgulik maqsadida qo'lladi. Biroq u ona tili — o'zbek tilini ko'klarga ko'tardi, bu tilning boy imkoniyatlaridan unumli foydalandi. «Ko'p va xo'b» yozdi. Ona tilida ijod qilishni faxr deb bildi. «Farhod va Shirin» dostonidan olingan quyidagi misralar fikrimiz dalilidir:

*Olibmen taxti farmoning'a oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.*

Yoki:

*Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yak qalam.*

Alisher Navoiy tilni tafakkur mahsuli vositasi, insonni hayvondan ajratuvchi «guhari sharif» deb biladi. Tilga ijtimoiy hodisa deb baho beradi. Inson fikri daryodir, so'z esa — dur, so'zlovchi g'avvosdir. Yaxshi so'z insonga jon baxsh etsa, yomon so'z insonni halok etadi, — deydi.

*So'zdin o'lukning tanida ruhi pok,
Ruh dag'i tan aro so'zdin halok.*

Mutafakkir adib til odobi haqida ham qimmatli nasihatlar beradi:

*So'zni ko'ngilda pishirmaguncha tilga keltirma.
Va har nekim, ko'ngilda bor — tilga surma.*

Alisher Navoiy notiqlik mahorati borasida betakror fikrlarni bayon qiladi. U notiqlik san'atining ichki mohiyatini tushuntiradi. So'z ko'ngilda pishib yetilmaguncha tilga chiqmasligini, aks holda aytilgan so'z, go'yo nafasdek qaytarilmasligini uqtiradi: «So'zni ko'ngilda pishirib, toblamaguncha tilga keltirma. Dilda bor so'z fikrlarning hammasi aytgulik bo'lavermaydi. Ichda yotgan so'zlaring — sening sirlaring. Sir esa nafasga o'xshashdir. Chiqqan nafasday, uning ham sira qaytarilish imkoni bo'lmaydi».

Notiqlik san'ati haqidagi fikrlar Alisher Navoiy asarlarida ko'plab uchraydi. Hatto mutafakkir adib «Mahbub ul-qulub»

nomli falsafiy asarining maxsus fasli, ya'ni 24-faslini notiq va notiqlik san'atiga bag'ishlaydi. «Nasihat ahli va voizlar zikrida» deb nomlangan mazkur faslda notiqlik mahorati va notiqlik san'ati fazilatlari haqida qimmatli fikrlarni bayon qiladi: «Voiz kerakki, "qolaalloh" so'z aytsa va "qola rasululloh" muxolafatidin qaytsa, xudo va rasul yo'lig'a qadam ursa. O'zi kirgondin so'ngra nasihat bila elni ham kivursa. Yurumagan yo'lg'a elni boshqarmoq — musofirni yo'ldin chiqormoqdur va biyobong'a keturmak va bodiyada iturmakdur. Usrukki, elga buyurg'ay hushyorliq uyquvchidekdurki, elga buyurg'ay bedorliq. Uyqusida so'z degan jevligon bo'lur va ul degondek qilmoq ne degon bo'lur»¹, deb bu san'atga ilohiy tus beradi. Navoiydan keltirilgan mazkur iqtiboslar navoiyshunos Inoyat Maxsumov tomonidan hozirgi o'zbek adabiy tiliga nihoyatda mohirona tabdil qilingan: "Voiz Haq so'zni targ'ib qilishi, Payg'ambar so'zidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uning o'zi Haq va payg'ambar yo'liga kirishi, so'ngra esa nasihat bilan elni ham shu yo'lga solishi lozim. O'zi yurmagan yo'lga elni boshlamoq — musofirni yo'ldan adashtirib, biyobonga tashlamoq va sahroda uni yo'qotmoqdir. O'zi mastning elni hushyorlikka chaqirishi — uyquchi kishining odamlarni bedorlikka da'vat etganiga o'xshash bir narsadir"².

Ya'ni, notiq, avvalo, iymon-e'tiqodli, musulmon, shariat arkonlarini biladigan, tariqat yo'liga kirgan shaxs bo'lishi lozim. Nutqida Qur'oni karim va hadisi sharif ma'nolarini targ'ib etishi joiz.

Nutq ijod qilish va notiqlik san'ati fazilatlari haqida Alisher Navoiy qat'iy e'tiqodli bo'lish, haqiqat va adolat yo'lidan bormoqni ta'kidlaydi: «Va'z bir murshid va ogoh ishidur va uning nasihatini qabul etgan maqbul kishidur. Avval bir yo'lni bormoq kerak, andin so'ng elni boshqarmoq kerak. Yo'lni

¹ Alisher Navoiy. Asarlar, 13-tom. Mahbub ul-qulub. T.: 1966, 25-bet.

² Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Inoyat Maxsumov nasriy bayoni. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983, 31-bet.

yurmay kirgan itar va g'ayri maqsud yerga yetar»¹. Ana shunday fazilatlar nutqqa ko'rk bag'ishlaydi. Jonlilik kasb etadi. Ulug' mutafakkirning bu fikrlari ham hozirgi o'zbek adabiy tiliga yuqorida nomi zikr etilgan adabiyotshunos tomonidan quyidagicha nasriy bayon etilgan: "Va'z murshidlar — pirlar, hushyor kishilarning ishidir va ularning nasihatini qabul etgan maqbul kishidir. Avvalo, uning o'zi bir yo'lga tushib olgan bo'lishi, keyin esa boshqa odamlarni o'sha tomon boshlab borishi kerak. Yo'lga bilmay kirgan yo'qoladi va maqsadidan boshqa yerga yetadi"².

Alisher Navoiy inson umrini aziz va mukarram deb biladi. Vaqtni qadrlaydi. Shu bois notiqlik san'ati haqida fikr yuritganda nutqning ishonchli bo'lishini, haqiqat ustuvorlik qilishi lozimligini bosh masala deb qaraydi. Aks holda, tinglovchilarda zerikish paydo bo'ladi. Bu notiq obro'siga putur yetkazishi tabiiydir. Alisher Navoiy «Voiz uldurki, majlisig'a xoli kirgan to'lg'ay va to'la kirgan xoli bo'lg'ay. Voizkim, bo'lg'ay olim va mutaqiy — aning nasihatidin chiqqan shaqiy. Ulki, buyurib o'zi qilmag'ay, hech kimga foyda va asar aning so'zi qilmag'ay. Nazoirxon bila surguvchi maqol — dastyor bila yirlag'uvchi qavvol» deb, yana bir bor notiqlik mahorati fazilatlarini yorqinroq ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy, nafaqat, badiiy ijod bilan mashg'ul bo'ldi. Balki jamoat ishlarida faol qatnashishni, xalqqa xizmat qilishni o'zining insoniylik burchi deb bildi. Shu bois u xoh vazir bo'lsin, xoh oddiy fuqaro bo'lsin, o'z obro'— e'tibori bilan podshohga turli ijtimoiy masalalarda murojaat qilar edi. Yig'inlarda ishtirok etar, xalqqa tushuntirish ishlarini olib borardi. Shu sababdan Alisher Navoiyning notiqlik san'atiga e'tibor bilan qarashi tabiiy edi. Asarlarida bu san'at fazilatlarini bayon qildi. Qolaversa, ayni zamonda ham Alisher Navoiyning bu mavzudagi fikrlari

¹ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Inoyat Maxsumov nasriy bayoni. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983, 32-bet.

² Alisher Navoiy. Majolisun nafois. Asarlar, 12-tom. T., 1966, 123-bet.

o'zining dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Notiqlik san'ati rivojida, milliy davlatchiligimiz shakllanishida Navoiyning notiqlik mahoratiga doir fikrlari dasturilamal vazifasini o'tashi tabiiydir.

Husayn Voiz Koshifiy

Husayn Voiz Koshifiy 1442–46-yillarda Sabzavorda tavallud topgan va 1505-yilda vafot etgan. Husayn Voiz uning taxallusi, asl ismi Kamoliddindir. Husayn Voiz Koshifiy – voizlik san'ati namoyandasi va nazariyotchisi, ulug' mutafakkir, qomusiy olim. Arab, fors tillarini yaxshi bilgan. Matematika, kimyo, astronomiya, musiqa, adabiyot va fiqh fanlarining bilimdoni bo'lgan. Yoshligidan notiqlik bilan shug'ullangan. Nishopur va Mashhadda (1455–68), keyinchalik Hirotida (1468-yildan) yashagan. Asarlarini fors tilida yozgan. Navoiy bilan ijodiy hamkorlik qilgan va unga bag'ishlab "Mavohibi oliya" – "Oliy tuhfa" nomli asarini yozgan.

Husayn Voiz Koshifiy falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, siyosat, din tarixi, voizlik, she'r san'ati kabi fanlarga oid 200 dan ortiq asar yozganligi manbalarda qayd etiladi. Uning axloq haqidagi eng mashhur asarlaridan biri "Axloqi muhsiniy" ("Yaxshi xulqlar") Husayn Boyqaroning o'g'li Abulmuhsin Mirzoga bag'ishlangan.

Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati"¹ nomli asari taniqli adabiyotshunos professor N. Komilov tomonidan fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qilindi va nashr etildi. Mutafakkir Husayn Voiz mazkur asarida nutq odobi to'g'risida batafsil fikr yuritgan. Uning fikricha, tilni asrash, har tomonlama o'ylab gapirish insonning donoligi, aql-zakovati mahsulidir. Insonning ma'naviy qiyofasi, martabasi, shuhrati, obro'-e'tibori uning nutqi orqali namoyon bo'ladi. Shu sababdan ulug' donishmand

¹ Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T.: 1994.

darajasiga yetgan Husayn Voiz Koshifiy nutq jarayonida tildan, soʻzdan foydalanishning meʼyorlari haqida, har doim tilga eʼtiborda boʻlish toʻgʻrisida quyidagicha saboq beradi: “Birinchi, yolgʻon gapirishdan, zero yolgʻonchi xudoning dushmanidir. Ikkinchi, vaʼdaga xilof gapirish va munofiqona soʻz aytishdan. Uchinchi, gʻiybat va boʻhton gaplardan, chunki boʻhton fosiqlar ishidir. Toʻrtinchi, behuda bahs-u munoqashadan, ayb qilishdan, gap tashishdan. Bular shayton vasvasasiga kiradi. Beshinchi, oʻzini maqtash va taʼriflashdanki, bu xudbinlikka olib keladi. Oltinchi, navkar va xizmatkorni laʼnatlashdan. Yettinchi, qargʻashdan, duoyi bad qilishdan, chunki bu jonu dilning ofatidir. Sakkizinchi, mazax-masxara qilish va hazil-huzuldan”¹.

Husayn Voiz Koshifiy nutq odobi haqida mulohaza yuritarkan, talaffuz ravonligi va ohangni ham eʼtibordan chetda qoldirmaydi: “Ovozning ingichkaligi badgumonlik, vahmnolik dalilidir. Ovozning muʼtadil(yoqimli) boʻlishi tadbirkorlik, har ishga yaxshi saranjom bermak nishonasidir. Ovozning dimogʻda chiqishi kibr-u ahmoqlik va kamfahmlik alomatidir. Ohistalik birla soʻzlamak xoʻblik (goʻzallik) va yaxshilik nishonasidir. Soʻz aytish vaqtida qoʻl tebratmaslik ziyraklik va yaxshilik nishonasidir”.

Ulugʻ mutafakkirning “Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati” asarini mutolaa qilar ekansiz, soʻzning muqaddas bir neʼmat ekanligi, soʻz inson aql-zakovatining kaliti — inson bilan soʻz bamisoli et bilan tirnoq kabi zikr etiladi: “Agar soʻz senikimi yoki sen soʻz nikimi, deb soʻrasalar, aytgil: men soʻz niki va soʻz menikidir, chunki soʻz insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevadan, mevani esa daraxtdan ajratib boʻlmaydi. Agar nuqsonli soʻz qaysidir, deb soʻrasalar, Xudo va rasulning soʻziga muvofiq kelmaydigan soʻz, deb javob bergil”. Husayn Voiz Koshifiy Alisher Navoiy tomonidan hurmat va

¹ Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T.: 1994, 51-bet.

ehtirom bilan tilga olingan mashhur notiqlardan biri. Husayn Voiz Koshifiy notiq sifatida o'sha davrda eng mashhur kishilardan bo'lishi bilan birga, o'z davrining zabardast olimi, astronomi, matematigi, shoiri ham edi. Alisher Navoiy o'zining "*Majolis un-nafois*" asarida u haqda quyidagilarni qayd etadi: "Mavlono Husayn Voiz — "Koshifiy" taxallus qilur, Sabzavorliqdur. Oz fan bo'lg'aykim, daxli bo'lmag'ay, xususan, va'z, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysisida mutaayyin va mashhur ishlari bor va musannafotidin biri *«Javohir ut-tafsir»* durkim, *«Al-baqara»* surasin bir mujallad bitibdurkim, munsifi qat' bila yuz jo'z bo'lg'ay».

Husayn Voiz Koshifiy Qur'oni karimdag birgina *«Al-baqara»* surasiga yuz bosma taboq hajmdagi tafsir yozgan. Mana shu ma'lumotning o'zi ham Husayn Voiz Koshifiyning ulug' bir donishmand, katta bir notiq ekanligidan dalolatdir.

Husayn Voiz Koshifiy nutqlarining ta'sirchanligi, jozibadorligi haqida uning o'g'li Faxriddin Ali Safiy *«Latoyifut tavoyif»* nomli asarida quyidagilarni eslaydi: «Kunlarning birida ahli majlisga Mavlono Sayid G'iyosiddin degan mashhur so'z ustasi kechikib kelgan. Bu majlisga Abdurahmon Jomiy ham tashrif buyurgan ekan. Sayid G'iyosiddin kirib kelishi bilan Jomiy undan so'rabdi:

— Nechuk kechikdingiz, mavlono G'iyosiddin?

— Meni ma'zur tuting, ustod, — debdi G'iyosiddin, — kelayotgan edim, masjidi jome'da Husayn Voiz Koshifiy nutq so'zlayotgan ekan, shunga mahliyo bo'lib qolibman". Husayn Voiz Koshifiyning nutqlari jozibadorligi bilan har qanday kishini jalb qila olgan.

Husayn Voiz Koshifiy axloq, tarix, tasavvuf, nujum, riyoziyot, fiqh sohalariga doir bir qator asarlar yaratgan. Uning *«Futuvvatnomai sultoni»*, *«Axloqiy Muhsiniy»*, *«Risoi hotamiya»*, *«Anvari Suhayliy»*, *«Javohir ut-tafsir»* kabi asarlari fikrimiz dalilidir. Bu asarlar besh yuz yildan ortiq vaqt o'tsada, sharqona odob va axloq dasturi sifatida o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Husayn Voiz Koshifiy Alisher Navoiyning muxlisi, shogirdi va do'sti bo'lgan. U «*Tafsiri Husayniy*» va «*Javohir ut-tafsir at-tuhfat ul-Amir*» nomli tafsir asarlarini Alisher Navoiyga bag'ishlagan. O'z navbatida uning bunday so'z san'atidagi mahoratini Alisher Navoiy ham yuqori baholaydi. Alisher Navoiy va sulton Husayn Boyqaro o'z asarlarini xalq o'rtasida rasmiy ijro etish lozim bo'lgan paytlarda, bu ishga Husayn Voiz Koshifiyni munosib ko'rganlar. Ma'lumki, 1492-yilning 8-noyabrida ulug' mutafakkir, fors-tojik adabiyotining namoyandasi, Alisher Navoiyning ustoz Abdurahmon Jomiy vafot etadi. Abdurahmon Jomiyning dafn marosimida Alisher Navoiy o'zining Jomiyga bag'ishlangan marsiyasini o'qib eshittirishni ham Husayn Voizga topshirganligi fikrimiz dalilidir.

7-BOB. SUD JARAYONI VA NOTIQLIK SAN'ATI

1-§. Prokurorning ayblov nutqi

Ma'lumki fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari sud yo'li bilan samarali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida barcha instansiya sudlarida ishlar ko'rilayotganda prokuror qonunda belgilangan tartibda ishtirok etadi.

Prokuror sudlarda jinoyat ishlari ko'rilayotganda davlat ayblovinini quvvatlaydi. Shuning uchun ham sud jarayonida prokurorga nisbatan davlat ayblovchisi termini qo'llaniladi.

Prokuror birinchi instansiya sudlarida jinoyatlarga doir ishlarni ko'rishda ishtirok etib, davlat ayblovinini quvvatlaydi, dalillarni tekshirishda ishtirok etadi. Sudlanuvchilar, jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar va sudga taklif etilgan boshqa shaxslarga savollar beradi. Jinoyat Kodeksining normalarini qo'llash, sudlanuvchining jinoiy harakatlarini dalillar asosida isbotlash, unga jazo turini va me'yorini tayinlash to'g'risida hamda sudda hal etilishi lozim bo'lgan masalalar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bayon qiladi, jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar haqida hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan choralar to'g'risida o'z fikrini bildiradi.

Davlat ayblovchisi sud tergovni yakunlarini inobatga olib, o'z nutqida sudlanuvchining aybdor yoki aybdor emasligi to'g'risidagi xulosaga keladi. Davlat ayblovchisi o'zining bu vakolatini muvaffaqiyatli bajarishi uchun, taraflar muzokarasidagi nutqida davlat ayblovinining o'ziga xos nozik tomonlarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Prokuror sud jarayonida tirik inson hayoti muhokama qilinayotganligini aslo esdan chiqarmasligi lozim. Ba'zan hayotda muhokamadagi ish to'raligicha dalillanmay, masalaning nozik qirralari yetarli o'rganilmay, gunohsiz odam jinoyatchi deb topilgan holatlar ham bo'lgan.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 1998-yil 12-noyabrdagi "Sudlarda jinoyat ishlari ko'rilishida prokuror vakolatini ta'minlash ishini takomillashtirish haqida"gi buyrug'ida: "Sudlarda ishtirok etayotgan va davlat ayblovinini quvvatlayotgan prokurorlar notqlik mahoratiga ega bo'lsinlar, sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi, o'zaro tortishuv tamoyiliga, sud muhokamasi va madaniyati qoidalariga qat'iy rioya qilsinlar, dalil-isbotlarni tekshirishda faol ishtirok etib, ishni ko'rishda yuzaga kelgan masalalar bo'yicha asosli xulosalar berib, ... jinoyat sodir qilganlarga murosasiz bo'lib, tergov va suddagi ma'lumotlar aybsizlikdan to'liq dalolat bersa, ayblovdan voz kechib, o'z faoliyati bilan odil sudlovga ko'maklashsinlar. Davlat ayblovdachisining fikri sudda yozma taqdim etilishi majburiyligi haqidagi qonun talabiga rioya qilsinlar"¹, — deb ta'kidlangan.

Bundan tashqari, prokuror qonunni, uning talablarini qat'iy himoya qiluvchi huquq-tartibot xodimi hisoblanadi. U huquqiy islohotlarni o'tkazishda, huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurish ishida hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Shuni afsus bilan aytish kerakki, ba'zi prokurorlar o'zlarining faoliyatlarida himoya qilishdek muqaddas burchlarini unutib, ko'pincha jazolash xususiyatlarini namoyon qilib qo'ymoqdalar. Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq oltinchi sessiyasida: "Yana bir o'z yechimini kutayotgan muammo huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning barchasiga taalluqlidir. U ham bo'lsa, ushbu kasbni tanlagan ayrim xodimlarning maxsus xizmat libosini kiyishi bilan birdaniga yurish-turishi, xulq-atvori o'zgarib qoladi. Ularning ongida "Biz davlatning o'ta ishonchli odamlarimiz, qolganlar esa biz nazorat qilib turishimiz lozim bo'lgan omma, xolos degan" kayfiyat paydo

¹ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining amaldagi buyruqlari, ko'rsatmalari, nizom va yo'riqnomalari to'plami. T.: 1999, 185-186-betlar.

bo'лади. Bu, axir, o'tmishga, sho'rolar davriga xos bo'lgan axloqiy tubanlik asorati emasmi? Davlat muassasalari, birinchi navbatda, prokuratura xodimlari bir haqiqatni qulog'iga quyib olsinki, ular ham mana shu xalqning bir qismi, hech kimdan, oddiy odamlardan ortiq joyi yo'q. Prokuratura xodimlari ularni nazorat qilishi emas, balki ularga xizmat qilishi kerak"¹ degan gaplariga huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari to'liq amal qilishlari shart.

Prokuror sud jarayonida ayblov nutqini ifodalar ekan, o'ta madaniyatli ekanligini namoyish eta olishi lozim. Har qanday sharoitda ham taraflardan birontasiga do'q-po'pisa qilishga haqli emas. Garchand sudlanuvchi retsdiv jinoyatchi bo'lsa ham, uni kamsitish, masxaralash, unga nisbatan kesatq, qochirim so'zlarni aslo ishlatmasligi lozim. Shaxsiyatga tegadigan so'zlardan saqlanish zarur. Prokuror degani odamlar nazdida davlat odami, davlat ramzi hisoblanadi. Prokurorning asosiy quroli qonun va uni ifodalovchi so'z ekanligini unutmaslik kerak. Bas shunday ekan, prokuror sud jarayonida davlat ayblovchisi sifatida ishtirok etganda, o'z nutqini chiroyli, jozibali, mantiqan izchil, aniq va tiniq, zarur o'rinlarda rasmiylik ma'nosiga urg'u berib ifodalasa uning nufuzi, obro'-e'tibori yanada oshadi, martabasi yuqorilab ketaveradi.

Prokuror ayblov nutqida u yoki bu jinoyatni fosh qilar ekan, fikrni faqat ayblov doirasida emas, balki bir vaqtning o'zida huquqiy madaniyat targ'ibotchisi ekanligini ham ko'rsata olishi maqsadga muvofiqdir. Ya'ni jinoyatning kelib chiqishi va sodir bo'lish sabablari haqida batafsil ma'lumot berish bilan birga, uning oldini olish borasidagi fikr va mulohazalarini bildirsa olishi ham uning nutqini yanada jonli chiqishiga, sifatli takomil topishiga sabab bo'лади. Prokuror o'z nutqida jinoyatning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish

¹ Karimov I.A. Adolat — qonun ustuvorligida. "Fidokor" gazetasi, 2001-yil 30-avgust

bilan birga, sudlanuvchining shaxsiga, sodir etilgan jinoyatga siyosiy va huquqiy baho berishi ham ijobiy holdir. Masalan, yuzaga kelgan jinoyat inson sog'ligi, hayoti va insoniy qadriyatiga nisbatan xavf solar ekan, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan siyosiy, iqtisodiy va shaxsiy huquqlari haqida to'xtalishi va buni sodir qilingan jinoyatga, jinoyatchining shaxsiga bog'lasa yanada maqsadli bo'lardi. Mabodo jinoyat davlat mulki yoxud fuqarolarning xususiy mulkini o'zlashtirish, talonchilik, bosqinchilik, firibgarlik bilan bog'liq bo'lsa, halol mehnatning, foydali mehnatning sharafi haqida to'xtalishi maqsadlidir.

Bundan tashqari, prokuror ayblov nutqida qilmishning oqibati jamiyat uchun o'ta zarar ekanligini hayotiy misollar asosida izohlashi kerakki, sudlanuvchining ruhiyatiga, qalbiga, ong-u shuuriga yetib borsin, aybdorning bir umr yodida saqlansin. Natijada aybdor qanday jinoyat qilganligini anglab yetsin, o'ziga tegishli xulosa chiqarib olsin. Lekin nutqni me'yoridan ortiqcha nasihatgo'ylikka aylantirib yubormaslik kerak.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, prokuror o'zining ayblov nutqida barchaga tushunilishi qiyin so'zlarni, shevaga oid so'zlarni, o'zlashmagan yevropacha so'zlarni qo'llamasligi lozim. Har bir ish yuzasidan fikr-mulohazalarni mantiqiy izchillik asosida, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda ifodalashi ko'zlangan natijani beradi.

2-§. Advokatning himoya nutqi

Mustaqillik sharofati ila advokat va advokaturaga munosabat tubdan o'zgardi. Ma'lumki, sobiq sovet tuzumi davrida advokatning vazifasi sotsialistik qonunchilikni mustahkamlash, sotsialistik odil sudlovga xizmat qilish bo'lib, inson manfaatlari va qonuniy huquqlari, inson omili ikkinchi darajaga tushib qolgan edi. Natijada so'nggi yillarda advokatlarga nisbatan odamlarda ishonchsizlik kayfiyati yuzaga kela

boshlagandi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan davlatimiz va jamiyatimiz talablariga to'la javob beradigan, inson huquqlarini qonuniy himoya qila oladigan zamonaviy advokatura institutini yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq to'rtinchi sessiyasida Prezidentimiz I.A. Karimov sud-huquq islohotiga oid masalalar haqida so'zlar ekan, hozirda eski tuzumdan meros qolgan advokatura faoliyat ko'rsatayotganini, bugungi kunda birorta ham nomdor, elga tanilgan, kuchli advokatlar yo'qligini afsus bilan ta'kidlagan edilar. Haqiqatan ham shunday. Davlatimizda kuchli, nufuzli, notiq advokatlarning nomlarini faxr bilan eslay olmaymiz. Hozirgi kunda esa ijtimoiy hayotning turli qirralarida advokatlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Advokatlar nafaqat inson huquqlarini himoya qilishda, balki yuridik shaxs faoliyatida ham, turli xo'jaliklar, tashkilotlar, muassasalar faoliyatida ham ularning manfaatlarini qonuniy himoya qilishda suv va havodek zarur bo'lib qolmoqda. Ko'pgina xorijiy mamlakatlarda har bir oilaning o'z vrachi bo'lgani kabi, ularning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qiladigan xususiy advokatlari ham mavjudligi fikrimizni isbotlaydi. Shuning uchun ham yurtboshimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq o'n to'rtinchi sessiyasida: "Biz advokatura tizimini kuchaytirish va uning chinakam mustaqilligini ta'minlash, ularning vakolatlari va maqomini prokuratura maqomiga tenglashtirish uchun qonunchilik sohasida ham, amaliy ishlar sohasida ham ko'pgina chora-tadbirlar ko'rmoqdamiz" deganlarida nechog'liq haq ekanligini vaqt ko'rsatdi. Ko'p o'tmay 1996-yilning 27-dekabrida O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi hamda 1998-yilning 25-dekabrida esa O'zbekiston Respublikasining "Advokatlik faoliyatining kafolatlari, advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonunlarining qabul qilinishi zamonaviy advokaturaning barpo etilishidagi muhim bosqich bo'ldi. Bu qonunlarda advokatlarning huquq

va vazifalari, ular oldiga qo'yiladigan talablar belgilab qo'yildi. Advokatlik faoliyatining asosiy prinsiplari, advokatning vakolatlari, advokatning daxlsizligi, advokatlik faoliyatiga aralashishga yo'l qo'ymaslik, advokatlik faoliyati himoyalashining ta'minlanishi hamda advokatning ijtimoiy himoyasi kabi masalalarning qonun yo'li bilan qat'iylashganligi advokatlarning tom ma'nodagi nufuzining oshishiga sabab bo'lmoqda.

Advokatlarga bunday imtiyozlarning berilishi ulardan o'z ishlariga yanada mas'uliyat bilan yondashishni ham taqozo etadi. Ayni chog'da advokatlarning himoya nutqi yuzaki emas, balki yuqori darajada bo'lishi ham talab etiladi. Albatta, buning majburiyat yuki katta bo'ladi. Buning uchun advokatlar yuriprudensiyani qanday yuqori darajada o'zlashtirgan bo'lsalar, adabiy til va uning tarkibiy qismi bo'lgan yuridik til me'yorlari va talablarini ham xuddi shunday yuqori darajada bilishlari shartdir.

Advokatning himoya nutqi ifodalanayotgan fikrni dalillar bilan isbotlashga asoslanadi. Agar advokat muayyan ish yuzasidan yetarli dalillar to'play olmasa, sudda gumon qilinayotgan shaxsning gunohsizligini, aybsizligini isbotlay olmaydi. Va ayni chog'da advokatning himoya nutqi ham talab darajasida shakllanmaydi va advokatning o'zi hatto sudda uyaliq qolishi ham mumkin.

Advokat dalillarsiz ishlay olmaydi, u har qanday sharoitda ham yolg'on gapirishga, yuzaki dalillar keltirishga haqli emas. Chunki sud va sudda ishtirok etuvchilar, ayniqsa himoya qilinishi lozim bo'lgan shaxs uning aybsizligini isbotlash yuzasidan butun vujudi bilan advokatdan "najat" kutadi. Albatta, advokat bunday jarayonda aybsizlik prezumpsiyasiga amal qilishi lozim. Aybi bor odamni aybi yo'q deb harakat qilinishi ham advokatning nufuziga putur yetkazadi. Advokatlar tegishli malaka komissiyasining majlisida qasamyod qiladilar.

Advokat, odatda, prokuror — davlat ayblovdchisidan keyin so'zga chiqadi, u himoya nutqida aniqlangan holatlarni

yoritishi, prokuror ayblovigiga javoban dalillar keltirishi, sudlanuvchi shaxsi tavsifini ochib berishi kerak. Himoya nutqida sudlanuvchining aybdor yoki aybsizligi masalasini hal qilish amalga oshiriladi, agar gumon qilinayotgan shaxs aybsiz bo'lsa, advokatning himoya nutqi uni ozod qilish yoxud aybdorligi aniqlansa adolatli jazo tayinlanishiga asos bo'ladi.

Bundan tashqari, keltirilgan dalillarning aniqligi, ishonchliligiga soya soluvchi ahamiyatsiz tafsilotlar himoya nutqidan o'rin olmasligi kerak. Advokatning himoya nutqida shakl bilan mazmunning bir-biriga to'liq muvofiq kelishi ishning ijobiy hal bo'lishiga sabab bo'ladi. Ya'ni advokatning himoya nutqi dalillar to'plash, ularni baholash va ular asosidagi himoyachining mantiqiy xulosalarini o'z ichiga oladi. Himoya nutqi uslubi va shakli ishning xususiyatlariga hamda advokatning shaxsiy qobiliyatiga bog'liqdir. Advokat yurisprudensiyani qanchalik yuqori darajada o'zlashtirgan bo'lsa, nutq madaniyatini ham undan kam bilmasligi kerak. Agar ifodalanayotgan fikr o'ta yuqori darajada bo'lsa-yu, uni til vositalari bilan ifodalash sust bo'lsa, maqsad amalga oshmaydi, tegishli xulosalar chiqarishda, fuqarolarning aybsizligini isbotlash yoki aybdor bo'lsa unga nisbatan tegishli jazo tayinlashda ham qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Chunki til fikr ifodalash vositasidir. Advokat til qoidalarini yaxshi o'zlashtirmas ekan, uning himoya nutqi ham talab darajasida shakllanmaydi.

Shuningdek, advokatning ovozi juda ta'sirli kuchga ega bo'lishi zarur, agar ovoz soz bo'lsa, u goh hayajonga soladi, goh ko'ngillarga sokinlik bag'ishlaydi. Agar ovoz nosoz bo'lsa, aksincha taassurot uyg'otishi mumkin. Advokat o'z imidjini yaratar ekan, ovoz va talaffuz me'yorlari ham uning e'tiboridan chetda qolishi kerak emas. Lekin hamma ham tabiatan qo'ng'iroqdek yoqimli ovozga ega bo'lavermaydi. Yoqimli, tiniq ovozga ham maxsus mashqlar yordamida erishiladi. Noto'g'ri talaffuz etish, so'zlarni yarim chala aytish, bo'g'iq ovoz, so'zlayotganda hatto nafas olishning buzilishi ham nutqqa salbiy

ta'sir ko'rsatadi. Bularning barini bartaraf etish uchun quyidagilarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

1. Nutq jarayonida nutqning jozibali, ta'sirli bo'lishi uchun ovozni goh pastlab, goh balandlatib o'qish zarur. Bunda, albatta, mantiqiy urg'uga alohida e'tibor beriladi. Ishga doir har bir gapda ahamiyatli so'zlar alohida urg'u bilan talaffuz etilishi nutqqa jon bag'ishlaydi. Shundagina so'zning ma'nolari va ovozda uyg'unlik bo'ladi. Agar ko'rilayotgan ish yaxshi o'rganilgan bo'lsa-yu, nutq ohangi unga mos kelmasa, 30—40 foiz axborot sud ishtirokchilari tomonidan o'zlashtirilmay qoladi.

2. Advokat himoya nutqini so'zlayotgan vaqtda biroz tin olishni ham unutmasligi lozim. Bunday kichik tanaffuslar fikrlarni jamlashga, nutqni yanada jonliroq, ishonchliroq, ma'noliroq ifodalashga yordam beradi. Ba'zan sukut ham so'zlashuvdan ko'ra ko'proq ma'no berishi mumkin.

3. Ba'zan advokatlar nutqida eng muhim so'zlar e'tiborsizroq talaffuz etilsa, muhim bo'lmagan so'zlar jonliroq talaffuz etiladi; Ba'zan eng muhim asoslovchi dalillarni ifodalovchi so'zlar hayajon yoki qo'rquv asosida ikkinchi o'ringa tushirib qoldiriladi. Advokat o'zining so'zlariga, himoya nutqiga majlis ahlining e'tiborini jalb qilmoqchi bo'lsa, ovozini balandlatib, ishonch bilan ifodalashi lozim. Aks holda tinglovchilarda teskari taassurot qoldirishi mumkin.

4. Bo'lajak yuristlar hozirdan to'g'ri talaffuzga o'rganib borishlari uchun ovozlarni turli ohanglarga solib mashq qilishi, tez-tez turli janrdagi asarlarni ovoz chiqarib o'qishlari ma'quldir.

Xorijiy mamlakatlarda advokatning nufuzi boshqa huquq-tartibot organlari xodimlari nufuziga nisbatan yuqori turishining sababi ham o'shanda. Bizning davlatimizda ham demokratik fuqoralik jamiyati qurilishi ta'minlanar ekan, advokat haqiqiy ma'noda insonning huquq va manfaatlarini qonuniy himoya qiluvchi shaxsga aylanishi tabiiydir. O'shanda zamonaviy advokatlarga xalqning hurmati va ishonchi yanada oshadi.

3-§. Sud muhokamasi va nutq odobi

Sud muhokamasi – jinoyat protsessining hal qiluvchi bosqichi. Sud muhokamasining borishida protsessning asosiy vazifasini sud bajaradi, jinoyat ishini mohiyatiga qarab ko‘rib chiqadi va hal qiladi, ular tomonidan chiqariladigan hukmda har qanday jinoyat ishining asosiy maqsadi – sudlanuvchining jinoiy javobgarligi (uning aybdorligi yoki aybdor emasligi va unga nisbatan jazo chorasini qo‘llash yoki qo‘llamaslik) haqidagi savolga javob beradi.

Sudda ishni ko‘rishning predmeti – bu davlat bilan ayblanuvchi o‘rtasidagi (agar qonun doirasida sudlanuvchining jinoyat sodir etganlikda aybdorligi isbotlansa) bahs, ya’ni aybdorni jinoiy javobgarlikka tortish: uni ommaviy ravishda aybdor, ya’ni jinoyatchi deb topish uchun davlatning huquqi to‘g‘risidagi bahs hisoblanadi.

Sud muhokamasidagi davlat bilan sudlanuvchi o‘rtasidagi jinoyat-huquqiy munozarada insonning birinchi darajali qadriyati hisoblanadigan muhim huquq va erkinliklarining taqdiri hal qilinadi. Shuning uchun ham tabiiyki, sud muhokamasining barcha bosqichlari eng yuksak ishonchlilik talablariga javob berishi zarur.

Sud majlisida ishni mohiyatiga ko‘ra, ko‘rib chiqish sud majlisini tayinlash to‘g‘risidagi sud qarori chiqqan kundan boshlab, o‘n to‘rt kun ichida boshlanishi lozim (JPK ning 405-moddasi). Sud muhokamasining tizimini quyidagicha tasvirlash mumkin:

Tayyorlov qismi (JPKning 428–438-moddalari) S u d tergovi (JPKning 439–448-moddalari) Sud muzokarasi (JPKning 449–450-moddalari) Sudlanuvchining so‘nggi so‘zi (JPKning 451-moddasi) Hukmni chiqarish va uni e‘lon qilish (JPKning 454–473-moddalari)

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyat protsessi bosqichlarining ta’kidlab o‘tilgan barcha qismlari qat’iy izchillik bilan ketma-ket keladi va ular yaxlit holda sudlarda ko‘rib chiqiladigan aksariyat ishlar uchun xosdir.

Sud muhokamasi tuzulishi uchun nafaqat uning qism (bosqich)larining ketma-ket joylashishi xos, balki bu qismlarning har biri alohida o'ziga xos ichki mantiqqa ham ega.

Bular ishonch va tantana bilan odil sudlovga berilgan sud muhokamasi oldiga qo'yilgan masalalarni samarali hal qilish uchun asos bo'ladi.

Muayyan protsessual normalarni ko'zda tutgan sud muhokamasini o'tkazish sud majlisi qatnashchilarining, xususan, sudga raislik qiluvchining nutqiy odobini belgilab beradi.

JPK *«sud majlisini ochadi, e'lon qiladi, tushuntiradi, farmoyish beradi, sudlanuvchining shaxsini aniqlaydi, so'raydi, ayblov xulosasini e'lon qiladi»* kabi raislik qiluvchining nutqiy harakatlarini ko'zda tutadi. Biroq bu harakatlar faqatgina o'zlashtirma gap tariqasida ko'rib chiqilishi mumkin, ayni paytda, sanab o'tilgan birikmalar tilning turli variantlari sifatida qo'llanilishi mumkin. Nutq odobi yurist talabalar uchun shuning uchun ham zarurki, ular sud muhokamasi chog'ida aynan shunday kasbiy-nutqiy holatlarni tayyorlashga qodir bo'lsinlar. Sud muhokamasi JPK da belgilab qo'yilgan, muayyan normalarda aks etgan qoidalar asosida til vositalari orqali o'z in'ikosini topadi. Endi sud majlisi ishtirokchilari nutqining bir ko'rinishiga e'tibor beraylik:

Sud muhokamasining tayyorlov qismi sud majlisining ochilish paytidan boshlanadi. Sud majlisining nisbatan katta bo'lmagan bu boshlang'ich qismining asosiy maqsadi shundan iboratki, unda mazkur majlisda ishni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan protsessual shart-sharoitlarning mavjudligini tekshirishga yo'naltirilgan harakatlar o'z yechimini topadi va mazkur sud tarkibi bilan ishni ko'rib chiqish imkoniyati, muhokama qatnashchilari tarkibi, sudga ekspertlarning kelgani, guvohlarning borligi va h. k. to'g'risidagi masalalarga oydinlik kiritiladi.

Mazkur majlisda ishni ko'rib chiqish uchun biron-bir protsessual kamchilik topilganda, darhol bu kamchiliklarni bartaraf etishga (ajratilgan sudya, prokuror, kotib, ekspert, mutaxassis, tarjimonni almashtirish; kelmay qolgan jabrlanuvchi, guvoh, ekspert va boshqalar bilan ta'minlash choralari ko'rishga) qaratilgan va sud muhokamasining navbatdagi barcha qismlarining to'g'ri va to'liq amalga oshirilishini ta'minlovchi harakatlar amalga oshiriladi.

Tayyorlov qismiga xos bo'lgan talablar JPKning 428–438-moddalarida nazarda tutilgan qat'iy tartib va izchillikda amalga oshiriladi.

Raislik qiluvchi jinoyat ishini ko'rib chiqish uchun tayinlangan vaqtda sud majlisini ochiq deb e'lon qiladi va ko'rib chiqiladigan ishni ma'lum qiladi. Odatda, sud muhokamasini ochish uchun nutqning quyidagi shaklidan foydalaniladi: «Bugun, 2003-yilning 7-mayida, Mirzo Ulug'bek tumanining jinoyat ishlari bo'yicha sudi tomonidan fuqaro O'roqov Doston O'lmasovichga O'zbekiston Respublikasi JK ning 97-moddasi 1-qismi bilan qo'yilgan ayb bo'yicha jinoyat ishi ko'rib chiqiladi». Ta'kidlash joizki, sud majlisini ochish chog'ida odatda raislik qiluvchi ishtirok etuvchilarga murojaat etmaydi.

Shundan keyin darhol sudga chaqirilgan barcha shaxslarning kelgan-kelmaganligi tekshiriladi. Raislik qiluvchi bu haqda sud majlisining kotibiga axborot berishni taklif qiladi: *«Kotiba, tomonlarning ishtiroki haqida axborot bering»*.

Kotib an'anaviy tarzda, taxminan quyidagi nutqiy ifodalardan foydalangan holda axborot beradi: *«Sud majlisiga davlat ayblovchisi, ... darajali maslahatchi Kamolov Rustam Sharipovich, jamoat ayblovchisi Mamanov Ismatulla Hamidovich, sudlanuvchi O'roqov Doston O'lmasovich; himoyachi — shahar advokatlar kollegiyasining a'zosi Rashidova Feruza Yo'ldoshevnalar tashrif buyurishgan. Sud majlisida guvohlar Otajonova Dilafro'z Ortiqovna va Karimov Sardor Soliyevich ishtirok etyapti»*.

Bu yerda familiya, ism va otasining ismini aniq, to'g'ri va urg'uni to'g'ri qo'yib aytish lozimligini hisobga olish kerak.

Ismlarni va nasablarni qisqartirib aytish mumkin emas, chunki bu huquq xodimining nutq madaniyati darajasini juda ham tushirib yuboradi.

Chaqirilgan shaxslardan birortasi sudga kelmay qolsa, sababini aniqlash uchun tegishli ma'lumot o'qib eshittiriladi. Tomonlardan biri yoki ularning vakillaridan biri kelmay qolganda, sud JPK ning 433-moddasida belgilab qo'yilgan qoidaga ko'ra, ishni ko'rib chiqish yoki uni qoldirish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadi.

Protsessual va nutqiy harakatlarning keyingi guruhi sud tarkibini e'lon qilish, ayblovchi va himoyachi, shuningdek, kotib, ekspert, mutaxassis va tarjimonlarni ma'lum qilish, tomonlarga va ularning vakillariga sud tarkibini to'lig'icha yoki sudlardan birini (jumladan, agar bor bo'lsa, zahiradagi xalq maslahatchisini), prokuror, himoyachi advokat, kotib, ekspert, mutaxassis va tarjimonni rad qilish huquqini tushuntirishdan iborat.

Protsessual harakatlarning bu qismi quyidagicha nutqiy ifodaga ega bo'lishi mumkin:

Raislik qiluvchi: *Mazkur jinoyat ishi quyidagi sud tarkibida ko'rib chiqiladi: raislik qiluvchi – Muhammadiyeva Dinara Rahmatullayevna, xalq maslahatchilari – Karimov Rustam Nomozovich, Samadova Gulnoza O'sarovna. Ayblovni (qoralovchi tomon) davlat ayblovchisi, ... darajali maslahatchi Karimov Rustam Nomozovich ta'minlaydi, himoyani (himoya qiluvchi tomonning vakili) shahar advokatlar kollegiyasining a'zosi Rashidova Feruza Axmedovna amalga oshiradi. Shuningdek, sudlanuvchi O'roqov Doston O'lmasovich va sud majlisining kotibasi Rustamova Munira Po'latovna ishtirok etishyapti.*

Sudlanuvchi, siz mazkur sud tarkibiga ishonch bildirasizmi? Tomonlarning sud tarkibiga e'tirozi yo'qmi?

Mazkur matn bo'lagidagi yuridik tilga xos bo'lgan ayblovni ta'min qiladi, ayblovni amalga oshiradi, himoyani amalga oshiradi yoki taqdim etadi kabi terminologik birikmalarga e'tibor qilish lozim.

Kimnidir rad qilish to'g'risidagi arzi qabul qilinganda, sud tomonlarning asosli fikrlarini tinglaydi va tegishli qaror qabul qiladi. Raislik qiluvchi guvohlarning sud zalidan chiqib ketishlarini so'raydi. So'ngra sud zalidan guvohlar chiqib ketadi. Shundan so'ng sudlanuvchining shaxsi haqidagi ma'lumotlar aniqlanadi. Raislik qiluvchi undan familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan joyi, kuni, oyi va yilini, yashash joyini, mashg'uloti, ma'lumoti, mukofotlari yoki sudlanganligi yoxud sudlanmaganligini so'raydi. Sud sudlanuvchining javoblarini sud ish materialida mavjud bo'lgan tegishli ma'lumotlar bilan qiyoslaydi.

Sudlanuvchining shaxsi va u haqdagi barcha zarur bo'lgan ma'lumotlarning to'g'riligi aniqlangandan so'ng raislik qiluvchi unga ayblov xulosasining o'z vaqtida topshirilganini aniqlaydi. Sud majlisini tayinlash vaqti o'zgarganda esa ayblov, ehtiyot chorasi yoxud sudga chaqiriladigan shaxslar ro'yxati – sud qarori nusxasining o'z vaqtida topshirilganini aniqlaydi.

Ko'rsatilgan protsessual tartib nutqda quyidagicha ifodalanishi mumkin:

Raislik qiluvchi: *sudlanuvchi, o'rningizdan turing. O'z familiyangiz, ismingiz, otangizning ismi, tug'ilgan joyingiz, kun, oy va yilini, yashash joyingiz, kasbingiz, ma'lumotingiz, oilaviy ahvolingizni aytib bering. Mukofotlaringiz bormi? Sizga ayblov xulosasi topshirilganmi, qayerda va qachon taqdim etilgan? Sizga qanday ayb qo'yilayotganini bilasizmi?*

Ta'kidlash zarurki, raislik qiluvchi sudlanuvchiga ism-sharifini aytmasdan murojaat qiladi. Bundan maqsad shuki, u o'zini tanishtirish bilan o'zi haqidagi anketa ma'lumotlarining to'g'riligini tasdiqlaydi. Sudlanuvchining shaxsi bilan bog'liq masalalar hal bo'lganidan so'ng, raislik qiluvchi sud muhokamasidagi huquqlarini, avvalo, sudlanuvchiga (yoki sudlanuvchilarga), so'ngra – jabrlanuvchiga, fuqaroviy da'vogarga, fuqaroviy javobgarga va agar bor bo'lsa, ularning vakillariga tushuntiradi. Yuqorida ko'rsatilgan shaxslarning har biriga huquqlari alohida

tushuntiriladi. Shu bilan birga, sud har bir odam o'z huquqini tushunib olganiga ishonch hosil qilishi lozim. Raislik qiluvchi esa sud muhokamasining borishida ularning har biri o'z huquqlaridan foydalana olishi uchun chora ko'rishi zarur. Shuningdek, ekspert va mutaxassisga ham o'z huquq va majburiyatlari tushuntiriladi.

Raislik qiluvchi birinchi bo'lib sudlanuvchiga murojaat qilarkan, unga quyidagilarni ma'lum qiladi: *JPK ning 46-moddasiga muvofiq, sizga ona tilidan va tarjimon xizmatidan foydalanish, himoyachi olish, o'z huquqingizni shaxsan himoya qilish, iltimosnoma kiritish yoki rad qilish, sud qarori va harakatlardan shikoyat qilish, sud majlisi bayonnomasi bilan tanishish, u haqda mulohaza bildirish, ish yuzasidan keltirilgan proteslar haqida bilish va ularga e'tiroz bildirish huquqi berilgan. Siz so'nggi so'z aytish huquqiga egasiz.*

Ko'rsatilgan matn parchasida, shuningdek, umume'tirof etilgan tilga xos bo'lgan: *iltimosnoma kiritish, rad qilish, shikoyat bildirish, protest keltirish, tanbeh berish, e'tiroz bildirish* kabi terminologik birikmalar borki, ularni yuristlar yodda saqlashlari talab etiladi.

Keyin sud tomonlarning iltimoslari bilan bog'liq masalalarni hal qilishni boshlaydi. Shu maqsadda raislik qiluvchi ulardan mavjud (yangi guvohlarni, ekspertlar va mutaxassislarni chaqirish, dalillarni talab qilib olish to'g'risidagi) iltimoslarini so'raydi. Iltimos qilgan shaxs aynan qaysi holatni aniqlash uchun qo'shimcha dalillar zarurligini ko'rsatishi shart.

Har bir iltimosnoma bo'yicha barcha tomonlarning fikrlari tinglanishi lozim va agar izoh talab qilgan holat ish uchun ahamiyatga molik bo'lsa, iltimos qondirilishi kerak. Har qanday iltimosning rad qilinishi sudning asosli ta'rifi bilan rasmiylashtiriladi. Bu sud muhokamasining borishi bilan bog'liq ravishda, keyinchalik ham tomonlarning iltimos bilan chiqish huquqini cheklamaydi.

Raislik qiluvchi ayblovchi va himoya qiluvchi tomonlarga

quyidagi nutqiy ifoda bilan murojaat etadi: *Tomonlarda taklif va iltimoslar bormi?*

(Agar bo'lsa, tomonlar o'z taklif va iltimoslarini bayon qilishadi). Sud o'tirgan joyida kengashadi va ularni hal qiladi (qondiradi yoki qondirmaydi).

Raislik qiluvchi: *sud joyida maslahatlashib, himoyachining iltimosini rad qilish (qondirish)ga qaror qildi.* Ta'kidlash joizki, nutqiy harakatning mazkur parchasidagi eng ko'p qaytarilgan nutqiy xato *iltimos* so'zidagi urg'uning noto'g'ri qo'yilishidir, bunga alohida e'tibor qilish lozim.

Sud tergovı – sud hukmini asoslash uchun zarur bo'lgan barcha dalillarni tomonlar ishtirokida o'rganib chiqadigan sud muhokamasining bir qismidir. Sud muhokamasining o'ta mehnattalab bu qismida e'lon qilinishi lozim bo'lgan hukmga asos solinadi. Sud tergovı ayblov xulosasini e'lon qilish bilan, zarur hollarda sudlanuvchiga ayblovning mohiyatini tushuntirish bilan boshlanadi. So'ngra raislik qiluvchi ayblov unga tushunarlimi va u o'zini aybdor deb biladimi? deb sudlanuvchidan so'raydi. Raislik qiluvchining xohishiga ko'ra, unga o'z javobini asoslash uchun imkoniyat beriladi.

Sud tergovı, odatda, quyidagi nutqiy qoliplar bilan ifodalanishi mumkin:

Raislik qiluvchi: *Sud tergovini boshlaymiz. Ayblov xulosasini o'qib eshittiring (ayblov xulosasi e'lon qilinadi). Sudlanuvchi, o'rningizdan turing. Siz o'zingizni aybdor deb hisoblaysizmi? (ha, yo'q, qisman).*

Ayblov xulosasini o'qiyotganda bir xil ohangda o'qishdan qochish, tegishli nutq normalariga rioya qilish, talaffuzning to'g'riligiga, urg'uning to'g'ri qo'yilishiga e'tibor berish lozim.

Sudlanuvchining o'zini aybdor deb bilishi yoki aybini tan olmasligi haqidagi javobidan keyin sud ayblovchi va qolgan barcha tomonlardan sud tergovıda dalillarni o'rganish tartibi, ya'ni sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarni so'roq qilish ketma-ketligi, ekspertlarni tinglash va dalillarni tekshirishga

qaratilgan boshqa sud harakatlari to'g'risidagi fikr-mulohazalarini tinglaydi.

Amaliyotda odatda, agar sudlanuvchi o'zini aybdor deb bilsa va batafsil ko'rsatma berishni istasa, dalillarni o'rganish sudlanuvchini so'roq qilishdan boshlanadi, so'ngra jabrlanuvchi, guvohlar so'roq qilinadi va boshqa dalillar tekshiriladi. Agar sudlanuvchi o'zini aybdor deb tan olmasa va ko'rsatma berishni xohlamasa, sud odatda dalillarni o'rganishni jabrlanuvchini so'roq qilishdan boshlaydi, so'ngra boshqa dalillarni tekshiradi va shundan keyingina, agar sudlanuvchi ko'rsatma berishni xohlasa, uning ko'rsatmasi tinglanadi. Tabiiyki, sudlanuvchining raislik qiluvchining ruxsati bilan istalgan paytda ko'rsatma berish huquqi har doim saqlanadi. Sudlanuvchining sud tergovining istalgan paytida tinglanish huquqi uning himoyasining muhim kafolatlaridan biridir.

Sud tergovining bu qismi quyidagi nutqiy ifodalar orqali o'z aksini topadi:

Raislik qiluvchi: *Dalillarni o'rganish tartibi to'g'risida tomonlarda qanday taklif (fikir-mulohaza)lar bor? Sud joyida kengashib, sud tergovi (dalillarni o'rganish)ni quyidagi tartibda olib borishga qaror qildi: avval sudlanuvchi so'roq qilinadi, keyin jabrlanuvchi so'roq qilinadi, so'ngra guvohlar so'roq qilinadi va undan keyin ish bo'yicha yozma dalillar o'rganiladi.*

Sud tergovida sudlanuvchini so'roq qilish tartibi dastlabki tergov paytida ayblanuvchini so'roq qilish tartibi bilan o'xshashdir. Dastavval sudlanuvchiga o'z ko'rsatmasini erkin hikoya shaklida bayon qilish, qo'yilgan ayblov va ish yuzasidan unga ma'lum bo'lgan narsalar bo'yicha tushuntirish berish imkoniyati beriladi. So'ngra ko'rsatmani to'ldirish, aniqlashtirish va tekshirish maqsadida unga savollar berilishi mumkin.

Raislik qiluvchi sudlanuvchiga murojaat etarkan, ish yuzasidan unga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida gapirib berishni taklif qiladi. Odatda, sudlanuvchi ish holatlarini erkin

hikoya tarzida bayon qiladi. Bunda sudlanuvchining chetga chiqib ketishi va gapirayotgan gapini yo'qotib qo'ymasligi uchun, iloji boricha luqma tashlash va savollar bilan uning so'zini bo'lib qo'ymaslik kerak. Ayni paytda, agar sudlanuvchi hal qilinayotgan masala mohiyatidan chetga chiqib ketsa, raislik qiluvchi unga bu haqda eslatishga haqlidir.

Amaldagi qonunchilik sudyaning sudlanuvchiga birinchi bo'lib savol berishini nazarda tutadi. Odatda, bu ishni raislik qiluvchi bajaradi. Shundan so'ng sudlanuvchini ayblovchi, jabrlanuvchi va uning vakillari so'roq qilishadi.

Guvohlarni so'roq qilish. Guvohlarni sudga chaqirish dastlabki tergov jarayonidagidek tartibda amalga oshiriladi. Uning dastlabki tergov paytidagi so'roq qilish bilan o'xshashlik tomoni shundaki, bu yerda ham so'roq qilinadi. Guvohlarni sudda alohida-alohida, hali so'roq qilinmagan guvohlar ishtirokisiz so'roq qilinadi. So'roq qilinishdan oldin uning shaxsi aniqlanadi, so'ngra raislik qiluvchi guvohga ish yuzasidan bilganlarini rostgo'ylik bilan aytib berish uning fuqarolik burchi va majburiyati ekanligini tushuntiradi, ko'rsatma berishdan bo'yin tovlash va yolg'on ko'rsatma berish javobgarlikka sabab bo'lishi haqida ogohlantiradi va bu haqda undan tilxat oladi va sud majlisi bayonnomasiga qo'shib qo'yilishini takidlaydi.

Guvohni protsessual tartibda so'roq qilishning nutqiy ifodasi quyidagicha bo'ladi:

Raislik qiluvchi (kotibga murojaat qiladi): *Guvoh Sultonova Ra'no Temirovnani taklif qiling. Guvoh familiyangiz, ismingiz, otangizning ismi, tug'ilgan joyingiz va yilini, yashash va ish joyingizni, ma'lumotingiz, oilaviy ahvolingizni va h.k. ayting. Siz ko'rsatma berishdan bo'yin tovlash va yolg'on ko'rsatma berish javobgarligidan ogohlantirilasiz. Tarjimon kerakmi? Qaysi tilda ko'rsatma berishni xohlaysiz? Men bilan birga qaytaring: «Sudga ish yuzasidan barcha bilganlarimni aytishga qasamyod qilaman. Faqat haqiqatni, barcha haqiqatni aytaman, haqiqatdan boshqa hech narsa demayman». Guvoh, sudga ish bo'yicha barcha bilganlaringizni gapirib bering.*

Guvoh erkin tarzda gapirib bergandan keyin unga birinchi bo'lib davlat ayblovchisi, so'ngra himoyachi savol beradi. Sudyalar guvohga sud tergovining istalgan paytida savol berishga haqlidirlar.

Guvohlarni, jabrlanuvchilar va ekspertlarni so'roq qilish tartibi bir xil: ish mohiyatiga aloqador savollarni berish lozim, noaniq (ritorik), yordamchi, ko'rilayotgan ishga daxldor bo'lmagan savollarni berishga yo'l qo'yilmaydi. Savollar odob doirasida, har bir so'roq qilinayotgan odamning qadr-qimmati va izzat-nafsiga tegmaydigan tarzda berilishi lozim.

So'ngra sud ishga tikilgan va quyidagi tartibda ko'rib chiqiladigan yozma dalillarni o'rganishga o'tadi:

Raislik qiluvchi: *Yozma dalillarni o'rganishga o'tamiz. Ishda quyidagi hujjatlar bor: ekspertlarning xulosalari, tergov harakatlari va tekshiruv bayonnomalari.*

(hujjatlar e'lon qilinadi).

Sudya yoki sudyalar nazarida barcha dalillar to'liq, obyektiv va har tomonlama o'rganib chiqilgan degan xulosaga kelganlaridan keyin tomonlarning fikri so'raladi. Buning uchun raislik qiluvchi ulardan sud tergoviga qo'shimcha qilish istagi bor-yo'qligini so'raydi.

Agar tomonlar sud tergoviga qo'shimcha yo'qligini bir ovozdan bildirishsa, raislik qiluvchi sud tergovini tugallangan deb e'lon qiladi.

Sud tergovining xulosa qismi quyidagi nutqiy ifoda orqali o'z aksini topadi:

Raislik qiluvchi: *Tomonlar sud tergoviga qo'shimcha qilishni xohlaydimi? Tomonlarda iltimosnomalar yoki boshqa fikrlar bormi? Agar qo'shimchalar bo'lmasa, sud tergovi tugallangan deb e'lon qilinadi. Endi tomonlar muzokarasiga o'tamiz.*

Sud muzokarasi prokuror, jamoat ayblovchisi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar yoki uning vakili, himoyachi, agar sud majlisida himoyachi ishtirok etmayotgan bo'lsa, sudlanuvchilarning nutqlaridan iborat

bo'ladi. Sud prokuror va jamoat ayblovchisining, shuningdek sud himoyachining chiqishlari ketma-ketligini ularning takliflari asosida belgilaydi.

Sud muzokarasining ishtirokchilari sud tergovini nihoyasiga yetkazadilar, sud tergovida tekshiriladigan materiallarni tahlil qiladilar va shu materiallarga asosan, ish yuzasidan o'z xulosalarini bayon qiladilar.

Sud muzokarasi sudga hamda sud zalida ishtirok etayotgan fuqarolarga ishning haqiqiy ahvolini har tomonlama tushunib olishda yordam beradi, sudning ichki ishonchi shakllanishiga imkon yaratadi, shunday qilib, qonuniy, asosli va adolatli hukm chiqarishga ko'maklashadi. Ayni paytda, sud muzokarasi unda ishtirok etuvchilarning o'zlarining yoki ularning vakillarining manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Sud muzokarasining qatnashchilari o'z nutqida sudda ko'rib chiqilmagan dalillarni keltirishga, sud esa, umuman, sud muzokarasi uchun yoki unda ishtirok etayotganlarning so'zga chiqishini cheklashga haqli emas. Biroq raislik qiluvchiga ko'rilayotgan ishga aloqador bo'lmagan holatlarni gapirayotgan muzokara qatnashchisini to'xtatib qo'yish huquqi berilgan.

Sud muzokarasining mohiyati va me'yorlari JPK moddalarida ko'rsatilgan masalalar doirasida aniqlanadi. Biroq muzokaraning har bir ishtirokchisi o'ziga yuklatilgan vazifani bajararkan, nafaqat ishni to'g'ri hal qilish uchun muhim bo'lgan masalalarni, balki uning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan masalalarni ham tilga olishi mumkin.

Raislik qiluvchi: *So'z davlat ayblovchisi, ... darajali maslahatchi Karimov Rustam Nomozovichga beriladi.*

(Aybnoma o'qib eshittiriladi).

Raislik qiluvchi: *So'z himoyachi, shahar advokatlar kollegiyasining a'zosi Rashidova Feruza Yo'ldoshevnaga beriladi.*

(himoya nutqi o'qib eshittiriladi).

Ta'kidlash joizki, har bir tomonning suddagi nutqi sudga

murojaat qilish bilan boshlanishi mumkin. Biroq Jinoyat-protsessual kodeksida qat'iy protsessual murojaat mavjud emas, shuning uchun u ixtiyoriy bo'lishi mumkin. Sud muzokarasi amaliyotida uning «Muhtaram sud, hurmatli sudyalalar, janob sudyalalar, hurmatli o'rtoqlar, o'rtoq sudyalalar» kabi an'anaviy variantlari mavjud.

Shuningdek, suddagi nutqni e'lon qilayotganda to'g'ri talaffuz qilish, urg'ularni o'rinli ishlatish, grammatik va boshqa nutqiy normalarga amal qilish lozim.

Raislik qiluvchi: *Davlat qoralovchisida, himoyachida e'tirozlar bormi?*

(Tomonlarning har biri bayon qilingan fikrlarga e'tiroz bilan chiqish huquqiga ega).

Tomonlarning e'tirozi lo'nda, qisqa va ish yuzasidan bo'lishi lozim: qarshi tomonlarning nutqiga baho berish, e'tiroz bildirish orqali qasd olish, janjal ko'tarish, axloq-odob va nutq madaniyati doirasidan chetga chiqishga yo'l qo'yilmaydi.

Sudlanuvchiga so'nggi so'z bevosita sudning hukmini tayyorlash uchun maslahat xonasiga chiqib ketishidan oldin, ya'ni sud muzokarasi tugagandan keyin beriladi. So'nggi so'z chog'ida sudlanuvchiga savollar berilmaydi va uning so'zi bo'lib qo'yilmaydi. Agar sudlanuvchi ishga aloqador bo'lmagan holatlarni gapirsa, tahqirlovchi so'zlarni ishlatsa, raislik qiluvchiga uni to'xtatib qo'yish huquqi berilgan bo'lsa-da, sudlanuvchining so'nggi so'zining davomiyligi muayyan vaqt bilan chegaralanmagan.

Sudlanuvchiga so'nggi so'z u sud muzokarasida ishtirok etsagina beriladi. Sudlanuvchi so'nggi so'zdan voz kechishi mumkin va bu sud majlisining bayonnomasida o'z aksini topmog'i lozim.

So'nggi so'z himoya huquqida, jazo chorasi masalasini bexato hal qilish uchun sudlanuvchi shaxsining sud tomonidan to'g'ri baholanishida muhim ahamiyatga ega.

Raislik qiluvchi: Sudlanuvchi, o'ringizdan turing. Sizga so'nggi so'z aytish huquqi beriladi.

(Sudlanuvchi so'nggi so'zni aytadi).

Sud sudlanuvchining so'nggi so'zini eshitib bo'lgach, darhol hukm chiqarish uchun maslahatlashishga chiqib ketadi. Buni raislik qiluvchi sud majlisi zalida o'tirganlarga e'lon qiladi.

So'ngra sud majlisining kotibi e'lon qiladi: *Barchaning o'rnidan turishini so'rayman. Sud hukm chiqarish uchun maxsus xonaga chiqib ketadi.*

Kotib: *Turing, sud kelyapti.*

Raislik qiluvchi hukmni o'qib eshittiradi. Uni barcha tik turib eshitadi.

Sud muhokamasi senariysini tavsiflash va qanchalik protsessual bo'lsa, shunchalik nutqiy tartibda rasmiylashtirilgan nutqiy ifodalarni tahlil qilish sud muhokamasi qatnashchilarining nutqiy xulqini tasavvur qilish imkonini beradi. Bunday ifodalarni bilish kelgusida yurist bo'ladigan talabalarda dastlabki kasbiy-nutqiy ko'nikmalarning shakllanishiga imkon beradi, maxsus fanlarni yaxshi tushunishga va maxsus fanlar bo'yicha rasmiy treninglarda ishtirok etishga tayyorlaydi, shuningdek, kasbiy-nutqiy madaniyatni yuksaltirishga yordam beradi.

4-§. Sud muzokarasi va uning o'ziga xosliklari

Sud tergovni tamomlanganidan song sud taraflarning muzokarasini eshitishga o'tadi. Muzokara davlat ayblovdchisi va jamoat ayblovdchisining nutqlari bilan boshlanadi. So'ngra jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar yoki ularning vakillari, himoyachi va jamoat himoyachisi, sudlanuvchi, fuqaroviy javobgar yoki uning vakili so'zga chiqadi.

Davlat ayblovdchisi va jamoat ayblovdchisining, shuningdek himoyachi va jamoat himoyachisining so'zga chiqish navbatini sud ularning takliflarini inobatga olgan holda belgilaydi.

Taraflar o'zlarining nutqlarida sud tergovida ko'rib chiqilmagan dalillarni keltirishga haqli emas. Tekshirish uchun sudga yangi dalillarni taqdim etish lozim bo'lsa, taraflar sud

tergovini yangidan boshlash to'g'risida iltimos qilishlari mumkin.

) Davlat ayblovchisi sud tergovining yakunlarini inobatga olib, o'z nutqida sudlanuvchining aybliligi yoki aybli emasligi to'g'risidagi xulosani asoslashi lozim. Davlat ayblovchisi sudlanuvchi aybli degan xulosaga kelganda, unga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan jazo turi va me'yori haqida sudga o'z fikrini bayon qiladi.

Taraflar nutq so'zlab bo'lganlaridan keyin, ulardan har biri boshqa tarafning nutqlarida aytilgan masalalar yuzasidan e'tirozlar yoki mulohazalar bilan yana bir martadan so'zga chiqishlari mumkin. So'nggi e'tiroz bildirish huquqi hamisha himoyachi va sudlanuvchiga beriladi.

Sud taraflarning muzokarasini muayyan muddat bilan cheklab qo'yishi mumkin emas, lekin raislik qiluvchi muzokarada ishtirok etayotgan shaxslarning nutqlarini, basharti ular ko'rilayotgan ishga dahli yo'q holatlarga taalluqli bo'lsa, to'xtatib qo'yishga haqlidir (JPK, 449-modda).

Ayblovchi va himoyachi deb atalmish o'zaro qarama-qarshi ikki tomon manfaatlarining ochiqdan-ochiq to'qnashuviga asoslangan sud muzokarasi ham umummuzokara turlaridan biridir. Sud protsessi odatda ikki qarama-qarshi tomonning o'zaro ochiqchasiga tortishuvidan iborat bo'lib, bunda prokuror va jabrlanuvchi — bir taraf, sudlanuvchi va himoyachi — ikkinchi taraf bo'lib turadi. Birining nutqi jinoyatni asoslashga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisining esa sudlanuvchini oqlashga qaratilgan bo'ladi.

Shu tariqa sudda taraflarning so'zga chiqishlari munozaraning og'zaki ko'rinishi, og'zaki shakli bo'lib, bunda sudlanuvchi aybdormi, aybsizmi degan muqobil savolga aniqlik kiritish zarurati asosiy vaziyatni belgilovchi yetakchi mavzu bo'ladi. Shunday qilib, bu holat butun dalillar bilan isbotlash tizimi asosida ana shu masalaning yechimiga qaratilgan bosh omil bo'lib xizmat qiladi. Shu tufayli sudda taraflarning so'zga chiqishlari — sud muzokarasining dalil-isbotlari majlis ahliga

tez yetib boradigan, o'tkir, ifodali bo'lishini, ularning ishonchliligi va asosliligini hamda o'z nuqtai nazarlarini ana shu dalil-isbotlar yordamida asoslashlarning qat'iy tizimiga buysunishini taqozo qiluvchi alohida turidir.

Sudda taraflarning so'zga chiqishlari jinoyat ishini sudda ko'rib chiqish bosqichidagi mustaqil qismlardan biridir. Sudda jinoyat ishini muhokama qilish jinoyat ishiga tegishliligi bo'yicha *tayyorlov qismi, sud-tergov ishlari, sudda taraflarning so'zga chiqishi, sudlanuvchining so'nggi so'zi va chiqarilgan hukm to'g'risida* qaror qabul qilishdan iborat. Sudda taraflarning so'zga chiqishi umumiy tushunchasida ayblovchi tomon *fugaroviy da'vogar, fugaroviy javobgar* yoki ularning vakillarining, himoyachilar va sudlanuvchining nutqlari tushuniladi. Mazkur ayblov yuzasidan, odatda, muzokaralarda jabrlanuvchi va uning vakillari ham ishtirok etadi. O'z-o'zidan ma'lumki, suddagi tortishuvlarda qatnashuvchi tomonlar sud-tergov organlari tarafidan belgilangan doirada muzokaraga kirishadilar. Bunda muhokamaga qo'yilgan masalalar ko'rilayotgan jinoyat ishiga taalluqli holatlar va faktlar tahlili yetarli darajada chuqur tekshirilganlik nuqtai nazaridan ular nutqida atroflicha, batafsil yoritib beriladi. Shuningdek, bu o'rinda xulosalarni asoslash uchun zarur bo'lgan dalil-isbotlar majmui ham mukammal o'rganib chiqiladi.

Sud muzokarasi mavjud faktik materialning puxtaroq va chuqurroq tahlil qilinishi, dalil-isbotlar tizimining ham qat'iyroq, va jiddiyroq, asoslanishini, shuningdek, mavjud faktik materialdagi ahamiyatga molik o'rinlar alohida ta'kidlab ko'rsatilishini talab qiladi. Chunki tomonlarda komil ishonch hosil bo'lishi va munozara qatnashchilarining sud hay'atini va yig'ilganlarni ishontira olish mahorati ana shu omillarga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Munozara tufayli sud tortishuvlarida qatnashayotgan ishtirokchilar nutqining tahliliy jihatlari, nutqning ma'lumotlarni to'laroq ochishdagi ahamiyatining kuchayishi,

shuningdek, soʻzlayotgan shaxsning nuqtai nazari, maqsadi kuzatila boradi. Shu boisdan ham sudda taraflarning soʻzga chiqishi — bu xolisona va iloji boricha begʻaraz, haqqoniy bahs, munozara boʻlib, bunda ayblovcilar va himoyachilardan iborat ikki qarshi tomon sudyalarning sabr-toqatini suiisteʼmol qilmagan holda sud axloqiy qoidalari doirasidan chetga chiqmasdan oʻz nuqtai nazarini asos, dalil va isbotlar asosida ifodalashi lozim.

Ayblovcilar va himoyachilar sudda soʻzlagan nutqlarining tarbiyaviy taʼsiri va samaradorligi koʻp jihatdan qarshi tomonlarning qay darajada tayyorgarlik koʻrganligi va ularning notiqlik mahoratiga, soʻzga chechanligiga bogʻliq. Bu oʻrinda ayblovcining ham, himoyachining ham maʼnaviy masʼuliyati oʻta baland boʻlishi lozim. Chunki har ikkala tomon sudni inson taqdirini qay yoʻsinda hal qilish lozimligiga ishontirishga jon-jahdi bilan urinadi. Hech bir kimsa faqat oʻzining fik-rigina toʻgʻri, adolatli ekanligiga va uning fikridan boʻlak oʻzgacha toʻgʻri yechim boʻlishi mumkin emasligiga daʼvo qilishga haqli emas.

Sud tortishuvlarida faktlar mumkin qadap aniq-ravshan bayon qilinishi shart. Sud bahslarida keltiriladigan har qanday dalil-isbotga uning ahamiyatini hech qanaqa boʻrttirmagan yoki yerga urmagan holda bu dalil-isbotlar aslida qanday oʻrin tutsa, aynan shunga yarasha munosabatda boʻlish zarur. Sud majlislarida koʻrilayotgan jinoyat ishining barcha-holatlari, faktlari ochiqdan-ochiq, oshkora muhokama qilinadi. Ayblovchi oʻz nuqtai nazarining barcha jihatlarini mumkin qadar toʻla-toʻkis yoritib berishi shart. Advokat boʻlsa, oʻz himoyasidagi shaxsni qonun doirasida yoqlab himoya qilishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadi. Shu asnoda tomonlar olib borayotgan bahs-munozaraning faqat ixtisos doirasidagi mazmunigina emas, balki chuqur qarama-qarshiliklarga asoslangan ziddiyatli, axloqiy mazmuni ham oydinlasha boradi.

Sud muzokarasi shaklan bekamu-koʻst odob doirasida olib

borilishi, faqat ko'rilayotgan ish yuzasidangina so'z yuritilishi va zinhor bahs ishtirokchilarining shaxsiyatiga tegmaslik, shuningdek, boshqa turli xil qo'pol so'zlardan foydalanishga yo'l qo'yilmaslikni talab etadi. Muzokara ishtirokchilari bir birlarini kamsitmasliklari va ular o'rtasidagi bahs o'zaro piching-kesatiqli va zaharxandali olishuvga aylanib ketmasligi lozim. Sud tortishuvi inson taqdirini adolatli hal qilish, muhokama qilinayotgan har bir ish zahirida allaqanday mavhum bir sud hodisasi emas, balki shu ish ortida tirik jon, muayyan inson turganligini har doim yoddan chiqarmaslik zarur.

Sudlanuvchi — bu avvalo, o'z insoniy qadr-qimmati har qanday boshqa shaxs kabi hurmat qilinishi lozim bo'lgan odamdir. Shuning uchun ham sud-tergov ishlari jarayonida sudlanuvchiga nisbatan qo'pol va tahqiromuz munosabatda bo'lishga yo'l qo'yilmaydi. Sudda taraflarning so'zga chiqishi janjalga, tomonlarning o'zaro gap talashishiga aylanib ketmasligi kerak. Muxolif tomonning nutqini baholashga ortiqcha berilmaslik lozim, chunki sudning hukmi uchun tomonlarning nutqiga munosabat emas, balki qarshi dalil, asosli e'tirozlarning tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Sud jarayoni, sudda taraflarning so'zga chiqishi va sudda tomonlarning munozara olib borish madaniyati sudda raislik qiluvchiga bog'liq bo'ladi. U sud jarayoniga, uning ta'sir darajasiga, munozara ishtirokchilarining o'zini tutish madaniyati va nutq madaniyatiga ta'sir qiladi. Uning zimmasiga yuklangan majburiyatlari — himoya va ayblov tomonlarining dalil va mulohazalariga nisbatan e'tiroz va tanqidiy fikrlar qonun doirasidagi ma'naviy-axloqiy me'yorlardan chiqib ketmasligini nazorat qilish; guvohlarga va sud jarayonida ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga yordamchi (eslatuvchi) savollar berilishiga yo'l qo'yilmaslik va hokazolardan iborat.

Sudya hamisha o'zining protsess qatnashchilari va zalda yig'ilgan barchaning diqqat-e'tiborida turishini anglab, his qilishi va tabiiyki, uning barcha fikr-mulohazalari, imo-

ishoralari, yuzidagi ifodasi atrofdagilar tomonidan muttasil kuzatib borilishini nazardan qochirmasligi zarur. Shu o' rinda sudyaning tinglash qobiliyatini alohida ta'kidlash joiz. Uning bu qobiliyati so'zga chiquvchilarning nutqini og'ir-vazminlik va diqqat bilan tinglay olish hamda tushunishni taqozo etadi. Sudyaning e'tiborsizligi sudda taraflarning so'zga chiqishida izchillikning yo'qolishiga olib keladi va bu holat protsessual, axloqiy hamda madaniy nutq me'yorlarining buzilishi sifatida baholanadi.

Sudya sud jarayonining ishtirokchilariga savol berishda sharqona axloqiy me'yorlar, og'zaki nutq qonun-qoidolari va talablariga rioya qilishi kerak. Savol ko'rilayotgan ish mavzu doirasidagina bo'lib, aniq lo'nda shaklda, ya'ni savol zamirida ishning asl mazmunini ochishga xizmat qiladigan omillar bo'lishini taqozo qilgan holda tuzilishi zarur. Savol xolis, aniq va ravshan, mavzudan chetga chiqmagan holda berilishi va uning tarkibida savolning javobi aks etmasligi lozim. Sud zalida javob talab qilmaydigan ritorik savollarni berishdan ehtiyot bo'lish lozim. Va, nihoyat, savol berishda javob beruvchiga tushunarli bo'lgan til vositalari va ekstralingvistik omillardan foydalaniladi.

Sudya yuksak nutq madaniyatiga ega bo'lishi, binobarin, o'z ishonch-e'tiqodi, mulohazalari va munosabatlarini bayon qilishda o'zining savollari, asoslari va fikrlarini nihoyatda savodli va tushunarli tarzda ifodalashi talab etiladi.

Sudya ba'zan sud jarayonini jonlantirish maqsadida turli hazil-huzil gaplarni qo'llashi ham mumkin, biroq bu ishni o'ta ehtiyotkorlik bilan, me'yorida qilish maqsadga muvofiqdir. Sudda jinoyat ishi muhokama qilinayotgan tilning sofligi ham muhim ahamiyat kasb etadi: ya'ni sud a'zolari o'z nutqlarida jargon so'zlardan yoki haqopat so'zlardan, ayniqsa, o'g'rilar tiliga xos argo so'zlardan foydalanishiga yo'l quyilmaydi.

Shuningdek, sudya savol berayotganda o'zining so'zlash ohangini qat'iy nazorat qilishi shart. Ko'pincha sudyaning sud jarayoni qatnashchilariga qaratilgan savollari va mu-

lohzalarining ohangida turli hissiyotlarga berilish sezilib qoladi va bu hol ifodalanayotgan fikrning mazmuniga putur yetkazishi mumkin. Ya'ni sudya nutqi ohangidagi bunday holatlar sud tortishuvidagi muvozanatga ta'sir ko'rsatmasligi lozim, ya'ni sudya o'zining u yoki bu tomonga qarshi fikrdaligi yoki, aksincha, moyilligini sezdirmasligi kerak bo'ladi. Davlat ayblovdchisining maqomi uning namunali xulq va alohida nutq madaniyati sohibi bo'lishini taqozo qiladi. Agar sudya axloq me'yorlari, protsessual qonun-qoidalar talabiga ko'ra ishtirokchilar oldida o'z munosabatini ko'rsatishga xaqli bo'lmasa, davlat ayblovdchisi — prokuror shu qonun-qoidalaridan kelib chiqqan holda, o'z shaxsiy mulohazalarini yashirmasligi lozim. Chunki u o'z nomi bilan davlat ayblovdchisidir.

Aksariyat hollarda prokurorlar ayblanuvchiga sayoz savollar berib, ularga pand-nasihat qilishni odat qiladilar. Vaholanki, bularning bari axloqiy va ma'naviy me'yorlarga ziddir. Prokurorning jinoyat ishi bo'yicha keltirgan dalil-isbotlarni qanday tahlil qilishi, ularga qanday qonuniy, axloqiy-psixologik baho berishiga qarab, ayblanuvchiga qo'yilgan aybni isbotlay olish-olmasligiga qarab, fuqarolik ishi bo'yicha da'voni asoslay olish-olmasligiga qarab uning xulqi, nutq madaniyati, kasbiy mahorati baholanadi.

Ayblovdchi ayblanuvchini fosh qiluvchi yoki oqlovchi holatlarni, uning aybini og'irlashtiruvchi hamda yengillashtiruvchi faktlarni aniqlashi lozim. Sud tergovining xolislik prinsipi ga ko'ra, prokuror tomonidan dalil-isbotlarni sun'iy tarzda yig'ish, faktlarni tarafkashlik bilan bayon qilish, aybni inkor etuvchi holatlarni e'tiborsiz qoldirish man etiladi. Ayblovdchi sudga murojaat qilar ekan, doim odob-axloq me'yorlariga rioya qilishi kerak. Agar e'tiroz bildirishni istasa, qonunda belgilangan reglament va nutq madaniyati me'yorlariga muvofiq holda ish ko'rishi lozim. Agar sud jarayonida turli ziddiyatlar yuzaga kelsa, prokuror asabiylashmasdan, jahl otiga minmasdan, ayblanuvchi, jabrlanuvchi yoki guvohga dag'dag'a

qilmasdan murojaat etishi lozim. Shuningdek, savol berishda prokuror aniqlik, ravshanlik prinsiplariga amal qilishi, ayblanuvchiga pand-nasihati qilmasligi shart. Savollar ritorik bo'lmashligi, alohida faktlarni oydinlashtirishga qaratilgan, maqsadli bo'lishi lozim. Prokurorning ham, sudning ham, advokatning ham nutqi baland ovozda, aniq ravshan, jonli va, iloji boricha, lo'nda hamda ifodali bo'lishi lozim. Ohangda ishonch, qat'iyatlilik va kuch yangrasin... Qo'lning xatti-harakati nutqni jonlantiradi, biroq bunda ehtiyot bo'lish lozim... tez-tez qaytariladigan, keskin, hovliqma harakatlar odamning jig'iga tegadi. Eng zo'r nutqlar soddaligi, aniqligi va ma'noliligi bilan ajralib turadi.

Advokatning vazifasi jinoyatni emas, shu jinoyatni ma'lum shart-sharoitlar ta'sirida sodir etgan shaxsni himoya qilishdan iborat. Advokat faoliyatining eng muhim qoidasi quyidagi tezisda bayon qilingan: gumonlanayotgan shaxs hali aybdor degani emas. Ushbu prinsipgako'ra, sud o'z hukmini e'lon qilmagunga qadar ayblanuvchi aybsiz hisoblanib, himoyachining faoliyati esa jamiyat tomonidan insoniy, adolatli deb baholanadi.

Advokat faoliyatining e'tiborli tomoni shundaki, himoyachi sudgacha tergov jarayoniga ham ta'sir qilib, har qanday jinoyat ishida o'z himoyasi ostidagi shaxsni oqlovchi isbotdalillarni topa olishi mumkin. Himoyachining nutqi tinglovchida ijobiy taassurot qoldirishi, boshqalarni ham jinoyatning asl sabablari ustida bosh qotirishga majbur etishi lozim. Shundagina himoyachi o'zining asosiy vazifalaridan birini ado etgan bo'ladi. Xullas, prokuror va advokatning nutqi protsessual qonun-qoidalar, axloqiy me'yorlarga javob berishi lozim. Shunday qilib, asosli ayblovi va himoya nutqlari ayblovi, himoyachi va boshqa sud qatnashchilarining faol ishtirokida shaxsning kasbiy xulq madaniyati, shuningdek, xolisona va to'liq sud tergov doirasidagina ifodalanishi mumkin. Shuning uchun sudda taraflarning so'zga chiqishi hamda omma oldida nutq so'zlaydigan ayblovi va himoyachining

kasbiy talaffuzi bilan bog'liq jihatlarga ham tegishlicha e'tibor berish kerak bo'ladi.

5-§. Sud notiqligi¹. Yuristning nutq odobi

Yuridik dialog tabiatan ziddiyatli ekaniga qaramasdan, uning samaradorligi munozara olib borishda asoslash, mantiqiylik va boshqa mantiqiy mezonlar tizimiga ham, kishining xushmuomalaligi, o'zini tuta bilishi va axloqiy me'yorlarga rioya qilish qobiliyatiga ham bog'liqdir. Yuridik amaliyotda odobsizlik qilish va axloqiy me'yorlarga amal qilmaslik ko'pincha dialog olib borishni buzadi, uning samarasiz yakunlanishiga olib keladi.

Sud munozaralarini olib borishda xushmuomalalik, ayniqsa, muhimdir, chunki sud dialogini olib borayotgan tomonlardan birining odobsizligi oxir-oqibatda sudning qaroriga ta'sir ko'rsatishi va so'zsiz ravishda, u sud odobini buzgan tomon zarariga hal bo'lishi mumkin. Huquqiy maslahat jarayonida huquqiy maslahatchining kasb odobini buzishi mijozning ishonchsizligiga sabab bo'ladi va bu huquqiy masalani muhokama qilishni qiyinlashtiradi. Omma oldidagi siyosiy munozarada yoki xizmat yuzasidan bo'layotgan muhokamada ishtirok etayotgan shaxsning odobsiz xulqi munozarani yo'qqa chiqarishi mumkin.

Muzokara olib borish — bu ziddiyatli dialog sharoitida yuzaga keladigan xulq me'yoridir, chunki har qanday odam ham qarashlar kurashida aqliy va hissiy yukni ko'tarishga qodir emas. Huquqiy izlanishlar amaliyoti doirasida yuridik dialog olib borish odobi qat'iy belgilab, Ba'zan esa protsessual jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Aynan ana shu axloq asosida yurist odobi, sud etikasi, ish yuzasidan fikr almashish odobi, va nihoyat, huquq etikasi vujudga kelgan.

¹ Sud notiqligi bilan bog'liq 7-bobning 5-7-§lari M.G. Voinovanning "Культура речи юриста" kitobidan o'zbek tiliga erkin tarjima qilindi. Ba'zi o'rinlarda o'zgartirishlar kiritildi.

Kasbiy aloqa qilish odobi, eng avvalo, qatnashuvchining tinglovchilar shaxsiyatiga hurmat bilan qarashini nazarda tutadi. Dialogni qo'pollik, o'rinsiz va tahqiromuz so'zlar bilan behuda janjalga aylantirmaslik lozim. Xushmuomalalik, o'zini tuta bilish va mayin ohangda gapirish faqat o'z nuqtai nazarini himoya qilishni kuchaytiradi. Ishonch va o'zaro xush-fe'llik bahsning borishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Dialogda auditoriya yoki suhbatdoshning o'ziga xos ruhiyatini inobatga olib, iloji boricha tushunarli va mantiqan izchil darajada gapirish lozim.

Dialog qatnashchilariga hurmat ko'rsatish, eshita olish, suhbatdoshini va o'zini ham tinglay bilish, uning keltirayotgan isbot-dalillarini tahlil qila bilishda ko'rinadi. Ruhshunoslar tinglay bilishni samarali aloqa qilishning eng muhim vositasi deb hisoblashishadi. Tinglay bilish — aloqa qilish jarayonida suhbatdosh bilan o'zaro hamkorlik qilishga qulaylik tug'diradi. Bu samara, ayniqsa, so'roq olib borish chog'ida, huquqiy maslahat yoki xizmat yuzasidan suhbatlashilayotganda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Dialog olib borish odobi va uning axloqiy jihatida dialogdagi ikki muhim holatdan saqlanishni nazarda tutadi. Birinchidan, suhbatdoshining aniq yoki isbotlangan dalillarini o'jarlik bilan qabul qilmaslik axloqiy jihatdan nomaqbul va aksar hollarda taktik jihatdan noto'g'ri hisoblanadi. Bunday taktika, hatto, sudlanuvchi, guvoh yoki gumon qilinuvchini so'roq qilish chog'idagi operativ-taktik masala nuqtai nazaridan ham mutlaqo noto'g'ridir.

Ba'zan dialogda opponent keltirgan dalillarni tan olish yoki uning asosli tanqidini qabul qilish juda to'g'ri va maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bahslashuvchilar shaxsiyatiga nisbatan ishonch va hurmatni orttiradi, bundan tashqari, himoyachining qabul qilgan dalillash me'zoni hisobiga o'zining dalillash me'zonini kengaytiradi.

Ikkinchidan, himoyachi keltirgan dalillarni osonlik bilan qabul qilish, muhim va murakkab muammolarni muhokama qilish chog'ida murosasozlik qilishdir. Ko'pincha opponentning

dalillari yetarli darajada asosli va qat'iy tuyuladi. Himoyachining dalillari noto'g'ri ekanligi ayon bo'lganda esa, o'z so'zini qaytib olishga intilish odobsizlik bo'lib ko'rinishi mumkin.

Etikada ham, munozara taktikasida ham nutq madaniyati muhim ahamiyatga ega. Chunki dialogda nafaqat so'zlarning mazmuni, balki ifoda usulining ham o'z o'rni bor. O'rinli tanlangan ohang, to'g'ri qo'yilgan urg'u, shablonlarning yo'qligi, g'ayrioddiy nutq harakati, nutq darajasi va suhbatdosh tajribasini hisobga olish — bularning bari muhokama jarayonida ishtirok etuvchilarning ruhiyati bilan bog'liq bo'lib, dialog jarayonidagi ortiqcha hissiyotga berilishning oldini olishga imkon beradi. Bunda dialogda qatnashuvchilarning temperamenti va xarakteriga bog'liq ravishda, axborot almashinuv tezligi alohida ahamiyatga ega. Masalan, u tez fikrlovchi va tez gapiruvchi shaxslarda loqaydlikni yuzaga keltiradi, ayni paytda, opponent fikri va nutqining ortiqcha tezligi esa sekin-asta odamning g'ashini keltira boshlaydi.

Tilning leksik imkoniyatlaridan, uning obrazlilik va ifodaliligidan ustalik bilan va bexato foydalanish fikrni ifoda qilish va uni yetkazishning asosiy garovidir. Mazmunga e'tibor bermaslik yoki til vositalarini qo'llashdagi qashshoqlik nafaqat so'zlovchining obro'iga, balki uning egallab turgan mavqeiga ham ta'sir qilishi mumkin.

Yuridik dialog olib borishda va nutq jarayonida til vositalaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bahsda ko'pincha ko'zda tutilgan va ko'zda tutilmagan tahqirlashlar bo'lishi mumkin. Agar bahs haqiqatni aniqlash maqsadida emas, balki faqat g'alaba qozonish uchun olib borilayotgan bo'lsa, unda qo'pol so'zlarni qo'llash deyarli normaga aylanadi. Bunga odob yuzasidan ham, taktik-strategik nuqtai nazardan ham yo'l qo'yib bo'lmaydi, chunki u bahslashuvchilarni muhokama qilinayotgan muammodan chalg'itadi va bahsni boshqa tomonga burib yuboradi. Bunday xatti-harakatlarga parlament bahslarida yoki siyosiy

munozaralarda qaysidir darajada yo‘l qo‘yish ehtimol o‘zini oqlar, biroq tergov yoki operativ harakatlar olib borilayotganda yoki huquqiy maslahat faoliyatida bunga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Ta’kidlangan nutqiy muomalaning odob doirasida bo‘lishi sud tekshiruvi yoki har qanday yuridik munozarani olib borish odobining asosiy belgisi bo‘lishi lozim.

U yoki bu kasbiy-nutqiy holat yuzasidan kelib chiqadigan har qanday yuridik dialog so‘zsiz ravishda axloq normalariga vamuayyan axloq prinsiplarigaega. Masalan, taktik-operativ usuli va o‘zining axloqiy asoslari bilan jiddiy nizo ko‘rinishidagi dialog (gumon qilinuvchining aybiga iqror bo‘lishi)dan kuchsiz ziddiyat (tergov qilinayotgan ishni guvohning esiga solish) farqlanadi. Advokatning odobi elchining odobiga o‘xshaydi. Biroq barcha o‘ziga xosliklari va farqlariga qaramasdan, yuridik dialogda so‘zlovchining nuqtai nazari eng avvalo, shaxs nuqtai nazari emas, balki davlat hokimiyati vakilining nuqtai nazari ekanligini unutmaslik lozim.

6-§. Tergov jarayonida so‘roq qilishning nutqiy strategiyasi va taktikasi

Dastlabki tergov jarayonidagi so‘roq qilish yuridik dialog turlaridan biri hisoblanadi.

Tergovchi guvoh, jabrlanuvchilar yoki tergovdagilarning ko‘rsatmalarini qayd etarkan, qanday eshitgan bo‘lsa, aynan shu ko‘rinishda yozib ololmaydi, chunki real odam hech qachon «yozganidek» gapirmaydi. Tergovchi so‘roq qilinuvchining ko‘rsatmalarini har doim ham so‘zma so‘z yozib olishga muvaffaq bo‘la olmaydi. Unga quyidagi omillar to‘sqinlik qilishi mumkin:

1) *nutq talab darajasida bo‘lmaydi*, ya’ni tergovchining izchillik bilan bayon qilish yo‘liga solib qo‘yishga urinishiga qaramay, guvoh, jabrlanuvchi odatda adashib ketadi, mavzudan chetga chiqib ketadi, ortiqcha gaplarni gapiradi;

2) so'roq qilinuvchi adabiy tilni o'zlashtirmagan bo'ladi. Ta'kidlash joizki, odam qanchalik hayajonlansa, shunchalik uning nutqi hissiy bo'yoqlarga boy bo'ladi, u shunchalik ko'p gapiradi. So'roq qilishning shart-sharoiti va holati odamni hayajonga soladi, shuning uchun ham nutq adabiy tildan yiroq, hatto, nutqi ravon va boy nutqiy tajribaga ega odamning nutqi ham noto'g'ri bo'ladi;

3) *ohang va ma'no urg'usining sezilarli darajada ko'tarilishi Ba'zan ma'noni o'zgartiradi. Agar guvoh: Axmedov soat 9 (ya'ni aynan 9)da ketdi* desa, bu gapning mazmuni boshqa; agar u: *Axmedov to'qqizda ketdi (Axmedov, boshqa birov emas)* desa mutlaqo boshqa ma'no ifodalaydi;

4) guvoh, jabrlanuvchilar yoki tergov qilinayotganlarning nutqida paralingvistik yoki til bilan ifoda etilmaydigan holatlar (imo-ishora va mimika) mavjud bo'ladi. Ba'zan nutq jarayonida mimika va turli imo-ishoralar nutqning o'rnida keladi. Masalan, odam o'ziga berilgan savolga javob berish o'rniga noiloj qo'lini silkitadi, bu esa har xil talqin qilinadi.

Shuning uchun ham tergovchi o'z nutqini talab darajasida takomillashtirib borishi va ko'rsatma mazmuniga mos yoza olish mahoratini egallashi lozim.

Birinchidan, guvohlar, jabrlanuvchilar va umuman so'roq qilinayotganlar nutqini iloji boricha hissiyotga berilmaydigan qilish uchun eng qulay sharoitni yaratish maqsadga muvofiqdir. So'roq qilinuvchining nutqi qanchalik hissiyotdan xoli bo'lsa, tergovchida uni to'g'ri tushunib olish imkoniyati bo'ladi va uning mazmunini umume'tirof etilgan bayonnoma «tili»ga ko'chirishda xatoga yo'l qo'yilmaydi.

Ikkinchidan, so'roq qilinayotganlar nutqida ohang urg'usi mavjud bo'lsa, mazmunini to'g'ri tushunib olish uchun undan qayta so'rash va uning mazmunini so'zma-so'z ifodalab berishiga erishish lozim.

Tergovchi so'roq qilinayotgan shaxsning nutqini mutlaq to'g'ri qabul qildim deb o'ylashi mumkin emas. Ko'pincha imo-ishoralar ikkiyoqlama yoki ko'p ma'noli bo'lishi mumkin.

Masalan, bir odam haqida: *Axir u...* deb stolga barmog'i bilan urilsa, bu yo ahmoq, yo chaqimchi degani bo'ladi. Agarda bir odam haqida: *U mana bunday!* deb qo'l yuqoriga ko'tarilsa, u odam baland bo'yli degan ma'noni ham, uning xizmat mavqei juda baland degan ma'noni ham anglatadi. Bundan tashqari, milliy mentalitet va milliy o'ziga xoslikni hisobga olish va o'z savolini shunday qo'yish kerakki, milliy o'ziga xoslikni to'g'ri talqin qilish imkoni bo'lsin.

Ko'rsatmaning ishonchliligi bilan bog'liq boshqa bir muammo — bu so'roq qilinayotganlar javobining tergovchi savolining xususiyatiga bog'liqligidir. So'roq qilinayotgan shaxsning ma'lumoti, kasbi, ijtimoiy kelib chiqishi, nutqiy tajribasi va boshqa omillarga bog'liq ravishda nutqiy ko'nikmalari past bo'lsa, tergovchining savolida qo'llanilgan so'zlar va konstruksiyalarni o'z javobida qaytarishga moyillik kuchli bo'ladi. Bunday holat tergovchining so'rog'idagi mazmundan ancha uzoqlashib ketgan shaxslar nutqida ko'proq ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham tergovchi bilan so'roq qilinuvchi o'rtasidagi savollar tushunarsiz bo'lsa tergovchi o'z so'zini so'roq qilinayotgan odamga qayta eslatishi mumkin.

Shuningdek, so'roq qilinayotgan shaxsning nutqi tergovchining nutqini aynan takrorlamasdan, tergovchi bergan yo'nalish bo'yicha o'zining fikrlashi asosida qat'iylik bilan davom ettirilsa, ortiqcha noroziliklarni keltirib chiqarmaydi. Agar so'roq qilinayotgan shaxs ongli ravishda nimanidir yashirayotgan bo'lsa, uning nutqida qat'iylik aks etishi mumkin. Tergovchining savollariga u bir qolipda «bilmayman» deb javob berayotgan odam *Siz o'zingiz kechqurun soat to'qqizlar atrofida nima qildingiz?* degan savolga ham xuddi shunday «bilmayman» deb javob berishi mumkin.

Olinayotgan axborotning obyektiv bo'lishi uchun muhim jihatlardan biri savolning aniq shaklda berilishidir. Nutqning tashqi tavsifi uni to'g'ri tushunishda ko'rinadi. Tinglovchining tushunish darajasi gapdagi so'zlar tartibi, u yoki bu so'zga nutqda mantiqiy urg'u berilishi, gapning murakkab, ya'ni

uning grammatik jihatdan murakkabligi va boshqa ko'plab omillarga, shak-shubhasiz, so'roq qilinayotganning shaxsi, uning aqliy darajasiga bog'liqdir.

«Javobi o'zida bo'lgan», ya'ni javobni esga solib turuvchi savollar, masalan, *Siz ... bo'lmaganmisiz, Siz ... ko'rmaganmisiz...* kabi salbiy konstruksiyadagi savollar, ayniqsa qiyinchilik tug'diradi. Psixologiyadan ma'lumki, tergovchi nutqidagi nomaqbul konstruksiya ko'pincha tinglovchida salbiy munosabat uyg'otadi. ...*siz emasmi* savoliga ko'pincha *Yo'q, men emas* degan javob beriladi, chunki bu holat salbiy javob berishga undaydi.

«Javobi o'zida bo'lgan» savollar «inontiruvchi» axborotning muayyan xususiyatiga ega. Yordamchi savollarning uch turi farqlanadi:

1. Ma'nosi aniq va tez tushuniladigan savollar (*Uning portfeli bormidi? Yoki Siz unda portfel borligini ko'rdingizmi? Yoki Uning portfeli yo'qmidi?*).

2. Yashirin tarzda savollar (*Uning portfeli qanday tusda edi?*).

3. So'roq qilinayotgan odamga gumon qilinayotgan yoki jinoyat sodir etgan shaxsga xos bo'lgan, ammo ba'zi detallarigina nazarda tutilgan savollar (*Rulga o'tirgan odam qanday ko'rinishda edi, uning portfeli bormidi?*).

Nutqda *oq-qora, keksa-yosh, chiroyli-xunuk* kabi baholovchi sifatlarni qo'llash maqsadga muvofiq emas. Ular tinglovchida teskari taassurot uyg'otishi mumkin, natijada uning ko'rsatmasi o'z ishonchliligini yo'qotadi. Agar kimnidir: «*Bu odam keksami*» deb so'ralsa, aniq javob «*Yo'q, yosh*». — «*Oq kostumdami?*» — «*Yo'q, qora*» shaklida bo'ladi. Aslida esa bu odam qirq yoshlarda (yosh ham emas, qari ham) va qoramtir ko'k kostumda bo'lishi mumkin.

Shuningdek, baholovchi tushunchalar ifodalangan guvohlik ko'rsatmalarining tili haqida ham alohida to'xtalish joiz. Masalan, «*keksa*» tushunchasi turli yoshdagi odamlar uchun turlichadir. «*Baland bo'yli*» tushunchasi unchalik baland

bo'lmagan odam uchun boshqacha, novcha odam uchun butunlay boshqacha. Umuman olganda, ko'rsatma kamida ikki marta, biroq turli nutqiy ko'rinishlarda, ya'ni narsa-buyum, voqea-hodisalarni bildiruvchi aniqllovchilar bilan ifodalansagina obyektiv jihatdan ishonchli sanalishi mumkin. Ba'zan qo'shimcha izohlar ham xatolikning oldini oladi. Shuning uchun ko'rsatmani qaytarish, yanada aniqroq qilib takrorlash juda ham muhimdir.

Shuni ham ta'kidlash joizki, tergovchi shunday shaklda savolni berishi va shunday til vositalarini tanlashi kerakki, u so'ralayotgan odamga tushunarli va yetib boradigan bo'lsin. Buning uchun tergovchi o'z suhbatdoshining nutqiy tajriba darajasini inobatga olishi va o'zi ham yuridik dialogning nutqiy strategiyasi va psixologiyasi ko'nikmalarini to'liq egallagan bo'lishi lozim.

7-§. Yuridik protsessual hujjatlarning o'ziga xos jihatlari

Muayyan hayotiy holatlar (fuqarolik, jinoyat va xo'jalik ishlari)da qo'llaniladigan huquqiy normalar doirasidagi individual aktlar protsessual aktlar (hujjatlar) deyiladi. Protsessual hujjatlar — yuridik matnlarning keng tarqalgan turlaridan biridir. Jinoyat ishi bo'yicha 50 ga yaqin turdagi qarorlar va 40 ga yaqin turli bayonnomalar tuzilishi fikrimizni tasdiqlaydi. Protsessual hujjatlar turining bu qadar ko'pligi ijtimoiy hayotning turli jabhalarida ko'plab nizolarning yuzaga kelishi va jinoyatlarning xilma-xilligi bilan belgilanadi.

Protsessual hujjatlar sodir bo'lgan real voqealarni aks ettiradi va ularning huquqiy bahosini asoslaydi. Fuqarolik va jinoyat ishlarining tartibi muayyan qonunlar bilan belgilangan. Shuningdek, JPK va FPKda qaysi hujjatlar rasmiylashtirilishi aniq belgilab qo'yilgan.

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari jinoyatlarni tez va to'la ochishdan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech

bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to'g'ri tatbiq etilishini taminlashdan iboratdir.

Jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonunlarda belgilangan tartibi qonuniylikni mustahkamlashga, jinoyatlarning oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishga yordam qilmog'i lozim.

Har bir fuqarolik yoki jinoyat ishi bir necha bosqichdan iborat bo'ladi. Ish fuqarolik yoki jinoyat alomatlari bo'lgan har qanday hodisa bo'yicha qo'zg'atiladi. Ish qo'zg'atish to'g'risidagi qaror chiqarilgandan keyin qonunda ko'zda tutilgan protsessual tartibda ishning faktik holatlarini har tomonlama o'rganish boshlanadi.

Bu bosqichning maqsadi — ayblanuvchini sudga topshirish uchun asosning mavjudligi (yoki mavjud emasligi) to'g'risidagi qarorni qabul qilishga asos bo'ladigan dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iborat. Dastlabki tergovda protsessual hujjatlar — turli ko'rinishdagi bayonnomalarda olib borilishi va natijalari aks etadigan *so'roq, tintuv, olib qo'yish, yuzlashtirish, ekspertiza* va tergovning boshqa harakatlari amalga oshiriladi.

Qaror matnida qarorga tegishli bo'lgan yuridik holatlar o'z aksini topadi va uning tarkibi 3 qismdan iborat bo'ladi. Qarorning kirish qismida — unga asos bo'ladigan ma'lumotlar: hujjat kim tomonidan, qachon va qanday sababga ko'ra tuzilgani aks etadi. So'ngra tasviriy (bayon qilish) qismi kelib, unda jabrlanuvchi yoki guvohlar so'zi asosida yoxud voqea sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish asosida tergovchi bayon qilgan biror muhim faktning huquqiy maqsadi (xususan, sodir etilgan qilmishning holati) ifodalanadi. Qaror qismida bajarilgan muayyan masala hal qilinishi lozim bo'lgan farmoyish aks etadi.

Bayonnomada alohida tergov yoki boshqa protsessual harakatlar, ko'zdan kechirish, so'roqlar, tintuvlar va boshqalarning olib borilishi hamda natijalari qayd qilinadi.

Bayonnomada mantiqan ikki qism farqlanadi: bayon qilinayotgan xatti-harakat qayerda, qachon va kimning ishtirokida bo'lgan, shuningdek, bu xatti-harakatlarning hamda uning natijalarining xronologik tartibdagi bayoni. Tergov harakatlarining bayonnomasida bo'lib o'tgan voqealar manzarasini oson va qayta tiklash mumkin bo'lgan holatlar hamda aniqlangan predmetlarning aniq va batafsil tavsifi yoritiladi.

Dastlabki tergov bosqichidagi hujjatlar orasida tergov olib borilayotgan joyda qandaydir sabablarga ko'ra, ayrim operativ – tergov harakatlarini o'tkazish mumkin bo'lmagan holatlarda, boshqa tergov organlariga yozma farmoyish tariqasida beriladigan topshiriq muhim o'rinni egallaydi.

Topshiriqda ishning mohiyati qisqacha bayon qilingandan keyin boshqa joyda o'tkazilishi lozim bo'lgan protsessual harakatlar va alohida topshiriqni bajarish jarayonida aniqlanishi zarur bo'lgan masalalar ko'rsatib o'tiladi.

Ishning holati to'liq va har tomonlama aniqlangandan keyin dastlabki tergov tugallanadi va uning materiallari ayblov xulosasida umumlashtiriladi. Ayblov xulosasi – dastlabki tergovning yakuni, qo'yilgan ayblovning asosi hisoblangan dalillarning tizimli bayonidir.

Ayblanuvchini sudga topshirish jarayoni va sud muhokamasi bosqichida ham ularga xos bo'lgan protsessual hujjatlar tuziladi. Bular – bayonnomalar, ajrimlar, hukmlardir. *Sudning hukmi* – jinoyat ishi mohiyatiga ko'ra hal qilinadigan yakuniy hujjatdir. U ishning aniq holatlariga oid eng batafsil ma'lumotlar, qat'iy asoslangan xulosalardan iborat bo'ladi.

Jinoyat-protsessual qonunchiligida hukm 3 tarkibiy qismdan iborat bo'ladi: hukmning *kirish qismida* tashkiliy jarayon o'z aksini topadi. Bayon qilish qismida ishning mohiyatiga aloqador bo'lgan haqiqiy ma'lumotlar batafsil bayon qilinadi, uning qaror qismida ko'rsatilgan u yoki bu jinoyat bo'yicha JK moddasiga asoslanib chiqariladigan sudning u yoki bu qaroriga asos bo'ladigan dalillar keltiriladi. Hukmning qaror

qismi asosan hukm, ya'ni oqlash yoki jazolash to'g'risidagi chiqarilgan qarordan iborat bo'ladi.

Har bir protsessual hujjat nafaqat huquqiy jihatdan, balki lingvistik jihatdan ham xatosiz va savodli tuzilgan bo'lishi lozim. Huquq va til madaniyati me'yorlariga muvofiq darajada tuzilgan matnlar huquq va tergov organlarining ham, odil sudlov organlarining ham mavqeini orttiradi, yuridik ish yuzasidan qabul qilingan qaror mohiyatini tushunarli qiladi.

Shunday qilib, protsessual hujjatlar uslubiy jihatdan quyidagi mezonlarga javob berishi shart:

1. Hujjatning namunaviy mazmuni (bayon qilish, qaror, harakatlarning olib borilishi va uning natijalarining bayoni, biror-bir ma'lumotning yetkazilishi). Qaror qabul qilingan hujjatlar (qaror, ajrim, ayblovi xulosasi, hukm, sud qarori) va bayonnoma sirasidagi hujjatlar (turli ko'rinishdagi bayonnomalari: gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, jabrlanuvchining, guvohning ko'rsatmalari, ko'zdan kechirishning, tintuvning, olib qo'yishning, ekspertizaning va boshqa harakatlarning bayonnomalari) va boshqa hujjatlar o'rtasidagi mantiqiy chegara.

2. Hujjatning tuzilish jihatidan qismlari (qonunda nazarda tutilgan yoki mantiqan ajratilgan qismlari, shuningdek, muhim huquqiy jihatdan bir qolipdagi ma'noviy bo'laklari) o'rtasida bog'lanishning qat'iy bo'lishi.

3. Hujjatdagi ma'lumotlarning turlari (voqea-hodisalarga oid ma'lumot — bo'lib o'tgan hodisalarning, ish holatining haqiqiy qayd qilinishi; qayd qiluvchi ma'lumotlar — hodisalar yoki predmetlar nomlarining ro'yxati, muayyan faktlarning qayd qilinishi; farmoyish beruvchi ma'lumotlar, biror-bir xatti-harakatni bajarishga ko'rsatma berish) mantiqiy izchil bo'lishi.

4. Ma'lumotlarni yetkazishning usullari — matnning to'la qonli huquqiy mazmuni til vositalari orqali aniq ifodalangan (so'zlar tartibiga qat'iy amal qilishi; u yoki bu grammatik ahamiyatga molik urg'ular, bir qolipga solingan turli gap bo'laklarining qo'llanilishi va h.k.) bo'lishi.

Ma'lumotlarning namunaviy mazmuni va turlari — protsessual hujjatlarning tilga oid bo'lmagan asoslaridir. Uning tuzilishi jihatdan bo'laklarga ajratilishini tilga oid bo'lmagan mezonlar bilan ham, qonunga havola qilish, anketa ma'lumotlari yoki ayblovni ifoda qilishni hisobga olgan holda ham berish mumkin. Ma'lumotlarni yetkazish usullariga protsessual hujjatlarning til xususiyatlari kiradi. Bu mezonlarning barchasini hisobga olgan holda, protsessual hujjatlarning ushuby modelini — muayyan til materialidan matn tuzish chizmasini yaratish mumkin. Har bir uslubiy modelda foydalanilgan u yoki bu til vositalari ekstralingvistik omillar bilan, birinchi navbatda, namunaviy mazmun bilan belgilab qo'yiladi.

Protsessual hujjatlarga — qarorlar, ajrimlar, ayblov xulosalari, hukmlar, sud qarorlari kiradi. Ularning namunaviy mazmuni— biror-bir masalaning qonuniy, asosli ravishda hal qilinishidan iborat. Masalan: tergov organlarining qarorlarida tergov harakatlari uchun zarur bo'lgan ayblanuvchining va jabrlanuvchining iqror bo'lishi to'g'risidagi protsessual holat (ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror va boshqa amalga oshirilishi mumkin bo'lgan harakatlar.); jinoyat ishining harakatlanishi to'g'risidagi qaror (ishni harakatdan to'xtatish to'g'risidagi qaror) chiqarilishi mumkin.

Ayblov xulosalarida tergovchining ayblovni ifoda qilish va ishni sudga topshirish to'g'risidagi qat'iy qaroriga asoslaniladi. Hukm sudlanuvchining aybdorligini va unga tayinlangan jazo chorasini (yoki sudlanuvchining aybsiz ekanligining huquqiy oqibatini) belgilovchi qarordan iborat bo'ladi. Fuqarolik ishlari bo'yicha sud qarorlarida biror-bir yuridik faktning mavjudligi (yoki mavjud emasligi) tasdiqlanadi.

Qaror-hujjatlarning tarkibi qonunda belgilab qo'yilgan va ular 3 qismdan iborat bo'ladi. Qaror-hujjatlarning kirish qismida odatda bitta gapda aniqlovchi va hollarning turli ko'rinishlari ishtirok etadi. Asosiy urg'u qaror matnidagi o'rin va payt hollariga tushadi.

Qonun u yoki bu protsessual harakatlarning muddatini qat'iy cheklab qo'ygan. Masalan, jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qaror, qoida tariqasida, sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyat haqida lavozimdagi shaxsdan ma'lumot olingan kundan boshlab, 3 kundan kechiktirmasdan chiqarilishi lozim.

Tergov (yoki surishtiruv) jinoyat sodir etilgan joyda olib boriladi. Shuning uchun ham kirish qismidagi o'rin va payt holi oddiy matndagiga qaragandagidan ham ko'proq ma'no yukiga ega va ularning ajratib ko'rsatilishi maqsadga muvofiqdir; tarz hollari har doim vergul bilan ajratib ko'rsatiladi. Vergul bilan ajratilgan aniqlovchilar odatda yoyiq holda qo'llaniladi: ... *moddada ko'zda tutilgan jinoyat alomatlari bo'yicha qo'zg'atilgan ish material*i. So'ngra huquqiy normaga havola qilinadi (moddaning raqami ko'rsatiladi). Bunda havola ma'lumotning mustaqil tarkibiy qismi hisoblanmaydi, balki «jinoyat» tushunchasini aniqlashtirish uchun xizmat qiladi. Ayrim qaror-hujjatlari (masalan, qamoq tariqasidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi qaror)da kirish qismi prokurorning grifi sifatida *roziman, sanksiya beraman* ma'nosidagi ajratib ko'rsatilgan birinchi shaxs birlikdagi hozirgi zamon fe'llari bilan ifodalanadi.

Qaror-hujjatlarning bayon qismi hajmi bir gapdan bir necha gapgacha bo'lishi mumkin. Bayon qismining hajmi qaror qaysi bosqichda chiqarilganiga, ya'ni ishning haqiqiy holatini qanchalik to'liq aks ettirish zaruratiga bog'liq bo'ladi. Bayon qismining eng katta hajmi yakuniy qarorlarda uchraydi.

Bayon qismidagi huquq normalariga havola (JPK da nazarda tutilgan biror-bir huquqiy normani) *qo'llab* ravishdoshi bilan ifodalanadi va vergul bilan ajratib ko'rsatiladi hamda kirish qismidagiga nisbatan katta axborot mustaqilligiga ega, chunki *qo'llab* havolasi agar yana qandaydir qo'shimcha ma'lumot bo'lsa va ular «va» bog'lovchisi bilan bitta gapga birlashtirilgan bo'lsa, unda *e'tiborga olib* iborasini qo'llash mumkin.

Qaror-hujjatlarning qaror qabul qilish qismi sarlavha

ko'rinishida tuziladi va ular ikki nuqtadan keyin bosh harflar bilan hamda bir-biridan nuqtalar yordamida ajratib yozilishi lozim.

Grammatik sarlavhalar infinitiv (fe'lning noaniq ko'rinishidagi gaplar) gaplarni yanada ta'kidlab ko'rsatuvchi ibora urg'usi gapning oxirgi qismiga tushadigan infinitiv gaplardan tashkil topadi. Betaraf bayon qilish ohangi farmoyish berish, amr qilish ohangi bilan almashadi va infinitiv gaplar o'z fikrini ifodalashning asosiy bo'g'ini sifatida ajratiladi.

Qaror-hujjatlarning tuzilish qismlari mantiqiy jihatdan bog'langan bo'lishi zarur (*aniqladim, qaror qilaman, aybdor* va ulardan kelib chiqadigan so'zlarning biri-biriga bog'lanishi).

Qaror-hujjatlarning uslubiy modeli ma'lumotlarning har uchala turini o'zida jamlaydi. Qayd qiluvchi ma'lumotlar kirish qismida bayon qilinadi va hozirgi zamon fe'li shaklida ifodalanadi. Voqea-hodisalarga oid ma'lumotlar bayon qismida ifodalanadi. Qayd qiluvchi ma'lumotlar bilan voqea-hodisalarga oid ma'lumotlarning navbatma-navbat kelishi mazkur ish yuzasidan to'plangan barcha dalillarni bir tizimga solish imkonini beradi.

Matnga dalillar manbaini ko'rsatuvchi (*ekspert xulosasiga asosan, taftish xulosalariga muvofiq* shaklidagi kirish birikmalar) yoki muayyan holatni aniqlashtiruvchi (*ya'ni, chunonchi* kabi bog'lovchilar bilan kelgan) sintaktik birikmalar kiritiladi.

Voqealarga oid ma'lumotlar uchun o'tgan zamon fe'li xosdir. Xronologik izchillik tamoyiliga asosan batafsil aks ettirilgan voqealarga oid ma'lumotlar hozirgi zamon uchun ham, kelasi zamon uchun ham bir xil ahamiyatga ega bo'lgan o'tgan voqealarning natijalaridan iborat bo'ladi.

Bu turdagi ma'lumotlardan ko'zlangan asosiy maqsad kommunikativlikdan iborat: ishning haqiqiy holatini shunday bayon qilish kerakki, mantiqan muayyan xulosa chiqarish imkonini bersin. Farmoyish beruvchi ma'lumotlar qaror-hujjatlarning qaror qismida o'z aksini topadi. U kelasi zamonda

qo'llaniladi, chunki u hujjatda bayon qilingan voqeaning natijalari belgilanadi.

Ayblov xulosasi asoslovchi bayon qismi va qaror qismidan iborat bo'ladi. Ayblov xulosasining asoslovchi bayon qismida ishning mohiyati — dastlabki tergov jarayonida aniqlangan ayblanuvchi sodir etgan jinoyatning joyi, vaqti, usullari, asoslangan oqibatlari va boshqa muhim holatlari, jabrlanuvchi haqidagi ma'lumotlar, ayblanuvchining aybini va jinoyatning mavjudligini tasdiqlovchi dalillar, ayblanuvchining aybini yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar, ayblanuvchining o'z himoyasi uchun keltirgan vajlari va bu vajlarni tekshirish natijalari bayon qilinadi.

Ayblov xulosasida unda bayon qilingan holatlar o'z tasdig'ini topgan ishning betlariga havola qilinishi lozim. Ayblov xulosasining qaror qismida ayblanuvchining shaxsi haqidagi ma'lumotlar keltiriladi va mazkur jinoyat nazarda tutilgan JK moddalari ko'rsatilib, unga qo'yilgan ayblov bayon qilinadi. Ayblov xulosasi tuzilgan joyi va vaqti ko'rsatilgan holda tergovchi tomonidan imzolanadi.

Ayblov xulosasida axborotning uch ko'rinishidan foydalaniladi. Asoslovchi bayon qismida qayd qiluvchi ma'lumotlarning unsurlari voqealar bilan birga keladi. Masalan, *ish materiallaridan ko'rinadiki...*, *guvohlarning ko'rsatmalaridan kelib chiqadiki* va h.k. Voqealarga oid ma'lumotlar asosan o'tgan zamon fe'llari shaklida beriladi va gapning ajratilgan bo'laklari hisobiga aniqlashtiriladi.

Ayblov xulosasining qaror qismi qayd qiluvchi va farmoyish beruvchi ma'lumotlardan iborat.

Bayonnoma-hujjatlar mazmunan quyidagi turlarga bo'linadi:

dalilning muayyan manbasi: *ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi, guvohlar ko'rsatmalarining qat'iy yuridik ifodasi;*

ko'zdan kechirish, tintuv, olib qo'yish, ekspertiza kabi tergov harakatlarini olib borish paytida aniqlangan faktlar tasdiqlanadigan mustaqil dalillar manbai;

JPK ning qayd qilingan talablari: tergov jarayonida bajariladigan harakatlar (ayblanuvchini ekspertiza tayinlanishi to'g'risidagi qaror bilan tanishtirish va h. k.).

Bayonnomalar qonunda belgilangan kommunikativ qismlarga ega emas. Harakatlar amalga oshiriladigan sharoitlar, harakatlarning o'zlari va ularning natijalari bayon qilingan qismlari mantiqan ajratiladi. Protsess qatnashchilari haqidagi ma'lumotlar va tomonlarning huquq va majburiyatlarini izohlovchi yoki tergov harakatlarini asoslovchi qonunga havolalar mustaqil qismlar hisoblanadi.

Izohlovchi havolalar, *chunonchi, ya'ni* kabi bog'lovchilar yordamidagi birikmalar bilan ifodalanadi. Masalan: *menga O'zbekiston Respublikasi JPK moddalarida nazarda tutilgan ayblanuvchining huquqlari tushuntirildi, chunonchi...*

Asoslovchi havola matnga *moddaga muvofiq, modda talablariga rioya qilgan holda* kabi qoliplashgan birikmalar kiritiladi.

Bayonnoma-hujjatlarda farmoyish beruvchi ma'lumotlar berilmaydi, balki faqat qayd qiluvchi yoxud voqeaga oid ma'lumotlarga alohida e'tibor beriladi. Voqeaga oid ma'lumotlar — so'roq qilinganlarning muayyan mazmunga ega ko'rsatmalari o'tgan zamonda aks ettiriladi va har doim shunday qayd qilinishi kerak. Unga yuridik kuchga ega dalillar manbai sifatida qaraladi.

Qayd qilinuvchi ma'lumotlar asosan nomma-nom beriladi: *qora plastmassadan qilingan korpusli magnitofon, («qora plastmassali korpus» emas)*. Jonsiz predmetlarni yoki voqea sodir bo'lgan joy holatini bayon qilish bo'lib o'tgan voqealar manzarasini aniq tiklash imkoni uchun foydalaniladigan aniqlovchi so'zlar konstruksiyasining ko'pligi bilan farqlanadi.

Xonadonlarning joylashishi, xonalar soni, o'g'irlangan predmetlarning joylashgan o'rni va h.k.

Tashqi ko'rinishni tasvirlash (og'zaki portret yaratish)da anatomik va antropometrik atamalar (texnik terminlar — nomenklanturalar): *o'rta bo'y, taxminan 178—180 sm, sochi*

qora, kalta, to'g'ri, yuzi dumaloq, qo'sh iyak, chap yuzida kichik xoli bor.

Voqealarga oid ma'lumotlarni berishda maxsus til vositalari mavjud emas, chunki qonun iloji boricha ko'rsatmalarning so'zma-so'z bayon qilinishini talab etadi. Voqealarga oid ma'lumotlar monolog yoki dialog shaklida beriladi va ular birinchi shaxs tilidan bayon qilinadi.

So'roq tugaganidan so'ng bayonnoma guvohga yoxud jabrlanuvchiga beriladi va tergovchi tomonidan o'qib eshittiriladi (yoki uning o'zi o'qiydi) hamda guvoh yoki jabrlanuvchi bayonnomaga *bayonnoma mening so'zlarim asosida to'g'ri yozilgan (imzo) yoki bayonnomani o'z qo'lim bilan yozdim (imzo)* deb yozib qo'yadi.

Tergovchi guvohning yozma ko'rsatmasi bilan tanishish jarayonida qo'shimcha savollar berishi mumkin. Agar bayonnoma bir necha betdan iborat bo'lsa, uning har bir betiga imzo qo'yiladi.

Gumon qilinuvchi va jabrlanuvchining bayonnomasini ham taxminan shunday rasmiylashtiriladi, gumon qilinuvchiga muayyan moddalar bo'yicha uning huquqlari tushuntiriladi, qanday jinoyatni sodir etganlikda gumon qilinayotganligi tushuntiriladi, shuningdek bu haqda so'roq qilish bayonnomasiga belgilab qo'yiladi. Agar gumon qilinuvchi ushlangan bo'lsa, uning so'roq qilinishi u ushlangan daqiqadan boshlab 24 soatdan kechiktirmasdan o'tkaziladi.

Jinoyat ishi bo'yicha tuzilgan hujjatlar xatosiz yozilgan bo'lishi lozim. Bu muhim talab haqida gapirganda, odatda savodxonlikning darajasi, ya'ni yozma nutqning orfografik, punktuatsion va grammatik jihatdan to'g'riligi nazarda tutiladi.

Aslida savodxonlik orfografik, punktuatsion va grammatik normalarga rioya qilinishini talab etadi. Imloviy qiyinchiliklar asosan boshqa tildan o'tgan so'zlarda yuz beradi (masalan, *narkologik* o'rniga *norkologik* deb yozishadi).

Ba'zan materiallarda bitta so'zning bir necha xil yozilganini ko'rish mumkin. Sud-tergov hujjatlarida tinish belgilari juda

ko'p bo'ladi: biror-bir muhim holatni ajratib ko'rsatish maqsadida deyarli har bir so'zdan keyin vergul qo'yishadi, bu esa matnni tushunishda qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun ham faqat zarur holatda tinish belgilarini qo'llash zarur.

Rusiyzabon bo'lgan kishilar tuzgan ayrim hujjatlarda grammatik normalarning qo'pol buzilishi ko'p uchraydi. Kasbiy til savodxonligi shuning uchun ham zarurki, sud-tergov hujjatlarida til bevosita huquqiy fikrni ifodalaydi. Kasbiy fikrlashning o'ziga xosliklari ta'sirida shakllangan barcha termin va atamalar, maxsus tushunchalar, konstruksiyalar huquqiy bilimlarning hozirgi darajasi bilan mos kelishi va faqat zarur bo'lgan paytdagina qo'llanilishi lozim.

Oddiy nutqdagi so'zlar ham sud-tergov hujjatlarida maxsus mazmun kasb etishi mumkinligini hisobga olish zarur. Masalan, «*mast holatda bo'lgan*» va «*spirtli ichimlik iste'mol qilgan*» ifodalarni bir-biridan farqlash lozim. Oddiy alkogol ham, narkotiklar ham, turli og'irlikdagi patologik ichkilikbozlar ham mast holatda bo'lishi mumkin. Spirtli ichimliklarga esa inson organizmiga ta'sir qilish darajasiga qarab, uch guruhdagi ichimliklar kiradi.

Sud-tergov hujjatlarining kommunikativ savodxonligi deganda ish materiallari bilan tanishgan turli kishilarning ularni tushunishlari anglashiladi. Ma'lumki, hujjatlarda turli manbalardan olingan ma'lumotlar mavjud bo'ladi. Shuning bilan birga, hujjat matniga tergovchining nutqiy, hayotiy va kasbiy tajribasi ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Savodli yozilgan hujjat aynan bir matnning turlicha anglanishining oldini oladi. Faqat shundagina hujjat «bir ma'noli» bo'ladi. «Bir ma'nolilikni» yuristlarning o'zlari ham ko'pincha kasbiy nutqning eng muhim sifatlaridan biri deb atashadi. Biroq «bir ma'nolilik»ka amaliy jihatdan erishish qiyin (shuning uchun ham bu so'zni qo'shtiroq ichiga olishga to'g'ri keladi): har bir tabiiy tilning o'ziga xosligi — so'zlarning ko'p ma'noga ega bo'lishidir. Axir, tilda uning cheklangan birliklari bilan tilga oid bo'lmagan faoliyatning barcha

murakkab holatlari tizimlashtiriladi. Shuning uchun ham bir xil ma'no haqida emas, balki hujjatning aniqligi to'g'risida gapirish maqsadga muvofiq bo'lardi. Agar hujjatdagi ma'lumotlar jiddiy qabul qilishga mo'ljallangan bo'lsagina, u aniq bo'ladi. O'z navbatida, kommunikativ savodxonlik aniqlik, ravshanlik, matnning grammatik to'g'ri yozilganligi kabi qator sifatlarni ham nazarda tutadi. Mazkur talablarga rioya qilingandagina hujjatdan uni tuzgan odamning maqsadini to'g'ri anglab olsa bo'ladi.

Shunday qilib, protsessual hujjatlarni tuzishda yuristdan savodxonlikning muayyan darajasi, mantiq qonunlarini bilish, yuridik hujjatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda, ulkan lug'at boyligi jamg'armasidan mos keladigan so'zni tanlash qobiliyatiga ega bo'lish talab etiladi.

Aynan mana shu talablar, o'z navbatida, tergov olib borish madaniyatiga ham, sudlov ishlari madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu hol protsessual yuridik hujjatlarni nutqiy madaniyat ko'nikmalari asosida tuza oladigan professional yuristlar faoliyatiga ham bevosita taalluqlidir.

«Yuristning nutq madaniyati» fanidan testlar

1. “Yuristning nutq madaniyati” fanining bosh maqsadi:

- A. Bo‘lg‘usi yuristlarning tilni his etish didini tarbiyalash
- B. Bo‘lg‘usi yuristlarning nutq mahoratini rivojlantirish
- D. Tasviriy vositalarni qo‘llashga o‘rgatish
- E. A, B javoblar to‘g‘ri
- F. To‘g‘ri javob berilmagan

2. Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish burchiga ega. (O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, 40-modda). Moddada noto‘g‘ri qo‘llangan so‘zni toping.

- A. Inson
- B. Foydalanish
- D. Ega
- E. Burchiga
- F. To‘g‘ri javob yo‘q

3. Aybsizlik prezumpsiyasi aybdorni avf etish emas. Keltirilgan gapda qaysi so‘z noto‘g‘ri qo‘llangan?

- A. Aybsizlik
- B. Avf
- D. Prezumpsiyasi
- E. Aybdorni
- F. B, D javoblar to‘g‘ri.

4. Nutq nafasati qanday shakllanadi?

- A. To‘g‘ri talaffuz orqali
- B. Til vositalaridan adabiy til me‘yorlariga muvofiq foydalanish orqali
- D. Tinish belgilarini o‘zlashtirish orqali
- E. To‘g‘ri javob yo‘q
- F. A, B, D javoblar to‘g‘ri.

5. Yuridik til nima?

- A. Davlat qurilishi va boshqaruviga oid tushunchalar tili
- B. Bunday til yo‘q
- D. Jinoyat huquqiga oid tushunchalar tili
- E. Huquq tarmoqlariga oid tushunchalar tili.

F. A, B javoblar to'g'ri

6. Ishonch yorlig'i nima?

A. Harbiy hujjat

B. Shartnoma turi

D. Xorijiy davlatga tayinlanayotgan diplomatik vakilning maqomini rasman guvohlantiruvchi diplomatiya hujjati

E. To'g'ri javob yo'q

F. B, D javoblar to'g'ri

7. Mustaqillik tushunchasiga berilgan mukammal ta'rifni belgilang.

A. Ozodlik

B. Erkinlik

D. Ichki va tashqi siyosatni o'zi belgilash huquqi

E. A, D javoblar to'g'ri

F. Mustaqillik — huquq demakdir

8. Davlat ramzlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.

A. Davlat tili, davlat chegarasi, davlat gerbi

B. Davlat chegarasi, davlat bayrog'i, davlat gerbi

D. Davlat mulki, davlat madhiyasi, davlat gerbi

E. Davlat bayrog'i, davlat gerbi, davlat madhiyasi

F. A, D javoblar to'g'ri.

9. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 5-moddasini to'ldiring. O'zbekiston Respublikasi... o'z davlat ramzlari bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega.

A. Moddalarda ko'rsatilgan

B. Qonunda ko'rsatilgan

D. Qonun bilan tasdiqlanadigan

E. Qonunda belgilangan.

F. Qonun yo'li bilan belgilangan.

10. Lotincha «prokuror» so'zining tarjimasini qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A. G'amxo'rlik qilmoq

B. Qattiqqo'llik

- D. Sobitlik
- E. Qonuniylik
- F. Davlatchilik

11. Sudyalar mustaqil va hamma narsaga haqlidirlar, faqat Oliy Majlisga bo'ysunadilar. Gapda noto'g'ri qo'llanilgan so'zlarni toping va o'rniga muvofiq'ini tanlang.

- A. D, E javoblar to'g'ri
- B. Huquqlidir
- D. Oliy Majlisga
- E. Hamma narsaga haqlidir birikmasi o'rniga daxlsizdir
- F. Oliy Majlisga birikmasi o'rniga qonunga

12. Faqat jinoyat huquqiga oid terminlar berilgan qatorni belgilang.

- A. Tovlamachilik, bosqinchilik, davlat tili
- B. Impichment, sud, chegara
- D. Bosqinchilik, tovlamachilik, firibgarlik
- E. Talonchilik, firibgarlik, davlat
- F. To'g'ri javob yo'q.

13. O'zganing mulkini ochiqdan-ochiq talon-taroj qilish qaysi moddaning mohiyatini belgilaydi?

- A. Bosqinchilik
- B. Talonchilik
- D. Firibgarlik
- E. Tovlamachilik
- F. A, E javoblar to'g'ri.

14. Morfologik usul bilan yasalgan yuridik terminlar qatorini belgilang.

- A. Mansab soxtakorligi
- B. Yolg'on xabar berish
- D. Firibgarlik
- E. Boshliqni qo'rqitish
- F. A, B javoblar to'g'ri.

15. Sintaktik usul bilan yasalgan yuridik terminlar qatorini toping.

- A. Davlat tili, o'ta og'ir jinoyat

- B. Boshliqni qo'rqitish, firibgarlik
- D. Tovlamachilik, mansab soxtakorligi
- E. Firibgarlik, bosqinchilik
- F. To'g'ri javob yo'q

16. «Yuridik til»da asosan, fe'lning qaysi nisbati faol ishtirok etadi.

- A. O'zlik nisbati
- B. Birgalik nisbati
- D. Majhul nisbat
- E. O'rttirma nisbat
- F. Aniq nisbat

17. «Yuridik til»da asosan, qaysi uslubdan foydalaniladi?

- A. Rasmiy uslubdan
- B. Ilmiy uslubdan
- D. Publisistik uslubdan
- E. So'zlashuv uslubidan
- F. Badiiy uslubdan.

18. Qanday so'zlar uslubiy betaraf so'zlar deyiladi?

- A. Shevaga oid so'zlar
- B. Kasb-hunar so'zlari
- D. Badiiy uslubga oid so'zlar
- E. Faqat so'zlashuv uslubiga xos so'zlar
- F. Barcha uslublarda ishlatiladigan so'zlar.

19. Yuridik leksikaning ichki imkoniyatlar asosida boyish manbalarini belgilang.

- A. Morfologik usul bilan yangi termin hosil qilish
- B. Sintaktik usul bilan yangi termin hosil qilish
- D. Yaqin munosabatda bo'lgan xalqlar tilidan bevosita so'z olish.
- E. A va D javoblar to'g'ri
- F. A va B javoblar to'g'ri

20. Yuridik leksikada qanday so'zlar o'zlashgan so'zlar hisoblanadi?

- A. Turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar

- B. Shevalardan olingan soʻzlar
- D. Qardosh boʻlmagan tillardan olingan soʻzlar
- E. Boshqa tillarda ishlatiladigan oʻzbekcha soʻzlar
- F. Barcha yangi soʻzlar

21. Yuridik til uchun xos boʻlgan soʻzni toping.

- A. Ozodlikdan mahrum etilsin
- B. Ozodlik
- D. Qamalsin
- E. B, D javoblar toʻgʻri
- F. A, B javoblar toʻgʻri

22. Ombudsman – bu:

- A. BMTning Oʻzbekistondagi vakili
- B. Oliy Majlisning inson huquqlari boʻyicha vakili
- D. Barcha xalqaro tashkilotlarning Oʻzbekistondagi vakili
- E. Prezidentning inson huquqlari boʻyicha vakili
- F. Advokaturaning Oʻzbekistondagi vakili

23. Jazoga oid tub termini belgilang.

- A. Axloq tuzatish ishlari
- B. Jarima
- D. Qamoq
- E. Ozodlikdan mahrum etish
- F. B va D javoblar toʻgʻri.

24. Qonun oldida hamma huquqlidir.

Ajratilgan soʻz oʻrniga muqobilini tanlang.

- A. Burchlidir
- B. Tengdir
- D. Majburdir
- E. Haqlidir
- F. Toʻgʻri javob yoʻq

25. Madaniyat yodgorliklari davlat himoyasidadir. Ajratilgan soʻz oʻrniga muqobilini tanlang.

- A. Hisobidadir
- B. Qaramogʻidadir

- D. Himoyasida emas
- E. Muhofazasidadir
- F. A, B javoblar to'g'ri.

26. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga *burchlidirlar*. Ajratilgan so'z o'rniga muqobilini.

- A. Haqlidirlar
- B. Huquqlidirlar
- D. Majburdirlar
- E. Haqli emas
- F. Majbur va haqlidirlar.

27. Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish *burchiga* ega. Ajratilgan so'z o'rniga muqobilini tanlang.

- A. Majburiyatiga
- B. Vazifasiga
- D. Huquqiga
- E. Bu so'z ortiqcha

28. Barcha *insonlar* Konstitusiyada belgilab qo'yilgan burchlarni bajaradilar. Ajratilgan so'z o'rniga muqobilini tanlang.

- A. Odamlar
- B. Shaxslar
- D. Xalqlar
- E. Fuqarolar
- F. Mehmonlar

29. Terminning o'ziga xos belgilarini toping.

- A. Rasmiy so'z
- B. Bir ma'noli so'z
- D. Ko'p ma'noli so'z
- E. Sinonimlariga ega bo'lmagan so'z
- F. A, B, D javoblar to'g'ri

30. Qonun moddalari qaysi uslubda yoziladi.

- A. Ilmiy uslubda
- B. Rasmiy uslubda
- D. So'zlashuv uslubida

- E. Publisistik uslubda
- F. Badiiy uslubda

31. «Davlat tili»ga berilgan qaysi ta'rif to'g'ri?

- A. Matbuot tili
- B. Ish yuritish tili
- D. Qonun bilan belgilab qo'yilgan rasmiy til
- E. Badiiy asar tili
- F. Qonunlar tili

32. Ishlarni yopiq majlisda ko'rib chiqishga faqat qonunda belgilangan hollarda yo'l qo'yiladi.. Keltirilgan gap tarkibida qaysi kishilik olmoshini qo'llash mumkin?

- A. Men olmoshini
- B. Sen olmoshini
- D. Qonun moddalarida olmoshlarni qo'llab bo'lmaydi
- E. Siz olmoshini
- F. To'g'ri javob yo'q

33. Qonun tiliga xos belgilarni aniqlang.

- A. Rasmiylik
- B. Rasmiylik va xolislik
- D. Shaxssizlik
- E. Mantiqiy izchillik
- F. A, B, D, E javoblar to'g'ri.

34. Og'zaki yuridik nutq me'yorlarini aniqlang.

- A. Tahrir imkoniyatidan mahrum bo'ladi
- B. Pauza va ohang
- D. Urg'u va talaffuz
- E. Mimika va jest
- F. A, B, D, E javoblar to'g'ri.

35. Advokat nutqiga xos xususiyatlarni belgilang.

- A. Ravon talaffuz
- B. No'noq talaffuz
- D. A, B javoblar to'g'ri
- E. A, B javoblar noto'g'ri
- F. Ravon va no'noq talaffuz

36. Yozma nutq xususiyatlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- A. Yozma nutq og'zaki nutqni rivojlantiradi
- B. Yozma nutq avvaldan o'ylanadi va matnga tushiriladi
- D. A javob to'g'ri
- E. A, B javob to'g'ri
- F. A, B javob noto'g'ri

37. Yozma yuridik nutq oldiga qo'yiladigan talablarni aniqlang.

- A. Har bir so'z, termin, gap, jumla yuridik mazmunni to'laqonli ochishga xizmat qilishi kerak.
- B. A, E javoblar to'g'ri
- D. Yuristning tafakkur mahsullari dalillangan va adabiy til me'yorlari doirasida bo'lishi shart
- E. A, D javoblar to'g'ri
- F. A javob to'g'ri

38. Qonun moddalari mazmuniga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rsating.

- A. Terminlarni o'z o'rnida qo'llamaslik
- B. Rus tilidagi qonunlardan andaza olish, tarjima qilish
- D. Adabiy til me'yorlariga rioya qilmaslik
- E. A, B, D javoblar to'g'ri
- F. A, B javoblar to'g'ri

39. "Huquq va til muammosi predmetlararo tadqiqotlarda yangi yo'nalish bo'lib, bu sohada hal etilmagan va bahsli masalalar juda ko'p. Lekin shunisi shubhasizki, barcha turdagi yuridik faoliyat uchun tilni benuqson bilish shartdir ", degan fikr qaysi taniqli huquqshunosga tegishli?

- A. Akademik H.R.Rahmonqulovga
- B. Professor A.X.Saidovga
- D. Professor Sh.Sh.Shorahmedovga
- E. To'g'ri javob yo'q
- F. Z.M. Islomovga

40. Nutq madaniyati bu:

- A. Orfografiya qoidalariga rioya qilish
- B. Orfoepiya qoidalariga rioya qilish

- D. Mantiqiy izchillikka rioya qilish
- E. A, B javoblar to'g'ri
- F. A, B, D javoblar to'g'ri

41. Nutqning kommunikativ sifatiga qo'yiladigan mezonlar:

- A. Nutqning to'g'riligi
- B. Nutqning aniqligi
- D. Nutqning mantiqiyliigi
- E. A, B, D javoblar to'g'ri
- F. A, B javoblar to'g'ri

42. "Mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir". Muallifini toping.

- A. A.G'ulomov
- B. Forobiy
- D. Beruniy
- E. Ibn Sino
- F. Xorazmiy

43. Nutqning tozaligini buzuvchi til birliklari.

- A. Varvarizmlar
- B. Jargon va argonlar
- D. Kanselyarizmlar
- E. Vulgarizmlar
- F. Barcha javoblar to'g'ri

44. Chanoqlardagi lo'ppi ochilgan paxtalar quyoshda yargirab kumushdek toblanadi. Bu gapda qaysi so'z noto'g'ri qo'llangan.

- A. Kumushdek
- B. Chanoqlardagi
- D. Toblanadi
- E. Lo'ppi
- F. Barcha so'zlar to'g'ri qo'llangan

45. Yuristning nutq madaniyati:

- A. Yurisprudensiya doirasida ifodali nutq tuza olish mahoratidir
- B. Nutqiy chechanlikdir
- D. Til vositalaridan o'rinli foydalanishdir

- E. To'g'ri javob yo'q
- F. A, B, D javoblar to'g'ri

46. Qaysi gap mantiqiy jihatdan noto'g'ri:

- A. Dekanni xonasida ko'rdim
- B. Dekanning xonasida ko'rdim
- D. A javob noto'g'ri
- E. A, B javoblar to'g'ri
- F. B javob to'g'ri

47. Qaysi gapda kelishik qo'shimchasi noto'g'ri qo'llanilgan:

- A. Dekanni ko'rdi
- B. Dekanning ko'rdi
- D. A, B javob to'g'ri
- E. A, B javob noto'g'ri
- F. A javob noto'g'ri

48. "Til huquqning yashash shartidir". Muallifini toping.

- A. A.X.Saidov
- B. A.D.Tursunov
- D. Z.M.Islomov
- E. H.B.Boboyev
- F. I.B.Zokirov

49. So'zni nutqda . . . nutq jozibasini buzadi. Nuqtalar o'rniga qaysi so'zlarni qo'llash mumkin?

- A. Noo'rin qo'llash
- B. Behuda takrorlarga yo'l qo'yish
- D. Qaytariqlarga yo'l qo'yish
- E. A, B, D javoblarni qo'yish mumkin
- F. To'g'ri javob berilmagan

50. U jinoyatchi, odam emas. Qanday uslubiy xato mavjud?

- A. Tovushlar noto'g'ri qo'llangan
- B. Olmoshlar noto'g'ri qo'llangan
- D. Vergul noto'g'ri qo'yilgan
- E. Nuqta to'g'ri qo'yilgan
- F. To'g'ri javob yo'q

51. Nutq nafasatini ta'minlovchi vositalarni aniqlang.

- A. Sinonimlar
- B. Tasviriyl ifodalar
- D. Iboralar
- E. Maqollar
- F. Barcha javoblar to'g'ri

52. Nutq bezagi bu —

- A. Tasviriyl ifodalar
- B. Jargonlar
- D. Argolar
- E. Vulgarizmlar
- F. To'g'ri javob yo'q

53. Nutq ko'rki bu —

- A. Jargonlar va argolar
- B. Maqol va iboralar
- D. Maqol va jargonlar
- E. A, B javoblar to'g'ri
- F. Iboralar va vulgarizmlar

54. Nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi vositalar:

- A. Metafora va metonimiya
- B. Iboralar va jargonlar
- D. Vulgarizmlar va varvarizmlar
- E. Varvarizmlar va jargonlar
- F. To'g'ri javob berilmagan

55. Nutqiy ravonlikni buzuvchi omillar:

- A. So'zlarni nutqda o'z o'rnida qo'llamaslik
- B. Paronimlarni o'z o'rnida qo'llamaslik
- D. Sinonimlarni o'z o'rnida qo'llamaslik
- E. Kelishik qo'shimchalarini o'z o'rnida qo'llamaslik
- F. Barcha javoblar to'g'ri

56. "Yuristning nutq madaniyati" fanining bosh maqsadi:

- A. Bo'lajak yuristlarning yozma nutqini yurisprudensiya doirasida takomillashtirish

- B. Bo'lajak yuristlarning og'zaki nutqini takomillashtirish
- D. A javob to'g'ri
- E. B javob to'g'ri
- F. A, B javoblar to'g'ri

57. Qaysi so'z xato yozilgan?

- A. Qasddan
- B. Qasddan
- D. Haqiqatdan
- E. Haqiqatdan
- F. Barcha javoblardagi so'zlar to'g'ri yozilgan

58. Qaysi so'z xato yozilgan?

- A. Avf
- B. Afv
- D. Yod
- E. Yot
- F. Barcha so'zlar to'g'ri yozilgan

59. "Yuridik til — ko'p ming yillik taraqqiyot va ko'p avlodlar tajribasi mahsuli". Bu fikrlar qaysi taniqli huquqshunos tomonidan aytilgan?

- A. Professor Z.M.Islomov tomonidan
- B. Professor H.B.Boboyev tomonidan
- D. Professor A.X.Saidov tomonidan
- E. A, B javoblar to'g'ri
- F. To'g'ri javob berilmagan

60. "... Huquq rivojlanishining tarixiy tajribalarini o'zida mujassam qilgan yuridik til inkor etish mumkin bo'lmagan qadriyat, huquqiy madaniyatning ajralmas qismidir". Bu fikrlar qaysi taniqli huquqshunos tomonidan aytilgan?

- A. Professor A.X.Saidov tomonidan
- B. Professor H.B.Boboyev tomonidan
- D. Professor M.B.Usmonov tomonidan
- E. Professor Z.M.Islomov tomonidan
- F. Professor A.D.Tursunov tomonidan

61. Qonun tilining asosiy belgilari to'liq ko'rsatilgan qatorni belgilang.

- A. Aniqlik, qisqalik, barqarorlik
- B. Aniqlik qisqalik, shaxssizlik rasmiylik, xolislik, mantiqiy izchillik, barqarorlik
- D. Barqarorlik, aniqlik, xolislik
- E. Xolislik, mantiqiy izchillik, rasmiylik
- F. Barcha javoblar to'g'ri

62. Quyidagi gaplarning qaysi biri uslub jihatdan qo'pol shakllangan?

- A. Qaysi biringiz rohat qilib, mehnatda o'sdingiz?
- B. Butun hayotimni o'qituvchilik ishiga bag'ishlayman
- D. Tug'ishi yaqin bo'g'oz xotinlar ham ishga chiqmaydilar
- E. Bizning sayohatimiz yetti kun davom etishi kerak
- F. Bog'imizda yosh olma ko'chatlari yaxshi ko'kardi

63. Yuristning nutq madaniyatini qanday takomillashtirish mumkin?

- A. Qonun moddalarini kengaytirib yozish mashqlari orqali
- B. Siyosiy mavzularda insholar yozish orqali
- D. Yuridik terminlarga izoh yozish orqali
- E. Turli janrlardagi asarlardan parchalarni ifodali o'qish orqali
- F. Barcha javoblar to'g'ri

64. Qaysi qatorda yondosh so'zi o'rnida uning paronimi qo'llangan?

- A. Yo'lga yondash anhor shovillab oqardi
- B. Yaxshiga yondash, yomondan qoch
- D. Masalaga to'g'ri yondashing
- E. Durdona dugonalariga yondashib, soy bo'yiga yo'l oldi
- F. Barcha gaplarda yondosh so'zi qo'llanishi kerak

65. Qaysi gapdagi qaratqich kelishigi qo'shimchasini chiqish kelishigi qo'shimchasi bilan almashtirish mumkin?

- A. Maqtanganning uyiga bor, kerilganning to'yiga
- B. Mehmonlarning yoshi ulug'i gapirdi
- D. Institut kutubxonasi birinchi qavatda
- E. Do'stimning do'sti — mening do'stim
- F. Palovning masallig'i tayyorlab qo'yildi

66. Quyidagi gaplarning qaysi birida mantiqiy nomuvofiqlik bor?

- A. Bemorga uch mahal dori berib turdim
- B. Dasht o'rtasida bir tog' cho'qqisi ko'rindi
- D. Bir burda non bir-birisiz tomog'idan o'tmasdi
- E. Bir og'iz gapim bor, shuni aytmoqchi edim
- F. Qarasam, qo'lida bir tilim handalak

67. Qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

- A. U qasddan odam o'ldirdi
- B. Paxtaga suv quyildi
- D. Jinoyat fosh bo'ldi
- E. Berilgan gaplarda so'zlar to'g'ri qo'llangan
- F. A, B, D javoblar to'g'ri

68. Qaysi gapda uslubiy xato mavjud?

- A. Ashulalar eshitdik
- B. Mahbuslar ozod etildi
- D. Mahbuslar avf etildi
- E. Barcha gaplar to'g'ri shakllangan
- F. Barcha gaplarda uslubiy xatolar mavjud

69. Qaysi gapda *quyilmoq* fe'li uslubiy jihatdan noto'g'ri qo'llangan?

- A. Bir kunda ikki ming dona g'isht quyildi
- B. Bulutlar tobora quyilib, qorayib borardi
- D. Simyog'ochlardagi chiroqlardan nur yerga sutday quyilib turardi
- E. Sirdaryo Orol dengiziga quyiladi
- F. Barcha gaplarda xatolar mavjud

70. Gaplarning qaysi birida uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan?

- A. Tilingni asra, boshing ketmasin
- B. Sening Toshkentda o'qishing kerak
- D. Sen Toshkenta o'qiysanmi?
- E. Til – millatning qalbi
- F. Odamning husni mehnatda

71. Asosan qaysi uslubda so'zlar ko'chma ma'noda qo'llanmaydi?

- A. Ilmiy uslubda
- B. Rasmiy uslubda

- D. So‘zlashuv uslubida
- E. Badiiy uslubda
- F. A, B javoblar to‘g‘ri

72. Qaratqich kelishigi o‘rnida tushum kelishigi noto‘g‘ri qo‘llangan gapni aniqlang.

- A. Olimlar bilan uchrashuv o‘tkazdik
- B. Jinoyatning oldi olindi
- D. Tergovchini fikri inobatga olindi
- E. Ongni eskirgan, g‘arazli maqsadlardan tozalash zarur
- F. Barcha gaplar to‘g‘ri shakllangan

73. Quyidagi gaplarning qaysi birida qo‘shimcha qo‘llashda xatolik mavjud?

- A. Men sizga aytsam, odamning yomoni bo‘lmaydi
- B. Mustaqillik — huquq demakdir
- D. Jinoyatning ildizlarini o‘rganishlik kerak
- E. Jinoyat fosh etildi
- F. A, B javob to‘g‘ri

74. Quyidagi gapda yo‘l qo‘yilgan uslubiy xatoning qaysi nisbatga aloqadorligini belgilang.

Bu maqolada Turkiston birligi aniq misollar bilan asoslanib berilgan.

- A. Aniqlik nisbati bilan o‘zlik nisbatiga
- B. O‘zlik nisbati bilan birgalik nisbatiga
- D. Aniqlik nisbati bilan majhul nisbatiga
- E. Majhul nisbat bilan o‘zlik nisbatiga
- F. Birgalik nisbati bilan aniqlik nisbatiga

75. Nutq madaniyatiga to‘liq ta’rif berilgan qatorni toping.

- A. Lug‘aviy me’yorlarga rioya qilish
- B. Imlo qoidalariga rioya qilish
- D. Adabiy talaffuz me’yorlariga rioya qilish
- E. Mantiqiy izchillikka rioya qilish
- F. Mantiqiy izchillikka va adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda to‘g‘ri, aniq va yoqimli so‘zlash va yozish

76. Qaysi qatordagi gapda soʻz notoʻgʻri qoʻllangan?

- A. Yegan ovqati hazm boʻlmagan
- B. Gurunchlik ovqatni har doim isteʼmol qilish organizmga zarar
- D. Bayram tantanalari hamon davom etmoqda
- E. Ikki karra ikki – toʻrt
- F. Teatrning shuhrati oshdi

77. Uslubiy notoʻgʻri qoʻllangan soʻz qaysi qatorda berilgan?

- A. Paxta gulladi
- B. Salohiyatli olim
- D. Bahorni sevadi
- E. Doʻstimni oqishladim
- F. Xat yozildi

78. Rasmiy uslub uchun xos xususiyatni belgilang.

- A. Koʻp maʼnoli soʻzlar ishlatiladi
- B. Terminlar qoʻllanadi
- D. Birikma va gaplar maʼlum qolipda boʻladi
- E. Shevaga xos soʻzlar faol qoʻllanadi
- F. Oʻxshatish, sifatlashlar koʻp ishlatiladi

79. Qaysi qatordagi gapda soʻz uslubiy jihatdan xato qoʻllangan?

- A. Doʻstlikni ardoqlash kerak
- B. Bolalik uy – bozor, bolasiz uy – mozor
- D. Eshik ochiq boʻlsa ham, soʻrab kir
- E. Yoqimli shamol esa boshladi
- F. A, D javoblar toʻgʻri

80. Rasmiy uslubda asosan qaysi gap turlaridan keng qoʻllaniladi?

- A. Faqat darak gaplardan
- B. Asosan buyruq gaplardan
- D. Asosan his-hayajon gaplardan
- E. Darak va his-hayajon gaplardan
- F. Asosan buyruq va his-hayajon gaplardan

81. Nutq madaniyati uchun nima muhim hisoblanadi?

- A. Mazmunga mos soʻzni tanlay olish
- B. Bir soʻzni oʻrinsiz takrorlamaslik

- D. Uslublararo chegarani bilish
- E. Nutqning ta'sirchan bo'lishini ta'minlash, so'z shakllari va gap turini to'g'ri qo'llash
- F. Barcha javoblar to'g'ri

82. Quyidagi gaplarning qaysi birida tushum kelishigi o'rnida jo'nalish kelishigini qo'llash mumkin?

- A. Butun dalani o'quvchilarning shovqini tutib ketdi
- B. Dam oluvchilar tog' havosini maqtab ketishdi
- D. Nima dedingiz? Gapingizni tushunmadim
- E. Tergovchi yangi jinoyat ildizlariga yetdi
- F. Do'stlarini ko'rib xursand bo'ldi

83. «Yurisdiksiya» so'zining lug'aviy ma'nosini aniqlang.

- A. Lotincha, «sud ishi»
- B. Italyancha, «sud amaliyoti»
- D. Grekcha, «huquqshunos faoliyati»
- E. Lotincha, «jinoyatchilikka qarshi qurash»
- F. Fransuzcha, «huquqshunos kafolati»

84. «Kodeks» so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

- A. Fransuzcha, «jamiangan»
- B. Grekcha, «majmua»
- D. Lotincha, «kitob»
- E. Nemischa, «to'plangan»
- F. To'g'ri javob yo'q

85. Qaysi so'z noto'g'ri yozilgan?

- A. Quyilmoq
- B. Quyulmoq
- D. Yuvindi
- E. Yuvundi
- F. Barcha so'zlar to'g'ri yozilgan

86. «Referendum» so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

- A. Lotincha, «umumxalq ovoz berishi»
- B. Yunoncha, «umumiy ovoz»
- D. Lotincha, «bildirilishi kerak bo'lgan»

- E. Inglizcha, «davlat ahamiyatiga molik»
- F. Nemischa, «saylanish huquqiga ega bo'lish»

87. «Konferensiya» soʻzining lotinchadan tarjimai.

- A. «Toʻplaninglar»
- B. «Huquq yaratamiz»
- D. «Bir joyga jamlayman»
- E. «Hamma kelsin»
- F. «Anjumanga taklif»

88. "Tilni yaxshi bilmaslik taqdirning oliy jazosidir". Bu fikr muallifini toping.

- A. A.Gʻulomov
- B. Sh.Rahmatullayev
- D. H.Boboyev
- E. D.Usmonov
- F. A.Toʻlaganov

89. «Diktatura» soʻzining lugʻaviy maʼnosi qaysi javobda toʻgʻri berilgan?

- A. Lotincha, «huquqi cheklangan hokimiyat»
- B. Yunoncha, «mutlaq hokimiyat»
- D. Inglizcha, «yagona davlat boshligʻi»
- E. Fransuzcha, «birlashgan hokimiyat»
- F. Nemischa, «inson huquqlarini toptaydigan hokimiyat»

90. "Dunyoni goʻzallik qutqaradi". Bu hikmatning muallifini toping.

- A. Gʻ.Gʻulom
- B. A.P.Chexov
- D. F.M. Dostoyevskiy
- E. A.Qahhor
- F. Sh.Burhonov

91. «Gerb» soʻzining lotaviy maʼnosini aniqlang.

- A. Nemischa, «meros»
- B. Yunoncha, «tamgʻa»
- D. Fransuzcha, «simvol»
- E. Inglizcha, «ramz»
- F. Ruscha, «gerb»

ILOVALAR

1. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARI RO'YXATI

Yozma ish va suhbat mashg'ulotlari mavzularning namunaviy ro'yxati

1. Davlat suverenitetiga oid moddalar mazmunini adabiy til me'yorlariga muvofiq kengaytirib yozish.
2. Xalq hokimiyatchiligiga oid moddalar mazmunini kengaytirib yozish.
3. O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunning ustunligiga doir moddalar matnini kengaytirib yozish.
4. Davlatning tashqi siyosiy faoliyati to'g'risida matn tayyorlash.
5. Inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklariga oid moddalar mazmunini kengaytirib matn tayyorlash.
6. Siyosiy huquqlar to'g'risidagi moddalardan foydalanib shaxsiy mulohazalar asosida matn yaratish.
7. Insonning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini matn sifatida yoritish.
8. Inson, shaxs, fuqaro, fuqarolik tushunchalariga izohlar yozish.
9. Inson huquq va erkinliklarining kafolati. Mazkur mavzuga oid moddalar asosida matn tuzish.
10. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchlariga oid moddalar mazmunini kengaytirib yozish.
11. Inson huquqlari va erkinliklari — oliy qadriyat (erkin insho).
12. Jamiyat va shaxsga oid moddalar mazmunini kengaytirib yozish.
13. Oila jamiyatning buguni va kelajagi negizidir. Mulohazalar va fikrlarni badiiy ifodalash.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari. Konstitutsiya materiallari asosida "Prezidentimiz — faxrimiz" mavzusida erkin insho yozish.
15. Vazirlar Mahkamasi — O'zbekiston Respublikasining hukumati. Mazkur mavzuga oid moddalar mazmunini kengaytirib yozish.
16. O'zbekiston Respublikasida Mahalliy davlat hokimiyatining tashkil etilishi va faoliyatining Konstitutsiyaviy asoslari. Mazkur

mavzuga oid moddalar asosida «Mahalla – tarbiya o'chog'i» mavzusida erkin insho yozish.

17. O'zbekiston Respublikasining sud tizimi. «Sud – adolat qo'rg'oni» mavzusida mulohazalar yozish.

18. Oliy Majlis – O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining oliy vakillik organi. Mazkur mavzuga oid moddalar mazmunini kengaytirib yozish.

19. O'zbekiston Respublikasining Prokuraturasi. Konstitutsiya materiallari asosida mulohazalar yozish.

20. Konstitutsiya – hayotimiz qomusi. Erkin insho yozish.

21. Nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi vositalar.

22. Nutq madaniyati va uslubiyat.

23. Rasmiy uslub va uning o'ziga xos xususiyatlari.

24. Ilmiy, publitsistik va badiiy uslubning o'ziga xos belgilari.

25. Notiqlik san'ati va notiqlik mahorati.

26. Qadimgi Yunonistonda notiqlik san'ati.

27. Rim notiqlik san'ati.

28. Sharqda notiqlik san'ati.

29. Mutaqaddirlarning til, nutq, so'z haqidagi qarashlari.

30. Siyosiy yetakchining notiqlik mahorati.

31. Yurisprudensiya va qonunga oid matnlarning lisoniy mezonlari.

32. Yurisprudensiya tarmoqlariga oid matnlarda aniqlik, qisqalik, rasmiylik va qat'iylik.

33. Tergov protsessual hujjatlari va ularning tasnifi.

34. Jinoyat ishini qo'zg'atish haqida bayonnoma to'ldirish mashqlari.

35. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish haqida qaror namunalari yuzasidan mashqlar.

36. Jabrlanuvchini so'roq qilish bayonnomasi namunalarini tayyorlash mashqlari.

37. Guvohni so'roq qilish haqidagi bayonnomalar tayyorlash mashqlari.

38. Hodisa joyini ko'zdan kechirish haqidagi bayonnomalar tuzish mashqlari.

39. Gumon qilinuvchini so'roq qilish haqida bayonnomalar tuzish mashqlari.

40. Ayblanuvchini so'roq qilish haqidagi bayonnomalar tuzish mashqlari.

41. Termin va tushuncha. Termin va so'z. Termin va terminologiya. Terminning o'ziga xos belgilari.

42. O'zbek davlatchiligi va terminlari tarixidan.

43. Yuridik terminlar tizimining lug'aviy-ma'naviy guruhlarini tasnifi.

44. Yuridik terminlarning boyish manbalari.

45. Yuridik terminlarni tartibga solish masalalari.

Nazorat ishlari mavzularinig namunaviy ro'yxati

1. Yurist nutqi madaniyati fanining maqsad va vazifalari.

2. Nutq madaniyati va huquq.

3. So'z – qudratli va buyuk vosita.

4. Nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi vositalar.

5. Mutafakkirlarning til, nutq va so'z haqidagi qarashlari.

6. Siyosiy yetakchining notiqlik mahorati.

7. Mustaqillik – huquq demakdir. Yozma ish.

8. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Yozma ish.

9. Adolat – qonun ustuvorligida. Yozma ish.

10. Xavfsizlikka tahdid. Yozma ish.

11. Kuch – bilim va tafakkurda. Erkin insho.

12. Aybsizlik prezumpsiyasi – aybdorni afv etish emas. Yozma ish.

13. Davlat suverenitetiga oid moddalar mazmunini kengaytirib yozish mashqlari.

14. Xalq hokimiyatchiligiga oid moddalar mazmunini kengaytirib yozish mashqlari.

15. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi materiallari asosida yozma ish.

16. Inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklariga oid moddalar mazmunini kengaytirib yozish mashqlari.

17. Siyosiy huquqlarga oid moddalar mazmunini kengaytirib yozish.

18. Insonning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlariga oid moddalar mazmunini kengaytirib yozish.

19. Inson huquqlari va erkinliklari — oliy qadriyat. Erkin insho.
20. Konstitutsiya — hayotimiz qomusi. Erkin insho.
21. Tergov protsessual hujjatlari yuzasidan yozma ishlar.
22. Termin va tushuncha. Termin va soʻz. Termin va terminologiya. Terminning oʻziga xos belgilari.
23. Oʻzbek davlatchiligi va terminlari tarixidan.
24. Yuridik terminlar tizimining lugʻaviy-maʼnoviy guruhlar.
25. Yuridik terminlarning ichki manbalar asosida boyishi.
26. Yuridik terminlarning tashqi manbalar asosida boyishi.
27. Yuridik terminlar va adabiy meʼyor.

2. Til — davlat himoyasida

Oʻzbekiston Respublikasining davlat tili oʻzbek tilidir. Oʻzbekiston oʻz hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va anʼalari hurmat qilinishini taʼminlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 4-modda.

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

Davlat tili haqida (yangi tahrirda)

1-modda. Oʻzbekiston Respublikasining davlat tili oʻzbek tilidir.

2-modda. Oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning oʻz ona tilini qoʻllashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda. Oʻzbek tilining Oʻzbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi. Tilning Qoraqalpogʻiston Respublikasida amal qilishiga bogʻliq masalalar, shuningdek, Qoraqalpogʻiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bogʻliq udumlarni ado etishda qoʻllanishini tartibga solmaydi. Fuqarolar millatlararo muomala tilini oʻz xohishlariga koʻra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda. Oʻzbekiston Respublikasida davlat tilini oʻrganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida

yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi. Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalga oshiriladi.

5-modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko'rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa ularning tillarida faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini tashkil etish ta'minlanadi.

6-modda. O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi. O'zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o'rta maxsus va oliy ma'lumot olishni ta'minlaydi.

7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi. Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

8-modda. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi. Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi.

9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi. O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya xujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarining ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11-modda. Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Xo'jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

12-modda. O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda – boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda. Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

15-modda. O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'i nazar, o'z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda. Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda. Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda. Pochta-telegraf jo'natmalar davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra boshqa tilda amalga oshiriladi.

19-modda. Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarning, shuningdek milliy madaniyat jamiyatlari va markazlarining muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

20-modda. Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali

hamda ogʻzaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va eʻlon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimai berilishi mumkin.

21-modda. Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yoʻriqnomalar, etiketkalar bilan taʼminlanadi.

22-modda. Respublikaniig maʼmuriy-hududiy birliklari, maydonlari, koʻchalari va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda. Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning oʻzida boshqacha qoida nazarda tutilmagan boʻlsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda. Oʻzbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning oʻzaro muomala, tarbiya va taʼlim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga toʻsqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar boʻladilar.

**Oʻzbekiston Respublikasining
Prezidenti**

I.KARIMOV

Toshkent shahri, 1995-yil 21-dekabr 168-1

OʻZBEKISTON RESPUBLIKLSI OLY MAJLISINING QARORI

Oʻzbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonunining yangi tahririni amalga kiritish tartibi toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi:

1. Yangi tahrirdagi «Davlat tili haqida»gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni (9- va 10-moddalaridan tashqari) eʻlon qilingan kundan eʼtiboran amalga kiritiladi.

2. Belgilab qoʻyilsinki, «Davlat tili haqida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 9- va 10-moddalari lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosiga toʻliq oʻtilgan paytdan, yaʼni 2005-yilning 1-sentabridan eʼtiboran kuchga kiradi.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hukumatning qarorlarini «Davlat tili haqida»gi Oʻzbekiston Respublikasining

Qonuniga muvofiqlashtirsin, respublika vazirliklari, idoralari o'zlarining mazkur Qonunga zid bo'lgan normativ hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlarini ta'minlasin.

4. Oliy Majlisning Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi «Davlat tili haqida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni qoidalarining ijro etilishi ustidan nazoratni ta'minlasin.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisining Raisi

E. XALILOV

Toshkent shahri, 1995-yil 21-dekabr, № 168-1.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida

Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib va o'zbek yozuvining lotin alifbosiga o'tilgan 1929–1940-yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib, keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlarni inobatga olgan holda respublikaning har tarafлама kamol topishini va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

1-modda. O'zbekiston Respublikasida lotin yozuviga asoslangan, quyidagi 31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan iborat o'zbek alifbosi joriy etilsin.

2-modda. Lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosini joriy etish bilan birga O'zbekiston xalqining milliy iftixori bo'lmish bebaho ma'naviy meros bitilgan arab alifbosini va kirillitsani o'rganish va ulardan foydalanish uchun zarur sharoitlar saqlab qolinadi.

O'zbekiston Respublikasining
Prezidenti

I. KARIMOV

Toshkent shahri, 1993-yil 2-sentabr, N 931–XII.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi:

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1993-yil. № 9, 331-moddasi) quyidagi o'zgartirishlar kiritilsin:

1. 1-moddadagi "31 harf, 1 tutuq belgisi (apostrof) dan" so'zlari "26 ta harf va 3 ta harflar birikmasidan" so'zlari bilan almashtirilsin.

2. Cc harflari mustaqil harf belgisi sifatida alifbodan chiqarilsin.

3. Ōō harfi O'o' shaklida, Ğğ harfi G'g' shaklida, Şş harfi Sh sh shaklida, Cc harfi Chch shaklida, N'í harfi Ng ng shaklida, Q harf belgisi Qq shaklida ifodalansin.

4. Aa, Ii, Gg, Ğğ, Qq, O'o', Zz harflari, Ch ch harflar birikmasining yozma shakli tegishlicha *Aa, Ii, Gg, Ğğ, Qq, O'o', Zz* tarzda ifodalansin.

**O'zbekiston Respublikasining
Prezidenti**

I. Karimov

Toshkent shahri, 1995-yil 6-may.

PROKUROR NAZORATI HUJJATLARINING TURLARI

Prokurorning ayblovi nutqi

Hurmatli sud hay'ati! Mana Siz tomoningizdan bir necha kundan beri O'zbekiston Respublikasi JKning 277-moddasi 1-qismi bilan ayblanib, sudga berilgan Rasulov Obidjon Tohirovichga nisbatan bo'lgan jinoyat ishi har tomonlama, xolisona ko'rib, o'rganib chiqildi.

Dastlabki tergov materiallariga ko'ra 1976-yilda tug'ilgan O. Rasulov muqaddam D. Rahimov tuman sudi tomonidan 24.08.1998-yilda O'zR JKning 169-moddasi 3-qism «B» va «I» bandlari bilan sudlangan bo'lishishiga qaramay, bundan o'ziga tegishli xulosa chiqarmay, yana qasddan jinoyat sodir etgan.

Jumladan, fuqaro Rasulov Obidjon Tohirovich 15-may 2000-yil kuni soat taxminan 21.30 larda Shayxontohur tumani Navoiy ko'chasida joylashgan «Panorama» kinoteatriga, ya'ni jamoat joyiga kichik zaliga, mast holda kelib, u yerda ta'mirlash ishlari olib borayotgan fuqaro Qodirov Mirxoliqni behayo so'zlar bilan haqoratlab, jamiyatning yurish turish qoidalarini qasddan mensimasdan, uni urib-do'pposlab, tan jarohati yetkazgan va M. Qodirov olgan tan jarohatlari natijasida Toshkent Davlat 2-Tibbiyot instituti klinik kasalxonasiga murojaat qilgan.

2000-yil 2-iyun kungi 142-X-SHOD-sonli sud-tibbiy ekspertizasi xulosasiga ko'ra fuqaro M.Qodirovga sog'ligining qisqa vaqtda tuzalishiga olib kelgan «yengil tan jarohati» – yetkazilganligi aniqlangan. Dastlabki tergov organlari tomonidan sudlanuvchi O.Rasulovning jinoiy harakatlari O'z Respublikasi JKning 277-moddasi 1-qismi bilan to'g'ri malakalangan deb hisoblayman.

O. Rasulovning aybi sud majlisida o'zining aybiga iqrор bo'lib bergan ko'rsatmalari bilan birga sud tergovi davomida jabrlanuvchi va guvohlarning bergan ko'rsatmalari bilan ham o'z tasdig'ini topdi.

Hurmatli sud hay'ati, sudlanuvchi O.Rasulovning jinoiy qilmishlari uchun jazo tayinlashda uning oilaviy sharoitini, jabrlanuvchi M.Qodirovning sudlanuvchi O.Rasulovga yengilroq jazo berishni iltimos qilishini hisobga olishingiz bilan bir qatorda uning muqaddam sudlanganligini va shunga qaramasdan yana aybni og'irlashtiruvchi – mast holda, qasddan yangi jinoyat sodir etganligini inobatga olgan holda, O.Rasulovni JKning 277-moddasi 1-qismi bilan aybli deb topib, shu moddaga asosan har oylik ish haqidan 30 foiz davlat hisobiga ushlab qolish yo'li bilan 3 (uch) yil muddatga axloq tuzatish ishlariga jalb etilishini so'rayman.

**Jizzax shahar Davlat soliq inspeksiyasi
boshlig'i vazifasini bajaruvchisi
A.Juraboyevga**

P R O T E S T
(umumiy nazorat tartibida)

Jizzax shahar Davlat soliq inspeksiyasining 1998-yil 6-noyabrda qarori bilan «O'tkir» Mas'uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli Olmazor mahallasi guzarining yonida joylashgan oziq-

ovqat do'konining mudiri Hoshimov Olim xaridor haqidan 561 so'm 80 tiyin urib qolgan va nazorat kassa mashinasiga kiritmaganligi uchun 1998-yil 7-sentyabrdagi 09—105 sonli vaqtinchalik tartibga asosan «O'tkir» mas'uliyati cheklangan jamiyatga nisbatan 10000 so'mlik miqdorida moliyaviy jarima qo'llagan.

Ushbu qaror quyidagilarga ko'ra noqonuniy bo'lib, bekor qilinishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan vaqtinchalik tartib O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan ro'yxatdan o'tkazilmaganligi va qonunga xilof bo'lganligi uchun yuqorida qayd etilgan vaqtinchalik tartib Adliya Vazirligining qarori bilan bekor qilingan.

Bayon etilganlarga ko'ra va «O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi to'g'risida»gi qonunning 25-moddasiga asosan

SO'RAYMAN:

1) Jizzax shahar Davlat soliq inspeksiyasining 1998-yil 6-noyabrdagi «O'tkir» mas'uliyati cheklangan jamiyatiga 110000 so'm miqdorida moliyaviy jarima qo'llash haqidagi qarori noqonuniy bo'lganligi uchun bekor qilinsin;

2) Protest qonunda belgilangan 10 kunlik muddatda kurulishi va natijasi yuzasidan shahar prokuraturasiga xabar berilishi lozim.

Jizzax shahar prokurori
adliya katta maslahatchisi B. Abdusattorov

Shaxsiy tintuvga
RUXSAT BERAMAN ¹
_____ **prokurori**

199_____yil «_____» _____

Shaxsiy tintuv o'tkazish haqida
QAROR ²

¹Shaxsni kechiktirib bo'lmaydigan hollarda tintuv prokurorning ruxsatisiz o'tkazilishi mumkin, bunday xolda 24 soat ichida prokurorga xabar beriladi. Xabarnomada tintuv o'tkazish asoslari ko'rsatiladi. (Uz. R. JPKning 161— moddasi).

²O'z. Res. JPKning 162— moddasi 2— qismidagi holatlarda shaxsiy tintuv qaror chiqarilmasdan ham o'tkazilishi mumkin.

20 ____ yil « ____ » ____ shahri
qo'rg'oni

(qaror chiqaruvchining mansabi, unvoni va familiyasi)
____ sonli jinoyat ishi materiallari bilan tanishib
ANIQLADIM:

(ishning qisqa mazmuni)
Dastlabki tergovda ____ ish uchun ahamiyatli bo'lgan
(kimda)
____ va boshqa uni qilmish faoliyatiga bog'liq narsa
(nima)

yoki hujjatlar bor deb o'ylashga yetarli ma'lumotlar
mavjudligini, ularni izlab topish va olish zarurligini nazarga olib
____ tintib ko'rish lozimdir.

(kimni)

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi JPK 158, 159,
161 va 164-moddalarini qo'llab

QAROR QILDIM:

1. ____ yashovchi

(manzilgohi)

Tintuv o'tkazishga
RUXSAT BERAMAN

____ prokurori

familiyasi

199 ____ yil « ____ » ____

Tintuv o'tkazish haqida
QAROR

199 ____ yil « ____ » ____ shahri

(qaror chiqaruvchining mansabi, ismi va familiyasi)

____ sonli jinoyat ishi materiallari bilan tanishib

ANIQLADIM:

(ishning qisqa mazmuni bayon qilinadi)

Jinoyat ishi materiallarida _____ xonadonida

(kimning)

_____ va boshqa uning jinoiy faoliyatini ko'rsatuvchi narsa va hujjatlar bo'lishi mumkinligi haqida yetarli asoslar mavjudligini, ularni topish va olish zaruriyatini nazarga olib, O'zbekiston Respublikasi JPKning 158, 159, 161, 164-moddalarini qo'llab

QAROR QILDIM:

1. _____ sonli

(kimga nisbatan yoki qanday holat bo'yicha)

jinoiyat ishi bo'yicha _____ yashovchi _____

(manzilgohi)

(kimning)

uyida va yordamchi xo'jalik xonalarida tintuv o'tkazilsin.

2. Bu haqda unga e'lon qilinib, qarorning nusxasi top shirilsin.

(mansabi, unvoni)

(f. i. sh.)

Qaror uch nusxada tuziladi. Birinchi va ikkinchi nusxalarga gerbli muhr bosiladi.

Tintuv natijasida quyidagilar aniqlandi va olindi (nima va aynan qayerdan olingani, shu munosabat bilan tintilayotgan shaxs bildiruvi):

(Tintuv yuzasidan e'tiroz va takliflar bo'lmadi.

Bayonnoma o'qib eshittirildi, to'g'ri yozilgan).

Xolislar:

(familiyalari)

Ishtirokchilar:

(familiyalari)

Tintuv o'tkazilayotgan joy egasi (yoki vakili) _____

(f. i. sh.)

(mansabi, unvoni)

(f. i. sh.)

Bayonnoma nusxasini 1995-yil ___ sentyabrda oldim

(imzosi)

**Dastlabki tergovni tergovchilar guruhiga topshirish to'g'risida
QAROR**

1995-yil 10-iyun

Toshkent shahri

Yunusobod tuman prokurori adliya maslahatchisi R. Komilov
1448-sonli jinoyat ishi materiallari bilan tanishib,

ANIQLADIM:

1995-yil 6-iyunda «Bobur» istirohat bog'idan Kozim Ochilov bo'g'ib o'ldirilgan holda topilgan. Ushbu hodisa bo'yicha O'zbekiston Respublikasi JKning 97-moddasining 1-qismidagi belgilari bilan 1448-sonli jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Dastlabki tergovda ushbu qotillikni marhumning xotini Nuriya Nurova va «Univermag» mudiri Rinat Asliyev 20 ming so'mga yollagan Murod O'sarov sodir etganligi aniqlandi.

Jinoyat ishi juda murakkab va o'ta muhimligini inobatga olib, dastlabki tergov yuritishni tergovchilar guruhiga topshirish lozim bo'ladi.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi JPKning 354-moddasini qo'llab,

QAROR QILDIM:

1. 1448-sonli jinoyat ishi bo'yicha Yunusobod tuman prokuraturasining tergovchisi 1-darajali yurist R. K. Soliyev rahbarligidagi a'zolari tuman prokuraturasining tergovchilari 2-darajali yurist M. Mahmudov va 3-darajali yurist D. Rasulovlardan iborat tarkibda tergov guruhi tuzilsin.

2. Jinoyat ishini o'z ish yurituviga olishlik guruhi rahbari
1-darajali yurist R. K. Soliyevga topshirilsin.

**Tuman prokurori
adliya kichik maslahatchisi**

R. Komilov

TERGOV-PROTSESSUAL HUJJATLARDAN NAMUNALAR

Og'zaki arizani qabul qilish BAYONNOMASI

200 ____ « ____ » ____ shahri

(ariza qabul qilgan shaxsning mansabi, unvoni, f. i. sh.)

O'zbekiston Respublikasi JPKning 324-moddasi talabiga
rioya qilgan holda fuqaro:

1. Familiyasi, ismi va otasining ismi _____
2. Tug'ilgan yili, oyi va kuni _____
3. Ma'lumoti _____
4. Oilaviy ahvoli _____
5. Ish joyi, mansabi _____
6. Yashash joyi _____
7. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat _____

(nomi, seriyasi, raqami, qachon kim tomonidan berilgan)
arizasini qabul qildim.

Arizani qabul qilish soat _____ boshlandi.

_____ bila turib yolg'on xabar bergan taqdirda
(f. i. sh.)

O'zbekiston Respublikasi JKning 237-moddasi bilan jinoiy
javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirildi.

_____ (imzosi)
Fuqaro _____ quyidagilarni ma'lum qildi: _____
(f. i. sh.)

Ariza qabul qilish soat _____ tamomlandi. Bayonnoma
_____ o'qib eshittirildi. Ariza to'g'ri yozilgan.

Arizani qabul qilishga, bayonnoma mazmuniga qo'shimcha va
e'tirozim yo'q.

Arizachi: _____
(imzo) (f. i. sh.)

Arizani qabul qildim va bayonnoma tuzdim.

(imzo) _____

(mansabi, unvoni) _____ (familiyasi)

Og'zaki arizani qabul qilish
BAYONNOMASI

2000-yil 21 sentyabr

Toshkent shahri

Toshkent shahar prokuraturasining tergovchisi adliya kichik maslahatchisi K.A. Xursandov O'zbekiston Respublikasi JPKning 324-moddasi talabiga rioya qilgan holda:

fuqaroning og'zaki arizasini qabul qildim:

1. Familiyasi, ismi va otasining ismi Yunusova Lola Xolovna

2. Tug'ilgan yili, oyi va kuni 1963-yil 10-mart

3. Ma'lumotio'rta

4. Oilaviy ahvoliajrashgan

5. Ish joyi, mansabi ..Toshkent shahridagi Zenit zavodida ishchi.

6. Yashash joyi Yunusobod tuman, A. Qodiriy ko'chasi 27-uy.

7. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat pasporti XXVI—YUA seriyali 334122-sonli Yunusobod tuman IIBdan 01.09.91-yilda berilgan.

Arizani qabul qilish soat 09 dan 40 daqiqa o'tganda boshlandi. L.X.Yunusova bila turib yolg'on xabar bergan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi JKning 237-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirildi.

L.X.Yunusova

Fuqaro L.X.Yunusova quyidagilarni ma'lum qildi:

«Men 1994-yil fevralidan buyon 1960-yilda tug'ilgan, o'rta ma'lumotli, hech qayerda ishlamaydigan G'affor Yo'ldoshevich Sattorov bilan birga uyimizda nikohsiz yashab kelayapman.

1994-yil 19-avgust kuni Sattorov tanishi Rustam Ibrohimovich Qo'ldoshev bilan mening uyimda spirtli ichimlik iste'mol qilib, o'zaro janjallashib qolishdi va birga ko'chaga chiqib ketishdi. Men ularni 1994-yil 18-sentyabrga qadar ko'rmadim. 18 sentyabr kuni soat 17 larda uyimga Sattorov kelib, spirtli ichimlik ichdi. Men nimaga 1 oy ko'rinmaganini so'raganimda, u menga 19-avgust kuni Qo'ldoshev bilan uydin chiqib ketishgach, Yunusobod tumanidagi 19-mavzeda qurilayotgan to'qqiz qavatli binoning yoniga borishganligini va uni shu yerda boshiga temir bilan urib o'ldirib, jasadini o'sha yerdagi chuqurga ko'mib tashlaganligini aytdi, so'ng menga, agar bu haqda biror kishiga aytsam, meni ham o'ldirishini

aytib qo'rqitdi. Keyin uxlab qoldi. Hozir uyimda yotibdi».

Arizani qabul qilish soat 09 dan 50 daqiqa o'tganda tamomlandi.

Bayonnomani o'qib chiqdim. Arizam to'g'ri yozildi, unga qo'shimcha va e'tirozim yo'q.

Arizachi

L. X. Yunusova

Arizani qabul qildim va bayonnomani tuzdim.

Tergovchi

adliya kichik maslahatchisi

K. A. Xursandov

Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida

QAROR

199__ yil «__» _____ shahri

(qaror chiqaruvchining mansabi, unvoni, familiyasi)

(qanday hodisa yoki holat, xabar)

bo'yicha to'plangan materiallar bilan tanishib

ANIQLADIM:

(aniqlangan hodisa yoki holatni qisqacha mazmuni, shu

holat yoki hodisani tasdiqlovchi ma'lumotlar, olingan

narsa yoki hujjatlar, rad qilish asoslari)

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi JPKning 83-moddasining «__» bandi, 330-moddasining 2- bandi, 333 va 334-moddalarini qo'llab

QAROR QILDIM:

1. _____

(qanday hodisa yoki holat bo'yicha qanday asoslar bo'lgani uchun)

jinoyat ishi qo'zg'atish rad qilinsin¹.

2. Fuqaro _____
(kimni qanday huquqbuzarlik)

to'g'risidagi materiallar _____
(qanday chora) ko'rish uchun _____
yuborilsin. (qayerga, kimga)

3. Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilinganligi va rad qilish asoslari
to'g'risida _____
(kimga, kimlarga)

ma'lum qilinib, (ularga) unga O'zbekiston Respublikasi JPKning
333-moddasiga asosan ushbu qaror ustidan _____ ga
(kimga)

shikoyat qilishga haqli ekanligi tushuntirilsin².

4. _____ olingan va _____
(qayerdan, kimdan) (qayerda)
saqlanayotgan _____
(qanday turdagi narsa yoki hujjat, ularga)

_____ nisbatan ko'riladigan choralar)

5. Qarorning nusxasi _____ prokuroriga yuborilsin.

_____ (mansabi, unvoni, familiyasi)

Ushbu qaror menga 199__ yil «__» _____ da e'lon
qilindi. Qaror ustidan _____ ga shikoyat qilishga haqli
ekanligim tushuntirildi.

¹ Tekshirish jarayonida jinoyat emas ma'muriy, intizomiy va boshqa huquqbuzarlik yohud axloqiy normalar buzilganligi aniqlansa, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jinoyat ishini rad qilish bilan bir paytda xabarni xuquqni buzgan shaxsga nisbatan ma'muriy, intizomiy javobgarlikka yoki jamoat ta'sir choralari qo'llash uchun u ishlaydigan yoki o'qiydigan joy ma'muriyatiga, uning turar joyidagi jamoaga, jamoa birlashmasiga yoki voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi inspeksiyaga, tegishli vakolatlarga ega bo'lgan davlat organi yoki mansabdor shaxsga yuboradi.

² Fuqarolarning siyosiy, mehnat, uy-joy, oilaviy yoki boshqa huquqlari buzilganligi shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoa birlashmalarining fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida qo'riqlanadigan huquq manfaatlari buzilganligi aniqlansa, ishni qo'zg'atishni rad etish bilan bir vaqtda manfaatdor shaxslarni sudga murojaat qilish huquqi tushuntirilishi shart.

(imzo)

(familiya)

(O'zbekiston Respublikasi JPKning 334-moddasi.)

**Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida
QAROR**

1995-yil 9-sentabr

Toshkent shahri

Yunusobod tuman prokuraturasining tergovchisi 1-darajali yurist
R. K. Soliyev, yo'l transport hodisasi bo'yicha to'plangan materiallar
bilan tanishib

ANIQLADIM:

1995-yil 10-aprel kuni soat 1⁰⁰larda Yunusobod tuman IIB
uchastka noziri, militsiya katta leytenanti Olim Ikromov o'zining
VAZ — 21011 rusumli A21—11 TN davlat belgili avtomashinasini
Yunusobod ko'chasi bo'ylab boshqarib borayotganda Shahrison
ko'chasi bilan kesishgan svetofo bilan tartibga solingan chorrahada
svetoforming harakatni taqiqlovchi qizil chirog'i yonib turgan va
to'xtash chizig'i bo'lsa-da, yo'lidagi svetofo yoritgichi ishorasiga
amal qilmasdan «Yo'llarda harakatlanish qoidalarini»ning 15.5 bandi
qoidasini buzib harakatni davom ettirgan. Natijada, Shahrison
ko'chasidan Yunusobod ko'chasini kesib o'tish uchun o'z yo'lagida
svetofojni harakatlanishga ruxsat etuvchi yashil chirog'ida
harakatlanayotgan Murod Qosimov boshqaruvidagi VAZ—21063
rusumli N 50—48 TN davlat belgili avtomashinaning o'ng
tomonidagi oldingi eshigiga avtomashinasining chap qanoti bilan
urib, to'qnashgan.

Hodisa joyi ko'zdan kechirilganda, chorraha svetofo bilan tartibga
solingan to'rt tomonli chorraha, yo'ldagi svetofo lar oldida to'xtash
chiziqlari mavjudligi, chorrahani har ikkala transport vositalari
harakatlangan yo'llarda va to'qnashgan joyida tormoz izlari bo'lmaganligi,
(to'qnashuv) urilishi nuqtasi yo'lining o'ng yo'lagida ekanligi aniqlanib,
shu joydan avtomashina yoritgichining yo'ldagi va Ikromov
avtomashinasining chap yoritgichidan shisha siniqlari olingan.

Haydovchi O.Ikromov chorrahaga yo'ldagi yashil chiroq
yonganda harakatni boshlab kirganligi, Qosimovni avtomashinasi

esa qizil chiroqda kirganligi uchun avtomashinalar to'qnashganligini o'z tushuntirishida ko'rsatgan. Haydovchi M. Qosimov sodir bo'lgan hodisa bo'yicha o'z avtomashinasida yo'lovchilar: O'lmas Xoliqov, Shukur Abdullayev bilan Shahrison ko'chasi bo'ylab yo'lidagi yashil chiroq yonganda, o'ng harakat yo'lagida, chorrahaning o'rtasiga yetganda o'ng tomonidan VAZ — 21011 avtomashinasi kelib, o'ng tomonidagi eshigiga urilganligini bayon qilgan.

Qosimovni avtomashinasidagi yo'lovchilardan U. Xoliqov, Qosimov chorrahaga yo'lidagi yashil chiroq yonganda kirganligi, chorraha o'rtasida o'zi o'tirgan oldingi o'rindiqqa qirish eshigiga A 21—11 TN davlat belgili avtomashina kelib urganligi, boshini eshik oynasiga urib olganligini, Sh. Abdullayev o'zlari ketayotgan avtomashina yo'lidagi svetoforni yashil chiroq'ida chorrahaga kirganligini o'zi va chorraha o'rtasida bir VAZ — 21011 avtomashinasi ularni avtomashinasini o'ng tomondagi oldingi eshigiga urilganligini ko'rsatganlar.

Hodisani ko'rgan shohidlar D. Xolov va X. Rasulovlar Yunusobod ko'chasidan kelayotgan VAZ — 21011 avtomashinasi yo'lidagi qizil chiroq yonib turganda chorrahaga kirib avtomashinaga to'qnashganligini, shu to'qnashgan paytda soat 15 dan 03 daqiqa o'tganligini ko'rsatishgan.

Chorrahadagi svetoforni ish tartibi haqidagi ma'lumotnomaga ko'ra, hodisa sodir bo'lgan vaqtda svetofor ishlab turganligi soat 15 dan 03 daqiqa o'tganda Shahrison ko'chasidagi transport vositalari harakatlanishiga ruhsat beruvchi yashil chiroq ta'sir doirasi, Yunusobod ko'chasidagi svetofor esa harakatlanishni to'xtatuvchi qizil chiroq ta'sir doirasida bo'lganligi ko'rsatilgan.

Sud-tibbiyot ekspertizasining xulosasida, oldingi o'rindiqda o'tirgan U. Xoliqovning boshida urilgan, yengil darajadagi tan jarohati bo'lib, jarohatni olish vaqti hodisa sodir bo'lgan vaqtga to'g'ri kelishi ko'rsatilgan.

Guvohlantirilgan M. Qosimov, Sh. Abdullayev va O. Ikromovlarni badanlarida jarohat izlari topilmagan.

Yo'l transport hodisasi natijasida Qosimovning VAZ—21063 avtomashinasiga 5.300 so'mlik va Ikromovning VAZ—21011 avtomashinasiga 3.200 so'mlik moddiy zarar yetkazilgan.

Toshkent shahar IIBB tomonidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvda militsiya katta leytenanti O. Ikromov tartibga solingan chorra-

hada harakatlanish qoidasini «Yo'llarda harakatlanish qoidalari»ning 15.5 bandi qoidalarini buzganligi aniqlangan».

Haydovchi O. Ikromovning yo'lidagi yashil chiroqda harakatlanganligi haqidagi vaji o'z isbotini topmadi.

Shunday qilib, O. Ikromov o'z qilmishi bilan transport vositasida tartibga solingan chorrahada harakatlanish — «Yo'llarda harakatlanish qoidalari»ning 15.5 bandidagi qoidani buzib, Qosimovning avtomashinasiga ancha miqdorda zarar yetkazgan. Ikromov sodir etgan bu qilmishi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik kodeksining 133 -moddasida ko'zda tutilgan bo'lib, uning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmaydi.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi JPKning 83-moddasining 2-bandiga nazarda tutilgan holatlar aniqlanganligini nazarda tutib va O'zbekiston Respublikasi JPKning 330-moddasining 2-band va 333—334-moddalarini qo'llab

QAROR QILDIM:

1. Ushbu yo'l transport hodisasi bo'yicha Olim Ikromovni qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmaganligi uchun jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilinsin.

2. Fuqaro Olim Ikromovni ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi materiallar ma'muriy chora ko'rish uchun Yunusobod tuman sudiga yuborilsin.

3. Hodisa joyidan va VAZ — 21011 rusumli A21—11 TN davlat belgili avtomashinasining yoritqichidan olingan, prokuraturada saqlanayotgan shisha siniqlari ushbu material bilan qo'shib saqlansin.

4. O'zbekiston Respublikasi JPKning 333 va 334 moddalariga asosan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilinganligi va rad qilish asoslari to'g'risida M. Qosimovga ma'lum qilinib, unga qaror ustidan Yunusobod tumani prokuroriga shikoyat qilishga, yetkazilgan zarar-ni undirish uchun Yunusobod tuman sudida da'vo qo'zg'atishga haqli ekanligi tushuntirilsin.

5. Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilingani, rad qilish asoslari to'g'risida U. Xoliqov va O. Ikromovlarga ma'lum qilinib, ularga qaror ustidan Yunusobod tuman prokuroriga shikoyat qilishga haqli ekanliklari tushuntirilsin.

6. Qarorning nusxasi Yunusobod tuman prokuroriga yuborilsin.

Tergovchi
1-darajali yurist

R. K. Soliyev

Ushbu qaror, menga 1995-yil 9-sentyabrda e'lon qilindi. Qaror ustidan Yunusobod tuman prokuroriga shikoyat qilishga haqli ekanligimni tushuntirildi.

O. Ikromov
(imzosi)

Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida

QAROR

200__ «__» _____ shahri

(qaror chiqaruvchining mansabi, unvoni, familiyasi)

(qanday holat, hodisa yoki xabar)
yuzasidan to'plangan materiallar bilan tanishib,

ANIQLADIM:

(aniqlangan hodisa yoki holatning qisqacha mazmuni)

shu holat yoki hodisani tasdiqlovchi ma'lumotlar

olingan narsa yoki hujjatlar, rad qilish asoslari)

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi JPKning 84-moddasi 1-qismining «__» bandida nazarda tutilgan holatlar aniqlanganligini nazarda tutib va O'zbekiston Respublikasi JPKning 330-moddasining 2-bandi va 333-moddalarini qo'llab

QAROR QILDIM:

1. _____

(qanday hodisa, holat yoki xabar bo'yicha,

qanday asoslar bo'lgani uchun)

jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilinsin.

2. _____ olingan va _____ saqlanayotgan
(qayerdan) (qayerda)

Toshkent shahar Yunusobod tuman
Ozodlik ko'chasi, 68— uyda
yashovchi Ahmad Tolmasovga

**Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilinganligi, shikoyat qilish
huquqi va tartibi to'g'risida
XABARNOMA**

Fuqaro Nazira Xalilovaning Sizga nisbatan arizasi bo'yicha tekshiruv tamomlandi.

Mazkur hodisa bo'yicha Siz sodir etgan qilmishda O'zbekiston Respublikasi JKning (1959-yildagi) 94-moddasi 3-qismidagi o'ldirish bilan qo'rqitib, jismoniy kuch ishlatib nomusga tegish jinoyatining belgilari bo'lsada, ushbu jinoyat uchun ja-vobgarlikka tortish muddati o'tganligi va aynan shu ayblov bo'yicha ishni tugatilganligi uchun, 1995-yil 20-aprelda O'zbekiston Respublikasi JPKning 84-moddasi 1-qismining 1 va 5-bandlarida nazarda tutilgan holatlar aniqlangani sababli, Sizni ayblilik masalangiz hal qilinmasdan jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilindi.

Sizga, O'zbekiston Respublikasi JPKning 333-moddasiga asosan qarordan norozi bo'lsangiz, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilinganligi to'g'risidagi qaror ustidan ushbu xabarnomani olgan kundan boshlab Yunusobod tuman prokuroriga shikoyat qilishga haqli ekanligingizni ma'lum qilaman.

**Yunusobod tuman prokuraturasining
katta tergovchisi
1-darajali yurist**

R. K. Soliyev

*1995-yil 20-aprel
chiqish № 2140-70*

**Jinoyat ishini ish yurituviga olish haqida
QAROR**

200 ____ yil ____ shahri

(qaror chiqaruvchining mansabi, unvoni, f. i. sh.)

sonli jinoyat ishi materiallari bilan tanishib,

ANIQLADIM

(jinoyat ishi qachon, kim tomonidan qo'zg'atilgan)

Yuqoridagilarga ko'ra va O'zbekiston Respublikasi JPKning 350-
moddasini qo'llab,

QAROR QILDIM:

1. _____
sonli jinoyat ishini o'z yurituvimga olib, dastlabki tergovga
kirishilsin.

2. Qaror nusxasi _____ prokuroriga yuborilsin.

(mansabi)

(unvoni)

(imzo)

(f. i. sh.)

Jinoyat ishini ish yurituviga olish haqida

QAROR

1995-yil 7-noyabr

Toshkent shahri

Yunusobod tuman prokuraturasining tergovchisi, 1- darajali
yurist R. Soliyev, 1511-sonli jinoyat ishi materiallari bilan tanishib,

ANIQLADIM:

06.11.1995-yil soat 20 da Yunusobod tumanidagi Ozodlik
ko'chasining boshlanishidagi axlat tashlash joyidan noma'lum erkak

kishining jasadini qotillik belgilari bilan topilib, bu hodisa yuzasidan tuman prokurori tomonidan O'zbekiston Respublikasi JKning 97-moddasi 1-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergovni yuritish unga topshirilgan.

Bayon qilinganlarga ko'ra va O'zbekiston Respublikasi JPKning 350-moddasini qo'llab,

QAROR QILDIM:

1. 1511-sonli jinoyat ishini o'z yurituvimga olib, dastlabki tergovga kirishilsin.

2. Qaror nusxasi tuman prokuroriga yuborilsin.

Tergovchi

1-darajali yurist

R. Soliyev

Sud jarayoni bilan bo'g'liq hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi nomidan

H U K M

Toshkent shahar Shayxontohur tuman sudi 2000-yil 5 — fevral oyining 14 kuni o'z binosida ochiq sud majlisida

Raislik etuvchi sudya N.M.Mirzaolimov

M.Latipovaning kotibligida

O'zRJK ning 188-moddaning 1-qismi bilan ayblangan Abdumalikov Sharifjan Qahhorovich, 1976-yil 24.09.da Toshkent tumanida tug'ilgan, millati o'zbek, UR fuqarosi, partiyasiz, ma'lumoti o'rta, oilalik, xarbiy xizmatga majbur, muqaddam sudlanmagan, vaqtincha ishlamaydi. Toshkent viloyati Toshkent tumani M.Fozilov jamoa xo'jaligi Shifokor ko'chasi 9-uyda istiqomat qiladi, ish bo'yicha munosib xulq— atvorda bo'lish haqidagi tilxat orqali ochiqda, 1—166/2000 sonli jinoyat ishini ko'rib chiqib, sud

A N I Q L A D I:

Sudlanuvchi Sh. Abdumalikov 1999-yil 18-iyun kuni Shayxontohur tuman sudi tomonidan O'zR MJTKning 176-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan talablarni buzganligi uchun O'zR MJTKning 33-moddasi qo'llanib 3960 so'm miqdorida jarima tayinlangan bo'lishiga qaramasdan, takroran somsa tayyorlab sotish

savdo faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanib kelgan va 1999-yil 27-noyabr kuni soat taxminan 14.30 lardan Toshkent shahar Shayxontohur tumani hududida joylashgan «Eski Juva» bozorida foyda olish maqsadida fuqaro U. Ikromovga har bir donasi 75 so'mdan bo'lgan, ikki dona somsani 150 so'm pulga sotgan vaqtida Shayxontohur tumani DSI xodimlari tomonidan ushlangan. Tekshirish natijasida sudlanuvchi Sh. Abdumalikov belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishdan bo'yin tovlab qonunga xilof ravishda savdo faoliyatini amalga oshirganligi aniqlangan.

Sud majlisida so'roq qilingan sudlanuvchi Sh. Abdumalikov o'z aybiga iqror bo'lib, haqiqatan ham 1999-yil 27-noyabr kuni, soat taxminan 13.30 larda Shayxontohur tumani hududida joylashgan «Eski Juva» bozorida somsa sotish uchun kelganligini, u ushbu kuni yuz dona somsani o'zi tayyorlaganligini, har bir donasini 75 so'mdan sotishi, soat taxminan 14-15 larda bir yigit kelib, ikki dona somsa necha so'm bo'lganligi so'raganligini, ikki dona somsa olishini ma'lum qilgach, unga ikki dona somsa berib, undan 150 so'm pul sanab olganligini, ikkalasi o'rtasidagi hisob-kitob to'liq bajarilib bo'lgach, oldiga Shayxontohur tumani DSI xodimlari kelib, o'zlariga tegishli bo'lgan hujjatlarini ko'rsatib, nazorat tartibida tekshiruv e'lon qilganini, kerak bo'lgan hujjatlarni so'rashganida hujjatlarni to'g'irlashga ulgurmaganligi sa-babli hech qanday hujjat ko'rsata olmaganligini, tekshiruv jarayonida savdoga jami bo'lib, yuz dona somsa chiqarganligini, shulardan 53 donasi qolganligini, 47 donasini 3400 so'mga sotganligini va 1999-yil 13-iyun kuni xuddi shunday faoliyat bilan hujjatsiz savdo qilganligi uchun Shayxontohur tuman sudi tomonidan ma'muriy javobgarlikka tortilganligini aniqlashgani, qilmishidan o'ta pushaymondaligini ta'kidladi.

Sud majlisida so'roq qilingan guvoh A. Sattarov haqiqatan ham Toshkent shahar Shayxontohur tumani DSI da ishlashini, 1999-yil 27-noyabr kuni DSI ning 200-sonli buyrug'iga asosan, «Eski Juva» bozorida tekshiruv o'tkazganliklarini, bozorning non rastalari qatorida somsa sotayotgan fuqaro Sh. Abdumalikov xaridorga 150 so'mga 2 dona tandir somsa sotganligi aniqlanib, undan tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun hujjatlarini so'rashganida hech qanday hujjat ko'rsata olmaganligini, shundan so'ng savdodan qolgan 53 dona somsa vaqtincha olib qo'yilganligini savdodan tushgan pullarni

ham hujjatlashtirib olishganliklarini va Abdumalikovning ish faoliyati tekshirilganida, Abdumalikov ilgari ushbu faoliyat bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanganligi uchun hech ma'muriy javobgarlikka tortilmaganligi ma'lum bo'lganligi, shundan so'ng tegishli hujjatlar tuzganliklarini to'g'risida ko'rsatma berdi.

Sud yuqorida keltirgan dalillardan tashqari sudlanuvchi Sh. Abdumalikovning aybi ish materiallari bilan ham to'liq tasdiqlanganligi, jumladan, nazorat tartibdagi tekshiruv dalolatnomasi (11/v-4), o'zaro hisob-kitob bayonnomasi (11/v-5) va boshqa hujjatlar bilan tasdiqlanganligini ta'kidladi.

Yuqoridagilarga asosan sud, sudlanuvchi Sh. Abdumalikovning qil-mishini tergov organi tomonidan O'zR JK ning 188-moddasi 1-qismi bilan to'g'ri tavsiflangan deb hisoblaydi. Sud, sudlanuvchi Sh. Abdumalikovga jazo turi va miqdorini tayinlashda, uni qilmishidan o'ta pushaymondaligini, muqaddam sudlanmaganligini, turar joyidan ijobiy tavsiflanishini, shu bilan bir qatorda ijtimoiy-foydali mehnat bilan shug'ullanmasligini, ishdagi boshqa konkret holatlarni inobatga olgan holda unga nisbatan savdo va tashkiliy boshqaruv, yohud ma'muriy xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etib, jarima jazosini tayinlashni lozim topadi.

Yuqoridagilarga asosan va O'zR JPK ning 454-455, 457-458, 462-463, 465-468, 471-moddalari qo'llanilib, sud hukm qiladi.

H U K M

Sudlanuvchi Abdumalikov Sharifjon Qahhorovich O'zR JKning 188-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan jinoyatni sodir etganlikda aybli deb topilsin va shu qonunga asosan 2 (ikki) yil muddatga savdo va tashkiliy boshqaruv, yohud ma'muriy xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etilib eng kam oylik ish xaqining 40 baravarida, 70000 (yetmish ming) so'm jarima tayinlansin.

Ehtiyot chorasi hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar aslicha qoldirilsin.

Ish bo'yicha daliliy ashyolar 53 (ellik uch) dona somsa va 3400 (uch ming to'rt yuz) so'm pulni, hukm qonuniy kuchga kirganligidan so'ng davlat foydasiga o'tkazilsin.

Hukmdan norozi tomon 10 kun muddat ichida ushbu sud orqali Toshkent shahar sudiga shikoyat va protest keltirishi mumkin.

IZOH: Hukm raislik etuvchi tomonidan alohida xonada «Variyes» markali kompyuterda yozildi.

Toshkent shahar Shayxontohur

tuman sudyasi:

(imzo)

N.M.Mirzaolimov

A J R I M

1998-yil dekabr oyining 07-kunida men Namangan shahar sudining raisi E.U. Burxanov ushbu kuni Namangan shahar prokurorining yordamchisi A. Yuldashevning ishtirokida O'zR JKning 109-moddasi 2-qismi bilan sudlangan Boyturova Odina Otaxonovnaning ish materiallari bilan tanishib chiqib quyidagilarni

A N I Q L A D I M:

Boyturayeva Odina Otaxonovna Namangan shahar sudining 1998-yil 27-noyabrdagi hukmiga asosan, O'zR JKning 109-moddasi 2-qismiga ko'ra aybli deb topilib, ikki yil muddatga axloq tuzatish ishi jazosiga tortilib, unga nisbatan O'zR JKning 72-moddasi qo'llanilib ikki yil sinov muddati belgilangan.

Hukm yuzasidan kassatsiya protesti, kassatsiya shikoyati kiritilmagan. Sudlanuvchi Boyto'rayevaga hukm nusxasi 1998-yil 23-noyabrda berilib, kassatsiya shikoyati keltirilmaganligi sababli hukm 1998-yil 3-dekabrda qonuniy kuchga kirgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 1-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining olti yilligi munosabati bilan Amnistiya to'g'risida"gi Farmonining 2-moddasida uch yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar jazodan ozod qilinishi ko'zda tutilgan.

Ushbu Farmonni qo'llash tartibi haqidagi 1998-yil 3-dekabrdagi nizomning 1-moddasi "V" bandiga ko'ra, sudlar tomonidan ularning ish yurituvdagi barcha instansiyasidagi materiallar va ishlari bo'lgan shaxslarga nisbatan farmonni ijro etish ko'rsatilgan.

Shu holda sudlangan O.Boyturayevani jinoyat ishi bo'yicha hukm ijroga qaratish bosqichida bo'lib, sud unga nisbatan "Amnistiya to'g'risida"gi Farmonning 2-moddasi qo'llab hukmda belgilangan jazoni o'tashdan ozod etishni lozim topadi.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zR JPKning 423-moddasi, O'zR JKning 76-moddasini qo'llab sud ajrim qiladi

A J R I M

Namangan shahar sudining 1998-yil 17-noyabr hukmi bilan O'z.Res-publikasi JKning 109-moddasi 2-qismi bilan sudlangan Boyto'rayeva Odina Otaxonovnaga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 1-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining olti yilligi munosabati bilan Amnistiya to'g'risida"gi farmoni tadbiriq etilib, shu farmonning 2-moddasiga asosan hukmda belgilangan jazodan ozod qilinsin.

Ajrimdan norozi tomonlar uch kun ichida shu sud orqali Namangan viloyat sudiga xususiy protest va shikoyat keltirishga haqlidirlar.

Namangan shahar sudining

Raisi:

E.U. Burxanov

O'zbekiston Respublikasi nomidan

HAL QILUV QARORI

2000-yil 5-avgust oyining 5 kuni Namangan shahar sudi o'z binosida ochiq sud majlisi o'tkazib, raislik etuvchi Namangan shahar sudining sudyasi R.M.Asrayev, A.Tohirovning kotibligida, tomonlardan Kosonsoy tuman prokurori R.Mataliyevning ishtirokida, Kosonsoy tuman prokurorining da'vosi bo'yicha Kosonsoy tuman "Dehqon bozori" hissadorlik jamiyati manfaati uchun javobgar Valiyev Abdunosirdan 7200 so'm undirish haqidagi 2-898-sonli fuqarolik ishini ko'rib chiqdi.

Kosonsoy tuman prokurorining sudga keltirgan da'vo arizasi va suddagi bayonotida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bozorlarning faoliyatini tashkil etish va aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonini va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bozorlarning faoliyati va ularni boshqarishni tartibga solish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorining bajarilishi yuzasidan tekshirish o'tkazilganda bosh hisobchisi A.Valiyevning aybi bilan jamiyatga 15850 so'm zarar yetkazgan, javobgar A.Valiyevning o'rtacha oylik ish haqi 7200 so'mni tashkil qilishi, shuning uchun Kosonsoy tuman "Dehqon bozori" hissadorlik jamiyati foydasiga A.Valiyevdan 7200 so'm undirishni so'raydi.

Javobgar Valiyev Abdunosir sud majlisida da'voga iqrar bo'lib, haqiqatan uning aybi bilan Kosonsoy tuman "Dehqon bozori" hissadorlik jamiyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bozorlarning faoliyatini va ularni boshqarishni tartibga solish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorning bajarilishi yuzasidan tekshirish o'tkazilganida 15850 so'm zarar yetkazganligi, keltirilgan zararni o'rtacha oylik ish haqi hisobidan to'lab, zararni qoplashga rozi ekanligini bildirib, bayonot beradi.

Sud ish bo'yicha taraflarning bayonotlarini tinglab, ishdagi hujjatlarni o'rganib chiqib, da'voni qanoatlantirishni lozim topdi. Chunki Kosonsoy tuman "Dehqon bozori" hissadorlik jamiyati javobgarning aybi bilan 15860 so'm zarar ko'rgan, javobgar ham keltirilgan zararni uning aybi bilan bo'lganligini inkor etmasligi, zararni qoplashga rozi ekanligini bildirdi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 201-moddasi 1-qismida xodim yetkazilgan zarar uchun o'rtacha oylik ish haqi miqdorida moddiy javobgar bo'ladi deb ko'rsatilgan.

Shunday holda sud javobgarni ma'lumotnomada ko'rsatilgan o'rtacha oylik ish haqi bo'yicha moddiy javobgar deb hisoblab, uni javobgardan Kosonsoy tuman "Dehqon bozori" hissadorlik jamiyati foydasiga undirib berishni lozim topdi.

Binobarin, Sud O'zR FPKning 203-206 Fkning 13, 985 Mehnat Kodeksi 14.10.198-201-moddalarni qo'llab

Q A R O R Q I L A D I:

Da'vogar Kosonsoy tuman prokurorning da'vosi qanoatlantirilsin.

Javobgar Valiyev Abdunosirdan 7200 so'm Kosonsoy tuman "Dehqon bozori" hissadorlik jamiyati foydasiga undirilsin.

Javobgar Valiyev Abdunosirdan davlat foydasiga 260 so'm davlat boji undirilsin.

Qarordan norozi tomonlar e'lon qilingan vaqtdan boshlab 20 kun muddat ichida shu sud orqali Namangan viloyat sudining FSXga kassatsiya tartibda shikoyat va protest keltirishga haqlidirlar.

"Nusxasi asliga to'g'ri"

Namangan shahar sudining

Sudyasi:

R.M. Asrayev

3. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni — xalq, millatni — millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jurnali, 1998-yil, 2-son.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.: O'zbekiston, 1994.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.
4. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasidagi ma'ruza. 2002-yil 29— avgust. T.: O'zbekiston, 2002.
5. Barkamol avlod orzusi (Tuzuvchilar: SH.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov). T., «Sharq», 1999.
6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 2003.

1. Alisher Navoiy. Mahbubul-qulub. Asarlar, XIII tom. T.: 1967.
2. Alisher Navoiy. Majolisun-nafois. Asarlar, XII tom. T.: 1966.
3. Alisher Navoiy. Mahbubul-qulub. Inoyat Maxsumov nasriy bayoniy. T.: 1983.
4. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. T.: 1981.
5. Алексеев Н.С., Макарова З.Б. Ораторское искусство в суде. Л.: Изд-во ЛГУ, 1989.
6. Ароцкер Л.Е. Тактика и этика судебного допроса. М.: Юридическая литература, 1989.
7. Axmedov A.A. Notiqlik san'ati. T.: 1967.
8. Baxtiyor Omon. Siyosiy yetakchining notiqlik mahorati. T.: O'zbekiston, 2000.
9. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. O'zbekiston, T.: 1980.
10. Begmatov E. va boshq. Nutq madaniyati va adabiy norma. T.: O'zbekiston, 1987.
11. Begmatov E. va boshq. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. T.: Fan, 1988.
12. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. T.: 1999.

13. Воинова М.Г. Культура речи юриста. Т.: 2003.
14. Davlat tili: muammolar va yechimlar. T.: 1999.
15. Jalilov X. Notiqlik san'ati. T.: O'zbekiston, 1976.
16. Jumaniyozov R., Salimov D. G'oyaviy tarbiyada notiqlik san'ati. T.: 2002.
17. Загорский Г.И. Судебная речь. М.: Юридическая литература, 1985.
18. Ibrohimov D. Nutq madaniyati va adabiy talaffuz haqida. T.: Fan, 1972.
19. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi. T.: O'zbekiston, 1996.
20. Ibrohimov A. Bizkim o'zbeklar. T.: 1999.
21. Ивакина Н.Н. Основы судебного красноречия (риторика для юристов). Ученое пособие. М.: Юрист, 2000.
21. Inomxo'jayev D. Notiqlik san'ati asoslari. T.: O'qituvchi, 1972.
23. Ko'chimov SH.N. O'zbekiston Respublikasida qonunchilik texnikasi (til, uslub, huquqiy atamashunoslik). T.: 1996.
24. Ликас А.Л. Культура правосудия. М.: Юридическая литература, 1990.
25. Mahmudov N. Til. T.: Yozuvchi, 1998.
26. Mirtojiyev M. Mahmudov N. Til va madaniyat. T.: O'zbekiston, 1992.
27. Nazarov K., Usmonov D. Yuristning nutq madaniyati. Dastur. T.: 2002.
28. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. T.: 1993.
29. Nusratullo Atoulllo o'g'li Jumaxo'ja. Istiqlol va ona tilimiz. T.: Sharq, 1998.
30. Nutq madaniyatiga oid masalalar. T.: Fan, 1973.
31. Ortiqov A. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. T.: 2004.
32. Rustamboyev M.H., Tohirov F., Erkaxodjayev A.K. Jinoyat huquqi. (Mahsus qism). T.: 2000.
33. Rustamov A. So'z xususida so'z. T.: Yozuvchi, 1987.
34. Saidov A., Sarkisians G. Yuridik til va huquqshunos nutqi. T.: 1994.
35. Saidov A.X., Ko'chimov SH.N. Qonunchilik texnikasi asoslari. T.: Inson huquqlari O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2001.

36. Tojiyev Y. va boshq. O'zbek nutqi madaniyati va uslubi asoslari. T.: 1994.
37. Три трактата об ораторском искусстве. М.: 1972.
38. Umurqulov B. So'z tanlash san'ati. T.: Fan, 1985.
39. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. T.: O'qituvchi, 1983.
40. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. T.: Yulduzcha, 1990.
41. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. T. Adolat, 1998.
42. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. T.: Sharq, 2001.
43. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. T.: O'qituvchi, 1982.
44. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. T.: O'qituvchi, 1992.
45. Qonun va til. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997.
46. Qo'ng'urov R., Karimov D., Qurbonov C. Nutq madaniyati asoslari. Samarqand, 1985.
47. Hakimova O. Mantiq va nutq madaniyati. T.: 2004.
48. Hamidov 3. So'z san'ati va san'atkor mahorati. T.: 1991.
49. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T.: 1994.

MUNDARIJA

Kirish	3
1-bob. Nutq madaniyati va huquq	
1-§. "Yuristning nutq madaniyati" fanining maqsad va vazifalari	7
2-§. Nutq madaniyati tushunchasi	9
3-§. Huquq va til	13
4-§. Til va nutq	15
5-§. Yuridik til va uning o'ziga xos xususiyatlari	17
6-§. Og'zaki va yozma yuridik nutq	22
2-bob. Yuridik terminlar tizimining o'ziga xos xususiyatlari	
1-§. Yuridik terminlar oldiga qo'yiladigan talablar	28
2-§. Yuridik terminlar — qonun tili leksikasi	31
3-§. Yuridik terminlar tizimining ichki imkoniyatlar hisobiga boyishi	32
4-§. Yuridik terminlarning morfologik usul bilan yasalishi	33
5-§. Yuridik terminlarning sintaktik usul bilan yasalishi	34
3-bob. Nutq madaniyati va adabiy til me'yorlari	
1-§. Nutqning kommunikativ tavsifi	37
2-§. Adabiy til me'yorlari — nutq madaniyati mezonlari	45
3-§. So'z va termin qo'llash (leksik) me'yorlari	46
4-§. Yurist faoliyati va adabiy tilning talaffuz me'yorlari	49
5-§. Imloviy (orfografik) me'yorlar	52
6-§. Yuridik til va grammatik me'yor	56
4-bob. Adabiy tilning funksional uslublari va yuristning nutq madaniyati	
1-§. Rasmiy uslub va uning yurist faoliyatidagi o'rni	61
2-§. So'zlashuv uslubi	65
3-§. Publitsistik uslub	67
4-§. Ilmiy uslub	68
5-bob. Nutq madaniyati va tilning tasviriyl vositalari	
1-§. Tasviriyl ifodalar — nutq bezagi	70
2-§. Maqol va iboralar — nutq ko'rki	72
3-§. So'z ma'nolarining ko'chishi — nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi vosita sifatida	74
4-§. Sinonimlarining nutqda qo'llanilishi	77
5-§. Nutqiy ravonlikni buzuvchi ba'zi omillar	79
6-§. Tinish belgilarining uslubiy vazifasi	81
7-§. Kirish so'z va kirish birikmalarning uslubiy xususiyatlari	83
8-§. Evfemizmlar va ularning uslubiy roli	83

6-bob. Notiqlik san'ati tarixi	
1-§. Yunon notiqligi	85
2-§. Attika davri yoki Afina notiqligi	87
3-§. Yunonistonda sud notiqligi. Sinegorlar	90
4-§. Logograflar	91
5-§. Rim notiqligi	99
6-§. Sharq notiqligi	105
 7-bob. Sud jarayoni va notiqlik san'ati	
1-§. Prokurorning ayblovi nutqi	124
2-§. Advokatning himoya nutqi	127
3-§. Sud muhokamasi va nutq odobi	132
4-§. Sud munozarasi va uning o'ziga xosliklari	144
5-§. Sud notiqligi. Yuristning nutq odobi	152
6-§. Tergov jarayonida so'roq qilishning nutqiy strategiyasi va taktikasi	155
7-§. Yuridik protsessual hujjatlarining o'ziga xos jihatlari	159
"Yuristning nutq madaniyati" fanidan testlar	171
Ilovalar	
1. Amaliy va seminar mashg'ulotlari ro'yxati	189
2. Til — davlat himoyasida	192
3. Foydalanilgan adabiyotlar	219

81.2

U73

Usmonov, Sobir.

Yuristning nutq madaniyati: Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun dars. S.Usmonov; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent davlat yur. instituti. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 22

SOBIR BAHRIDDINOVICH USMONOV

YURISTNING NUTQ MADANIYATI

Darslik

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti

100083, Toshkent, Buyuk Turon ko'chasi, 41.

Tel: 136-55-79; faks: 139-88-61

Muharrir: *S. Usmonov*

Musahhih: *H. Zokirova*

Kompyuterda sahifalovchi: *N. Mamanov*

Bosishga ruxsat etildi 25.07.2007-y. Bichimi 60 x 90 ¹/₁₆. Ofset qog'ozi. Shart bosma tabog'i 14,5. Nashriyot-hisob tabog'i 14,0. Adadi 500 nusxa.

Buyurtma № 13.

«AVTO-NASHR» SHK bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.

SOBIR USMONOV

Sobir Usmonov — Toshkent davlat yuridik institutining dotsenti. U 1957-yilda Samarqand viloyatining Kattaqoʻrgʻon tumani “Moybuloq” dahasida tavallud topgan. Universitet tahsilidan soʻng Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining aspiranturasini (1988), Toshkent davlat universiteti (hozirgi OʻzMU)ning doktoranturasini (1999) tamomlagan.

S.Usmonov qator yillardan buyon qonun tili, yuridik til, yuridik terminologiya, yuristning nutq madaniyati masalalari bilan shugʻullanib keladi. U 100 ga yaqin ilmiy, ilmiy-uslubiy maqolalar hamda 3 ta oʻquv dasturi, 4 ta oʻquv qoʻllanma va ikkita darslik muallifidir. Hozirda “Davlat qurilishi va boshqaruvi terminologiyasining lingvo-yuridik tadqiqi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini yakunlash arafasida.

**O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI
MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI**

ISBN 978-9943-319-19-6



9 789943 319196